

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS  
TA'LIM VAZIRLIGI**  
**BUXORO DAVLAT UNIVERSITETI**

**TUROBOVA HULKAR RUSTAMOVNA**

**AGROBIZNESNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH**

**I-QISM**

**O'QUV QO'LLANMA**



**Buxoro-2021**

**Turobova H.R. Agrobiznesni tashkil etish va boshqarish. I QISM. O'quv qo'llanma. Buxoro Davlat universiteti, Buxoro, 2021, 190 bet.**

Ushbu o'quv qo'llanma "Agrobiznesni tashkil etish va boshqarish" fanining namunaviy dastur asosida tayyorlangan. O'quv qo'llanmada qishloq xo'jaligi tarmog'ida biznesni tashkil etish yo'nalishlari, uni tashkiliy-iqtisodiy va huquqiy asoslari, agrobiznesni rivojlantirishda klasterlarni o'rni va ahamiyati, kooperatsiya munosabatlarini takomillashtirish yo'nalishlari va agrobiznesni boshqarish, mamlakati-mizda agrar islohotlarni amalga oshirish chora-tadbirlari va bu boradagi ustuvor yo'nalishlar xususida ma'lumotlar keltirilgan.

O'quv qo'llanma talabalar,o'qituvchilar, mustaqil izlanuvchilar, tadbirkorlar foydalanishlari mumkin.

Учебник основан на стандартной программе предмета «Организация и управление агробизнесом». Учебник охватывает направления организации бизнеса в аграрном секторе, его организационные, экономические и правовые основы, роль и значение кластеров в развитии агробизнеса, направления совершенствования кооперации и управления агробизнесом, аграрную реформу в стране. Информация о реализации меры и приоритеты в этом отношении.

Учебник может быть использован студентами, преподавателями, независимыми исследователями, предпринимателями.

This textbook is based on the standard program of the subject "Organization and management of agribusiness". The textbook covers the directions of business organization in the agricultural sector, its organizational, economic and legal framework, the role and importance of clusters in the development of agribusiness, areas for improving cooperation and agribusiness management, agrarian reform in the country. information on implementation measures and priorities in this regard.

The textbook can be used by students, teachers, independent researchers, entrepreneurs.

**Taqrizchilar:**

Murtazayev O. – TDIU Samarqand filiali direktori.

i.f.d.professor.

Navro'zzoda B.N. –BuxDU «Servis sohasi

iqtisodiyoti” kafedrasi professori, i.f.d.

## KIRISH

Ma'lumki, ta'lim tizimi mamlakatimiz kelajagini, avlodlar vorisligini ta'minlovchi asosiy vositadir. Har qanday davlatda osoyishtalik va farovonlikning asosi, poydevori bo'lib ma'rifatlilik darjasini hisoblanadi. Yuksak ma'naviyatli iqtisodchi kadrlarning tarbiyasida va uni amalga oshirish jarayonida ma'naviyat sohasining bir necha funktsiyalari erkin amalga oshib boradi. Insoniy jamiyatni faqatgina ongli, aql-tafakkurli, salohiyatli kishilar yaratadi. Yaratuvchanlik salohiyatini o'stirmay, ong, saviya, dunyoqarashni taraqqiy ettirmay turib, jamiyatni, millat turmushini o'zgartirib bo'lmaydi. Shunday ekan, mamlakat kelajagi hisoblangan yosh avlod dunyoqarashini shakllantirish, ularga o'zligini anglatish bugungi kunning dolzarb vazifalaridan biridir. Bu jihatdan biz yoshlarda zamonaviy bilimlarni shakllantirish, jahon andozalariga moslarini rivojlantirish yo'lidan borishimiz kerakligi zamon talabi bo'lib maydonga chiqadi.

Mustaqillik yillarida mamlakatimizda ta'lim-tarbiya sohasidagi yangilanish va takomillashtirish jarayonida Kadrlar tayyorlash milliy dasturida belgilab olingan ustuvor vazifalar – sohada kuchli ta'lim-tarbiya tizimi yo'lga qo'yildi, o'qitiladigan fanlar, o'qituvchi-murabbiylar professionallashdi. Bu esa yosh avlodni, ular qanday soha yoki mutaxassislikda ta'lim olmasin, zamon talablariga javob beradigan, har tomonlama yetuk mutaxassis kadrlar qilib tarbiyalashda bosh maqsad sifatida belgilab berishga asos bo'lib xizmat qiladi. Maqsadlar amalga oshirilishida ma'naviy-ma'rifiy omillarning o'rni, iqtisod sohasida ta'lim olayotgan va faoliyat olib borayotgan kadrlar faoliyatida uyg'unlashuvi borasidagi aniq mo'ljal va prognozlarni ishlab chiqish, bu jarayonda amal qiladigan kuchli mexanizmni aniqlashtirib olish ushbu sohada yanada chuqurroq ilmiy tadqiqotlarga bo'lgan zaruratni keltirib chiqaradi.

Bugungi kunga kelib ta'lim insoniyat faoliyatining barcha jabhalariga yangi texnologiyalarning kirib borishi, raqobatbardoshlik o'sishi va aholining turmush darjasini oshishining asosiy sharti bo'lib xizmat qilmoqda. Haqiqatan ham, bugungi kunda oliy ta'limning deyarli barcha jabhalarida ta'lim jarayonini tashkil etish, o'quv adabiyotlarini shakllantirish jarayoni tubdan qayta ko'rib chiqilmoqda.

Zamonaviy o'quv adabiyotlarini yaratish ta'lim jarayonini tashkil etishning asosiy sharti hisoblanganligi sababli, ta'lim jarayonini tashkil

etishning innovatsion faoliyati bu borada qator ustuvorliklarga ega bo'lgan o'quv adabiyotlarini yaratishni talab etadi.

"Agrobiznesni tashkil etish va boshqarish" fanidan tayyorlangan mazkur o'quv qo'llanma O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 7 fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son Farmoni, 2017 yil 20 apreldagi "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-2909-son, 2017 yil 30 iyundagi "Respublikada axborot texnologiyalari sohasini rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni tubdan yaxshilash chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-5099-son, 2017 yil 27 iyuldagi "Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3151-son Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalar doirasida shakllantirilgan.

O'quv qo'llanmani tayyorlashda oliy ta'lim muassasalarida talabalarni kasbiy tayyorlash jarayonida o'qitishning didaktik vositalarini qo'llash muammosi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlar natijasida qator: o'qitishning an'anaviy va zamonaviy didaktik vositalari asosida talabalarnig ijodiy imkoniyatlarini rivojlantirishning integrativ texnologiyasi (Chicago university, Amerika); ta'lim oluvchilarning kasbiy shakllanishiga maqsadli kompleks ta'sir ko'rsatish metodikasi (Institute named after Frica Bauer, Germaniya); o'quvchilarni intellektual va psixoemotsional rivojlantirish tizimi (National Advice on pedagogical technology, Angliya); o'quvchilarda loyihalashtirish ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga oid ta'limning yangi texnologiyalari (Pedagogik texnologiyalar markazi, Rossiya); kabi qator tajribalardan keng foydalanildi.

O'quv qo'llanma o'quvchi-talabalarni ijodiy fikrlashga, o'zgaruvchan vaziyatlarga o'rgatish, erkin raqobat asosida faoliyatni tashkil etish jarayonlariga mo'ljallangan bo'lib, talabalarda mustaqillik, erkin fikrlashni tarbiyalash jarayonlari uchun mo'ljallangan.

## I BOB. “AGROBIZNESNI TASHKIL ETISH VA BOSHQARISH” FANI PREDMETI, O’RGANISH USULLARI VA VAZIFALARI

- 1.1. Qishloq xo’jaligining respublikani ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishida tutgan o’rni va ahamiyati**
- 1.2. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida agrar sohani rivojlantirish yo’llari**
- 1.3. “Agrobiznesni tashkil etish va boshqarish” fanining predmeti, maqsadi, usullari va vazifalari**
- 1.4. Agrobiznes tushunchasi.**

### **1.1. Qishloq xo’jaligining respublikani ijtimoiy- iqtisodiy rivojlanishida tutgan o’rni va ahamiyati**

O’zbekiston Markaziy Osiyoning qulay hududida joylashgan. Uning hududida azaldan insoniyat uchun nihoyatda kerakli hisoblangan turli xildagi qishloq xo’jalik mahsulotlari ishlab chiqarildi. Chunki bu hududda tabiiy-iqlim sharoitlar yetarlidir. Jumladan, Respublikada yillik samarali temperatura  $26-30^{\circ}$  ni tashkil etib, quyoshli soat 3600 dan ortiq bo’lib, bir yilda bir necha marta hosil olish imkonini beradi. O’zbekistonning jami yer maydoni 44,9 mln. hektar (2018 y.) bo’lib, shundan 45,08 foizini turli xildagi qishloq xo’jalik korxonalari, tashkilotlari hamda dehqon xo’jaliklari foydalanadilar.

Mustaqillikning dastlabki yillarda O’zbekiston agrar siyosatining asosiy maqsadlari quyidagilardan iborat bo’ldi: qishloqda mulkdorlar sinfini tashkil etgan holda yerni uzoq muddatli ijaraga berish, bozor munosabatlarini takomillashtirish, qishloq tovar ishlab chiqaruvchilariga xizmatlar ko’rsatuvchi infratuzilma ob’ektlarining faoliyatini rivojlantirish, yer-suv resurslaridan oqilona va samarali foydalanish, yuqori sifatli qishloq xo’jaligi mahsulotlarini yetishtirishda ilg‘or texnologiyalarni qo’llash.

**Qishloq xo’jaligi** - bu jahon iqtisodiyotining muhim sohasi bo’lib, u o’simlik va hayvonot manbalarini rivojlantirish bilan bog’liq sohalar majmuasidir. Uning barqaror rivojlanishi ishlab chiqarish vositalarini

ishlab chiqaruvchi, qishloq xo'jaligiga xizmat ko'rsatuvchi, yetishtirilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini qayta ishlovchi, saqlovchi hamda iste'molchilarga yetkazib beruvchi barcha tarmoqlar faoliyatiga bog'liq. Chunonchi, ular qishloq xo'jalik korxonalarini talab etilgan barcha turdag'i texnikalar, kimyoviy vositalar, yoqilg'i-moylash, qurilish materiallari, stanoklar bilan o'z vaqtida ta'minlab, mavjud qishloq xo'jalik texnikalarini arzon va sifatli ta'mirlab, tarmoqning rivojlanishini ta'minlaydigan xizmatlarni ko'rsatib, unda yetishtirilgan mahsulotlarni yig'ib-terib, qayta ishlab, iste'molchilarga sifatli holda yetkazib bersalar, qishloq xo'jaliginining rivojlanishiga katta hissa qo'shgan bo'ladilar.

### **Qishloq xo'jaligining o'ziga xos xususiyatlari** quyidagilarda namoyon bo'ladi.



1. Qishloq xo'jaligida tabiiy omillarning ta'siri katta. Ular ishlab chiqarishning mavsumiyligidan kelib chiqadi.
2. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish vositalari sifatida tirik organizmlar qatnashadi. Bu, o'z navbatida, mutaxassislardan faqatgina iqtisodiy qonuniyatlarnigina emas, balki biologik qonunlarni ham bilishni va ishlab chiqarishni tashkil etishda ularni hisobga olishni talab qiladi.
3. Yer asosiy ishlab chiqarish vositasi hisoblanib, undan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari mavjud. Ularni inkor etish yoki yetarlicha hisobga olmaslik katta salbiy oqibatlarga olib keladi.
4. Qishloq xo'jaligida sarflanayotgan moddiy xarajatlar davri bilan faoliyat natijasida olinayotgan daromadlarning olinish davri o'rtasida farq katta.
5. Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish juda katta maydonlarda olib boriladi.
6. Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarilgan mahsulotlarining bir qismini o'zi urug'lik, yem – xashak, oziq – ovqat sifatida imte'mol qiladi.
7. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ko'p turlarini uzoq saqlash mumkin emas.

Qishloq ho'jaligi mamlakatimiz uchun ham siyosiy, ham iqtisodiy va ijtimoiy ahamiyat kasb etgan soha bo'lib, u quyidagi funktsiyalarni bajaradi:

- mamlakatmizni oziq ovqat fondini shakllantiradi;
- yurtimizning oziq-ovqat sohadagi mustaqilligini ta'minlaydi;
- qishloq ho'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan sanoat uchun xom ashyo yetkazib beradi;
- aholini ish joylari bilan ta'minlaydi.

Qishloq xo'jaligi agrosanoat majmuasining asosiy, ya'ni markaziy tarmog'i hisoblanadi.



### **Qishloq xo'jaligi agrosanoat majmuasining asosini tashkil etishining asosiy sabablari:**

**Birinchidan**, qishloq xo'jaligi sanoatning ishlab chiqarish vositalari ishlab chiqaruvchi tarmoqlari mahsulotlariga bo'lgan talabning asosini belgilaydi. Sanoatning bu tarmoqlarini rivojlantirish yo'naliishlarni, shuningdek, sanoat mahsulotlarining sifati, hissalari qanday bo'lishini belgilab beradi.

**Ikkinchidan** qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibi va joylashuvi ularni tayyorlovchi va qayta ishlovchi korxonalarining rivojlanishini belgilaydi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarining turlariga qarab, ularni tayyorlovchi va qayta ishlovchi korxonalar o'zlarining quvvatini tashkil etadi.

**Uchinchidan**, sanoatda yaratilayotgan ishlab chiqarish vositalari ning samaradorligi qishloq xo'jaligida yuzaga chiqadi. Jahon davlatlari o'rtasida yuz beradigan keskin raqobat sharoitida mamlakat iqtisodiyotining bardoshli bo'lishi va yanada rivojlanishi ma'lum darajada ushbu tarmoqqa bog'liq bo'ladi. Qishloq xo'jaligi o'ziga aloqador barcha sanoat tarmoqlariga rivojlanish uchun qaysidir ma'noda kompas rolini o'ynaydi.

**To'rtinchidan**, qishloq xo'jaligidagi mehnat unumdarligi butun agrosanoat majmuasi tarmoqlarining samaradorligiga ta'sir ko'rsatadi. Agarda qishloq xo'jaligida mehnat unumdarligi yuqori bo'lsa,

agrosanoat majmuasi oxirgi mahsulotining arzon bo'lishi ta'minlanadi. Bu mamlakat iqtisodiyotini kuchaytiradi, aholining turmush darajasini oshiradi. Chunki aholi daromadining katta qismini o'z komilligini oshirish yo'lida sarflash imkoniyati ko'payadi;

**Beshinchidan**, qishloq xo'jaligi mahsulotlari tannarxi agrosanoat majmuasining oxirgi mahsulotlari tannarxi past bo'lishiga olib keladi. Bu, o'z navbatida, narxning past bo'lishini ta'minlaydi. Binobarin, kuchli raqobat sharoitida arzon mahsulot ishlab chiqarish hal qiluvchi ahamiyatga ega;

**Oltinchidan**, agrosanoat majmuasi oxirgi tayyor mahsulotining sifati qanday bo'lishi qishloq xo'jaligida yetishtirilgan mahsulot sifati bilan belgilanadi;

**Yettinchidan**, aynan qishloq xo'jaligini sanoatlashtirish jarayoni agrosanoat integratsiyasini kuchaytiradi. Bunda qishloq xo'jaligi va sanoat yanada yaqinlashadi. Bu esa fan, texnika taraqqiyotini tezlashtiruvchi asosiy omillardan biridir.

Qishloq xo'jaligi rivojlanishi natijasida majmua tarkibidagi tarmoqlarning ham yuksalishi ta'minlanadi. Masalan, tarmoqning ko'lami kengaysa, ishlab chiqarish vositalariga bo'lgan talab ortadi. Bu talabni qondirish uchun sanoat tarmoqlari intensiv faoliyat ko'rsatish bilan hajman kengayishga ham erishishlari lozim. Tarmoqda qishloq xo'jalik mahsulotlari hajmining barqaror ravishda o'sishi ularni qayta ishlovchi tarmoqlar samarali faoliyat ko'rsatishini talab etadi. Demak, agrosanoat majmuasi tarkibidagi barcha tarmoqlar qishloq xo'jaligi bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun respublika qishloq xo'jaligini maqsadga muvofiq tashkil etish va zamon talabi asosida boshqarishga alohida e'tibor berish lozim.

O'zbekiston qishloq xo'jaligidagi tarkibiy va institusional o'zgarishlar bir necha yo'nalishlar bo'yicha amalga oshirildi.

**Birinchisi** – agrar sektorni isloh qilish, shu jumladan yer islohoti. Kolxoz va sovxozlarni fermer xo'jaliklari etib qayta tashkil qilish, qishloq xo'jaligi bilan kooperatsiya asosida ishlovchi korxonalarini xususiylashtirish. Qishloqda ko'p ukladli iqtisodiyotni tashkil etish. Yerga bo'lgan mulk huquqi masalalarini hal etish.

**Ikkinchisi** – mahsulotlarni sotib olish va sotish, ishlab chiqarish ulgurji va chakana savdosi tizimini davlat tasarrufidan chiqarish. Yangi sotish tarmoqlari, shu jumladan ulgurji bozorlar, birjalar, yarmarkalar rivojlandi.

**Uchinchisi** – agrar sektorni davlat tomonidan tartibga solish tizimini o‘zgartirish: tashkiliy tuzilmalarni qayta qurish va qishloq xo‘jaligini boshqarish usullarini o‘zgartirish. Texnika va asbob-uskunalarini yetkazib berish uchun lizing munosabatlari shakllana boshladi, qishloq xo‘jaligi faoliyatini ixtiyoriy sug‘urta qilish rivojlandi.

**To‘rtinchisi** – talab va taklifni hisobga olgan holda bozor infratuzilmasi va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarish infratuzilmasini shakllantirish. Isloh qilishning mazkur yo‘nalishi qishloq xo‘jaligi tashkilotlarining kommunal xo‘jaligi va ijtimoiy infratuzilma ob'ektlarini saqlab turish funksiyalaridan xalos etilishi bilan bog‘liq.

Mustaqillikning dastlabki kunlaridan boshlab O‘zbekistonda respublikamizning o‘ziga xos xususiyatlari va sharoitlarini xalqimizning, mentaliteti, an'analari, urf-odatlari va turmush tarzini, shuningdek o‘tmishdagi iqtisodiyotni bir tomonlama rivojlantirishning og‘ir oqibatini har tomonlama hisobga olishga asoslangan o‘ziga xos agrar siyosat ishlab chiqildi.

O‘zbekistonda mamlakatimizning mavjud ishlab chiqarish salohiyatini hisobga olgan holda ishlab chiqilib, amalga oshirilayotgan davlat agrar siyosati quyidagi vazifalarni o‘z oldiga qo‘ydi:

1) paxta xomashyosi yetishtirishni mamlakatimizning yillik eksport va valyuta balansini barqarorlashtirish uchun zarur bo‘lgan hajmda saqlab qolish;

2) mamlakatimizning iqtisodiy suverenitetini ta'minlash uchun g‘alla mustaqilligiga erishish;

3) sanoatni hamda ijtimoiy infratuzilma va bozor infratuzilmasini rivojlantirish uchun qishloq xo‘jaligida shakllangan daromadning bir qismini boshqa tarmoqlarga qayta taqsimlash;

4) qishloq aholisining turmush darajasini yaxshilash va farovonligini oshirish. Yer islohotining amalga oshirilishi natijasida qishloqda xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun asos solindi.

Bularning barchasi xususiy sektorda ishlab chiqarishning tez o'sishiga va qishloq oilalari real daromadlarining oshishiga xizmat qildi.

### 1.1- jadval.

#### **2017-2019 yillarda iqtisodiy faoliyar turlari bo'yicha YaIM tarkibi (jamiga nisbatan foiz hisobida)**


	<i>2017-yil</i>	<i>2018-yil</i>	<i>2019-yil</i>
<b>I. YaIM, jami</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>			
Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati	88,5	88,8	90,9
Mahsulotlarga sof soliqlar	11,5	11,2	9,1
<b>II. Tarmoqlarning yalpi qo'shilgan qiymati</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<b>Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi</b>	<b>34,0</b>	<b>31,5</b>	<b>28,1</b>
<b>Sanoat (qurilishni qo'shgan holda)</b>	<b>27,9</b>	<b>32,6</b>	<b>36,4</b>
sanoat	22,2	26,5	30,0
qurilish	5,7	6,1	6,4
<b>Xizmatlar</b>	<b>38,1</b>	<b>35,9</b>	<b>35,5</b>
savdo, yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	8,0	7,4	6,9
tashish va saqlash, axborot va aloqa	9,5	8,5	7,7
<b>boshqa xizmat tarmoqlari</b>	<b>20,6</b>	<b>20,0</b>	<b>20,9</b>

Manba: [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

Qishloq xo'jaligi, oziq-ovqat va to'qimachilik sanoati O'zbekistonning iqtisodiyoti va aholisining farovonligi uchun ulkan ahamiyat kasb etadi. Mamlakat yalpi ichki daromadining uchdan bir qismidan ortiqrog'i qishloq xo'jaligining hissasiga to'g'ri keladi. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini chet elga sotishdan tushgan tushumlar O'zbekistonning umumiy eksport daromadlarining 25 foizigacha tashkil qiladi. Qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasi shu bilan birga butun mamlakat bo'ylab ko'plab qishloqlar

va kichik shaharlarning iqtisodiy o'zagi hisoblanadi, zero u joylarda qishloq xo'jaligidan tashqari boshqa muqobil daromad manbalari mavjud emas.

2017-2019-yillarda iqtisodiyot tarmoqlarining qiyosiy tahlili sanoat tarmog'i ulushining 30,0 % gacha oshishi (2018-yilda - 26,5%, 2017-yilda - 22,2 %) va qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi tarmog'i ulushining 28,1 % gacha (2018-yilda - 31,5 %, 2017-yilda - 34,0 %) kamayishi bilan bog'liq bo'lgan tarkibiy o'zgarishlarni qayd etish imkonini beradi (1.1-jadval).



Manba: [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

### **1.1-rasm. 2019 yilda YaIMning iqtisodiy faoliyar turlari bo'yicha mutlaq o'sish sur'atlari (o'tgan yilga nisbatan foiz hisobida)**

2019-yil yakunlariga ko`ra, qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida 2,5 % darajasida ijobjiy o'sish qayd etildi. Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligida ijobjiy o'sish sur'atlari dehqonchilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 3,7 % ga va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishning 1,7 % ga o'sishi bilan bog'liq.

O'zbekiston chet elliklarga o'zining Buyuk Ipak Yo'li bo'ylab joylashgan qo'hna shaharlari bilan, va albatta, o'z paxtasi va mevasabzavot mahsulotlari bilan mashhur. Shu sababli qishloq xo'jaligi oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarish sohasini yanada rivojlantirish mamlakatga kelgusida yanada ko'proq foyda keltirishi kutilmoqda.

Qishloq xo'jaligida foydalaniladigan yer maydonlari respublika hududining 45 foizini egallaydi, aholining qariyb 50 foizi qishloq joylarda istiqomat qiladi.

## 1.2-jadval

### **Qishloq xo`jaligining asosiy ko`rsatkichlari**

Yillar	2015	2016	2017	2018	2019
<b>Qishloq xo`jaligi ekinlari ekin maydoni, ming hektar</b>	3694,2	3706,7	3474,5	<b>3396,0</b>	<b>3309,4</b>
<b>Qishloq xo`jaligi mahsuloti, mlrd. so`m</b>	99604,6	115599,2	148199,3	<b>187425,6</b>	<b>216283,1</b>
<b>shu jumladan:</b>					
<b>dehqonchilik</b>	55429,2	61755,1	83303,4	<b>98406,4</b>	<b>111904,</b>
<b>chorvachilik</b>	44175,4	53844,1	64895,9	<b>89019,2</b>	<b>104378,3</b>
<b>Qishloq xo`jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish-ning o`sish sur`ati, o`tgan yilga nisbatan foizda</b>	106,1	106,3	101,0	<b>103,3</b>	<b>103,4</b>
<b>shu jumladan:</b>					
<b>dehqonchilik</b>	105,5	105,7	98,2	<b>104,8</b>	<b>104,3</b>
<b>chorvachilik</b>	106,9	107,0	104,1	<b>101,6</b>	<b>102,3</b>


Manba: [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

2019 yilda YaIM (YaQQ) tarkibida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligining ulushi 28,1 % ni tashkil etdi. 2019 – yilning yanvar – dekabr oylarida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) larining umumiy hajmi 224,3 trln. so'mni yoki 2018 – yilning mos davriga nisbatan 102,5 % ni, shu jumladan, dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar – 217,2 trln. so'mni (102,4 %), o'rmon xo'jaligi – 5,7 trln. so'mni (101,8 %), baliq xo'jaligi – 1,4 trln. so'mni (127,0 %) tashkil qildi.

Qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat) lar umumiy hajmining 96,9 % i dehqonchilik va chorvachilik, ovchilik va ushbu sohalarda ko'rsatilgan xizmatlar, 2,5 % i - o'rmon xo'jaligi, 0,6 % i - baliq xo'jaligi hissasiga to'g'ri keladi.

2020-yil 1-yanvar holatiga fermer xo'jaliklari soni 92,6 mingtani, dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari – 5,0 mln.tani, qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlar – 27,6 mingtani taskil qildi. Fermer xo'jaliklarining umumiy sonidan, paxtachilik va g'allachilik yo'nalishi bo'yicha – 40,0 mingtani, bog'dorchilik va uzumchilik – 31,0 mingtani, chorvachilik – 14,8 mingtani sabzavotchilik va polizchilik – 5,0 mingtani, boshqa yo'nalishlar bo'yicha – 1,8 mingtani taskil etmoqda.

Qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari eksporti jami eksport daromadining qariyb 20-25 fozini keltiradi. Hozirgi vaqtida 180 dan ortiq turdag'i qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat mahsulotlari 80 dan ortiq mamlakatga eksport qilinmoqda.




Manba: [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

## 1.2-rasm. Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining hajmi

1.2-rasmdan ko'rinish turibdiki, 2019-yilda hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining eng yuqori hajmi Samarqand (30,3 trln. so'm) va Andijon (24,4 trln. so'm) viloyatlariga to'g'ri kelmoqda. Aksincha, kam hajmga ega hududlarga Sirdaryo viloyati (7,3 trln. so'm), Qoraqalpog'iston Respublikasi (8,1 trln. so'm) va Navoiy viloyatini (10,3 trln. so'm) keltirib o'tish mumkin. Respublika ko'rsatkichidan (102,5 foiz) yuqori o'sish sur'atlari

Qoraqalpog'iston Respublikasi (106,6 foiz), Xorazm (105,7 foiz), Surxondaryo (104,6 foiz), Buxoro va Jizzax (104,3 foiz), Farg'ona (104,2 foiz), Andijon (103,4 foiz) viloyatlarida kuzatildi. Toshkent (93,8 foiz), Sirdaryo (101,2 foiz), Qashqadaryo (101,5 foiz), Samarqand (102,2 foiz) va Navoiy (102,3 foiz) viloyatlarida esa aksincha, o'sish sur'atlari pastligi kuzatildi.

Xususan, yuqori o'sish sur'atlari Surxondaryo (106,6 foiz), Navoiy (104,1 foiz) viloyatlarida, Qoraqalpog'iston Respublikasida (103,8 foiz) va Farg'ona (103,3 foiz) viloyatida kuzatildi. Xorazm (100,1 foiz), Toshkent va Qashqadaryo (100,8 foiz) viloyatlarida esa aksincha past sur'atlar kuzatildi.



Manba: [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

### **1.3-rasm. Hududlar kesimida qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining taqsimlanishi.**

Respublikaning qishloq, o'rmon va baliq xo'jaligi mahsulot (xizmat)larining umumiy hajmida Samarqand viloyatining ulushi 13,5 foizni tashkil etdi va hududlar bo'yicha yuqoriligidicha qolmoqda, Andijon, Qashqadaryo va Toshkent viloyatlari mos ravishda 10,9 foiz va 9,1 foiz ko'rsatkich bilan keyingi o'rirlarni egalladi. Eng kam ulush Sirdaryo viloyati (3,2 foiz) Qoraqalpog'iston Respublikasi (3,6 foiz) va Navoiy viloyatida (4,6 foiz) qayd etildi (1.2-rasm).

2019 – yilda ishlab chiqarilgan dehqonchilik mahsulotlarining hajmi 108,3 trln. so'mni yoki 2018 yilning mos davriga nisbatan 103,7 foizni tashkil etdi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiylajigini hajmida dehqonchilik mahsulotlarining ulushi 50,2 foizni tashkil qildi. Respublikaning barcha toifadagi xo'jaliklarida 7 187,4 ming tonna (110,0 foiz) – don ekinlari, 2 950,9 ming tonna (101,3 foiz) – kartoshka, 9 945,5 ming tonna (101,9 foiz) – sabzavotlar, 1 922,2 ming tonna (104,6 foiz) – oziqbop poliz, 2 739,6 ming tonna (101,2 foiz) – mevalar, 1 595,2 ming tonna (100,3 foiz) – uzum ishlab chiqarildi.


Chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish hajmi 107,4 trln. so'mni yoki 2018 – yilning mos davriga nisbatan 101,7 foizni tashkil qildi. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining umumiylajigini hajmida chorvachilik mahsulotlarining ulushi 49,8 foizni tashkil etdi. Barcha toifadagi xo'jaliklar tomonidan tirik vaznda 2 465,0 ming tonna go'sht (2018 – yilning yanvar – dekabriga nisbatan 1,4 foizga ko'p), 10 710,8 ming tonna sut (2,3 foizga ko'p), 7 757,4 mln. dona tuxum (4,0 foizga ko'p), 35,4 ming tonna jun (2,3 foizga ko'p), 1 173,8 ming dona qorako'l teri (8,2 foizga ko'p) ishlab chiqarildi.

Xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlillar, qishloq xo'jaligi mahsulotlari umumiylajigini 70,1 foizi – dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga, 26,9 foiz – fermer xo'jaliklariga, 3,0 foiz – qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarga to'g'ri kelishini ko'rsatmoqda.

Qishloq xo'jaligi mahsuloti ulushining hududlar bo'yicha xo'jaliklar toifalari kesimida taqsimlanishi tahlil qilinganda, eng yuqori ko'rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi. 2019 – yilning yanvar – dekabr oylari yakunlariga ko'ra ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlari tarkibidagi fermer xo'jaliklarining ulushi bo'yicha eng yuqori ko'rsatkich Samarqand viloyatida (33,5 foiz), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng yuqori ulushi Navoiy viloyatida (78,7 foiz), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng yuqori ulushi Toshkent viloyatida (10,3 foiz) qayd etildi. Fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jaligi mahsuloti tarkibidagi ulushi bo'yicha

eng kam ko`rsatkich Navoiy viloyatida (18,1 foiz), dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklarining eng kam ulushi Samarqand viloyatida (63,7 foiz), qishloq xo'jaligi faoliyatini amalga oshiruvchi tashkilotlarning eng kam ulushi Xorazm viloyatida (1,1 foiz) qayd etildi (1.4-rasm).

Qishloq xo'jaligi yalpi mahsulotining ulushi xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi hududlar kesimida tahlil qilinganda, eng yuqori ko`rsatkichlar barcha hududlarda dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklariga to'g'ri kelishi kuzatildi.



Manba: [www.stat.uz](http://www.stat.uz)

#### **1.4-rasm. Ishlab chiqarilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarining xo'jaliklar toifalari bo'yicha taqsimlanishi, hududlar kesimida.**

Dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari dehqonchilik mahsulotlarining aksariyat turlarini asosiy ishlab chiqaruvchilari bo'lib qolmoqda, hisobot davrida kartoshka umumiy hajmining 77,9 foizi, sabzavotlarning 66,2 foizi, meva va rezavorlarning 53,5 foizi ular tomonidan ishlab chiqarildi. Don ekinlarining esa asosiy qismi fermer xo'jaliklari

tomonidan ishlab chiqarildi, ishlab chiqarilgan ushbu mahsulot hajmining 80,7 foizi ular hissasiga to'g'ri keladi.

Chorvachilik mahsulotlari ishlab chiqarish ko'rsatkichlarini xo'jaliklar toifalari bo'yicha tahlil qilar ekanmiz, tirik vaznda go'shtning umumiy hajmidan 94,0 foizi dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri kelishini qayd etish lozim, shuningdek sutning 95,6 foizi, tuxumning 60,8 foizi, junning 87,5 foizi, qorako'l terining 83,2 foizi ham dehqon (shaxsiy yordamchi) xo'jaliklari hissasiga to'g'ri keladi.

## **1.2. Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida agrar sohani rivojlantirish yo'llari.**

Iqtisodiy rivojlanishning innovatsion yo'liga o'tish nafaqat O'zbekiston iqtisodiyotining qishloq xo'jaligi tarmog'ida to'planib qolgan muammolarni, balki ushbu tarmoq oldida turgan asosiy vazifalarni ham hal etish zarurligi bilan bog'liq. Hozirgi sharoitda innovatsion faoliyat qishloq xo'jaligini rivojlantirishning asosiy omili hisoblanadi. Mazkur omildan imkon qadar ko'proq foydalanish mamlakatimizda agrosanoat majmuining barqaror rivojlanishini ta'minlashning yagona yo'lidir. Ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar jadallahib, jahon iqtisodiyotining globallashuvi kuchayib borayotgan sharoitda mamlakatimiz qisqa muddatda qishloq xo'jaligini rivojlantirishning innovatsion yo'liga jadal o'tishni amalga oshirishi, iqtisodiyotning ushbu strategik ahamiyatga ega bo'lgan tarmog'ini zamon talablariga javob beradigan sifat jihatdan yangi texnik-texnologik asosda tiklashi lozim. Aks holda, qishloq xo'jaligi tarmog'i rivojlanishdan ortda qoladi va o'zining raqobatbardoshligini ta'minlay olmaydi. Hozirgi kunga qadar qishloq xo'jaligining rivojlanishi eng muhim ustuvor yo'naliishlardan biri bo'lib kelgan va bundan keyin ham shunday bo'lib qoladi. Chunki, qishloq xo'jaligida ishlab chiqarishning samaradorligi, mamlakatimizning iqtisodiy va oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash, nafaqat qishloq aholisi, balki mamlakatimiz aholisining moddiy farovonligini oshirish bebaho boyligimiz bo'lgan yerimizning unumdarligi, uning sifatini muntazam yaxshilab borish bilan uzviy bog'liqdir.

O'zbekiston qishloq xo'jaligi tarmog'ining barqaror rivojlanishi ko'p jihatdan innovatsion faoliyatning samaradorligiga bog'liq. Innovatsiyalarni o'zlashtirish natijasida qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish bazasi texnologik, texnik va tashkiliy-iqtisodiy jihatdan yangilanib boradi. Bu esa o'z navbatida, O'zbekistonning jahon bozoriga integratsiyasini kuchaytiradi. Mamlakatlar iqtisodiyoti turi va rivojlanish darajasiga qarab, asosan, xom-ashyo ishlab chiqarishga ixtisoslashgan iqtisodiyot, industrial iqtisodiyot, postindustrial iqtisodiyot, aralash iqtisodiyot va innovatsion iqtisodiyot yoki bilimlar iqtisodiyotiga asoslangan mamlakatlarga bo'linadi. Innovatsion iqtisodiyot iqtisodiyotning eng yuqori rivojlangan turi hisoblanadi va u uchun bilimli jamiyat xosdir. Hozirgi kunda fan-texnika yutuqlarini keng joriy etish va undan samarali foydalanish uchun turli mexanizmlar va institutsional tuzilmalar, ya'ni milliy innovatsion tizim shakllanmoqda. Qishloq xo'jaligini barqarorlashtirishda qishloq xo'jaligini texnologik jihatdan modernizatsiya qilish ustuvor yo'nalishlardan biridir.

Bugungi kunda O'zbekistonda innovatsion jarayonlarni chuqurlashtirishga va innovatsiya bazasini mustahkamlash uchun barcha zarur ijtimoiy-iqtisodiy asoslar mavjud. Biroq agrar sohani innovatsion rivojlanish yo'liga o'tkazish, yoki boshqacha aytganda, innovatsion loyihalarni bir, hatto bir necha fermer xo'jaliklari miqyosida ham amalga oshirishda muammolar mavjud, chunki: birinchidan, fermer xo'jaliklari va qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlovchi sub'ektlar hozirgi vaqtda ilmiy tadqiqot ishlariga buyurtma berish hamda tadqiqotlarni moliyalashtirishda ishtirokining sustligi; ikkinchidan, ilg'or innovatsion texnologiyalarni ishlab chiqishda tadqiqot olib borish va ilmiy-tadqiqotlarni moliyalashtirishni ham xo'jalik sub'ekti o'zi amalga oshira olmaydi; uchinchidan, yangi texnologiya, yangi navlardan foydalanish uchun qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilar va qayta ishlovchilarning yetarli darajada bilimlarga ega emasligi, ular olimlar va mutaxassislar xizmatidan foydalanishlari zarur, shuningdek, mahsulotni qayta ishlash va sotishda ham fermerlar ma'lum darajadagi qiyinchiliklarga duch kelmoqdalar; to'rtinchidan, oliy ta'lim va ilmiy

tadqiqot muassasalari olimlari tomonidan tayyorlangan innovatsion ishlanmalarga ishlab chiqaruvchilarning talabi yetarli darajada emasligi, ular o'rtasida uzviy bog'liqlik mavjud emas; beshinchidan, ayrim qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilarning mas'uliyatsizligi.

Jahonda ro'y berayotgan ijtimoiy-iqtisodiy o'zgarishlar hamda mamlakatlararo integratsiya sharoitida respublikada qisqa vaqt ichida qishloq xo'jaligi tarmog'ini va qishloqni, shu bilan birga qishloq infratuzilmasini, yangi innovatsion rivojlanish yo'liga o'tishi zarur. Bu yo'l orqali zamonaviy texnik-texnologik asosida qishloqning mavqeini oshirish imkoniyati paydo bo'ladi. O'zbekiston iqtisodiyotini innovatsion rivojlanish yo'liga o'tish hozirgi kundagi ustuvor vazifalardan biri sifatida baholanib kelinmoqda. Tahlillarga ko'ra, O'zbekiston agrar sektorida innovatsiyalar hajmi jami yalpi ichki mahsulot hajmida 1-2 foizni tashkil etadi, qishloq infratuzilmasi tarmog'ida esa bu ko'rsatkich undan ham kam, vaholanki ushbu ko'rsatkich boshqa rivojlangan mamlakatlarda 50-60 foizdan ko'proqni tashkil etadi.

Qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining iqtisodiy samaradorligini oshirish qishloq xo'jaligi korxonalarida ishlab chiqarishni ratsional tashkil etish, fan va texnika taraqqiyoti yutuqlaridan keng foydalanishni, yuqori samara beradigan yangi mashinalar va asbob-uskunalarini, agrotexnika va zootexnika usullarini, mehnat va ishlab chiqarishni tashkil etishni yangi metodlarini joriy etishni taqozo qiladi. Eng samarali usul va metodlarni tanlash va joriy etish uchun ularni oldindan tekshirib ko'rish, ularga tashkiliy - iqtisodiy jihatdan baho berish talab qilinadi. Qishloq xo'jalik korxonalarida bunday baho berish milliy iqtisodiyotning samaradorlik mezoni, ya'ni ijtimoiy mehnat unumdarligining oshirish asosida amalga oshiriladi, mehnat unumdarligining oshishi esa ishlab chiqarish hajmini va milliy daromadni o'stirishda ifodalanadi. Bunga har bir qishloq xo'jalik korxonasida ishlab chiqarish hajmini ko'paytirish va mahsulot sifatini yaxshilash, mahsulot birligiga sarflanadigan jonli va buyumlashgan mehnat xarajatlarini qisqartirish, sof daromadni orttirish asosida erishiladi.

### **1.3. “Agrobiznesni tashkil etish va boshqarish” fanining predmeti, maqsadi, usullari va vazifalari.**

Agrobiznes qishloq xo’jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va sotishga qaratilgan agrosanoat majmuasi tizimida iqtisodiy tadbirkorlik faoliyati sifatida belgilanishi mumkin. Bunday biznesning asosini yagona bo’lgan bozor tashkil etadi.

Agrobiznesning maqsadi qishloq xo’jaligi mahsulotlariga bo’lgan talabni to’liq qondirish orqali daromadlarni maksimal darajada oshirishdir.

Bugungi zamonaviy iqtisodiyotni raqobatbordoshligi sharoitida mahalliy agrobiznes ichki va tashqi bozorda sog’lom raqobat qilish qobiliyatiga muhtoj. Buning uchun esa, bugungi kunda agrobiznesni tashkil etish va uni boshqarish ilmini chuqurroq o’rganishni talab etadi. Agrobiznesni tashkil etishning o’ziga xos xususiyati biznesning ishlab chiqaruvchilar va qayta ishlash tarmoqlari sub’ektlari o’rtasidagi yaqin hamkorliklari va o’zaro munosabatlarini o’rnatishdir. Bu yerda xususiy tadbirkorlar va firmalar, keyinchalik qishloq xo’jaligi mahsulotlarini sotishdan foyda ko’radilar.

Qishloq xo’jaligini samarali rivojlantirish uchun zarur bo’lgan zamonaviy texnika va uskunalarini ishlab chiqaruvchi kompaniyalar bilan yaqin hamkorlik ham muhim ahamiyatga ega.

**Fanni maqsadi** - talabalarga hozirgi qishloq xo’jaligini modernizatsiyalash sharoitida agrobiznesni tashkil etish, tadbirkorlik faoliyatini huquqiy davlat tomonidan qo’llab - quvvatlash, agrobiznesda ixtisoslashtirish va joylashtirish, agrobiznesda yer va suv resurslaridan, moddiy-texnika va mehnat resurslaridan foydalanishni tashkil etish, agrobiznesni boshqarish, qishloq xo’jaligi tadbirkorligida biznes reja, innovatsion loyihalarni boshqarish, agrobiznesda moliya, kredit munosabatlari, marketing va uni strategik rejallashtirish, ishlab chiqarishga xizmat ko’rsatishda agrobiznesni tashkil etish, mahsulotlarni qayta ishlash, saqlash, realizatsiya qilish, tadbirkorning etikasi, qarorlarini qabul qilish, xavf-xatarni va axborot texnologiyalarini

boshqaruv faoliyatini amaliyotda tadbiq etish ko'nikmasini hosil qilishdan iborat.

Ushbu maqsadga erishish uchun fan talabalarni nazariy bilimlar, amaliy ko'nikmalar, ijtimoiy-iqtisodiy hodisa va xizmatlar jarayoniga uslubiy yondoshuv hamda ilmiy dunyoqarashini shakllantirish vazifalarini bajaradi.

Qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanmaydigan korxonalar, firmalar, zamonaviy agrobiznes birlashmalari uchun tobora yirik firmalar (obyektlar)da xo'jalik faoliyatini kontsentratsiyasi va markazlashtirish bosqichma-bosqich mustahkamlash tabiiydir.

Qishloq xo'jaligi sohasida agrobiznesning asosiy tendentsiyasi bitta korxonada ishlab chiqarishning eng kam miqdori muttasil oshib borishi jarayoni hisoblanib, bu fermer xo'jaliklarining umumiy sonini kamaytirish va yirik fermer xo'jaliklarining rolini oshirishga xizmat qiladi. Biroq, rivojlangan bozor iqtisodiyoti mamlakatlari hali kichik va o'rta fermer xo'jaliklaridan ozod bo'lolmaydi. Bu, xususan, qishloq xo'jaligini sanoatlashtirish, uning monopollashuvi oziq-ovqat narxining oshishiga, uning assortimentini torayishiga va sifatning yomonlashishiga olib keladi.

#### **1.4. Agrobiznes tushunchasi.**

Agrobiznes-bu bozor iqtisodiyoti sharoitida qishloq xo'jaligini zarur resurslar bilan ta'minlash, oziq- ovqat va texnik xomashyolarni ishlab chiqarish, qayta ishlash, taqsimlash bo'yicha izchil tadbirlarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni muvofiqlashtirishning o'ziga xos shakli hisoblanadi.

Boshqacha aytganda, agrobiznes qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish jarayonini emas, balki uni qayta ishlash, saqlash va tashish, qishloq xo'jaligi uchun texnika va o'g'itlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga olgan ASMning shakllaridan biridir. Agrobiznes har qanday mamlakatning iqtisodiy tizimining muhim elementidir. Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilar faoliyatining samaradorligi aholining turmush darajasi bilan bevosita bog'liq. Shuning uchun ASMning samaradorligini yuqori darajada oshirish uchun yangi texnologiyalarni ishlab chiqish juda muhimdir.

Agrobiznes ASM doirasida faoliyat yuritadi, bu oziq-ovqat va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, aholini ushbu mahsulotlar bilan ta'minlash, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi va qayta ishlash sohasi uchun mashina va mexanizmlarni ishlab chiqarish, qishloq xo'jaligining ishlab chiqarish va ijtimoiy infratuzilmasini o'z ichiga oladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida qonuniy ravishda daromad topishga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi bilan bog'liq har qanday faoliyat turi agrobiznes deb yuritiladi.

Shunga muvofiq agrobiznes o'z ichiga:

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sohasidagi tadbirkorlikni;
- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tayyorlash va iste'molchiga yetkazib berish bilan bog'liq tadbirkorlikni:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini sotish va vositachilik bilan shug'ullanuvchi firmalar tadbirkorligini;
- agrar sohaga xizmat qiluvchi ixtisoslashgan banklar, sug'urta va moliya kompaniyalari faoliyatini oladi.

Shuning uchun agrobiznes avval faqat sof qishloq xo'jaligi tarmog'ining o'zi bilan cheklangan bo'lsa, hozirda esa agrosanoat majmui (ASM)ni qamrab olgan. ASM - qishloq xo'jaligi bilan sanoat integratsiyasining hosilasi hisoblanadi.

Agrobiznes nazariyasi asoschilarini 1958 yilda "Agrobiznes kontseptsiyasi" kitobini muallifi amerikalik iqtisodchilar Djon Devis va Rey Goldberglardir<sup>1</sup>. Rey Goldberg agrobiznes bo'yicha doimiy faoliyat yurituvchi xalqaro seminarning doimiy rahbaridir.

Agrobiznes olimlar tomonidan qishloq xo'jaligini ta'minlash sohasidagi xizmatlarni ishlab chiqarish va taqsimlash bo'yicha barcha operatsiyalar to'plami; fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish operatsiyalari; qishloq xo'jaligi xomashyosini saqlash, qayta ishlash va sotish bo'yicha operatsiyalar va undan yaratilgan iste'mol tovarlari ushbu mahsulotlarga bo'lgan talabni to'liq ta'minlash sharoitida daromadni maksimal darajada oshirish maqsadida taqdim etiladi.

---

<sup>1</sup> <https://economics.studio/ekonomicheskaya-teoriya/agrobiznes-organizatsionnyie-formyi-elementov-86898.html>

Agrobiznes iqtisodiyotning bozor modeli sharoitida qishloq xo'jaligini zarur resurslar bilan ta'minlash va oziq — ovqat va texnik xom ashyni ishlab chiqarish, qayta ishlash, taqsimlash bo'yicha izchil operatsiyalarni amalga oshirish bo'yicha chora-tadbirlarni muvofiqlash-tirishning o'ziga xos shakli hisoblanadi. Agrobiznesning maqsadi-ehtiyojni qondirish orqali daromadni maksimal darajada oshirish.

Qishloq xo'jaligi bo'limgan fermer xo'jaliklari agrosanoat majmuasining ishlab chiqarish tizimida rivojlangan mamlakatlarda ustunlik ularning agrobiznes institutlarining yetakchi ahamiyatini belgilaydi.

Rivojlangan bozor sharoitida agrorbiznesning keng tarqalgan dastlabki shakli fermerlik (dehqonchilik) faoliyati bilan shug'ullanish bo'lib, u qishloq xo'jaligida kichik biznesning ko'rinishidir. U ko'proq oilaviy xarakterda bo'lib, o'z mulki va mehnatiga asoslanadi, yollanma mehnat qo'shimcha ahamiyatga ega. Fermerlikning afzalliklari:

- unda mulk va mehnat ajralmagan, demak o'zi uchun ishlanadi;
- u iqtisodiy mustaqil va bozor uchun ishlaydi;
- manfaat va mas'uliyat yagona faoliyatning ikki uzviy qismi sanaladi;
- tobora ko'p foyda olish uning yagona intilishi emas, nisbatan kam daromadga ham qanoat qilish imkonibor, ko'pincha u davlat himoyasida bo'ladi;
- fermer mehnati yollanma mehnatdan samarali va unumliroqdir.

Agrobiznes shakllaridan biri agroklasterlardir. U qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, iste'molchiga yetkazib berish jarayonlari bilan shug'ullanadi.

Agrobiznesning yirik ko'rinishi agrosanoat birlashmalaridir. Ular faoliyati bir-biri bilan bog'liq mustaqil korxonalarining integratsiyasining natijasidir. Masalan, meva-sabzavotchilik xo'jaliklari va ularning mahsulotini qayta ishlovchi, saqlovchi, sotuvchi zavod, savdo tarmoqlari kabilardir. Ular mulki ikki qismdan iborat: tarkibiy-tashkiliy tuzilmalar, xo'jaliklar mulki va jamoaning kooperativ mulki.

## **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. «Agrobiznesni tashkil etish va boshqarish» fanining predmeti, maqsadi va asosiy vazifalari nimalardan iborat?
2. «Agrobiznesni tashkil etish va boshqarish» fanida qanday o’rganish usullaridan foydalaniladi?
3. Qishloq va suv xo’jaligi tizimidagi korxona va tashkilotlarni ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishi uchun qanday huquqiy va me’yoriy hujjatlar qabul qilingan?
4. Olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar dasturini qishloq va suv xo’jaligi tizimidagi korxona tashkilotlarni ijtimoiy–iqtisodiy rivojlanishiga ta’siri qanday?
5. Qishloq xo’jaligida erkin bozor munosabatlarini shakllantirish g’oyalarini yaratishda iqtisodchi mutaxassislarning o’rni qanday?
6. Qishloq xo’jalik ishlab chiqarishini o’ziga xos xususiyatlari nimalardan iborat?

## **II BOB. KICHIK BIZNES VA TADBIRKORLIKNING MOHIYATI VA MAZMUNI**

- 2.1. Kichik biznes va tadbirkorlikning mohiyati va mazmuni.**
- 2.2. Tadbirkorlik faoliyati va uni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.**
- 2.3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni O'zbekiston iqtisodiyotida tutgan o'rni.**
- 2.4. O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo'nalishlari.**
- 2.5. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshqarishning xorij tajribasi.**

### **2.1.Kichik biznes va tadbirkorlikning mohiyati va mazmuni.**

Bozor iqtisodiyotida biznes va xususiy tadbirkorlik erkinligining ta'minlanganligi iqtisodiy rivojlanishning muhim sharti hisoblanadi. Shu boisdan biznes va tadbirkorlik funksiyasi, nazariyasi iqtisodiy nazariya fanida muhim o'rinni tutadi. XVIII asrdayoq Fransuz iqtisodchisi R.Kantilon, XIX asrda nemis klassik maktabi vakillaridan I.Tyunen va G. Mangolf hamda amerikalik iqtisodchi F.Nayt tadbirkorlik va tadbirkorlik faoliyatining xususiyatlarini tadqiq etganlar. R.Kantilon tadbirkorlikning muhim xususiyati risk ekanligini asoslab bergan. Uning fikricha tadbirkorni oldindan ko'ra bilish qobiliyatiga ega bo'lган va risk qilishga qodir bo'lган, kelajakka intiluvchi, daromad olishdan umidvor bo'lган va shu bilan birga yo'qotish va zarar ko'rishga ham tayyor bo'lган har qanday shaxs deb ta'riflagan.

XVIII - XIX asrlarda ijod qilgan R. Kantilon, Y.Tyunen, F.Kene, A.Smit, J.B. Sey iqtisodchi olimlar tadbirkorlikni va biznes, shuningdek, tadbirkor va mulkdor tushunchalarini aynan bir xil ma'noda izohlaganlar. Y.Shumpeter tadbirkor faoliyatining quyidagi maqsadli motivlarni ko'rsatib bergan:

- xukmronlik, hokimiyat va ta'sir doirasiga ega bo'lish extiyoji;

- g' alabaga erishish ishtiyoqi, o'z-o'zini va raqiblarini yengishga intilish;

- ijod quvonchi.

O'zbek olimlaridan I.E.Tursunov, A.B.Qurbonov, F.F.Mamatovlar quyidagicha ta'rif berishadi: biznes va tadbirkorlik bir-biri bilan uzviy bog'liq bo'lib, bir xil ijtimoiy – iqtisodiy asoslarga va tamoyillarga ega tushunchalardir.

O'zbekiston Respublikasining "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida"gi qonun asosida biznes va tadbirkorlik faoliyati tartibga solinadi. Ushbu qonunda ta'riflanishicha "tadbirkorlik (tadbirkorlik faoliyati) – yuridik va jismoniy shaxslar tomonidan mulkiy mas'uliyat ostida, mavjud qonunlar doirasida, daromad (foyda) olish maqsadida, tahlika bilan amalga oshiriladigan iqtisodiy faoliyatdir". Bu ta'rif ayni paytda biznesning ham mohiyatini ochib beradigan ta'rifdir. Tadbirkorlik bu o'z mohiyatiga ko'ra inson faoliyatining ko'p qirrali sohasi bo'lib, u yangilikni yaratish bilan bog'liq va san'at turi kabi ijodiy jarayondir.

Tadbirkorlikning mohiyatini, uning harakat va imkoniyatlari doirasini yaxshiroq tushunib olish uchun, uning mohiyati va iqtisodiyotdagi roliga bo'lgan qarashlar tizimi rivojini tashkiliy, siyosiy - iqtisodiy va ijtimoiy psixologik jihatlar nuqtai nazaridan umumlashgan holda tahlil qilamiz. O'zbek olimlaridan A.O'lmasov va N.To'xliyevning tadbirkorlikni "daromad keltiradigan yoki naf beradigan xo'jalik faoliyati (kasb-kor, mashg'ulot) sohibkorlik- tijorat ishlari bilan shug'ullanish, pul topish maqsadida biror ish bilan band bo'lish", "...tadbirkorlik - pul topish maqsadida mas'uliyatni zimmaga olgan holda biron iqtisodiy faoliyat bilan shug'ullanish", deb ta'riflashgan.

Tadbirkor, ishbilarmon, biznesmenning ma'noviy-ma'rifiy saviyasi, bilim va tajribasi, boshqa shaxsiy xususiyatlari, qobiliyatlari, imkoniyatlari va ishga doir sifatlari tadbirkorlikning harakatlantiruvchi kuchi bo'ladi. Tadbirkorning ishga doir sifatlari quyidagi tamoyillarga asoslanishi kerak:

-birinchidan, bozorning tovar va xizmatlar bilan ta'minlanish darajasini tahlil qilish yo'li bilan iqtisodiy xo'jalik tizimida o'z o'rmini topishi;

-ikkinchidan, shaxsiy ishlab chiqarish tuzilmasini yaratishga tayyorlik qobiliyati;

-uchinchidan, marketing tadqiqotlari natijalaridan kelib chiqqan holda, dastlabki tadbirkorlik hisob-kitoblarini amalga oshirishi;

-to'rtinchidan, tadbirkorlik loyihasini amalga oshirishda rahbarlikni to'g'ri yo'lga qo'yish qobiliyati;

-beshinchidan, yangi texnik, texnologik g'oyani birinchi bo'lib hayotga tatbiq etish hamda ushbu g'oyadan amalda foydalanish, undan qanday yakuniy natija, mahsulot yoki xizmatlar olish mumkinligini tasavvur eta olishi.

Tadbirkorlik nazariyasining asoschisi Y.Shumpeter uchta asosiy motivni ajratgan:



-birinchidan, hokimlik qilish, hukmronlik, ta'sir qilishga ehtiyoj;

- ikkinchidan, aniq harakatlarni bajarish orqali erishish ehtimoli bo'lgan g'alabaga iroda, muvaffaqqiyat sari harakat;

-uchinchidan, mustaqil ish faoliyati beruvchi ijodkorlik quvonchi. Ammo, Y.Shumpeter tomonidan taklif etilgan motivlashtirish nazariyasi g'arbiy mamlakatlar tadbirkorlarining fikrlash uslubini aks ettiradi. Tadbirkorlikning tarixiy tomirlariga ega O'zbekistonda tadbirkorlikning zamonaviy haqiqatlarga asoslangan o'z motivi bo'lishi kerak. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyati bir qator o'ziga xos alomat va xususiyatlar bilan birga bo'ladi. Mamlakatimizda tadbirkorlikni motivlashtirish xususiyatlari quyidagi alomatlarga ega:

-o'z salohiyatini amalga oshirishga harakat qilish;

- eng muhim, ijtimoiy va iqtisodiy samara keltiruvchi g'oyalarni amalga oshirish istagi;

-to'rachilik tuzilmalari bilan bog'liqlikdan qochish, harakatlar erkinligi va faoliyat yuritish jarayonida mustaqil bo'lish;

-qiziqarli ish bilan mustaqil va erkin shug'ullanish;

-o'zining ijtimoiy maqomi va obrusini oshirishga intilish hamda o'ziga va o'z yaqinlariga munosib turmush sharoitlarini ta'minlash.

«Tadbirkorlik» tushunchasi tadbirkorning ensiklopedik lug'atida quyidagicha ta'riflanadi: Tadbirkorlik – (ingl. enterprise) shaxsiy daromad, foyda olishga qaratilgan fuqarolarning mustaqil faoliyati. Bu faoliyat o'z nomidan, o'z mulkiy mas'uliyati va yuridik shaxsning yuridik mas'uliyati evaziga amalga oshiriladi. Tadbirkor (frn. yentrepreneur) qonun tomonidan ta'qiqlanmagan barcha xo'jalik faoliyati, shu jumladan, vositachilik, sotish, sotib olish, maslahat berish, qimmatbaho qog'ozlar bilan ish olib borish bilan shug'ullanishi mumkin.

## **2.2.Tadbirkorlik faoliyati va uni rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati.**

Mustaqillikka erishilgan dastlabki yillardan kichik biznesni rivojlantirishga mamlakatimiz iqtisodiy salohiyatini yuksaltiruvchi muhim sohalardan biri sifatida alohida e'tibor qaratilib kelinmoqda. Prezidentimiz mustaqil taraqqiyot davrining boshidanoq kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish biz uchun muhim vazifa bo'lib qolishini alohida ko'rsatib bergenlar. Bunda, iqtisodiyotning mazkur sohasi uch asosiy masalani hal etishi kerakligiga alohida urg'u berib o'tilgan. Birinchidan, yaqin 5-10 yil ichida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari mamlakat yalpi ichki mahsulotining 50-60 foiziga yaqinini ishlab chiqarishi kerak. Ikkinchidan, ular aholi bandligi va daromadlari o'sishining eng muhim manbai bo'lmosg'i zarur. Uchinchi masala – mulkdorlar sinfini mamlakatdagi siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy barqarorlikni taminlaydigan asosiy kuch sifatida shakllantirish zarur. Mazkur vazifalardan kelib chiqan holda, mamlakatimizda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlar orqali eng avvalo iqtisodiy manfaatlarni ro'yobga chiqarishning muhim vositasi hisoblangan mulkchilik munosabatlarini mazmunan o'zgartirishga harakat qilindi. Rejali iqtisodiyot sharoitida asosan davlat mulki monopoliyasining hukmronligi va bu munosabatlarga o'ta rasmiyatçilik bilan yondashuv

mulkchilik munosabatlarining samaradorligini deyarli yo'qqa chiqargan edi. Shunga ko'ra, mamlakatimizda amalga oshirilgan iqtisodiy islohotlarning markaziy yo'naliishi ko'p ukladli iqtisodiyotni yaratish, o'rta mulkdorlar sinfini shakllantirish muammolariga qaratildi. Iqtisodiyot nodavlat sektorining shakllanishida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish jarayonlarining ta'siri ahamiyatli bo'ldi. Bu boradagi islohotlarning maqsadga yo'naltirilganligi, har tomonlama asoslanganligi va izchilligini ta'minlash maqsadida hukumat darajasida mulkni davlat tasarufidan chiqarish va xususiylashtirish dasturi ishlab chiqilib, iqtisodiyotning barcha tarmoq va sohalarida bosqichma-bosqich amalga oshirildi.

Ma'lumki, tadbirkorlikning rivojiga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan jihat – bu ularning qimmatli vaqtlarini olib, o'zining murakkabligi va takroriyligi bilan noxush taassurot paydo qiladigan moliyaviy, statistik va boshqa turdagи hisobotlarni topshirish jarayoni hisoblanadi. Aynan mana shu jarayonning tadbirkorlik faoliyatiga salbiy ta'sirini kamaytirish va tartibga solish maqsadida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2005 yil 15 iyuldagи PQ-100-sonli «Tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini takomillashtirish va uni noqonuniy talab etganlik uchun javobgarlikni kuchaytirish to'g'risida»gi Qarori mamlakatimizdagi tadbirkorlik sub'ektlari tomonidan taqdim etiladigan hisobot tizimini ham soddalashtirish, ham takomillashtirish imkonini berdi. Xusan, 2005 yil 1 iyuldan boshlab mikrofirmalar va kichik korxonalar tomonidan soliqlar, yig'imlar, ajratmalar hamda boshqa majburiy to'lovlar bo'yicha barcha hisob-kitoblarni davlat soliq xizmati organlariga har oyda taqdim etishdan har chorakda taqdim etishga o'tkazildi. Shuningdek, mikrofirma va kichik korxonalar tomonidan moliyaviy va statistik hisobotlarning ayrim shakllarini (masalan, buxgalteriya balansidan iborat moliyaviy hisobot, moliyaviy natijalar to'g'risidagi hisobot, debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risidagi ma'lumotnomasi) yilda bir marta, statistik hisobotni – hisobot turlariga qarab har chorakda yoki har yilda bir marta taqdim etish tartibi belgilab berildi.

## **2.3. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni O'zbekiston iqtisodiyotida tutgan o'rni.**

Jahon iqtisodiyoti rivojlanishi shuni ko'rsatmoqdaki, mamlakat iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasi iqtisodiyot va ijtimoiy hayotda mavjud bo'lган juda ko'п muammolarni hal etmoqda. Chunki kichik biznes va xususiy tadbirkorlik bozor iqtisodiyotining ajralmas qismidir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik uchun iqtisodiyotdagi o'zgarishlarga tez moslashuvchanlik va safarbarlik hamda yuqori samaradorlik, eng muhimi bu faoliyatni iqtisodiyotning barcha sohalarida tashkil etish mumkinligi kabi belgilar xosdir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning keltirilgan ustunliklari milliy iqtisodiyot rivojlanishini rag'batlantiruvchi omil hisoblanadi. Shuning uchun har bir davlat ushbu sohani rivojlantirishni izchil qo'llab-quvvatlashi shartdir.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi roli va ahamiyatini aniqlashda iqtisodiyot iqtisodiy yoki ijtimoiy nuqtai nazardan o'r ganiladi. Ammo bu sohani ko'proq iqtisodiy tomondan o'r ganish ahamiyatliroqdir. Jahon tarixida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi roli va ahamiyati quyidagi ko'rsatkichlar tizimi orqali belgilanadi:

- kichik biznesning mamlakat YaIMdagi ulushi;
- kichik biznesning mamlakat milliy daromadidagi ulushi;
- kichik biznes sohasida band bo'lganlar ulushi;
- kichik biznesning eksport hajmidagi ulushi;
- jami soliqlar miqdorida kichik biznesdan keladigan soliqlarning ulushi;
- aholi daromadlari tarkibida kichik biznesdan olinayotgan daromadlarning ulushi.


Ushbu ko'rsatkichlar ahamiyati ortib borishi bilan kichik biznesning iqtisodiyotdagi roli ortib boradi. Masalan, AQShda real daromadlarning 35 foizi, band bo'lganlarning 54 foizi, 45 foiz aktivlar va YaIMning 52 foizi, Evropa Ittifoqi mamlakatlarida band bo'lganlarning 70 foizi, YaIMning 67 foizi, Yaponiyada 55 foizi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ulushiga to'g'ri keladi.

Mamlakatimizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish va erkinlashtirishga katta e'tibor berilishi natijasida uning YaIMdagi ulushi 2018 yilda 56,7 foizga yetdi yoki 2000 yilga nisbatan 1,8 barobar oshdi, aholi daromadlari tarkibida tadbirkorlikdan olinayotgan daromadlar 2010 yildagi 47,1 foizdan 52 foizgacha oshdi. Ish bilan band jami aholining 77 foizdan oshig'i ushbu sohada mehnat qilmoqda.

Umuman olganda mamlakatimizda ishbilarmonlik muhitini yaxshilash borasida olib borilayotgan ishlar xalqaro iqtisodiy tashkilotlarning reytingida o'z ifodasini topmoqda. Jumladan, 2015 yil oktyabr oyida Jahon bankining «Biznes yuritish» reytingiga ko'ra, O'zbekiston bir yilning o'zida 16 pog'onaga ko'tarilib, 87-o'rinni, «yangi biznesni qo'llab-quvvatlash» mezoni bo'yicha jahonda 42-o'rinni, tuzilgan shartnomalar ijrosini ta'minlash bo'yicha 32-o'rinni, «Kichik biznes sub'ektlariga kredit berish» deb nomlangan ko'rsatkich bo'yicha so'nggi uch yil ichida 154-o'rindan 42-o'ringa ko'tarildi va o'tgan yilning o'zida reytingini 63 pozitsiyaga yaxshiladi.

O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning faoliyat samaradorligi natijalariga ko'ra, YaIMda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi o'rtacha 60 foizni tashkil etgan. Sanoat sohasida, 2015 yilda 40,6 foizni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2020 yilga kelib, 27,5 foizga tushgan. Qurilish sohasida esa, tadbirkorlikning ulushi barqaror o'sish tendinsiyasiga ega. Tahlil natijalariga muvofiq 2015 yilda qurilish sohasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi, 66,7 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2017-2020 yillarda mamlakatimizda qurilish sohasini qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan chora-tadbirlar ta'sirida ushbu sohada tadbirkorlining ulushi o'rtacha 74 foizni tashkil etgan. Sohaning bandlikni ta'minlashdagi ulushi ham ijobiy ahamiyatga ega. Ayniqsa, bugungi kunda mehnatga faol aholining qariyb 74 foizini mazkur sohada faoliyat olib borayotganligi fikrimizni asoslash uchun xizmat qiladi. Tashqi savdo faoliyatida ham tadbirkorlikning ulushini alohida qayd etish maqsadga muvofiq. Ammo, 2020 yillar natijalariga muvofiq tadbirkorlikning tashqi savdo hajmidagi ulushida eksport va import

o'rtasidagi farqli ko'rsatkich 2020 yilda qariyb 2,5 barobarni tashkil etadi (2.1-rasm).




## **2.1-rasm. 2015-2020 yillarda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi (foizda)**

Ushbu tahlil natijalariga asoslangan holda aytish mumkinki, tadbirkorlik faoliyatining rivojlanishi ko'plab omillar ta'siriga bog'liq. Ayniqsa, bu holat tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning hududiy jihatlarga bog'liq ekanligini asoslash uchun xizmat qiladi. Tadbirkorlik faoliyatini 2020 yilda hududiy rivojlanish ko'rsatkichlariga muvofiq, 2020 yilning yanvar-dekabrida kichik tadbirkorlikning YaIMdagi ulushi 53,9 foizni tashkil qildi. YaIMning o'tgan yilga nisbatan pasayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi. Hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlikning YaHMdagi ulushining eng yuqori ko'rsatkichi Jizzax (82,7 foiz), Surxondaryo (77,1 foiz), Xorazm (75,3 foiz), Buxoro (74,7 foiz) va Samarqand viloyatlariga (73,9 foiz) to'g'ri keldi. Navoiy viloyatida ushbu ko'rsatkich eng past bo'lib - 25,5 foizga teng.

Hududlar kesimida tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish borasida keskin tafovvtlarning vujudga kelishi, hududlarda investitsiya loyihalar

samadorligining pasayishi, import hajmining ortishi, ichki bozorni xorijiy xomashyolarga tayanillgan holda ishlab chiqarilgan mahsulotlar bilan to’ldirishiga ta’sir ko’rsatadi. Bu esa respublikada milliy ishlab chiqarishning yanada rivojlanishi, korxonalarining iqtisodiy o’sishi, ishbilarmonlik, muhtining tashkiliy tizimini mavjud imkoniyatlar samarasini oshirishga salbiy ta’sir ko’rsatishi mumkin.



## 2.2-rasm. 2020 yilda kichik tadbirkorlikning hududlar bo'yicha YaHMdagi ulushi (foizda)

O’z navbatida mazkur holatlar hududlarda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishda muhandislik-kommunikatsion elementlarini barpo etish, markaziy avtomobil yo’liga chiqishni taminlaydigan yo’lni qurish, qancha kichik biznes sub’ektlarini joylashtirish mumkinligini aniqlash, tadbirkorlik sub’ektlariga xizmat ko’rsatish obyektlarini aniqlash va ularni joylashtirish, har bir tadbirkorlik sub’ekti uchun qancha joy ajratish kerakligi kabi muammoli holatlar bilan birga, hududiy moliyalashtirish tizimini takomillashtirishga zaruriyat ortib borayotganligini ko’rsatadi.

## **2.4.O’zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish yo’nalishlari.**

Rivojlanayotgan mamlakatlarda kichik biznes va tadbirkorlikni rivojlantirishda rivojlangan mamlakatlarda qo’llaniladigan kichik biznesni rivojlantirishni tartibga solish shakllaridan nusxa olishga katta qiziqishlar uchrab turadi. Biroq, tahlillarning ko‘rsatishicha, mamlakatimiz hududlarida qo’llaniladigan, bunday mexanik ravishda amalga oshiriladigan xorijiy tajribalar, ko‘pincha bu sohani rivojlantirishga yordam bermasdan, balki uning haqiqiy xususiyatlari ning deformatsiyalanishiga va tadbirkorlikning ilg‘or shakllarining zaiflashuviga olib kelmoqda. O’zbekistonda mavjud bo‘lgan shart – sharoitlarning o‘ziga xosligi, ishlab chiqarish tuzilmasinig joriy ahvoli, ularni o‘zgartirishga yetarli darajada katta xarajatlarni talab qiladi.

Ishlab chiqarishda monopolashtirish darajasining yuqoriligi kichik biznesni rivojlanishiga to‘sinqilik qiluvchi omillardan hisoblanib – u narxlarning o‘sib borishi, shartnomalarini bajarishda loqaydlik qilish, ishlab chiqarishni takomillashtirish uchun rag‘batlarning yo‘qligi, mahsulot sifatini oshirish va xarajatlarni kamaytirish ko‘rinishida namoyon bo‘ladi. Ishlab chiqarishdagi raqobatbardoshlikning pastligi aksariyat sohalarda texnologik bazaning ortda qolganligi, quvvat va resurslar sig‘imining yuqoriligi, mahsulot sifatining pastligi va xarajatlarning ko‘pligi sababli sodir bo‘lmoqda. Ayni paytda mamlakat iqtisodiyotida ishlab chiqarishning o‘sishi ta’minlanayotgan bo‘lishiga qaramasdan buni talab darajasida deyish qiyin. Yangi iqtisodiy munosabatlar uchun huquqiy asosni shakllantirish va ular ijrosini ta’minalash masalasi to‘liq amalga oshirilgan emas. Normal bozor muhitining shakllanishi uchun iqtisodiy islohotlar jarayonida yetarlicha nazorat tizimi shakllantirilmagan. Salbiy hodislar va vaziyatlarni bartaraf etish mexanizmi hali yaratilmagan. Kichik biznes passiv sharoitlarda, yetarlicha davlat ko‘magisiz ishlab chiqarishning kuchli rag‘batlantiruvchi omiliga aylana olmaydi, boshqa rivojlangan mamlakatlar iqtisodiyotida egallagan o‘rniga chiqa olmaydi. G‘arbing yuqori rivojlangan mamlakatlarida kichik biznes uchun issiqxona sharoitlarini yaratish tajribasi doim ham sodir bo‘lavemasligi

kutilmagan imkoniyatlarni ko‘rsatib berdi. Mamlakatimizdagi yirik va kichik samarasiz davlat korxonalarining uzoq vaqtidan beri davom etayotgan qo‘llab – quvvatlashning natijalari bo‘lsa mutlaqo aksi bo‘ldi. Ushbu holatda korxonaning hajmi mohiyatni o‘zgartirmaydi. Bunday sharoitda davlat tomonidan qo‘llab – quvvatlashning asosiy tamoyili kichik biznesni ma’muriy va boshqaruv jihatidan nazorat qilishni bosqichma–bosqich qisqartirish va bozor iqtisodiyotini yaxshi shakllantirish uchun iqtisodiy va huquqiy sharoitlarni yaratish kerak bo‘ladi. Davlatning kichik biznesni qo‘llab – quvvatlashi soha, geografik, milliy, tarixiy ustunliklari va odatlarini, shuningdek xalqaro tajribani hisobga olgan holda kichik biznesning rivojlanish va raqobatbardoshligi uchun zarur iqtisodiy va huquqiy shart-sharoitlarni shakllantirish orqali namoyon bo‘lishi kerak.

Kichik biznesni davlat tomonidan qo‘llab – quvvatlashning asosiy vazifasi shundan iboratki, kichik va yirik korxonalar o‘rtasidagi iqtisodiy imkoniyatlar yuzasidan bo‘sliqni kamaytirish, kichik korxonalarining haqqoniy huquqlarini ta’minlash, O‘zbekistonda bozor tizimini boshqarishni shakllantirish jarayoni tarkibida kichik va yirik biznesning optimal nisbatini ta’minlashdan iborat. Bu, birinchi navbatda, bozorning raqobat kurashida huquqiy jihatdan teng sharoitni yaratish, uning turi va shakli tanlovini mustaqil amalga oshirish va tadbirkorlikni namoyon qilish usullarida erkin harakatlanish, biznesni amalga oshirish uchun teng imkoniyatlarni yaratish, huquq va javobgarliklarni belgilab qo‘yish masalasida namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘z navbatida, kichik biznesning muvaffaqiyatli rivojlanishi faqatgina qulay ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy, siyosiy va boshqa sharoitlar mavjud bo‘lgandagina ta’minlanishi mumkinligini anglatadi.

Ushbu jarayonda hamma narsa muhim ahamiyat kasb etadi, siyosiy barqarorlikdan tortib hokimiyatning vakillik va ijro etuvchi organlarigacha, tadbirkorlarning xususiy faoliyatini jinoiy elementlar himoyasidan keng ma’noda fuqarolik huquqlarini ta’minlashgacha. Bunday sharoitlarning yo‘qligi kichik biznesni qo‘llab–quvvatlash tizimi faoliyatini samaradorligiga putur yetkazadi. Bugungi kunda O‘zbekistonda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlarning asosiy

maqsadlaridan biri - bu iqtisodiy o'sishga erishish, aholi uchun yuqori darajadagi turmush tarzini ta'minlaydigan samarali iqtisodiyotni yaratish va global iqtisodiy hamjamiyatda faol ishtirok etishini ta'minlashdir.

Bugungi kunda mamlakatimizda amalga oshirilayotgan iqtisodiyotning etakchi tarmoqlarni modernizatsiyalash va yangilash, tarkibiy o'zgarishlar va diversifikatsiya jarayonlarini samarali amalga oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ishtirokini yanada faollashtirish uchun quyidagi chora-tadbirlarni amalga oshirish muhim hisoblanadi:

-kichik biznesning texnologik, tashkiliy, funktsional va tarmoq jihatidan tarkibiy tuzilmasini takomillashtirish. Xususan, zamonaviy texnika va texnologiyalardan foydalanib, zamonaviy talabga javob beruvchi tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi, innovatsion loyiha va ishlanmalarni amalga oshiruvchi kichik korxona va mikrofirmalarni ustuvor darajada rivojlantirish zarur;

-kichik korxonalarning «hayotiy sikli»da ko'lam jihatidan rivojlanish yo'nalishini kuchaytirish. Ya'ni, ularning sekin-asta yirik korxonalarga o'sib o'tishini rag'batlantiruvchi iqtisodiy mexanizmni ishlab chiqish va yo'lga qo'yish muhim hisoblanadi;

-yirik korxonalarning kichik biznes bilan kooperatsiya aloqalarini yanada mustahkamlash va boshqalar. Yuqoridagi fikr-mulohazalardan kelib chiqqan holda ta'kidlash mumkinki, mamlakatimizda iqtisodiyotni tubdan isloh etish, bozor munosabatlari asoslarini shakllantirish va kengaytirish, tarkibiy o'zgartirishlar orqali zamonaviy tarmoq va sohalarni yaratish, ishlab chiqarishni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash orqali barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlash, yangi ish o'rinalarini tashkil qilish, bandlik muammosini hal etish, aholining daromadlari va farovonligini oshirishda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning imkoniyatlaridan keng foydalanib kelinmoqda. Ushbu jarayonlarning muvaffaqiyati va yuqori samarali bo'lishida Prezidentimiz tomonidan belgilab berilgan islohotlar strategiyasining aniq va izchil amalga oshirilganligi mustahkam asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Qisqa va o'rta muddatli istiqbolda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning asosiy yo'nalishlari qo'yidagilar bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

1. Kichik biznes sub'ektlarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlarga talabni qo'llab-quvvatlash va yangi bozorlarni o'zlashtirish. Kichik biznes sub'ektlari ishlab chiqargan mahsulotlarini sotish imkoniyatlarni izlab topishda ko'p hollarda muammoga duch kelishadi. Ularning mahsulotlariga talabni rag'batlantirish uchun quyidagi vazifalar hal etilishi zarur:

- kichik korxonalarni ta'minotchilar zanjiriga kirishini rag'batlantirish;
- kichik korxonalarning davlat xaridlari tizimidan foydalanish samaradorligini oshirish;
- mahsulotlarni o'tkazish va logistika infratuzilmasini yaratish;
- kichik korxonalarning eksport faoliyatini qo'llab-quvvatlash tizimini takomillashtirish.

2. Kichik biznesni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash samaradorligini oshirish. Raqobatni rivojlantirish uchun davlat mulki obyektlarini xususiy lashtirish tartibini takomillashtirish, ularni sotish mexanizmlari va tartibotlari samaradorligini oshirish, shuningdek tabiiy monopoliya subyektlari faoliyati shaffofligini oshirishga yo'naltirilgan amaliy chora tadbirlar:

- kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasida davlat institutini tashkil qilish.
- kichik biznesni qo'llab-quvvatlash bo'yicha dasturi samaradorligini oshirish.
- kichik biznes subyektlariga nisbatan nazorat-kuzatuv faoliyati sifatini oshirish.
- kichik biznes subyektlariga nisbatan monopoliyaga qarshi me'yorlarni asossiz qo'llash amaliyotini tugatish.
- tadbirkorlik faoliyatini olib borish uchun mulkiy asoslarni yanada mustahkamlash.
- kichik biznes subyektlarining axborot olish imkoniyatlarini kengaytirish.

- muhandislik-texnik ta'minot tarmoqlariga ulanish sohasida ma'muriy to'siqlarni bartaraf etish.

3. Kichik biznes subyektlariga nisbatan soliq siyosatini takomillashtirishning qo'shimcha yo'naliшlarini aniqlash.

4. Kichik biznes subyektlarini moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmi samaradorligini oshirish.

5. Kadrlar bilan ta'minlash va mehnat munosabatlarini tartibga solish tizimini takomillashtirish.

## **2.5. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshqarishning xorij tajribasi.**

Kichik biznesning rivojlanishi davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanayotgan bugungi kunda uning samarali faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, innovatsion taraqqiyot talablari bo'yicha barqaror iqtisodiy rivojlantirish yuzasidan foydalanilmayotgan imkoniyatlar hali katta. Bu borada rivojlangan va rivojlanayotgan xorijiy mamlakatlarning boy tajribasini o'rghanish muhim ahamiyat kasb etadi. AQShda kichik biznes Buyuk Depressiya davrida rivojlandi. Shu sababli uning darjasи barqaror tarzda yuqoriligidcha qolmoqda.

Hozirda ayrim mamlakatlarda ishlab chiqarila boshlanayotgan davlat dasturlari AQShda 1932 yildayoq ishlab chiqilgan. Shu bilan bir vaqtda Buyuk Depressiya davridan keyin davlat tomonidan urush oqibatida aziyat chekkan kichik korxonalarni subsidiyalash boshlandi. Ayni paytda aynan kichik biznes o'zining muhim ijtimoiy ahamiyatini qayd etgan holda AQSh da yangi ishchi o'rinalar yaratishni ta'minladi.

1953 yilda AQShda Federal Agentlik AQSh kichik biznes ishlari bo'yicha maxsus Ma'muriyat tuzilib, o'sha kundan boshlab hozirgacha mazkur agentlik kichik biznes manfaatlarini davlat darajasida himoya qilmoqda. Ushbu tashkilot filiallari barcha yirik shaharlarda joylashgan, shu tariqa kichik biznesni qo'llab-quvvatlash siyosati AQShning asosiy iqtisodiy markazlarigagina emas, balki barcha shtatlarga tarqalmoqda.

Kichik biznes va uning filiallari ishlari bo'yicha asosiy vazifalar quyidagilardan iborat:

- biznes uchun kredit olishda yordam;
- AQSh da kichik biznesni texnika va axborotlar bilan ta'minlashda qo'llab-quvvatlash;
- biznes uchun kreditlar bo'yicha kafolatlar taqdim qilish;
- o'z byudjeti mablag'lari hisobiga kichik biznesni bevosita subsidiyalash va kreditlash<sup>1</sup>.

AQShda kichik biznesni aniqlaydigan mezonlar tizimi puxta ishlab chiqilgan. Bu mezonlar kichik korxonalar va ular ishlayotgan tarmoqlarning faoliyat turiga bog'liq. Bir soha korxonalarida ishlovchilar soni belgilovchi hisoblansa, boshqalarida oborot va foyda shunday hisoblanadi.

Kichik biznes korxonalariga nisbatan huquqiy qonunchilikni saqlash uchun Federal agentlik kabi maxsus Advokatlik bo'limi tuzilib, u sud va Kongressdagi biznes manfaatlarini yoqlamoqda. AQSh hukumati o'zining iqtisodiyotni rivojlantirish kontseptsiyasida kichik biznesga asosiy rol beradi. AQSh hukumati vazirlarining ma'ruzalarida kichik biznes butun iqtisodiyotni sog'lomlashtirishning muhim dastagi ekanligi muntazam yoritilib kelinmoqda. Bu yerda AQShda kichik biznesni rivojlantirishdagi tafovutlar yaqqol kuzatilmoqda. AQShda ancha ilgari kichik biznes davlat darajasida iqtisodiyotning ustuvor yo'nalishi hisoblangan. Kichik biznes turli dasturlarini yaratishdagi AQSh tajribasi juda qimmatlidir, chunki barcha dasturlar haqqoniy ishlar yozilishi, ularni amalga oshirishning aniq mexanizmlari ko'zda tutilgan.

Ispaniyada kichik biznes XX asrning 70-yillarida shakllandi va faol rivojiana boshladi. Kichik biznes rivojlanishining yuqori darjasini tufayli yuqori iqtisodiy ko'rsatkichlarga erishildi. Kichik korxonalar mamlakatni ishsizlik muammosidan holi qilishda yordam berdi, umumiyligi yuksalishga xizmat qildi. Ispaniya kichik biznesining ayrim tarmoqlardagi salmog'i 80foizgacha (qishloq xo'jaligida) etadi, qolgan tarmoqlarda (qurilish, sanoat, kemasozlik) o'rtacha 25-30 foizni tashkil qiladi. Kichik biznes korxonalarining asosiy tarmoqlari, birinchi navbatda, agrosanoat majmuasi, qora va rangli metallurgiya, oziq-ovqat

---

<sup>1</sup>Стратегии модернизации и обеспечения долгосрочного устойчивого экономического роста. Форум экономистов Узбекистана. – Т.: «SMIASIA», 2011.

sanoati (mahsulotlar, qandolatchilik, vinochilik mahsulotlari), qurilish, turizm va h.k. hisoblanadi. Ispaniyada katta miqdorda kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish dasturlari ishlab chiqilgan.

Ispaniya hukumatining asosiy e'tibori mamlakat uchun katta ijtimoiy ahamiyatga molik bo'lgan, aholining ijtimoiy nochor qatlamlari (talabalar, ayollar, muxojirlar va h.k.) uchun ishchi o'rirlari yaratadigan, kam taraqqiy etgan mintaqalar va tumanlarning yuksalishiga yordam beradigan kichik biznes korxonalariga qaratildi. Bundan tashqari, Ispaniya hukumati fan sig'imli tarmoqlar, innovatsion texnologiyalarni ularning ichki bozorni rivojlantirish uchun ham, xalqaro iqtisodiy hamkorlik uchun ham katta ahamiyatini anglagan holda rivojlantirishga alohida urg'u bermoqda. Evropa dasturlari kichik biznesni rivojlantirish dasturlarining katta hissasini egallaydi. Ular Evropaning ko'pgina mamlakatlari, xususan, Germaniya, Frantsiya, Buyuk Britaniyaga tarqaldi. Ispaniyada davlat tarafidan kichik biznesni qo'llab-quvvatlash uchun ko'plab tashkilotlar va fondlar rag'batlantiriladi. Bu tashkilotlarni nafaqat Ispaniya hududida, balki Yevropa Ittifoqining boshqa mamlakatlarida kuzatish mumkin. Ularning kichik biznesga ko'maklashish sohasida amal qiladigan jamiyatning ikkita ommaviy va samarali guruhlarini ajratish mumkin. Birinchi guruhni o'zaro kafolatlash jamiyatları tashkil qiladi. Bu tashkilotlar kreditlar berishda kreditorlar oldidagi kafolatlangan majburiyatlarni ta'minlaydi, xususan, garov ta'minoti sifatida mulk taqdim qiladilar yoki kafillar sifatida chiqadilar.

Ikkinci guruhgaga o'zaro moliyalashtirish jamiyatları kiradi. Bu jamiyatlar bevosita kichik korxonalarini moliyalashtirish, investitsiyalash, subsidiyalash bilan shug'ullanadi. Bunday jamiyatlardan biri Ispaniyada rasmiy kreditlash Davlat instituti hisoblanadi. Shu kabi Ispaniyaning har bir shahrida o'z filiallariga ega bo'lgan kichik biznes assotsiatsiyasi va savdo-sanoat palatasi kabi kichik biznes manfaatlarini qo'llaydigan qator tashkilotlar amal qilmoqda. Ispaniyada byurokratiyaning past darajada ekanligini kichik biznes rivojlanishining ijobiy omili sifatida keltirish mumkin. Korxonalarini ro'yxatga olish, litsenziya olish-bularning hammasini amaldorlar tomonidan hech qanday qog'ozbozlik-

larsiz 24 soat ichida bajarish mumkin<sup>2</sup>. Vaholanki, buni mamlakat norezidentlari ham amalga oshirishlari mumkin. Yevropa Ittifoqining har bir mamlakatida shunday qulay sharoitlar amal qilmoqda. Shunday qilib, hatto xorijlik fuqarolar ham kichik biznes sohasini rivojlantirmoqdalar. Shubhasiz, bularning hammasi kichik tadbirkorlik va kichik biznesning rivojlanishi uchun qulay muhitni yaratadi.

Germaniyada kichik biznes iqtisodiyotning faol rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. Kichik biznes korxonalarini moliyaviy va texnologik qo'llab-quvvatlash hokimiyatning barcha bo'g'inlarida amalga oshirilmoqda. Germaniyada kichik biznesning rivojiga ko'maklashish dasturlari qator rivojlangan mamlakatlar kabi, eng avvalo, ishlab chiqarishning fan sig'imli tarmoqlarini ustuvor qo'llab-quvvatlashni ham ko'zda tutadi. Davlat moliyalashtirish organlari tomonidan kichik biznesni imtiyozli kreditlash quyidagi yo'naliishlarni o'z ichiga oladi:

- innovatsion faoliyatga yo'naltirilgan kichik va o'rta korxonalarini kreditlash;
- atrof-muhit muhofazasi bilan bog'liq qulay ekologik vaziyatni saqlash va yaxshilashga qaratilgan loyihalarni kreditlash;
- Germaniyaning qoloq iqtisodiy mintaqalarini rivojlantirishda qatnashadigan kichik biznesni kreditlash;
- qurilish va turar joy muammolari bilan shug'ullanadigan korxonalarini kreditlash;
- ishlab chiqarishni tubdan modernizatsiyalashga muhtoj ma'lum tarmoqlarda band korxonalarini loyihali moliyalashtirish.

Quyidagilar Germaniyada kichik va o'rta biznesni rivojlantirishning asosiy dasturlari hisoblanadi:

- «Kichik va o'rta biznes korxonalariga nisbatan ilmiy-texnika siyosatini rivojlantirish kontseptsiyasi»;
- «O'z ishini ochish uchun jamg'armalarni rag'batlantirish» dasturi.

---

<sup>2</sup>Стратегии модернизации и обеспечения долгосрочного устойчивого экономического роста. Форум экономистов Узбекистана. – Т.: «SMIASIA», 2011.

Birinchi dastur Germaniyada kichik biznesni moliyalashtirishni ta'minlaydi, ikkinchisi «start-up»<sup>3</sup> loyihalari deb nomlanib, o'z biznesini ochishga ko'maklashadi. Ixtisos-lashgan davlat organi – bevosita federal hukumatga bo'ysunadigan tiklash bo'yicha Kredit kengashi yuqorida ko'rsatilgan dasturlarning amalga oshirilishini nazorat qiladi va ularning bajarilish mexanizmini ta'minlaydi.

Federal dasturlarni amalga oshirish doirasida biznes uchun imtiyozli sharoitlarda kreditlar taqdim qilinadi. Mazkur shartlar past foiz stavkasi (5-8foiz) va kreditlashning uzoq muddatlarini (5-15 yil) ko'zda tutadi. Germaniyada kichik biznes o'ziga xoslikka va rivojlanish tarixiga ega ekanligini qayd etish lozim. Xususan, kapitalizm vujudga kelgan davrdayoq birinchi yirik tadbirkorlar guruhlari paydo bo'lishi bilan savdo-sanoat palatalari tuzishni boshladilar. Ular ishlab chiqarish va savdoni rivojlantirish sohasidagi hamkorlik bo'yicha birinchi birlashma va uyushmalar hisoblanadi.

Hozirgi paytda savdo-sanoat palatalari davlat organlari darajasiga qadar rivojlandi va endilikda har bir tadbirkor palata tarkibiga kirishga majbur. Germaniyada kichik biznesga taalluqli birorta ham huquqiy hujjat savdo-sanoat palatasining ma'qullashi, roziligi va tasdig'isiz o'tmaydi. Germaniya savdo-sanoat palatalari Assotsiatsiyasi barcha palatalarni o'zida birlashtiradi va federal darajada tadbirkorlar manfaatlarini mujassamlashtiradi. Bu hamkorlik assotsiatsiyasining asosiy vazifasi Evropa ittifoqi mamlakatlari savdo-sanoat palatalari vakillari bilan uzviy ish olib borishdan iborat. Butun Assotsiatsiya birgalikda Evropa hamkorligi savdo-sanoat palatalari birlashmasini tuzadi. Hozirgi paytda Germaniya savdo-sanoat palatalari barcha darajalarda byudjetlarni shakllantirish, qurilish va sanoatni rivojlantirish, kichik korxonalar faoliyatini tartibga solishga tegishli qonun loyihalarini tayyorlashda qatnashadilar. Savdo-sanoat palatalari mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari yig'ilishlarida qatnashib, mamlakatni rivojlantirish sohasida muhim ijtimoiy-iqtisodiy qarorni qabul qilgan holda jamiyat hayotining barcha tomonlariga kata ta'sirga ega. Bu bir butun infratuzilma bo'lib, unda OAV vakillari ham, maslahatlar xizmati ham

qatnashadi. Palatalarning asosiy ustuvor vazifasi Germaniyaning kichik biznesiga har qanday qo'llab-quvvatlash va yordam ko'rsatishdan iborat.

Ikkinchi jahon urushidan keyingi yillardagi kuchli texnik-iqtisodiy uzilish Yaponiyani dunyoning eng taraqqiy etgan uchta mamlakatidan biriga aylantirdi. Bunga kuchli davlat qo'llab-quvvatlashi yordamida kichik biznesni rivojlantirish tufayli erishilgan. Ko'pgina avtomobillar, texnika, innovatsion mahsulotlar fan sig'imli ishlab chiqarishi bo'yicha butun dunyoda mashhur kompaniya va kontsernlar aynan shu yerda joylashgan. Kichik biznes Yaponiya umumiyo sanoati hajmida katta salmoqni (taxminan 40 foiz) tashkil qiladi. Biroq shuni ta'kidlash lozimki, Yaponiyada kichik biznes ko'p darajada quyidagi tarmoqlarda mujassamlashgan: qurilish, yengil sanoat, xizmat ko'rsatish sohasi. Fan sig'imli ishlab chiqarishlar asosan, yirik kompaniyalar tomonidangina olib boriladi. Bu Yaponiyani iqtisodiy rivojlantirishning asosiy vazifasi— kichik biznesda innovatsion yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni rag'batlantirishning o'zidir.

Yaponiyada kichik biznes korxonalariga nisbatan qo'llanilayotgan huquqiy hujjatlar kichik korxonalar maqomi va ular uchun imtiyozlarni belgilaydi. Imtiyozlar korxonalar faoliyat turlaridan kelib chiqib, maxsus soliqqa tortishni ko'zda tutadi. Qonun loyihasining katta qismi Yaponiyada antimonopol qonunchilikni tartibga solishga qaratilgan. Yaponiya qonunchiligi mahsulotlarga bozor qiymatini oshirish pasaytirish darajasini qattiq tartibga soladi va cheklaydi. Asossiz chegirmalar yoki chayqovchilik narxlari tufayli korxonalar va tadbirkorlar o'z faoliyatini amalga oshirish huquqidан mahrum bo'lishlari mumkin. Holbuki, bu shartlar kompaniyalar istisno qilinmagan holda barchasi uchun haqiqiydir. Rivojlangan bozor mexanizmlari tufayli yapon hukumati narxlarning asossiz o'zgarishlari va inflyatsiyani muvaffaqiyatli ushlab turishning uddasidan chiqmoqda. Shunday qilib, boshlang'ich sharoitlar va imkoniyatlar tufayli Yaponiyada kichik biznesni rivojlantirish uchun yaxshi sharoitlar yaratilgan.

Yaponiya kichik biznes korxonalari faoliyatini amalga oshirishni tartibga solish davlat organi Tashqi savdo va sanoat vazirligiga

bo'ysunadigan Kichik korxonalar boshqarmasi hisoblanadi. Mazkur Boshqarma antimonopol qonunchilikka rioya qilinishini nazoratqiladi, Yaponiya kichik biznes manfaatlarining davlat tomonidan muhofazasini ta'minlaydi, mulkdorlar nazoratini cheklaydi, nobozor shartnoma munosabatlari uchun buyurtmachilar, ijrochilar va subpudratchilar javobgarligini belgilaydi. Kichik biznesni kreditlash va qarzlarni taqdim qilish mexanizmlarini ta'minlash uchun davlat kichik va o'rta biznesni sug'ortalash korporatsiyasi hamda Kreditlarni kafolatlash assotsiatsiyasini (Xitoy, AQSh va b. da kichik Biznesni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirish uchun davlat fondlarini tuzish kabi) tuzishni ko'zda tutadi. Yaponiyada kichik biznesni rag'batlantirish markaziy hukumatlardan boshlab, kichik korxonalarning mustaqil uyushmalari va birlashmalari bilan yakunlangan holda olib boriladi. Markaziy hukumatlar va mahalliy o'zini o'zi boshqarish organlari bevosita fan sig'imli va yuqori texnologik ishlab chiqarishlarni yaratishda qatnashadigan kichik biznes korxonalarini hayotiy tsiklining barcha bosqichlarida subsidiyalaydi. Shunday korxonalar uchun davlat zaymlarini ajratadi, kafillik va kredit kafolatlarining boshqa turlarini taqdim qilish orqali kichik biznesni kreditlashni ta'minlaydi. Bundan tashqari, maxsus markazlar, notijorat tashkilotlarida davlat markaziy qo'llab-quvvatlashida xodimlarni o'qitish amalga oshirilmoqda, maslahataxborot qo'llab-quvvatlashi ko'rsatilmoqda.

Biznes uchun imtiyozli sharoitlarda subsidiyalash, qarz berish, kreditlash quyidagi maqsadlarda ko'zda tutilgan:

- fan sig'imli korxonalar ishlab chiqarishning moddiy asosini qayta jihozlash, modernizatsiyalash, takomillashtirish;
- institutlar va universitetlar bilan birgalikda innovatsion loyihalar, yangiliklar, kashfiyotlarni ishlab chiqish;
- yengil va oziq-ovqat sanoatini rivojlantirish;
- yangi texnologiyalar (kashfiyotlar) va yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish;
- Yaponianing sanoat jihatidan qoloq mintaqalarida kichik biznesning yangi korxonalarini yaratish va rivojlantirish.

Xitoy hukumati mamlakatda kichik biznesni rivojlantirishga katta ahamiyat bermoqda. Shu sababli, aynan ushbu soha innovatsion texnologiyalarni o'zlashtirishda faol qatnashib, yangi ishchi o'rinalarini yaratadi. Kichik biznes 2006 yilda qabul qilingan «Resurs sig'imli ishlab chiqarishlarni yuqori texnologiyali tarmoqlar tomoniga qayta yo'naltirish» qoidasiga ko'proq javob beradi. Shunga qaramasdan, Xitoy kichik biznesi baribir ham davlatning qo'shimcha qo'llab-quvvatlashi, investitsiyalarni jalb qilish, kichik biznesni kreditlash dasturlarini kengaytirishga muhtojdir. Shuni anglagan holda, Xitoy hukumati butun imkoniyatlarini ishga solib, kichik biznes korxonalarining iqtisodiy o'sishini rag'batlantiradi, xususan, kichik biznes faoliyatini tartibga solish va kichik korxonalarni soliqqa tortish sohasidagi huquqiy qonunchilikni takomillashtiradi. 2002 yilda qabul qilingan «Kichik va o'rta korxonalarning rivojlanishini rag'batlantirish to'g'risida»gi qonun shunday qonunlardan asosiysi bo'lib, u kichik biznes korxonalariga kreditlash, investitsiyalash, ishlab chiqarishni modernizat-siyalash, axborot va fan sig'imli texnologiyalarni joriy etishga nisbatan teng imkoniyatlarni ko'zda tutadi. Boshqa mamlakatlarda bo'lgani kabi Xitoyda ham kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga ko'maklashish davlat fondlari tuzilgan va faol takomillashtirilmoqda. Ularning asosiy roli va vazifasi – kichik biznes korxonalarini bank kreditlari olish imkoniyatlari uchun garov ta'minoti va kafolatli majburiyatlar bilan ta'minlashdir. Buning uchun Xitoy Kommunistik partiyasi tomonidan «Kichik va o'rta korxonalarni rivojlantirish Davlat fondi»ni tuzish to'g'risida maxsus qoida ishlab chiqilgan va tasdiqlangan. Mazkur fond to'liq Xitoy byudjeti tomonidan moliyalashtiriladi va kichik korxonalarni rivojlantirish-ning katalizatori rolida chiqadi. Davlat fondi iqtisodiyotning barcha tarmoqlaridagi kichik biznes korxonalariga soliq imtiyozlari, moliyalash, o'z daromadlarining qonuniy muhofazasini ta'minlagan holda ularning manfaatlarini yirik kompaniyalar bilan kurashda himoyalaydi va yoqlaydi.

Mamlakatni rivojlantirish Xitoy dasturlari, jumladan, kichik va o'rta biznesni aynan kompleks rivojlantirish hisobiga xalq xo'jaligi faoliyatining samaradorligini oshirish va salobatli iqtisodiy o'sishni

ko'zda tutadi. Xususan, Xitoy iqtisodiyotini 2020–2050 yillarda to'liq modernizatsiyalashga qaratilgan dasturlar tasdiqlandi<sup>1</sup>. Bunday dasturlardan biri 2003 yilda qabul qilingan, 2050 yilgacha iqtisodiyotning barcha tarmoqlarini to'la modernizatsiyalashni ko'zda tutadigan mamlakatni 2020 yilgacha ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish dasturi hisoblanadi.

2003 yildan keyin XXR dan kichik biznesning mislsiz o'sishi, markaziy byudjetga soliq tushumlarining ko'payishi qayd etildi. Rivojlanishning bunday sakrashi, eng avvalo, kichik korxonalar va yakka tadbirkorlarning oshib boruvchi soni bilan ta'minlangan. XXR Davlat statistika qo'mitasi quyidagi ma'lumotlarni e'lon qildi: 2005 yilda mamlakatda 3 millionta kichik korxona va deyarli 30 million yakka tadbirkor borligi aytildi. Shu tariqa kichik biznes korxonalari Xitoydagি umumiy korxonalar sonining katta qismini tashkil qildi. Nima uchun Xitoyda kichik biznes iqtisodiyotning tayanch sohasi ekanligi ayon bo'ldi.

XXR mehnatga layoqatli aholisining taxminan 60foizi aynan kichik biznesda mehnat qilmoqda. Agar Xitoy kichik biznesining sifat tavsifini beradigan bo'lsak, kichik biznes mamlakatning ilmiy dvigateli hisoblanadi. Shu sababli aynan shu sohada ko'proq innovatsion mahsulotlar, kashfiyotlar va texnik yangiliklar ishlab chiqarilmoqda. Aynan kichik biznes korxonalari o'z mahsulotlarini jahon bozorlariga chiqargan holda mamlakatda ishlab chiqariladigan mahsulotlarning eksport asosini tashkil qiladi. Biznesni muvofiqlashtirish va kooperatsiyalash bo'yicha Xitoy markazi – ixtisoslashgan agentligi Xitoyda kichik korxonalarni qo'llab-quvvatlovchi asosiy davlat organi hisoblanadi. Mazkur markazning asosiy vazifasi tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash sohasida texnologik hamkorlik uchun zaruriyinfratuzilmani yaratishdan iborat. Markaz tashabbusi bilan kichik biznesni maslahat va axborot bilan qo'llab-quvvatlash amalga oshirilmoqda, innovatsion mahsulotlarni ishlab chiqarish sohasida savdo yarmarkalari, ko'rgazmalari tashkil qilinmoqda, kichik biznes muammolarini tadqiq

<sup>1</sup>Стратегии модернизации и обеспечения долгосрочного устойчивого экономического роста. Форум экономистов Узбекистана. – Т.: «SMIASIA», 2011.

etish va dasturlarini amalga oshirish bo'yicha seminarlar, anjumanlar o'tkazilmoqda.

Kichik biznesni qo'llab-quvvatlash va rivojlantirishning yana bir muhim organi – bu 2001 yilda tuzilgan CSMEO davlat axborot xizmatidir. Bu muvofiqlashtiruvchi markaz, asosan, internetdagi o'z sayti orqali aholiga axborot xizmati ko'rsatish hamda kichik va o'rta korxonalar faoliyati masalalarida xizmat ko'rsatadi. XXRning barcha mintaqasi va shaharlarini qamrab olgan CSMEO tarmog'i mehnat bozoridagi vaziyat, amaldagi qonunchilik o'zgarishlari, oxirgi ilmiy-texnik yutuqlar va texnologik yangiliklar, kichik va o'rta biznes korxonalarining holati va rivojlanishi haqida o'z vaqtida xabar berib turadi. Axborot xizmati hukumat vakillari va korxonalar o'rtasida turli yig'ilishlar, yarmarkalar o'tkazishni tashkil qiladi, korxonalarga maslahatlar xizmatini ta'minlaydi.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning maqsadi va vazifalari nimalardan iborat?
2. Tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyatini asoslab bering.
3. Qisqa va o'rta muddatli istiqbolda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning qanday yo'nalishlari mavjud?
4. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning iqtisodiyotdagi roli va ahamiyatini aniqlashda qanday ko'rsatkichlardan foydalaniladi?
5. O'zbekistonda tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirish va boshqarishning xorij tajribasidan foydalanishni qanday imkoniyatlari mavjud?

### **III BOB. AROBIZNES KORXONALARI FAOLIYATINI TASHKILIY-IQTISODIY ASOSLARI**

**3.1. Agrobiznes korxonalari faoliyatining tashkiliy-huquqiy shakllari va ularni asoslarini belgilovchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar.**

**3.2. Fermer xo'jaligi faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari.**

**3.3. Dehqon xo'jaligi faoliyatini tashkiliy-iqtisodiy asoslari.**

**3.4. Agrofirmalarni tashkil etish.**

#### **3.1. Agrobiznes korxonalari faoliyatining tashkiliy-huquqiy shakllari va ularni asoslarini belgilovchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar.**

Umuman olganda, tadbirkorlik huquqi sub'ektlarini bir necha turlarga ajratish mumkin. Subyektlarni turkumlash ularning mulkchilik shakliga (masalan, fuqarolarning xususiy mulki, jamoa mulki yoki davlat mulkiga asoslangan), vakolatlariga (ya'ni bevosita tadbirkorlik faoliyatini amalga oshiruvchi korxonalar, yoki boshqaruvni amalga oshiruvchi sub'ektlar kabi), shaxslarga (jismoni shaxslar va yuridik shaxslar) hamda faoliyat turiga (tijorat va notijorat tashkilotlar) qarab belgilanadi.

Shu o'rinda tadbirkorlik faoliyati sub'ektlarni faoliyat maqsadiga (turiga) qarab tijorat tashkilot va notijorat tashkilotga ajratilgan ikki turiga tushuncha berib o'tsak. Ushbu turlarga bo'lish Fuqarolik kodeksining 40-moddasida, ya'ni yuridik shaxslarning turlarida ham ko'rsatib o'tilgan.

**Tijorat tashkilot** - bu foyda olishni o'z faoliyatining asosiy maqsadi qilib qo'ygan sub'ekt bo'lib, (xususiy korxonalar, xo'jalik jamiyatlari, shirkatlari) tijoratchi tashkilotlarning huquqiy holatlari O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi va boshqa qonun hujjatlarida belgilab qo'yilgan.

**Notijorat tashkilot** - tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari o‘z oldiga muayyan maqsa dni ko‘zlagan holda harakat qilib, foyda ko‘rishni ko‘zlamaydi. Bunday sub'ektlarga jamoat birlashmasi, ijtimoiy fond va mulkdor tomonidan moliyaviy ta'minlab turiladigan muassasa va boshqalar kiradi.

Mulkchilik shaklidan kelib chiqib tadbirkorlik sub'ektlarini quyidagicha tashkil etish mumkin:

1. Yakka tartibdagi tadbirkorlik;
2. Xususiy tadbirkorlik;
3. Jamoa tadbirkorligi;
4. Qo‘shma tadbirkorlik.

### **Yakka tartibdagi tadbirkor.**

2012 yil 2 mayda qabul qilingan “Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonunda tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari doirasi kengaytirilib, ular kichik tadbirkorlik sub'ektlari shaklida, jumladan yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik bilan shug‘ullanuvchi yakka tartibdagi tadbirkorlar ham kichik tadbirkorlik sub'ekti sifatida mastahkamlandi. Qonunga binoan har qanday fuqaro ham tadbirkor shaxs hisoblanmaydi, balki faqat belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tib, tadbirkor maqomini olgan fuqarolargina e’tirof etilishi mumkin.

Yakka tartibdagi tadbirkorlik yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan mustaqil, xodimlarni yollash huquqi bilan, mulk huquqi asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yadigan o‘zga ashyoviy huquq asosida amalga oshiriladi. Hunarmandchilik faoliyatini amalga oshirayotgan yakka tartibdagi tadbirkorlar tovarlar tayyorlash (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) uchun ko‘pi bilan besh nafar shogirdni ularga tegishlicha haq to‘lagan holda jalb etishga haqlidir. Yakka tartibdagi tadbirkor o‘z faoliyatini amalga oshirayotganda shaxsiy ish hujjatlari blankalaridan, muhr, shtamlardan foydalanishga haqli, ularning matnlari mazkur shaxs yakka tartibdagi tadbirkor ekanligi haqida dalolat berishi lozim.

Yakka tartibdagi tadbirkorlikni amalga oshirish uchun er-xotindan biri er-xotinning umumiy birgalikdagi mol-mulkidan foydalanadigan hollarda, agar qonunda, nikoh shartnomasida yoxud er-xotin o‘rtasidagi o‘zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, arning (xotinning) roziligi talab qilinadi.

Demak, yuridik shaxs tashkil etmagan holda tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari shakllari to‘g‘risida so‘z ketar ekan qonun ularni quyidagi tarzda mustahkamlaganligini ta’kidlash joiz.

- yakka tartibdagi tadbirkor tomonidan xodimlarni yollash huquqi bilan, mulk huquqi asosida o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek, mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yadigan o‘zga ashyoviy huquq tufayli o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida mustaqil ravishda amalga oshiriladigan yakka tartibdagi tadbirkorlik;
- er-xotinning umumiy mol-mulki negizida ular tomonidan amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik;
- ikki yoki undan ortiq yakka tartibdagi tadbirkorlar tomonidan foya olish yoki qonunga zid bo‘lmagan boshqa maqsadga erishish uchun o‘z hissalarini qo‘sish va yuridik shaxs tuzmasdan, birgalikda ish qilish majburiyatini olgan oddiy shirkat;
- yuridik shaxs tashkil etmagan holda dehqon xo‘jaligini yuritish.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish (davlat ro‘yxatidan o‘tishi) uchun shaxs 18 yoshga to‘lgan bo‘lishi lozim. Yakka tartibdagi tadbirkorlik va oilaviy tadbirkorlik faoliyatining negizi, mulkning shakllanish holati bir-biridan farq qiladi. Yakka tartibdagi tadbirkor mulk huquqi asosida faqat o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida, shuningdek mol-mulkka egalik qilish va (yoki) undan foydalanishga yo‘l qo‘yadigan o‘zga ashyoviy huquq tufayli o‘ziga tegishli bo‘lgan mol-mulk negizida faoliyat ko‘rsatsa, oilaviy tadbirkorlik mol-mulk negizida umumiy birgalikdagi mulk asosida amalga oshiriladi.

### **Oilaviy tadbirkorlik**

Bugun rivojlangan davlatlar tajribasida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashning eng samarali

vositasi, aholi bandligi va daromadlarini oshirib borishning muhim omili sifatida e'tirof etilmoqda. Mamlakatimizda ham mustaqillikning dastlabki yillaridan boshlab davlatimiz tomonidan soha vakillarining samarali faoliyat yuritishi uchun zarur normativ-huquqiy baza yaratilib, muntazam takomillashtirilib borilmoqda.

Shuni alohida qayd etish joizki, 2012 yil 26 aprelda O'zbekiston Respublikasining "Oilaviy tadbirkorlik to'g'risida"gi qonunining qabul qilinganligi tadbirkorlik bilan shug'ullanish istagini bildirgan fuqarolarga qo'shimcha imkoniyat va qulayliklar yaratdi.

Gap oilaviy tadbirkorlikni amalga oshirish to'g'risida ketar ekan, er-xotindan biri er-xotinning umumiyligini birgalikdagi mol-mulkidan foydalanadigan hollarda vujudga keladigan munosabatlarni huquqiy tartibga solish masalasi muhimdir. Chunonchi qonunlarda, nikoh shartnomasida yoki er-xotin o'rta sidagi o'zga kelishuvda boshqacha qoida nazarda tutilgan bo'lmasa, bunday holda er (xotin)ning roziligi talab qilinadi. Bunday rozilik notarial tasdiqlangan bo'lib, qaysi mol-mulkdan foydalanishga kelishilgan bo'lsa, ushbu mol-mulkka tegishli ma'lumotlar qayd etilishi lozim.

Yuridik shaxs tashkil etmasdan tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish tadbirkorlikning er-xotinning umumiyligini negizida ular tomonidan amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlik turida (ish muomalalarida) er-xotin nomidan arning yoki xotinning roziligi bilan ulardan biri ishtirok etadi, bu rozilik yakka tartibdagi tadbirkor ro'yxatdan o'tkazilayotganda tasdiqlanishi lozim.

Oilaviy tadbirkorlikda er-xotinning umumiyligini birgalikdagi mol-mulkidan foydalanishda qonun oilaning voyaga yetgan boshqa a'zolarining manfaatlarini inobatga olgan, xususan, agar tadbirkorlik faoliyati obyekti sifatida uy-joydan foydalanish bilan bog'liq oilaviy tadbirkorlik amalga oshirilayotganda uy-joy mulkdorlaridan birining ish muomalalariga kirishishi oilaning voyaga yetgan boshqa a'zolarining notarial tasdiqlangan roziligi bo'lgan taqdirda amalga oshiriladi.

Bundan tashqari, oilaviy tadbirkorlikni yuridik shaxs tashkil etmagan holda olib borish tartibi O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2009 yil 29 iyuldagagi "Yuridik shaxs tashkil etmasdan

oilaviy tadbirkorlikni hamda hunarmandchilik faoliyatini rivojlantirish va kengaytirish chora-tadbirlari to‘g“risida” 216-son qarorida ham ko‘rsatilgan.

Yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshiriladigan oilaviy tadbirkorlikning tashkiliy-huquqiy shakli oilaviy korxonadir. Qonuning 4-moddasiga binoan “Oilaviy korxona uning ishtirokchilarini tomonidan tovarlar ishlab chiqarish (ishlar bajarish, xizmatlar ko‘rsatish) va realizatsiya qilishni amalga oshirish uchun ixtiyoriy asosda, oilaviy korxona ishtirokchilarining ulushli yoki birgalikdagi mulkida bo‘lgan umumiyl mol-mulk, shuningdek oilaviy korxona ishtirokchilaridan har birining mol-mulki negizida tashkil etiladigan kichik tadbirkorlik sub'ektidir.

Oilaviy korxona faoliyati uning ishtirokchilarining shaxsiy mehnatiga asoslanadi. Oilaviy korxona tadbirkorlik sub'ektlarining tashkiliy-huquqiy shakllaridan biridir. Oilaviy korxona faoliyatni faqat yuridik shaxs tashkil etgan holda amalga oshirishi mumkin.

Oilaviy korxona o‘z mulkida alohida mol-mulkka ega bo‘lishi, o‘z nomidan mulkiy va shaxsiy nomulkiy huquqlarni olishi hamda amalga oshirishi, zimmasiga majburiyatlar olishi, sudda da‘vogar va javobgar bo‘lishi mumkin.

Oilaviy korxona o‘z majburiyatlari bo‘yicha qonunga muvofiq undiruv qaratilishi mumkin bo‘lgan o‘ziga tegishli barcha mol-mulk bilan javob beradi.

Oilaviy korxona ishtirokchilarini korxona mol-mulki yetarli bo‘limganda oilaviy korxonaning majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga tegishli mol-mulk bilan qonun hujjatlariga muvofiq subsidiar javobgar bo‘ladi.

Oilaviy korxona qonun hujjatlariga muvofiq xodimlarni yollashni amalga oshirishi mumkin. Oilaviy korxona ishtirokchilarining va uning yollanma xodimlarining umumiyl soni kichik tadbirkorlik sub'ektlari xodimlarining qonun hujjatlarida belgilangan o‘rtacha yillik sonidan ko‘p bo‘lishi mumkin emas. Bunda oilaviy korxona ishtirokchilarining eng kam soni ikki kishidan oz bo‘lmasligi kerak.

Oilaviy korxona to‘liq firma nomiga ega bo‘lishi lozim va qisqartirilgan firma nomiga ega bo‘lishga haqli. Oilaviy korxonaning

to‘liq firma nomi uning to‘liq nomini va “oilaviy korxona” degan so‘zlarni o‘z ichiga olishi kerak.

Oilaviy korxonaning qisqartirilgan firma nomi uning qisqartirilgan nomini va “oilaviy korxona” degan so‘zlarni yoki “OK” abbreviaturasini o‘z ichiga olishi kerak.

Oila boshlig‘i, uning xotini (eri), bolalari va nabiralari, ota-onasi, mehnatga qobiliyatli yoshga to‘lgan boshqa qarindoshlari (bolalari va nabiralarining erlari (xotinlari), tug‘ishgan hamda o‘gay aka-uka va opasingillari, ularning erlari (xotinlari) hamda bolalari, tog‘a va amaki hamda amma va xolalari) oilaviy korxona ishtirokchilari bo‘lishi mumkin. Faqat muomalaga layoqatli shaxslar oilaviy korxona ishtirokchilari bo‘lishi mumkin.

### **Dehqon xo‘jaliklari**

Dehqon xo‘jaligidagi faoliyat tadbirkorlik faoliyati jumlasiga kiradi, hamda dehqon xo‘jaligi a’zolarining istagiga ko‘ra, yuridik shaxs tashkil etgan holda va yuridik shaxs tashkil etmasdan amalga oshirilishi mumkin. Dehqon xo‘jaligi o‘z faoliyatida yollanma mehnatdan doimiy asosda foydalanishi mumkin emas.

Dehqon xo‘jaligi - oilaviy mayda tovar xo‘jaligi bo‘lib, oila a’zolarining shaxsiy mehnati asosida, meros qilib qoldiriladigan umrbod egalik qilish uchun oila boshlig‘iga beriladigan tomorqa yer uchastkasida qishloq xo‘jaligi mahsuloti yetishtiradi va realizatsiya qiladi. (“Dehqon xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonun 1-modda (1998 yil 30 aprel))

Dehqon xo‘jaligi a’zolari jumlasiga birgalikda yashayotgan va dehqon xo‘jaligini birgalikda yuritayotgan oila boshlig‘i, uning xotini (eri), bolalari, shu jumladan farzandlikka olingan bolalari, tarbiyaga olgan bolalari, ota-onalari, mehnatga qobiliyatli yoshga yetgan boshqa qarindoshlari kiradi. (Dehqon xo‘jaliklari to‘g‘risida keyingi paragraflarda to‘liq ko‘rib o‘tiladi)

### **Xususiy korxona**

Xususiy korxona tadbirkorlik sub'ektlarining tashkiliy-huquqiy shakli bo‘lib, 2003 yil 11 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining

“Xususiy korxona to‘g‘risida”gi 558-II-son qonuniga muvofiq mulkdor yagona jismoniy shaxs tomonidan tuzilgan va boshqariladigan tijoratchi tashkilot xususiy korxona deb e’tirof etiladi.

Xususiy korxona to‘liq firma nomiga ega bo‘lishi lozim va qisqartirilgan firma nomiga ega bo‘lishga haqli. Xususiy korxonaning to‘liq firma nomi uning to‘liq nomini va «xususiy korxona» degan co‘zlarni o‘z ichiga olgan bo‘lishi kerak. Xususiy korxonaning qisqartirilgan firma nomi uning qisqartirilgan nomini va “xususiy korxona” degan so‘zlarni yoki “XK” abbreviaturasini o‘z ichiga olishi kerak.

Xususiy korxona mulkdori korxonani rahbar sifatida yakka boshqaradi, korxona nomidan ishonchnomasiz ish ko‘radi, uning manfaatlarini ifodalaydi, xususiy korxonaning pul mablag‘larini hamda boshqa mol-mulkini tasarruf etadi, shartnomalar, shu jumladan mehnat shartnomalari tuzadi, ishonchnomalar beradi, banklarda hisobvaraqlar ochadi, shtatlarni tasdiqlaydi, korxonaning barcha xodimlari uchun majburiy bo‘lgan buyruqlar chiqaradi va ko‘rsatmalar beradi.

Xususiy korxona mulkdori o‘zi vaqtinchalik bo‘lmagan taqdirda shu muddatda rahbarlik vazifasini bajarib turishni boshqa jismoniy shaxs zimmasiga yuklash to‘g‘risida yozma qaror qabul qiladi. Xususiy korxona mulkdori muvaqqat rahbarning xususiy korxona mol-mulkini tasarruf etishga oid huquqini cheklab qo‘yishi mumkin. Xususiy korxonalar o‘z huquq va manfaatlarini himoya qilish maqsadida qonunga muvofiq assosiasiylarga (uyushmalarga) va boshqa birlashmalarga birlashishlari mumkin. Xususiy korxona mulkdori xususiy korxonani mol-mulk majmuasi sifatida sotishga, hadya qilishga, vasiyat qilib qoldirishga yoki uni o‘zgacha usulda boshqa shaxsga o‘tkazishga haqli. Xususiy korxona boshqa shaxsga berilgan taqdirda o‘zining firma nomidan, tovar belgilaridan, xizmat ko‘rsatish belgilaridan hamda mazkur xususiy korxona va uning mahsulotini, u bajarayotgan ishlarni yoki ko‘rsatayotgan xizmatlarni individuallashtiruvchi o‘zga vositalardan foydalanish huquqlari, agar qonun hujjatlarida yoxud shartnomada boshqacha qoida nazarda tutilgan bo‘lmasa, yangi mulkdorga o‘tadi.

## **Fermer xo‘jaliklari**

Bugungi kunga kelib, respublikamizda tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari orasida fermer xo‘jaliklariga ham katta ahamiyat berilmoqda. Bu sohani rivojlantirish maqsadida, mamlakatimizda 2004 yil 26 avgustda “Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi yangi tahrirdagi qonun va bir qancha Prezidentimizning fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishga qaratilgan qonunosti xujjatlari qabul qilindi.

**Fermer xo‘jaligi** - ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda, qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqarish bilan shug‘ullanuvchi, mustaqil xo‘jalik yurituvchi sub'ekt. Fermer xo‘jaligi O‘zbekiston Respublikasida qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishining asosiy sub'ekti hisoblanadi. (“Fermer xo‘jaligi to‘g‘risida”gi qonunning 3-moddasi)

Odatda, fermer xo‘jaligi qishloq xo‘jaligiga mo‘ljallangan yerdarda va zaxira yerdarda tashkil etiladi. (Fermer xo‘jaliklari to‘g‘risida keyingi paragraflarda to‘liq ko‘rib o‘tiladi)

## **Ishlab chiqarish kooperativi va shirkat xo‘jaligi**

Ishlab chiqarish kooperativi xo‘jalik shirkati kabi shaxslarning hamda ularning mulk bilan qo‘shiladigan pay badallarini ixtiyoriy birlashmasi bo‘lib, unda uning a’zolarini kooperativ faoliyatida shaxsan ishtirok etishi talab etiladi. 1991 yil 14 iyundagi O‘zbekiston Respublikasi “Kooperatsiya to‘g‘risida” 295-XII-son Qonuniga muvofiq u yuridik va jismoniy shaxslarga kooperativga ixtiyoriy ravishda kirish va undan erkin chiqish, kooperativni boshqarishda ishtirok etish huquqini, kooperativlarni mulkchilikning barcha shakllaridagi korxonalar bilan teng huquqlilik asosida rivojlantirish, jamoa bo‘lib xo‘jalik yuritish mustaqilligini hamda ustavda belgilangan vazifalarni bajarish yuzasidan qarorlar qabul qilishda kooperativning mustaqilligini kafolatlaydi.

O‘zbekiston Respublikasida aholining mahsulotlar, ishlar va xizmatlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun, shuningdek foyda (daromad) olish maqsadida tuziladigan matlubot, ishlab chiqarish va aralash ishlab chiqarish matlubot kooperativlari amal qiladi.

Kooperatsiya, shuningdek o‘z a’zolarining uy-joy-maishiy va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan

kooperativlarni (uy-joy qurish, uy-joy kooperativlarini, garaj qurish, chorbog‘ qurish va shu kabi kooperativlarni) ham o‘z ichiga oladi.

Ishlab chiqarish kooperativida a'zolarning shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishi kooperativning asosiy belgisi bo‘lib hisoblanadi. Agarda kooperativning ustavida boshqacha tartib belgilangan bo‘lmasa, daromad ham aynan a'zolarning qilgan mehnatiga muvofiq taqsimlanadi. Chunki, xo‘jalik jamiyatidan farqli ravishda ishlab chiqarish kooperativida birinchi o‘rinda kapital emas, balki mehnat turadi.

Ishlab chiqarish va ishlab chiqarish - matlubot kooperativlarining faoliyati o‘z a'zolarining, shuningdek mehnat shartnomalari (kontraktlar, bitimlar) bo‘yicha ishlayotgan kishilarning o‘z mehnatlari bilan shaxsan ishtirok etishiga asoslanadi. Matlubot kooperativlari hamda o‘z a'zolarining uy-joy maishiy va boshqa ijtimoiy ehtiyojlarini qondirishga xizmat qiladigan kooperativlar faoliyati o‘z mehnati bilan shaxsan ishtirok etish bilan bog‘liq bo‘lmashigi ham mumkin.

Kooperativlar tarmoq, hududiy va boshqa belgilar bo‘yicha xo‘jalik uyushmalariga ixtiyorilik asosida birlashishlari va yakkahokimlikka qarshi qonunlarning talablarini hisobga olgan holda ish olib borishlari mumkin. Ishlab chiqarish kooperativida a'zo sifatida asosan jismoniy shaxslar ishtirok etishadi. Biroq qonunda va ishlab chiqarish kooperativining ta'sis hujjatlarida uning faoliyatida a'zolik asosida yuridik shaxslar ham ishtirok etishi nazarda tutilishi mumkin.

Ishlab chiqarish kooperativida ham xo‘jalik shirkatidagidek a'zolarning o‘zgarishi qattiq nazorat qilinadi, ammo ishtirokchilar tarkibini o‘zgarishi uni tugatish uchun asos bo‘lmaydi. O‘z majburiyatlarini bajarmagan yoki to‘liq bajarmagan kooperativ a'zosi umumiylar qarori bilan a'zolikdan chiqarib yuborilishi mumkin. A'zolikdan chiqarish to‘g‘risidagi qaror ishtirokchilarning oddiy ko‘pchilik ovozi bilan qabul qilinadi.

Matlubot kooperativlari (jamiyatları) ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollari xarid qilishni va sotishni tashkil etish orqali fuqarolarning qishloq xo‘jalik mahsulotlari xom ashvosini yetishtiruvchi va qayta ishlovchi yordamchi xo‘jaliklarini, shuningdek hunarmandchilikni rivojlantirishni rag‘batlantiradilar. Bundan tashqari,

qonunga muvofiq, fuqarolar o‘z ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun ixtiyoriylik asosida uy-joy qurish, uy-joy kooperativlari, garaj qurish kooperativlari va boshqa kooperativlar tuzishlari mumkin. Bunday kooperativlar faoliyatining asosiy yo‘nalishi kooperativ mulki obyektlarini (uy-joylar, garajlar va shu kabilar), ustavda nazarda tutilgan hollarda esa - kooperativ a’zolarining mulki bo‘lgan obyektlarni ham qurish va keyinchalik ulardan foydalanishda pul mablag‘lari yoki shaxsiy mehnat bilan ishtirok etishdan, shuningdek kooperativ a’zolariga kooperativni tuzishdan ko‘zlangan maqsadlarga mos xizmatlarni ko‘rsatishdan iboratdir.

Shu bilan birga, bog‘dorchilik shirkatlari, yakka tartibda qurilish bilan shug‘ullanuvchilar shirkatlari va o‘zga matlubot shirkatlari ham mavjud bo‘lib, 1991 yil 14 iyundagi “Kooperatsiya to‘g‘risida” 295-XII-son Qonun ularga nisbatan ham amal qiladi. O‘zining huquqiy mavqeiga ko‘ra ishlab chiqarish kooperativi xo‘jalik shirkatiga o‘xshab ketadi, biroq ichki munosabatlarni tartibga solishda muayyan darajada farqlar mavjud. Bu esa o‘z navbatida tadbirkorlik faoliyatini yuritishning tashkiliy – huquqiy shaklini ko‘payishiga olib keladi.

### **Mas’uliyati cheklangan va qo‘srimcha mas’uliyatli jamiyatlar**

Hozirgi davrda mamlakatimizda ko‘pchilik tadbirkorlar o‘zlarining faoliyatini mas’uliyati cheklangan jamiyat tashkiliy-huquqiy shaklda amalga oshirishmoqda. Xo‘sh buning sababi nimada, nima uchun tadbirkorlarimiz aynan ushbu yuridik shaxs shaklini tanlashayapti?

**Mas’uliyati cheklangan jamiyat** - bir yoki bir necha shaxs tomonidan ta’sis etilgan, ustav fondi (ustav kapitali) ta’sis hujjatlari bilan belgilab qo‘yilgan miqdorlardagi ulushlarga bo‘lingan jamiyat. Mas’uliyati cheklangan jamiyatning ishtirokchilari uning majburiyatları bo‘yicha javobgar bo‘lmaydilar va jamiyat faoliyati bilan bog‘liq zarar uchun o‘zları qo‘sghan hissalar qiymati doirasida javobgar bo‘ladilar.

Avvalambor, mas’uliyati cheklangan jamiyatda:

- jamiyat muassislarining majburiyatları bo‘yicha javobgar emas;
- jamiyatning o‘z hissasini to‘la qo‘srimagan ishtirokchilari jamiyat majburiyatları bo‘yicha har bir ishtirokchi hissasining to‘lanmagan

qismining qiymati doirasida solidar javobgar bo‘ladilar. Mazkur qoidaga ko‘ra kreditorlar o‘z hissasini to‘liq qo‘shmagan ishtirokchilardan ustav fondiga qo‘yilmagan miqdordagi ulushini talab qilishga haqli;

- mas’uliyati cheklangan jamiyatning ustav kapitali unchalik katta summani tashkil etmaydi, ya’ni 2001 yil 6 dekabrdagi O‘zbekiston Respublikasining “Mas’uliyati cheklangan va qo‘shimcha mas’uliyatli jamiyatlar to‘g‘risida”gi 310-II son qonuniga asosan eng kam oylik ish haqining qirq baravari minimal miqdor sifatida belgilab qo‘yilgan.

Mas’uliyati cheklangan jamiyatning o‘ziga xos tomonlari yana quyidagi omillar bo‘yicha belgilanadi:

- ustav kapitaliga ishtirokchilari tomonidan muayyan qiymatga ega bo‘lgan mulk ulushi sifatida qo‘shilganda, uning qiymati jamiyat ishtirokchilarining umumiy majlisi tomonidan aniqlanadi;

- jamiyatni ro‘yxatga olish vaqtida har bir ishtirokchi ta’sis hujjatida ko‘rsatilgan o‘z ulushining kamida o‘ttiz foizini to‘lab qo‘ygan bo‘lishi kerak. Jamiyat ro‘yxatga olingach, bir yil ichida ishtirokchilar ulushining qolgan qismini to‘lashlari lozim;

- agarda belgilangan bir yil muddat ichida ustav kapitali muassislar tomonidan to‘liq shakllantirilmagan bo‘lsa, jamiyat o‘z ustav fondini kamaytirishini e’lon qilishi yoki o‘zini tugatishi lozim;

- mas’uliyati cheklangan jamiyatni ustav fondini oshirish uchun uning ishtirokchilari o‘z ulushlarini to‘liq ravishda qo‘shgan bo‘lishlari lozim;

- jamiyat ro‘yxatga olingandan so‘ng ikkinchi va undan keyingi moliya yillarda uning asosiy aktivlarining qiymati ustav kapitali miqdoridan kamayib ketsa, jamiyat ustav kapitalining kamaytirilishini e’lon qilishi hamda uni belgilangan tartibda ro‘yxatdan o‘tkazishi lozim;

- agarda jamiyatning asosiy aktivlari qiymati qonun bilan belgilab qo‘yilgan ustav fondining minimal miqdoridan kamayib ketsa, jamiyat tugatilishi lozim;

- jamiyat ustav kapitalini kamaytirish uchun dastlab o‘z kreditorlarini bu haqda yozma ravishda ogohlantirishi lozim, bundan maqsad kreditorlarning manfaatini himoya qilishdir.

Yuridik va jismoniy shaxslar mas'uliyati cheklangan jamiyatning muassislari bo'lishlari mumkin. Qonun bilan ayrim toifadagi jismoniy shaxslarni yoki jamiyatda ishtiroki ta'qiqlanishi yoki cheklanishi mumkin. Davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari jamiyatda ishtirokchi bo'lish huquqiga ega emaslar, biroq qonun hujjatlarida boshqacha tartib ham belgilanishi mumkin. Jamiyat bitta shaxs tomonidan ham ta'sis etilishi mumkin va u jamiyatning yagona ishtirokchisi bo'lib qoladi. Bir nechta ishtirokchilar tomonidan ta'sis etilgan jamiyat, keyinchalik yagona ishtirokchidan iborat bo'lgan jamiyat sifatida ham faoliyat ko'rsatishi mumkin. Bitta ishtirokchi (jismoniy shaxs)dan iborat bo'lgan xo'jalik jamiyati boshqa jamiyatning yagona ishtirokchisi bo'la olmaydi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat ishtirokchilarining soni ellik nafardan ortib ketmasligi lozim. Agar ishtirokchilarning soni yuqoridagi miqdordan ortib ketsa, jamiyat bir yil ichida aksiyadorlik jamiyatiga yoki ishlab chiqarish kooperativiga aylantirilishi lozim. Agar belgilangan muddatda jamiyat qayta tashkil etilmasa yoki undagi ishtirokchilarning soni kamaytirilmasa, jamiyat sud orqali tugatiladi.

Mas'uliyati cheklangan jamiyat bilan bir qatorda qo'shimcha mas'uliyatli jamiyat ham mavjud. Qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatning faoliyati asosan mas'uliyati cheklangan jamiyatga oid huquq normalari bilan tartibga solinadi. O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksining 63-moddasiga muvofiq, qo'shimcha mas'uliyatli jamiyatning firma nomi jamiyatning nomini, shuningdek "qo'shimcha mas'uliyatli" degan so'zlarni o'z ichiga olishi kerak. Ishtirokchilardan biri nochor (bankrot) bo'lib qolganida, uning jamiyat majburiyatları bo'yicha javobgarligi, agar jamiyatning ta'sis hujjatlarida javobgarlikni taqsimlashning boshqacha tartibi nazarda tutilgan bo'lmasa, boshqa ishtirokchilar o'rtasida ularning qo'shgan hissalariga mutanosib ravishda taqsimlanadi.

Jamiyat o'zining ustavida nazarda tutilgan, lekin o'z ustav fondining (ustav kapitalining) o'n besh foizidan kam bo'limgan miqdorda zaxira fondini vujudga keltirishi mumkin. Jamiyatning zaxira fondi jamiyatning ustavida belgilangan miqdorga yetgunga qadar har yili

sof foydadan ajratmalar qilish yo‘li bilan shakllantiriladi. Har yilgi ajratmalar miqdori jamiyatning ustavida nazarda tutiladi, lekin u jamiyatning ustavida belgilangan miqdorga yetgunga qadar sof foydaning besh foizidan kam bo‘lishi mumkin emas.

Qo‘srimcha mas’uliyatli jamiyatning o‘ziga xos xususiyati uning ishtirokchilarini jamiyat majburiyatlari bo‘yicha javobgarligi ularning ustav kapitaliga qo‘shtgan ulushlari bilan cheklanmaganligidadir, ya’ni jamiyatining ishtirokchilari uning majburiyatlari bo‘yicha o‘z mol-mulkleri bilan qo‘shtgan hissalari qiymatiga nisbatan hamma uchun bir xil bo‘lgan, jamiyatning ta’sis hujjatlarida belgilanadigan, karrali miqdorda solidar tarzda subsidiar javobgar bo‘ladilar.

Jamiyatning zaxira fondi uning zararlarini qoplash va jamiyat tomonidan jamiyatning ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) ulushni (ulushning bir qismini) olish uchun mo‘ljallangandir.

### **Unitar korxonalar**

Hozirda yurtimizda ko‘pgina shaxslar o‘zlarining tadbirkorlik faoliyatini unitar korxona shakli sifatida ham tashkil etib amalga oshirmoqdalar.

Unitar korxona - o‘ziga biriktirib qo‘yilgan mol-mulkka nisbatan mulkdor tomonidan mulk huquqi berilmagan tijoratchi tashkilot. (O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi 70-modda).

Unitar korxonaning mol-mulki bo‘linmasdir va u qo‘shilgan hissalar (ulushlar, paylar) bo‘yicha, shu jumladan korxona xodimlari o‘rtasida ham, taqsimlanishi mumkin emas. Unitar korxonaning firma nomida uning mol-mulkining egasi ko‘rsatilgan bo‘lishi kerak. Unitar korxonani boshqarish organi uning rahbari bo‘lib, bu rahbar mulkdor tomonidan yoki mulkdor vakil qilgan organ tomonidan tayinlanadi hamda ularga hisob beradi. Unitar korxona o‘z majburiyatlari bo‘yicha o‘ziga qarashli butun mol-mulk bilan javob beradi. Unitar korxona o‘z mol-mulki egasining majburiyatlari bo‘yicha javobgar bo‘lmaydi. Unitar korxonaning mol-mulki unga xo‘jalik yuritish yoki operativ boshqarish huquqi asosida tegishlidir. Xo‘jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxona Fuqarolik kodeksining 71-moddasiga muvofiq mulkdorning yoki u vakil qilgan organning qaroriga muvofiq tashkil etiladi. Xo‘jalik

yuritish huquqiga asoslangan korxonaning ta'sis hujjati uning belgilangan tartibda tasdiqlangan ustavidan iboratdir.

Xo'jalik yuritish huquqiga asoslangan unitar korxona o'z mol-mulkining bir qismini xo'jalik yuritish uchun belgilangan tartibda topshirish yo'li bilan yuridik shaxs bo'lgan boshqa unitar korxona (sho'ba korxona) tashkil etishi mumkin. Muassis sho'ba korxonaning ustavini tasdiqlaydi va uning rahbarini tayinlaydi. Fuqarolik kodeksining 72-moddasiga muvofiq davlat organining qaroriga muvofiq davlat mulki bo'lgan mol-mulk negizida operativ boshqaruvi huquqiga asoslangan davlat unitar korxonasi (davlat korxonasi) tashkil etilishi mumkin. Davlat korxonasining ta'sis hujjati uning ustavidir. Operativ boshqaruvi huquqiga asoslangan davlat korxonasining firma nomi uning davlat korxonasi ekanligini ko'rsatishi kerak. Davlat korxonasining o'ziga biriktirib qo'yilgan mol-mulkka bo'lgan huquqi Fuqarolik kodeksining 178 va 179-moddalariga muvofiq belgilanadi.

Davlat korxonasining mol-mulki yetarli bo'limganida davlat uning majburiyatlari bo'yicha subsidiar javobgar bo'ladi. Davlat korxonasi uni tuzgan davlat organining qaroriga muvofiq qayta tashkil etilishi yoki tugatilishi mumkin.

### **Aksiyadorlik jamiyatları**

Aksiyadorlik jamiyatları haqida gap ketganda, avvalambor shuni ta'kidlash joizki, mamlakatimizda amalda bo'lib kelgan O'zbekiston Respublikasining 1996 yil 26 aprelda qabul qilingan "Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to'g'risida"gi 223-I-son qonuni 2014 yil 6 mayda O'RQ-370- sonli yangi tahrirda qonun qabul qilindi. Ushbu yangi tahrirda qabul qilingan qonun, hamda boshqa qonun va qonunosti hujjatlarida aksiyadorlik jamiyatı to'g'risidagi umumiy qoidalar, aksiyadorlik jamiyatını tashkil etish, Ustav fondi (ustav kapitali), jamiyatning aksiyalari, korporativ obligasiyalari va boshqa qimmatli qog'ozlari, jamiyatning sof aktivlari, aksiyalar va qimmatli qog'ozlarni tarqatish hamda joylashtirish, aksiyadorlar reestri va aksiyalarni saqlash, dividendlar, aksiyadorlik jamiyatini boshqaruvchi organlari, jamiyatning yirik bitimlar tuzishi, uni

qayta tashkil etish va tugatish, hisob-kitob va jamiyat faoliyatini nazorat qilish masalalari o‘z aksini topgan.

Aksiyadorlik jamiyatining asosiy ustunligi uning yirik ishlab chiqarishni tashkil etishdagi roli va shu asosdagi faoliyatining barqarorligidadir. Masalan, to‘liq shirkatdan to‘liq sherikni chiqib ketishi shirkatni tugatilishiga, mas’uliyati cheklangan jamiyatdan esa uning ishtirokchisini chiqib ketishi ustav kapitalining sezilarli darajada kamayishiga sabab bo‘ladi. Aksiyador esa jamiyatdan chiqib ketayotganda jamiyatdan hech qanday mol-mulk talab qilmaydi, balki o‘ziga tegishli bo‘lgan aksiyani boshqa shaxsga sotib yuborib, o‘z ulushini oladi.

Aksiyadorlik jamiyatida ishtirokchilarni jamiyat majburiyatları bo‘yicha javobgarligining o‘ziga xos ko‘rinishi mavjud. Agar jamiyat zarar ko‘rsa, aksiyador faqatgina aksiya sotib olish uchun sarflagan mablag‘ini yo‘qotadi, xolos. Ishtirokchining cheklangan javobgarligi hamda aksiyalarni sotib yuborish orqali aksiyadorlik jamiyatidan erkin ravishda istalgan vaqtda chiqib ketishi aksiyadorlik jamiyatiga kapitalni jalg etishni osonlashtiradi.

Aksiyadorning mulki aksiyadorlik jamiyatining mulkidan butunlay ajratilgan. Shuning uchun aksiyadorning kreditorlari va uning majburiyatları bo‘yicha talabni jamiyat mulkiga qarata olmaydilar, biroq aksiyadorning aksiyasiga qaratishlari mumkin. Aksiyadorning jamiyat majburiyatları bo‘yicha javobgarligini cheklanganligi mas’uliyati cheklangan jamiyat kabi ularning kreditorlari manfaatlari himoyasini asosiy kafolati bo‘lgan ustav fondining ahamiyatini oshiradi. Aksiyadorlik jamiyatida aksiyadolarni jamiyatning kundalik boshqaruv faoliyatida ishtirok etishi talab etilmaydi.

Aksiyadorlik jamiyatida xo‘jalik shirkatidan farqli ravishda mulk bilan boshqaruv bir-biridan ajratilgan. Aksiya egasi jamiyatning kundalik boshqaruvida ishtirok etishi uchun vaqtি bo‘lmasligi yoki yetarli darajada malakaga ega bo‘lmasligi mumkin. Shuning uchun ham jamiyat maxsus bilim hamda malakaga ega bo‘lgan shaxslar tomonidan boshqariladi.

Aksiyadorlik jamiyati - ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlarning aksiyadorlik jamiyatiga nisbatan huquqlarini tasdiqlovchi muayyan miqdordagi aksiyalarga taqsimlangan tijorat tashkiloti. (“Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi Qonun 2014 yil 6 may 370-son).

Amaldagi qonunchilikka muvofiq chiqariladigan aksiyalar davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim. Davlat ro‘yxatidan o‘tkazilmay chiqarilgan aksiyalar ularning egalaridan majburiy ravishda olib qo‘yiladi, qimmatli qog‘ozlarni sotishdan to‘plangan pul emitentdan olinib, aksiya egalariga qaytariladi hamda emitentga nisbatan qonun hujjatlarida ko‘rsatilgan muayyan sanksiyalar qo‘llaniladi. Jamiyatning ustav fondi (ustav kapitali) aksiyadorlar olgan jamiyat aksiyalarining nominal qiymatidan tashkil topadi va O‘zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi. Jamiyat tomonidan chiqariladigan barcha aksiyalarning nominal qiymati bir xil bo‘lishi kerak. Jamiyat ustav fondining (ustav kapitalining) eng kam miqdori jamiyat davlat ro‘yxatidan o‘tkazilgan sanada O‘zbekiston Respublikasi Markaziy bankining kursi bo‘yicha to‘rt yuz ming AQSh dollariga teng summadan kamni tashkil etmasligi kerak. Aksiyadorlik jamiyatining boshqaruva organlari 2014 yilgi yangi tahrirdagi qonunning 57-moddasiga muvofiq aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi, kuzatuv kengashi, va ijroiya organi hisoblanadi. Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi jamiyatning yuqori boshqaruva organidir. Jamiyatning kuzatuv kengashi jamiyat faoliyatiga umumiy rahbarlik qiladi. Jamiyatning kundalik faoliyatiga rahbarlik qilish vakolati jamiyatning ustavida belgilanadigan ijroiya organi bo‘lmish direktor yoki jamiyat boshqaruvi tomonidan amalga oshiriladi. “Aksiyadorlik jamiyatları va aksiyadorlarning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida”gi qonunning 82-moddasiga ko‘ra minoritar aksiyadorlarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish maqsadida jamiyatda ularning orasidan minoritar aksiyadorlarning qo‘mitasi tashkil etilishi mumkin.

### **Qo‘shma korxonalar (xorijiy investisiyalar ishtirokidagi korxonalar)**

Ta'sis shartnomalari asosida tashkil etiladigan tadbirkorlik huquqi sub'ektlari orasida qo'shma korxonalar (xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar) alohida o'rinni egallaydi. Qo'shma korxonalar xorijiy sarmoyalarni O'zbekiston Respublikasiga olib keluvchi asosiy manbalardan biri bo'lib hisoblanadi. 1998 yil 30 aprelda qabul qilingan "Chet el investitsiyalari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 3-moddasiga binoan, chet ellik investorlar tomonidan tadbirkorlik faoliyati va qonun hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa turdag'i faoliyat obyektlariga qo'shiladigan barcha turdag'i moddiy va nomoddiy boyliklar hamda ularga bo'lgan huquqlar, shu jumladan intellektual mulkka bo'lgan huquqlar, shuningdek reinvestitsiyalar chet el investitsiyalari deb e'tirof etiladi. Ushbu qonun 5-moddasining birinchi qismiga ko'ra, O'zbekiston Respublikasining yuridik va jismoniy shaxslari bilan birgalikda tashkil etilgan xo'jalik jamiyatlari va shirkatlarining, banklar, sug'urta tashkilotlari va boshqa korxonalarining ustav jamg'armalarida va boshqa mol-mulkida ulush qo'shib qatnashish chet el investitsiyasini amalga oshirish shakli hisoblanadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1996 yil 30 noyabrda qabul qilingan.

### **3.2. Fermer xo'jaliklari va ularning tashkiliy-iqtisodiy asoslari**

"Xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalarga beriladigan qo'shimcha rag'batlantirish omillari va imtiyozlar haqida"gi PF-1652-son farmonida xorijiy investitsiyalar ishtirokidagi korxonalar haqida to'xtalib o'tilgan bo'lib unga ko'ra, 1998 yilning 1 apreldidan boshlab quyidagi shartlarga javob beradigan yangidan tashkil etiladigan korxonalar O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligida va uning hududiy organlarida davlat ro'yxatidan o'tkazilishi lozim bo'lган xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar jumlasiga kiradi:

- 1) korxonaning nizom jamg'armasi 150 ming AQSh dollariga teng summadan kam bo'lishi mumkin emas;
- 2) korxona ishtirokchilaridan biri albatta xorijiy, yuridik shaxs bo'lishi shart;
- 3) xorijiy sarmoyalar ulushi korxona nizom jamg'armasining kamida 30 foizini tashkil etishi zarur. Yangi tashkil etilayotgan

korxonalar mazkur shartlarga javob bermagan taqdirda, xorijiy sarmoyalar ishtirokidagi korxonalar jumlasiga kirmaydi hamda korxona joylashgan hududdagi shahar va tuman hokimliklarida belgilangan tartibda davlat ro‘yxatidan o‘tkazilishi lozim.

*Fermer xo’jaligi haqida tushuncha, uning maqsad va vazifalari.*

Respublika qishloq xo’jaligida davlat rahbarligida, bosqichma-bosqich amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida mulkning xilma-xil turlari va ularga asoslangan korxona turlari shakllangan. Jumladan, xususiy mulkga asoslangan fermer xo’jaliklari tashkil etilmoqda. Yangi tahrirdagi “Fermer xo’jaliklari to’g’risida”gi qonunning 3-moddasida, **“Fermer” xo’jaligi** ijaraga berilgan yer uchastkalaridan foydalangan holda qishloq xo’jaligi tovar ishlab chiqarish bilan shug’ullanuvchi, mustaqil xo’jalik yurituvchi sub’ektdir”, deb tushuncha berilgan. Hozirgi davrda fermer xo’jaligi qishloq xo’jaligida xo’jalik yurituvchi sub’ekt sifatida kichik, tadbirkorlik vakili hisoblanadi.

Fermer xo’jaligi zimmasiga quyidagi vazifa qo’yilgan. Ya’ni uzoq muddatga ijara yerlardan, mavjud bo’lgan barcha resurslardan yil davomida oqilona, to’liq va samarali foydalanish natijasida ichki va tashqi bozor talablarini qondiradigan miqdorda, sifatli qishloq xo’jalik mahsulotlarini ishlab chiqarish, qayta ishlash, iste’molchilarga yetkazish hamda turli xildagi xizmatlar ko’rsatish natijasida ko’proq foyda olish. Bu fermer xo’jaligining siyosiy va iqtisodiy ahamiyatga ega bo’lgan asosiy maqsadidir. Uni to’liq hal etish uchun fermer xo’jaligi bir qancha muhim vazifalarni amalga oshirishni belgilab oladi:

- 30 yildan 50 yilgacha ijaraga olingan yer uchastkasida, shu haqdagi shartnomaga va ixtisoslashuvga muvofiq o’z ishlab chiqarish faoliyatini to’g’ri tashkil etish;

- xo’jalik faoliyatini yuritish maqsadida amalga oshirilishi zarur bo’lgan barcha tashkiliy, iqtisodiy va ijtimoiy munosabatlarning sifati, o’z vaqtida amalga oshirilishini ta’minlaydigan turli xildagi kontraktatsiya shartnomalarini to’g’ri va sifatli tuzish;

- ekologik talablarga va atrof muhitni muhofaza qilishning barcha qoidalariga rioya etishga erishish;

- ijaraga olingan yer uchastkalarini yil davomida oqilona, to'liq, samarali foydalanish maqsadida uning unumdorligining oshirilishini ta'minlaydigan irrigatsiya-melioratsiya tadbirlarini ilmiy asoslangan holda ishlab chiqish hamda ularni vaqtida, sifatli amalgalashtirishini ta'minlash;

- xo'jalik faoliyatini samarali yuritish uchun talab etilgan mablag'larning miqdorini belgilash va ularning manbalarini oqilona aniqlash, xo'jalikda mavjud bo'lgan barcha resurslardan samarali foydalanishini ta'minlaydigan tadbirlarni aniq ishlab chiqish va ularni hayotga tadbiq etilishiga erishish;

- xo'jalik ustavida ko'zda tutilgan qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirishga qaratilgan tadbirkorlikni qo'llab, ularga kamroq mehnat, mablag' sarflash evaziga ishlab chiqarish, ularni iste'molchilarga sifatli holda yetkazib berish, xizmatlarni ko'rsatish, mulkni mustaqil, o'z xoxishiga ko'ra tasarruf etish;

- tuzilgan kontraktatsiya shartnomalariga muvofiq davlat ehtiyojlari uchun qishloq xo'jaligi maxsuloti nazarda tutilgan miqdorda, sifatda yetkazib berilishini ta'minlash;

- xarid qilinadigan mahsulotga oldindan haq to'lanadigan fyuchers kontraktlari tuzish;

- marketing ishlarini amalgalashtirish, sotadigan barcha turdag'i davlat buyurtmasidan tashqari bajarayotgan ishlari va ko'rsatayotgan xizmatlariga erkin narx belgilash;

- o'z faoliyatining barcha sohalarida fan yutuqlarini, yangi texnika hamda samarali texnologiyalarni izchillik bilan hayotga tadbiq etish;

- barcha xodimlarining bilim va malakasini davr talabini e'tiborga olgan holda oshirish, ularni ma'naviyatli, ma'rifatli, halol, pok, muomalali yaxshi insonlar bo'lishini ta'minlashi, ular mehnatining natijasiga qarab moddiy va ma'naviy rag'batlantirish;

- soliqlar, yig'imlar va boshqa majburiy to'lovlarini qonun hujjatlarida belgilangan tartibda o'z vaqtida to'liq to'lash;

- tadbirkorlik faoliyatini huquqiy va me'yoriy hujjatlar asosida yuritish, ko'proq pul daromadlarni olish, ularni mustaqil tasarruf etish,

hajmi cheklanmagan miqdorda sof foyda olish, unga erkin egalik qilish va samarali foydalanish;

- aktsiyalar va turli xildagi qimmatli qog'ozlarni olish;
- kichik biznes korxonalari uchun yaratilgan imtiyozlar va proferentsiyalarning barcha turlaridan imkoniyat doirasida to'liq va samarali foydalanish;
- o'z huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya etish uchun sudga murojaat etish, zarur bo'lgan hollarda fermer xo'jaligini davlat bosh islohotchi, qonun ustivorligi, erkinlik hamda mustaqillik va boshqa tomonlari asosida amalga oshirsa, samarali bo'ladi.

Respublikada fermerlikni rivojlantirishning siyosiy, iqtisodiy va ijtimoiy mohiyati quyidagilarga qaratilgan:

- qishloqda turli xildagi mulk shakllarini va ularga egalik qilish, foydalanuvchi korxonalarini tashkil etish, yuritish va rivojlantirish;
- tarmoqdagi barcha mulkiy munosabatlarni shakllantirish, rivojlantirish, modernizastiyalashtirish hamda erkinlashtirish;
- turli mulkchilikga asoslangan sub'ektlarning erkin faoliyat ko'rsatishi uchun huquqiy, me'yoriy, iqtisodiy sharoitlarni yaratish;
- qishloqdagagi mulkdorlar sinfining mulkiy ongini barqaror yuksaltirish;
- qishloq xo'jaligida yangi ish joylarini barpo etish, tarmoqdagi aholini ish bilan bandligini yuksaltirib, ishsizlar sonini kamaytirish;
- aholining va qayta ishlash sanoati korxonalarini qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan ta'minlashni yuksaltirish;
- aholining daromadini ko'tarish, ularning turmush darajasini yuksaltirish va boshqalar.

*Fermer xo'jagini huquqiy, iqtisodiy asoslari, ularni tashkil etish tartibi*

O'zbekiston respublikasining Prezidenti va hukumati fermerlikga oid bo'lgan jahon tajribasi, mamlakatning o'ziga xos xususiyatlarini e'tiborga olgan holda respublikada fermerlikni bosqichma-bosqich rivojlantirish jarayonini amalga oshirmoqda.

Dastavval, O'zbekistonda fermer xo'jaliklarini tashkil etish va rivojlantirishning huquqiy, me'yoriy hujjatlari yaratildi. Jumladan,

- 1998 yilda “Fermer xo’jaligi to’g’risida”gi qonun Oliy Majlis tomonidan qabul qilindi.

- O’zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 27 oktyabrdagi “2004-2006 yillarda fermer xo’jaliklarini rivojlantirish Kontseptsiyasi to’g’risida”gi PF – 3342 – sonli farmoni;

- Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 30 oktyardagi “2004-2006 yillarda fermer xo’jaliklarini rivojlantirish Kontseptsiyasini amalga oshirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 476-sonli qarori;

- Vazirlar Mahkamasining 2004 yil 24 dekabrdagi “2004-2007 yillarda fermer xo’jaliklarini jadal rivojlantirish chora-tadbirlari to’g’risida”gi 607-sonli qarori;

- qayta tashkil etilayotgan qishloq xo’jaligi korxonasi negizida fermer xo’jaligini tashkil etishda tanlov g’oliblarini aniqlash to’g’risidagi Nizom (2005 yil 4 yanvar).

Davrning talabi bilan 2012 yilda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishda fermerlik harakatining o’rni va hissasini hamda aholi farovonligini, uning real daromadlarini yanada oshirish uchun ko’p tarmoqli fermer xo’jaliklarini tashkil etish bo’yicha muhim qadam qo’yildi. Prezidentning farmoni bilan “O’zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish bo’yicha chora-tadbirlari”<sup>2</sup> ishlab chiqildi. Farmonda fermer xo’jaliklari tomonidan yuqori daromad olish va qo’shimcha qiymat yaratish maqsadida ko’p tarmoqli fermer xo’jaliklarni rivojlantirishga alohida e’tibor qaratilib, ularga qo’shimcha yer maydonlarini ajratish, imtiyozli kreditlar berish, soliq imtiyozlarini qo’llash kabi chora-tadbirlari amalga oshirilish ko’zda tutilgan edi. Xusan, 2013 yildan boshlab har yili fermer xo’jaliklarida ko’p tarmoqli faoliyatni yo’lga qo’yish yuzasidan maxsus dasturlar qabul qilinib uning ijrosi izchil amalga oshirilmoqda.

Bugungi kunda “Fermer xo’jaligi to’g’risida”gi qonunga qo’shimcha va o’zgartishlar kiritilmoqda. Mazkur loyihada ko’p tarmoqli fermer xo’jaligining huquqiy maqomi belgilanmoqda. Unga

---

<sup>2</sup>Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2012 йил 22 октябрдаги “Ўзбекистонда фермерлик фаолиятини ташкил қилишни янада таомиллаштириш ва уни ривожлантириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПФ-4478-сонли Фармони.

**ko'ra, ko'p tarmoqli fermer xo'jaligi** - qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish bilan bog'liq bo'lgan faoliyati bilan birqalikda qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlash, saqlash va sotish, sanoat ishlab chiqarishi, ishlar bajarish, xizmatlar ko'rsatish va qonun hujjatlarida ta'qiqlanmagan boshqa faoliyat bilan shug'ullanuvchi fermer xo'jaligidir.

Bu sohada islohotlarning yangi bosqichi sifatida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 9 oktyabrdagi "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, qishloq xo'jaligi ekin maydonlaridan samarali foydalanish tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-5199-sون farmoni qabul qilindi. Farmonga asosan, endilikda fermer xo'jaliklari faoliyatida tubdan o'zgartirish, ya'ni fermer xo'jaliklarida bosqichma-bosqich ko'p tarmoqli faoliyat yo'lga qo'yish ishlari amalga oshiriladi. Unga ko'ra, faqatgina qishloq xo'jaligi mahsuloti ishlab chiqarish bilan shug'ullangan fermer tadbirkorlarimiz bozor talablaridan kelib chiqib o'zlarida qo'shimcha yo'naliishlarni joriy qiladi. Ushbu talabga javob bermaydigan, ko'p tarmoqli faoliyatni yo'lga qo'yagan sub'ektlar 2022 yilning 1 yanvaridan boshlab yangilik va yangilanishga intiluvchan, yangi g'oyalar asosida ish yuritishga qobiliyatli, tadbrkorlik qilish, nafaqat o'zining, balki butun xalqimiz dasturxonini to'kin bo'lishiga hissa qo'shishga tayyor bo'lgan shaxslar, ayniqsa yoshlarga joylarini bo'shatib beradilar. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017 yil 10 oktyabrdagi "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari faoliyatini yanada rivojlantirish bo'yicha tashkiliy chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-3318-son qarori bilan O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi tashkil etilib, uning asosiy vazifalari va faoliyat yo'naliishlaridan biri etib ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirishga va har tomonlama qo'llab-quvvatlashga ko'maklashish, ular uchun qulay ishbilarmonlik muhitini yaratishda bevosita ishtirok etishi belgilab qo'yildi.

Dehqonchilik mahsuloti yetishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaliklariga ijara ga beriladigan yer uchastkalarining eng kam o'lchami

paxtachilik va g'allachilik uchun 10 gektar, bog'dorchilik, uzumchilik, sabzavotchilik va boshqa mahsulotlarni etishtirish uchun esa 1 gektarni tashkil etadi. Chorvachilik mahsuloti etishtirishga ixtisoslashtirilgan fermer xo'jaligi kamida 30 ta shartli bosh chorva moli bo'lgan taqdirda tashkil etiladi.

Fermer xo'jaligiga ijara beriladigan yer uchastkalarining eng kam miqdori bir shartli bosh chorva molga hisoblanganda Farg'ona vodiysi viloyatlariga, Toshkent, Samarqand va Xorazm viloyatlaridagi sug'oriladigan yerlarda kamida 0,3 gektarni, qolgan viloyatlarda Qoraqlpog'iston Respublikasida esa 0,45 gektarni, sug'orilmaydigan yerlarda esa kamida 2 gektarni tashkil etishi, Nizomda esa aniq yer uchastkalari (konturlar) berilishi ko'rsatilgan. Bular mamlakatda fermerlikni tashkil etishning o'ziga xos xususiyatlarini belgilab beradi.

Fermer xo'jalingining iqtisodiy negizini uning mol-mulki tashkil etadi, unga quyidagilar kiritilishi mumkin: Binolar inshootlar, qishloq xo'jalik ekinzorlari va ko'chatzorlarni, dov-daraxtlar, chorva mollari, parrandalari, mavjud bo'lgan barcha qishloq xo'jalik texnikalari, inventarlari, asbob va uskunalari, transport vositalari, etishtirayotgan barcha mahsulotlari, ularni sotish va xizmat ko'rsatishdan olinayotgan barcha mablag'lari, foydasi, intellektual mulki va boshqalar. So'ng bo'lajak a'zolar bilan kelishgan holda tasdiqlab oladi.

Fermer xo'jalingining ustavi Respublika Vazirlar Mahkamasi tomonidan tasdiqlangan, "Namunaviy Ustav" asosida tuzilib, quyidagilarni qamrab olgan bo'lishi kerak:

- fermer xo'jalingining nomi;
- fermer xo'jaligi boshlig'inining familiyasi, o'zining va otasining ismi va yashash joyi;
- fermer xo'jalingining joylashgan joyi to'g'risidagi ma'lumotlar va pochta manzili;
- fermer xo'jalingining ixtisoslashuvi va faoliyatining asosiy turlari, yo'nalishlari;
- uning ustav fondining miqdori va boshqalar.

Fermer xo'jaligini ro'yxatdan o'tkazish belgilangan tartibda amalga oshiriladi. Fermer xo'jaligi davlat ro'yxatidan o'tganidan so'ng tashkil

etilgan deb hisoblanadi. U to'liq yuridik shaxs maqomini olish uchun o'zi aloqa qiladigan banklarda turli xildagi xisob va raqamlarini ochishi, tumanning soliq, statistika tashkilotlarida ro'yxatdan o'tib, o'z muhriga, blankalariga ega bo'lishi kerak. Shundan so'ng fermer xo'jaligi to'liq faoliyat yuritadigan yuridik shaxs maqomiga ega bo'ladi.

### **3.3. Dehqon xo'jaliklari va ularning tashkiliy-iqtisodiy asoslari.**

Dehqon xo'jaliklari mamlakat iqtisodiy qudratining oshishiga hamda oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlashga o'zining salmoqli hissasini qo'shish bilan birga, qishloq joylarida yashayotgan aholining daromad manbai vazifasini ham o'tamoqda. Dehqon xo'jaligida intellektual mulkdan, malaka va tajribadan, kapitaldan samarali foydalanish hissi boshqa xo'jalik shakllarida ish yuritish sub'ektlariga nisbatan yuqoriroqdir. Buning asosiy sababi, ularning ishlab chiqarishdan manfaatdorlik darajasining boshqa ishlab chiqarish shakllaridagiga nisbatan yuqoriligidadir.

Dehqon xo'jaliklari tashkiliy ishlab chiqarish bo'yicha o'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan xo'jalik bo'lib, ishlab chiqarish munosabatlarining barcha yo'nalishlarini qamrab olgan ishlab chiqarish sub'ekti hisoblanadi. Dehqon xo'jaliklarida ishlab chiqarilgan mahsulotlarning asosiy qismi aholi tomonidan iste'mol bozorlarida naqd tovar-pul shakli ko'rinishida xarid etiladi va iste'mol qilinadi. Natijada dehqon xo'jaliklari ham boshqa xo'jaliklar shaklida o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarining ma'lum qismini tovar shaklida sotishlari evaziga foyda oladilar. Dehqon xo'jaliklari o'zlarining ishlab chiqarish faoliyatlarida davlatga yer va mulk soliqlarini to'lar ekanlar, fermer xo'jaliklari esa shu davrda ayrim soliq turlarini to'lashdan ozod etilganligini aytish zarur. Xulosa qilib aytsak, dehqon xo'jaliklari turli ishlab chiqarish korxonalari kabi faoliyat olib boradilar. Bu bilan ularning ishlab chiqarish faoliyatlarini korxonalar ishlab chiqarish faoliyatiga yaqin bo'lgan ishlab chiqarish shakli deb hisoblash mumkin. Dehqon xo'jaliklari boshqa ishlab chiqarish korxonalari kabi bozor qonuniyatlari asosida o'z faoliyatlarini amalga oshirsalarda, ular

tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotning asosiy qismini aholi iste'mol qilishi bilan o'zining ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatiga ega.

Dehqon xo'jaligini boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari bilan taqqoslaganda quyidagi xususiyatlarni alohida ajratib ko'rsatish o'rinnlidir:

- yerdan foydalanish, egalik qilish va tassaruf etish hududlarining mavjudligi, uning kichik va cheklanganligi;
- davlat buyurtmasining yo'qligi;
- oila a'zolari bilan ishlab chiqarishni tashkil etishda va olgan daromadlarni erkin va o'z maqsadlaridan kelib chiqqan holda taqsimlanishi;
- oilaga asosiy yoki qo'shimcha daromad keltirishi;
- oilaning oziq-ovqat manbai ekanligi;
- dehqon xo'jaligida ishlab chiqarishning mustaqil tashkil etilishi.

### 3.1-jadval

#### Dehqon xo'jaligini xususiyatlari

Ko'rsatkichlar	Dehqon xo'jaliklari	Fermer xo'jaliklari	Boshqa qishloq xo'jalik korxonalari
<b>Yerdan foydalanish huquqi</b>	Foydalanish, egalik qilish va tasarruf etish	Foydalanish va egalik qilish	Foydalanish
<b>Yer maydonining o'lchami</b>	Kichik va cheklangan	O'rta va yirik	Yirik
<b>Mulkka bo'lgan huquq</b>	Xususiy	Xususiy	Xususiy davlat, ulushli yoki jamoa
<b>Davlat buyurtmasi</b>	Mavjud emas	Paxta va g'alla	Mavjud emas
<b>Ishchi kuchi</b>	Oila a'zolari	Oila a'zolari va yollanma ishchi	Jamoa mehnati va chetdan jalb qilingan
<b>Ishlab chiqarish natijalaridan moddiy manfaatdorlik</b>	Qo'shimcha yoki asosiy daromad	Asosiy daromad	Asosiy daromad
<b>Daromadning tasarruf etilishi</b>	Erkin	Amaldagi me'yorlar bo'yicha	Amaldagi me'yorlar bo'yicha

Respublikadagi dehqon xo'jaliklarida dehqonchilik va chorvachilik mahsulotlarining qariyb barchasi yetishtiriladi. Qishloqda dehqon xo'jaliklari, birinchidan, mulkdorlar sinfining shakllanishida, mamlakatning iqtisodiy rivojlanishida iqtisodiy-ijtimoiy ahamiyatga ega bo'lsa, ikkinchidan, ular aholini zaruriy oziq-ovqat mahsulotlari bilan, qayta ishlash sanoatini esa qishloq xo'jaligi xomashyolari bilan ta'minlaydi. Dehqon xo'jaliklari nafaqat shaxsiy tomorqalarda, balki, dehqon xo'jaliklari huquqiy maqomiga ega bo'lgan shaklidagi dehqonchilik va chorvachilik sohalarida, shaxsiy va oila a'zolari mehnatidan foydalangan holda faoliyat yuritadilar.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida dehqon xo'jaligi ishlab chiqarishning barcha sohalarida shaxsiy va ijtimoiy manfaatlarni o'zida ifodalovchi xo'jalikni harakatlanuvchi kuch sifatida tan olinmoqda. Dehqon xo'jaliklari va ularning samarali rivojlanishi milliy iqtisodiyotimizning ajralmas qismi bo'lib, u tashkiliy iqtisodiy va ijtimoiy jihatdan turli mult shakllariga asoslangan ishlab chiqarish korxonalari, qo'shma korxona, agrofirma va fermer xo'jaliklari bilan mahsulot ishlab chiqarish hajmining o'sishi, uning sifatining yuqoriligi va tannarxining arzonligi bilan raqobatlasha oladigan xo'jalik shakliga aylanib bormoqda.

### **3.4. Agrofirmalarni tashkil etish.**

Agrofirma bu hozirgi bosqichda kooperativ yoki yaxlit ishlab chiqarishni tashkil etish shaklidir. U qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish darjasini yuqori bo'lgan bitta fermer xo'jaligi yoki boshqa qishloq xo'jaligi korxonalari, shuningdek qayta ishlash quvvatlari, yordamchi mahsulot asosida yoki bir nechta fermer xo'jaliklari, korxonalar, tashkilotlarni o'z ichiga olgan holda bosh korxona asosida yaratilishi mumkin.

Ixtiyoriy ravishda agrofirma tarkibiga fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari, xo'jaliklararo korxonalar va boshqa qishloq xo'jaligi mahsulotlarini qayta ishlaydigan korxonalar, o'z mahsulotlarini, shu jumladan yordamchi savdo mahsulotlarini sotadigan savdo korxonalari

kirishi mumkin. Boshqa har qanday profildagi korxonalar shartnomalar asosida agrofirma faoliyatida ishtirok etishi mumkin.

Firma tarkibiga kiradigan korxonalar iqtisodiy mustaqillik va yuridik shaxs huquqlarini saqlab qoladilar. Shu bilan birga, qayta ishlash, savdo va ta'minot korxonalari agrofirmaning tarkibiy qismi va mustaqil korxona va tashkilot bo'limgan ishlab chiqarish birliklari sifatida ham bo'lishi mumkin.

Barcha korxonalar o'z faoliyatini tartibga soluvchi qoidalar va nizomlarni hisobga olgan holda qishloq xo'jaligi kompaniyasidan erkin chiqib ketish huquqiga ega. Agrofirma yuridik jihatdan mustaqil korxona bo'lib, o'zining balansiga ega va ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish rejasiga muvofiq amalga oshiradi.

Agrofirmaning asosiy vazifalari mutanosib rivojlanish va agrofirma tarkibiga kiradigan barcha korxonalarning tashkiliy birligini ta'minlash; ilmiy-texnik taraqqiyot yutuqlarini amalga oshirish asosida qishloq xo'jaligi mahsulotlari va yuqori sifatli oziq-ovqat va nooziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni ko'paytirish; qishloq xo'jaligi xom ashyosini saqlash, qayta ishlash uchun moddiy-texnik bazani rivojlantirish, aholini oziq-ovqat bilan ta'minlashni yaxshilash, pullik xizmatlar ko'rsatishdir.

Agrofirmalarini boshqarish demokratik asosda amalga oshiriladi. Agar qishloq xo'jaligi firmasi bitta korxona asosida tashkil etilsa, uning faoliyati amaldagi qonunchilikka muvofiq boshqariladi.

Agrofirma bir nechta fermer xo'jaliklari, korxona va tashkilotlar negizida tashkil etilganda, yuqori boshqaruvi organi uning tarkibiga kiradigan korxona va tashkilotlarning mehnat jamoalari yig'ilishlarida uch yil muddatga saylangan vakolatli vakillarining yig'ilishi hisoblanadi.

Agrofirmaning kundalik faoliyatini boshqarish vakolatli vakillarning yig'ilishi tomonidan saylanadigan kengash tomonidan amalga oshiriladi. Kengashni fermer xo'jaliklari, dehqon xo'jaliklari va boshqa korxonalar rahbarlari orasidan vakolatli vakillarning yig'ilishida saylangan agrar firmanın raisi (bosh direktori) boshqaradi.

Mintaqaviy agrofirmalarning tashkil etilishi ularga kiritilgan barcha korxonalar, tashkilotlar va xizmatlarning ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatini maqbul va chambarchas bog'lash va muvofiqlashtirish, ularning iqtisodiy manfaatlarini birlashtirish va muvofiqlashtirishga imkon beradi. Agrofirmaga kiritilgan har bir korxona o'zining shaxsiy manfaatlariga ega - birinchi navbatda, kengaytirilgan takror ishlab chiqarishni ta'minlash, bozor sharoitida samarali ishlash, xodimlarining daromadlarini ko'paytirish, mehnat jamoasining ijtimoiy muammolarini muvaffaqiyatli hal etish.

Mintaqaviy qishloq xo'jaligi firmalarining tarkibiga mustaqil korxonalarning kiritilishi ularning har birining iqtisodiy manfaatlarini eng yuqori darajada ro'yobga chiqarish, ularning manfaatlarini muvofiqlashtirish hamda ularning qishloq xo'jaligi firmalarining yuqori samarali, yuqori rentabellikdagi faoliyatida umumiyl manfaat paydo bo'lishi uchun qulay shart-sharoitlar yaratadi. O'z navbatida, har bir qishloq xo'jaligi firmasi rahbarlari va mutaxassislari qishloq xo'jaligi firmasiga kiritilgan har bir korxona va bo'linmaning yanada samarali va foydali ishidan manfaatdor bo'lib, bu qishloq xo'jaligi firmasining ishlab chiqarish va moliyaviy faoliyatining yakuniy natijalarini yaxshilaydi.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Agrobiznes korxonalari faoliyati qanday me'yoriy-huquqiy hujjatlar orqali tartibga solinadi?
2. Fermer xo'jaliklari faoliyatini tashkiliy-iqtisodiy asoslarini tavsiflab bering.
3. Ko'p tarmoqli fermer xojaliklarini tashkil etish va boshqarish tizimida qanday muammoli jarayonlar mavjud?
4. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil etishni qishloq xo'jaligini rivojlanishidagi ahamiyatini qanday baholaysiz?
5. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil etishni hududlarda aholi bandligini ta'minlashdagi roli.
6. Ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini tashkil etishni hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta'siri.

**IV BOB. AGROKLASTERLARNI TASHKIL ETISH VA  
BOSHQARISH**

## **4.1. Agroklaster tushunchasi va ahamiyati. Agroklasterlar faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari.**

**4.2. Agroklasterlarni belgilovchi me'yoriy huquqiy hujjatlar.**

**4.3. Agroklasterlarni tashkil etish va uni hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta'siri.**

**4.4. Agroklasterlarni boshqarish.**

**4.5. Agroklasterlar tashkil etishning xorij davlatlari tajribasi**

### **4.1. Agroklaster tushunchasi va ahamiyati. Agroklasterlar faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari.**

O‘zbekistonda barcha soha va tarmoqlar kabi qishloq xo‘jaligi ham jadal rivojlanmoqda. Bunda yer haqiqiy egasini topganligi, sohada izchil amalga oshirilayotgan keng ko‘lamli islohotlar, qishloq xo‘jaligidagi mavjud holatlar, ishlab chiqaruvchilarga davlat tomonidan zarur ko‘makning berilayotganligi, ularning har tomonlama qo‘llab-quvvatlanayotganligi o‘z samarasini bermoqda.

Bugungi kunda qishloq xo‘jaligining barqaror rivojlanishi aksariyat jihatdan uning raqobatbardoshligini oshirishga bog‘liqdir. Ushbu yo‘nalishda O‘zbekistonda agroklasterlarni barpo etish muhim omil hisoblanadi. Jahan iqtisodiyotida integratsiya jarayonlarining globallashuvi agrabiznesning ichki kuchli va zaif tomonlarini ham, uning tashqi imkoniyatlari va xavf-xatarlarini ham har tomonlama chuqur o‘rganishni taqozo etmoqda. Aynan ana shu imkoniyatlardan biri agrosanoat guruhini klaster modeli bo‘yicha tashkil etishdan iborat.

Klaster modeli jahon amaliyotida iqtisodiy guruh, mintaqa, butun mamlakat raqobatbardoshligini ko‘tarish instrumenti sifatida keng qo‘llaniladi. Klaster modelining asosiy belgilari: guruhning tashqi bozordagi ulushini oshirish imkoniyatiga egaligi; joylashgan hududda qulay sharoitlar (xom ashyo, malakali personal, infrastruktura, o‘quv markazlar, ilmiy muassasalar va b.)ning mavjudligi; guruhni davlat tomonidan kuchli qo‘llash evaziga qatnashuvchilarning guruhda samarali ishtirok etish imkoniyatlarining kengligi va boshqalar.

Klaster atamasi amerikalik iqtisodchi, Garvard maktabi professori, raqobat imkoniyatlarini o'rganish bo'yicha mutaxassis bo'lgan **Maykl Yujin Porter** tomonidan ilk bor qo'llangan edi. Klaster atamasi (ingлиз tilidan “cluster” so'zini tarjima qilinganda) bir qancha bir xil elementlarning birlashuvi, to'planishi, guruh ma'nolari va ma'lum darajada o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lgan mustaqil birlik sifatida tushuniladi. «Klaster» tushunchasi 1990 yilda Maykl Porter tomonidan «Davlatlarning raqobatdosh afzalligi» nomli asarida keltirilgan. 10 ta sanoati rivojlangan davlatlarning rivojlanish tarixini tahlil qilgach, Maykl Porter klasterlarning paydo bo'lishi iqtisodiy rivojlanish va sanoatlashtirish jarayoni tarkibining ajralmas qismidir degan fikrga kelgan. Shunday qilib, klaster – o'zaro bog'liq korxonalarni birlashtirishning bir shakli bo'lib, bu hudud iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshirish imkonini beradi. Tashkillashtirish shakli jihatidan, klaster – vertikal ravishda integratsiyalangan tuzilma deyish mumkin. Klasterning umumiyligi jihatlari 4.1-rasmda keltirilgan.



#### **4.1-rasm. Klasterning umumiyligi jihatlari.**

S.Rosenfeldning so'zlariga ko'ra, klasterlarni yaratish zamonaviy iqtisodiy rivojlanish va kam rivojlangan hududlar strategiyasining asosidir. U klasterga geografik jihatdan qo'shni bo'lgan, bir-biri bilan bog'langan, muayyan bir sohada faoliyat olib boradigan hamda bir-

birining ishini to’ldiradigan korxona va tashkilotlar birlashmasi sifatida ta’rif bergen.

### **“Klaster” nazariyasi evolyutsiyasidan uning ikki fundamental tavsifini ajratib ko’rsatish mumkin.**

**Birinchisi** – klasterga uyg’unlashgan korxona va firmalar faoliyati aniq bir xil turdagи tovarlar bozori bilan bog’liq bo’lishi zarur. Bunday bog’liqlik vertikal (xarid va sotish zanjiri) va gorizontal (qo’shimcha bo’limlar va xizmatlar, shunga ketadigan maxsus sarflar, texnologiyalar yoki institutlar va boshqa aloqalardan foydalanish).

**Ikkinchisi** – klasterlar geografik yaqin joylashgan o’zaro bog’liqlikdagi korxonalar guruhi bo’lib, ular o’rtasidagi o’zaro iqtisodiy-ijtimoiy munosabatlarni barqarorlashishi natijasida raqobatbardoshlikning rivojlanishi, ko’proq qo’shimcha qiymatni yaratishga va bozorda sotilishiga imkoniyatlar yaratishdir.

Bevosita agroklasterning mohiyati A.A. Nastin tomonidan atroflicha asoslangan. Jumladan, uning ta’rificha, “agroklaster, bir vaqtda va o’zaro hamkorlikda ishlab chiqarish vazifalarini hal qilish va atrof muhitni himoya qilishda birlashish maqsadida geografik jihatdan bir joyda joylashgan, o’zaro bir-biriga bog’liq va bir-birini to’ldiruvchi, turli mulk egalari-oilaviy ferma, fermerlarni kooperativ korxonalari, ijtimoiy va ilmiy tashkilotlar, ta’lim muassasalari va maslahat xizmatlaridan iborat bozor sub’ektlari tizimi”dan iborat<sup>3</sup>.

Agroklasterlar o’zining iqtisodiy mazmuniga ko’ra agrosanoat majmuida tadbirkorlik agroklasteri tarzida namoyon bo’ladi. Jumladan, A.V.Glotka tomonidan berilgan ta’rifda ”agrosanoat majmuidagi tadbirkorlik agroklasteri - ushbu tizimda ma'lum darajada o’zaro aloqa qilish madaniyatiga ega bo’lgan, ishtirokchilarining umumiyl iqtisodiy manfaatlarini amalga oshiruvchi va texnologik zanjir tamoyili asosida tashkil etilgan hududiy jihatdan alohida innovatsion yo’naltirilgan integratsion tuzilma”<sup>4</sup> tarzida bayon etilgan bo’lsa, Toxchukov R.R. esa,

<sup>3</sup>Настин А.А. Сельскохозяйственный кластер Дании//Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. 2011. №4, стр.45

<sup>4</sup> Глотко А.В. Инновационна кластерная развития АПК. Материалы межрегион. научно-практ. конф. с междунар. участием “Проблемы и перспективы государственно-правового, экономического и социального развития субъектов Российской Федерации” 3-4 октябрь 2008г., Горно-Алтайский, РИО ГАГ, 2008 с.104.

yanada aniqroq tarzda “tadbirkorlik agroklasteri pirovard natijasi sinergetik samara olish hisoblangan ishlab chiqarishning barcha bosqichlari - qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarishdan tayyor mahsulotni sotishgacha jarayonlarni yagona takror ishlab chiqarish tarzida mujassamlashtirgan turli faoliyat bilan shug‘ullanuvchi tashkilotlarni birlashuvi”<sup>5</sup> dan iborat ekanligi sifatida ta'riflaydi. Shuningdek, E.Galves-Nogales agroklasterni sodda holda ifodalab - “mahsulot ishlab chiqaruvchilar va institutlarning umumiy manfaat olish va imkoniyatlarni kashf etish yo‘lida rasmiy yoki norasmiy tarzda oziq-ovqat va qishloq xo‘jaligi sohalarida o‘zaro bog‘lanishi va tarmoqlararo aloqalarni o‘rnatishidir” deya ta'kidlaydi<sup>6</sup>. Ushbu nazariy ta'riflarni yanada takomillashtirgan va kengaytirgan holda umumlashtirib, “agroklaster-qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish, qayta ishslash va sotish jarayonlarini yagona zanjirga birlashtirish va yuqori texnologik innovatsiyalardan foydalanish bilan bir qatorda, qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini ichki va tashqi bozorda raqobatbardoshligini oshirish, qishloq joylarda infratuzilma majmuini shakllantirish va rivojlanirish, qishloq aholisini ish bilan bandligi darajasi va daromadlarini oshirish hamda kelajakda qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sifati va ekologik muhitni yaxshilashda faoliyat yuritadigan xo‘jalik yuritish sub'ektlaridan tarkib topadi” degan xulosaga kelish mumkin<sup>7</sup>.

Agroklaster – qishloq xo‘jaligining davlat – ilmiy-tadqiqot – qayta ishslash – biznes kabi sub'ektlarning o‘zaro bozor tamoyillariga mos munosabatlarini mujassamlashtirgan sub'ekt hisoblanadi.

Agroklaster - bu qishloq xo‘jaligi tashkilotlari, mintaqalar va umuman mamlakatning raqobatdoshligi va barqaror rivojlanishiga erishish maqsadida tuzilgan, davlat hokimiyati va boshqaruvi organlari

<sup>5</sup> Тохчуков Р. Р., Предпринимательский агропромышленный кластер: теоретические основы создания и функционирования в системе апк. рубрика: экономика четверг, 19 апрель 2012 , современные научные исследования: электронный научный журнал ,<http://www.sni-vak.ru/> info@sni-vak.ru

<sup>6</sup> Galvez-Nogales, Eva. Agro-based clusters indeveloping countries:staying competitive ina globalized economy. Food and Agriculture Organization of the United Nations(FAO). Rome, 2010

<sup>7</sup> Муродова М.Ч. Агрокластерларни ташкил этишда жанубий корея тажрибасидан фойдаланишнинг ўйналишлари//“Iqtisodiyot va innovatsion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2019 yil 4/2019 (№ 00042) <http://iqtisodiyot.tsue.uz>

va ilmiy-ta'lim markazlari bilan sheriklik aloqalari bilan bog'langan korxonalarining barqaror uzoq muddatli hududiy va tarmoq birlashmasi.

Agroklasterlar uch xususiyatga asoslanadi, ya'ni:

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqarish bo'yicha hududiy ixtisoslashuv va mahalliylashtirish;
- tarmoqning xo'jalik yurituvchi sub'ektlari o'rtasidagi o'zaro aloqalar;
- turli tarmoqlar o'rtasida qishloq xo'jaligi mahsulotlaridan tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchi texnologik o'zaro aloqalarning shakllanganligi.

Agroklasterning markazi strategik o'zaro hamkorlik to'g'risida shartnomada asosida qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari (fermer va dehqon xo'jaliklari), ilmiy-tadqiqot muassasalari, turli xizmat ko'rsatuvchi infratuzilma tashkilotlari, mahsulotlarni sotish, reklama qiluvchi marketing xizmatini o'z atrofida birlashtirgan qayta ishlovchi korxonalar bo'lishi mumkin.

Agrosanoat klasterlari tashkil etishni afzalliklari<sup>8</sup>:

- turli mulkchilik shakllarini birlashuvi, ya'ni tarmoqlar va geografik hudud bo'yicha mansubligiga ko'ra, tashkiliy-huquqiy statusi bo'yicha, yuqori qo'shimcha qiymatga ega bo'lgan yakuniy mahsulot ishlab chiqarishni bir butun tizimi shakllantiriladi;
- bozor iqtisodiyoti sharoitida klaster ishtirokchilari o'rtasida nafaqat raqobat, balki yagona maqsadga erishish uchun - umumstrategik rejalar, shartnomalar, brendlari va nomoddiy aktivlardan birgalikda foydalanish kabi ishonchli munosabatlar yuzaga keladi;
- korxonalar ixtisoslashuvini kuchaytirilishi va korxonalararo mehnatni taqsimlashni takomillashuvi;
- klasterdagi ishtirokchilar manfaatlarini, shuningdek ularning hukumat organlari bilan o'zaro hamkorligini qo'llab-quvvatlanishi.

Agroklaster mahalliy davlat hokimiyati tashkilotlari (tuman hokimligi), qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari (tuman

---

<sup>8</sup> Коваль Е.В., Сырбу А.Н. Преимущества региональных сельскохозяйственных кластеров в повышении конкурентоспособности организаций и работников // Управление, Бизнес и Власть. Электронный научно-практический журнал. – 2013. – № 1.

fermerlar kengashi va dehqonlar), qayta ishlovchi korxonalarining o‘zaro hamkorlikdagi yoki alohida tashabbusi bo‘yicha tashkil etiladi. Uni tashkil etishning muhim jihatlaridan biri ishtirokchilarining bиргаликда qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini – ishlab chiqarish – qayta ishlash – sotish – ilmiy-tadqiqot jarayonlarini o‘zida mujassamlashtirgan hamkorlikdagi loyihalarni amaliyatda qo‘llash orqali bir-birlariga ishonchlarining yuqoriligi hisoblanadi.

#### *Agroklasterlar faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslari.*

Bozor iqtisodiyoti sharoitida klasterlarni shakllantirish tamoyillarini tadqiq etgan Ye.M.Tereshin, V.M.Volodinlar fikricha: tuzilishi, hajmi va faoliyat turiga qarab, klasterlarni shakllantirishning uchta asosiy tamoyillari keng tarqalgan, ular<sup>9</sup>:

- potensial ishtirokchilar manfaatlarining umumiyligi,
- konsentratsiya (muntazam aloqalar uchun qulay joylarni aniqlanishi);
- ishtirokchilar bog‘liqligini ta‘minlovchi o‘zaro aloqalardan iboratdir.

Klaster tuzilmalarini shakllantirish, faoliyat ko‘rsatish va boshqarish tamoyillarni aniqlashda ularni uchta guruhga ajratib ko‘rsatish mumkin:

- maqsad tamoyillari,
- shakl va mazmun tamoyillari,
- boshqarish va o‘zaro hamkorlik.

Shu bilan birga, ishtirokchilar manfaatlari asosida shakllangan maqsad tamoyillari klasterlar shakllanishining taklif etilayotgan tizimida yetakchilik qiladi. O‘z o‘rnida, klasterni shakllantirish tamoyillari uning faoliyat ko‘rsatishi, iqtisodiy, tashkiliy, texnologik va tizimli xususiyatga ega tamoyillarga asoslangan bo‘lishi lozim, qaysikim ular klasterning barcha ishtirokchilarini va klasterni o‘zini mutonosib (adekvat) rivojlanishini ta‘minlaydi. Bugungi kunda klasterlar dunyo mamlakatlarining iqtisodiy siyosatida muhim hodisa bo‘lib kelmoqda. Klaster, o‘zining barcha elementlarini uzluksiz takomillashtirib borishni

---

<sup>9</sup> Терешин Е.М. Володин В.М. Принципы кластерных объединений в российской экономике // Экономика сельскохозяйственных и перерабатывающих предприятий. – 2011. – № 3. – С. 57–60.

nazarda tutadi va ularning o‘zaro aloqasi alohida elementni ham, bir butun klasterni ham raqobatdoshligini oshishiga hissa qo‘shib boradi.

Klasterning geografik-hududiy joylashuviga ko‘ra konsentratsiyalanganligi, o‘z-o‘zidan shakllanishi, tarmoqli tashkil etilishi, tizimliligi, tarmoqlararo xususiyatlari, unikalligi, fan va ilmiy tadqiqotlarga bog‘liqligi, innovatsionligi uning tayanch alomatlari hisoblanadi. Turli darajadagi boshqaruv doiralarida, klasterli konsepsiyaga – mintaqqa yoki tarmoqni, yoki mamlakatni reytingini oshiruvchi yangi boshqaruv texnologiyasi sifatida qaralmoqda. Klasterlashtirish yetakchi mamlakatlar iqtisodiyotini 60 foizini qamrab olgan, va unga dunyo iqtisodiy tizimining yangi rivojlanish vektori sifatida qaralmoqda. Klasterlarni tatbiq qilinishi rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda raqobatbardoshlikni oshishining tayanch vositasi bo‘lib bormoqda.

Agrosanoat klasteri konsepsiyasiga oid ilmiy ishlarda asosiy uchta mezon ajratib ko‘rsatiladi:<sup>10</sup>

Birinchidan, klaster, ayniqsa, barqaror rivojlangan holatida tizim, aniqrog‘i yopiq tizim sifatida bo‘ladi. Bu tizim yanada yaxlitroq bo‘lsa, u qanchalik samaraliroq bo‘lsa, uni qo‘llashdagi sinergetik samarali ta’siri shunchalik yuqori bo‘ladi. Shu bilan birga, bu tizim qanchalik ochiq bo‘lsa, u ko‘proq rivojlanish va o‘z-o‘zini rivojlantirishga qodir bo‘ladi.

Qishloq xo‘jaligini klasterlashtirishning joriy va fundamental asoslari barcha xo‘jalik toifalari o‘rtasida o‘zara aloqasi mavjud bo‘lishi bilan belgilanadi. Bu o‘zaro aloqalarni amalda istalgan qishloq xo‘jalik hududida kuchaytirish mumkin va maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Ikkinchidan, klaster deb, shunday tuzilmalarni atash kerakki, qaysikim uning asosini innovatsion texnologiyalar, ko‘p bosqichli texnologik o‘zaro aloqalar tashkil qilishi, u mehnatning taqsimlanishiga asoslangan an'anaviy o‘zaro hamkorlikdan iborat bo‘lmasligi lozim.

Uchinchidan, klaster deb faqat o‘z-o‘zini boshqaruvchi va tashkiliy jixatdan integrallashgan shaklda bo‘lgan, kichik rezonans ta’sirlar bilan

<sup>10</sup> Фролова О.А. Агропромышленные кластеры: российская модель/ Вестник НГИЭИ / <https://cyberleninka.ru/article/n/agropromyshlennye-klastery-rossiyskaya-model>


boshqariladigan tuzilma hisoblanishi mumkin. Klasterlardi sub'ektlarning hatti-harakatlarini klasterlarni boshqarishning ma'muriy apparatini emas, balki ularning iqtisodiy manfaatlari belgilaydi.

Klasterlar - innovatsion texnologiyalar va bir-biriga yaqin texnologik aloqalarga asoslanadi. Klasterlarni tashkiliy shaklini mezonlari sifatida quyidagi xususiyatlarini ajratib ko'rsatish mumkin:

- birinchidan, tizimlilik, munosabatlarning mavjudligi va o'zaro aloqalarni kuchliligi (zaif, o'rta, kuchli va juda kuchli);
- ikkinchidan, innovatsion texnologiyalarni qo'llanilishi, foydalanish va yaqin texnologik aloqalarning bo'lishi;
- uchinchidan, klasterlar o'z-o'zini boshqaradigan va asosan o'z-o'zini tashkil qiladigan iqtisodiy shakldir. Shu bilan birga, o'z-o'zini boshqarish va o'zini-o'zi tashkil etish muayyan iqtisodiy manfaatlarga asoslanadi. Ushbu manfaatlarning mazmuni, asosan, innovatsion texnologiyalar va klasterdagi texnologik aloqalar bilan belgilanadi.

Klasterlar, bu muammolarni hal qilish uchun mo'ljallangan. Klasterlarga birlashish, klaster sub'ektlari uchun ham, hududiy va milliy iqtisodiyot uchun qulayliklar yaratadi va foyda beradi.

Dastlabki "Bek cluster" qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishida tarkibiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish va bunda davlatning rolini qisqartirish, to'g'ridan-to'g'ri investitsiyalar jalb etilishini rag'batlantirish, paxta va boshqa turdag'i qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirishning samarali usullarini joriy etish, ularni chuqur qayta ishlashni tashkil qilish, shuningdek, agrar sektorda mehnat unumdarligini va unga haq to'lashni oshirish maqsadida 2017 yil 15 sentyabrdagi PQ-3279- sonli O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Sirdaryo viloyatida zamonaviy paxtachilik-to'qimachilik klasterini barpo etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi Qaroriga muvofiq tashkil etildi. Bu qaror bilan "Mirza obod universal trade cluster" xususiy korxonasining "TRONTEX LP" (Buyuk Britaniya) va "GRATUM TRADING LP" (Buyuk Britaniya) xorijiy kompaniyalari ishtirokida mas'uliyati cheklangan jamiyat shaklidagi "Bek cluster" qo'shma korxonasini barpo etishni nazarda tutuvchi, qiymati \$165 mln. tajriba loyihasi tasdiqlandi.



#### **4.2-rasm. «Bek cluster» MChJ QKning faoliyat ko‘rsatish tuzilmasi<sup>11</sup>.**

“Bek cluster” dastlab “Bek” ishlab chiqarish birlashmasi sifatida faoliyat ko‘rsatishni boshlagan va tarkibiga “Gul-ren-teks”, “Tekstil market”, “Davron Shavkat Savdo” mas’uliyati cheklangan jamiyatlari, “Guliston medtexnika”, “Sarbonteks”, “Orzu tekstil’ SV”, “Sirdarinskiy bereg” qo’shma korxonalarini, paxtachilik, g‘allachilik, chorvachilik, bog‘dorchilik, uzumchilik, parrandachilik va yilqichilikka ixtisoslashgan fermer xo‘jaliklarini birlashtirgan. 2-jadvalda «Bek cluster» MChJ QKning faoliyat ko‘rsatish tuzilmasi keltirilgan.

#### **4.2. Agroklasterlarni belgilovchi me'yoriy huquqiy hujjatlar**

Agroklasterlarni rivojlantirish uchun huquqiy asosni yaratuvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimini quyidagi asosiy guruhlarga bo‘lishimiz mumkin.

1. Umumiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar
2. Maxsus me'yoriy-huquqiy hujjatlar

<sup>11</sup> Eshonqulov S.X., Urdushev X. Meva-sabzavot klasterda uzum ishlab chiqarish, qayta ishslash va sotishni optimallashtirish masalalari//“Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel’, 2019 yil. <http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqolalar/Murodova.pdf>

Umumiy me'yoriy-huquqiy hujjatlarda korxonalarni klaster usulida faoliyat yuritishi, shakllantirish va rivojlantirishga asos bo'luvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni kiritish mumkin.

Umumiy me'yoriy-huquqiy hujjatlarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. O'zbekiston Respublikasi Konstitusiyasi.
2. O'zbekiston Respublikasi qonunlari.
3. O'zbekiston Respublikasi Oliy majlis qarorlari.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining farmonlari va qarorlari.
5. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar mahkamasining qarorlari.
6. Vazirliklar, davlat qo'mitalari va idoralarining me'yoriy hujjatlari.
7. Mahalliy davlat hokimiyati organlarining qarorlari.

Misol tariqasida umumiy me'yoriy-huquqiy hujjatlarga quyidagilarni kiritish mumkin: "O'zbekiston respublikasida mulkchilik to'g'risida" O'z.R.Qonuni (1990 yil), "Xususiy korxona to'g'risida" O'z.R.Qonuni (2003 yil), "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida" O'z.R.Qonuni (2012 yil) va boshqalar.

Agroklasterlarni shakllantirish va rivojlantirishning maxsus huquqiy-me'yoriy hujjatlari bosqichma-bosqich shakllantirilmoqda va ular quyidagilda namoyon bo'ladi:

- Vazirlar Mahkamasi qaroriga asosan fermer xo'jaliklari, qishloq xo'jaligining boshqa ishlab chiqaruvchilari va to'qimachilik sanoati korxonalari o'rtaida bozor munosabatlarini yanada rivojlantirish, yuqori qo'shilgan qiymatga ega zamonaviy to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarishni tashkil etishni rag'batlantirish va qishloq aholisining bandligini oshirish maqsadida:

1. 2019 yil paxta xomashyosi hosilidan boshlab, respublika mintaqalarida paxta-to'qimachilik ishlab chiqarishlarini tashkil etishning klaster shakllarini joriy etish;
2. Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyatlar va tumanlar hokimliklari, Qishloq xo'jaligi vazirligi, «O'zto'qimachiliksanoat» uyushmasi O'zbekiston fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi bilan birgalikda:

2018 yil 1 oktyabrgacha bo‘lgan muddatda fermer xo‘jaliklarining ro‘yxatini aniqlash va fermer xo‘jaliklari hamda paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlar tashkilotchilari o‘rtasida 2019 yil paxta xomashyosi hosili uchun kontraktasiya shartnomalari tuzilishiga amaliy yordam ko‘rsatish;

fermer xo‘jaliklari tomonidan olingan majburiyatlarni bajarmasligi sababli bo‘shaydigan yer maydonlaridan ishlarni tashkil etishning ilg‘or agrotexnologiyalari va uslublarini joriy qilish, suv resurslaridan samarali va oqilona foydalanish ko‘rsatkichlari bo‘yicha ijobiy natijalarni ta‘minlaydigan paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlari hamda klasterlari tashkilotchilariga ushbu maydonlardan foydalanish huquqini tomchilatib sug‘orishning zamonaviy tizimini bosqichma-bosqich joriy qilish sharti bilan belgilangan tartibda berishga qaror qilindi.

- Vazirlar Mahkamasi “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlarini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarorini qabul qildi (230-son 18.03.2019). Qarorga binoan 2019 yil paxta xomashyosi hosilidan boshlab, respublika hududlarida klaster shaklida paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlarini tashkil etishga ruxsat berildi

- Vazirlar Mahkamasining “Respublika hududlarida paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini joriy etish mexanizmlarini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” (914-son 18.11.2019) qarori qishloq xo‘jaligi ishlab chiqarishida tarkibiy islohotlarni chuqurlashtirish va bozor munosabatlarini joriy qilish, paxta xomashyosini qayta ishslash hamda to‘qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish tarmoqlarining integratsiyalashuvini yanada kengaytirish maqsadida respublika hududlarida 2020 yil paxta hosilidan boshlab paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlari va klasterlarini tashkil etish hamda ekin maydonlarini kengaytirish; paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlari tashkilotchilariga belgilangan tartibda paxta tozalash korxonalari hamda paxta tayyorlash punktlarining bino va inshootlarini baholash qiymatini 5 yil muddatda bo‘lib to‘lash sharti bilan sotish; Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari tashkil etilayotgan hamda ekin maydonlari kengaytirilayotgan paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishlari

tashkilotchilariga belgilangan tartibda sug‘oriladigan yer maydonlari ajratish va boshqalarni nazarda tutadi.

- O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining “Paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 397-sod 22.06.2020) qarori qabul qilindi. Unda paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyati samaradorligini yanada oshirish, paxta xom ashvosini chuqur qayta ishlash quvvatlarini ko‘paytirish, ushbu jarayonga ilmiy asoslangan usullar va intensiv texnologiyalarni keng joriy etish, shuningdek, paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatida yuzaga kelayotgan muammolarni o‘z vaqtida bartaraf etish, ularning manfaatlarini davlat hokimiyati boshqaruv organlarida himoya qilish tizimini yo‘lga qo‘yish maqsadida «O‘zbekiston paxta-to‘qimachilik klasterlari» uyushmasini tashkil etish ta’kidlanadi. Uyushmaning asosiy vazifalari va faoliyati yo‘nalishlari etib quyidagilar belgilandi:

- paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini hamda ular tomonidan loyihalarning amalga oshirilishini muvofiqlashtirish, ularning huquqlari va manfaatlarini himoya qilish, davlat organlari va tashkilotlari hamda xo‘jalik birlashmalari bilan o‘zaro samarali hamkorlikni tashkil etish;

- paxta-to‘qimachilik klasterlarini hududlarning salohiyati yanada rivojlanishi istiqbollaridan, xom ashyo bazasi, mavjud infratuzilma, mehnat resurslari va bozor kon'yunkturasidan kelib chiqqan holda joylashtirishga ko‘maklashish;

- paxta xom ashvosini yetishtirish jarayoniga ilg‘or agrotexnologiyalar hamda resurslarni tejaydigan texnika va texnologiyalarni joriy etish, shuningdek, paxta-to‘qimachilik klasterlari bilan fermer xo‘jaliklari o‘rtasidagi munosabatlarni tartibga solishning shaffof mexanizmini yaratish;

- yuqori qo‘shilgan qiymatga ega tayyor mahsulot ishlab chiqarish va eksport qilish, paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini kengaytirish hamda mazkur jarayonlarga raqamli texnologiyalarni keng joriy etish bo‘yicha kompleks tadbirlarni amalga oshirish;

- paxta-to‘qimachilik klasterlari faoliyatini rivojlantirish uchun unifikasiyalangan imtiyoz va preferensiyalar qo‘llash bo‘yicha takliflar ishlab chiqish;

- ichki va tashqi bozorda marketing tadqiqotlarini tashkil qilish, tarmoqni rivojlantirishning o‘rta va uzoq muddatli dasturlarini ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etish, shuningdek, tarmoqqa bozor mexanizmlarini keng joriy qilish;

- paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini modernizasiyalash, texnik qayta jihozlash, yuqori unumli innovation texnologiyalarni joriy etishda investisiyalarni, shu jumladan to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investisiyalarni keng jalb etishda paxta-to‘qimachilik klasterlariga ko‘maklashish;

- paxta-to‘qimachilik ishlab chiqarishini jadal rivojlantirish va barqaror faoliyat yuritishiga to‘sinq bo‘layotgan tizimli muammolarni aniqlash va bartaraf etish, shuningdek, sohaga oid qonun hujjatlarini yanada takomillashtirish bo‘yicha takliflar tayyorlash.

Davlatimiz rahbarining 2019 yil 23 oktyabrdagi farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasi qabul qilindi. Unga muvofiq, yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish maqsadida meva-sabzavot klasterlari tashkil etilmoqda. 2019 yil 11 dekabrda bu borada Prezident qarori qabul qilinib, barcha tashkiliy-huquqiy asoslar yaratib berildi.

“Meva-sabzavotchilik va uzumchilik tarmog‘ini yanada rivojlantirish, sohada qo‘shilgan qiymat zanjirini yaratishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 4549-sonli Prezident qarorida (11.12.2019 yil) meva-sabzavot va uzumchilik sohasida yuqori qo‘shilgan qiymatli mahsulotlar ishlab chiqarish, eksport hajmini oshirish, foydalanishdan chiqqan va lalmi yerlarni o‘zlashtirish, paxta, g‘alladan qisqartirilayotgan maydonlarga eksportbop qishloq xo‘jaligi ekinlari ekishni ko‘paytirish, shuningdek, bog‘, tokzor va issiqxonalar imkoniyatlaridan samarali foydalanishni yo‘lga qo‘yish maqsadida:

meva-sabzavot va uzum mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishslash va eksport qilish bo‘yicha klasterlarni tashkil etish tashabbuskor, tegishlich Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimliklari hamda O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi o‘rtasida tuziladigan uch tomonlama kelishuv asosida amalga oshiriladi;

meva-sabzavot klasterini tashkil etish bo‘yicha tashabbuskorlar, qoida tariqasida, qayta ishlovchi va eksport qiluvchi tashkilotlar orasidan, ularning tajribasi va imkoniyatlaridan kelib chiqib tanlab olinadi, bunda birinchi navbatda mahsulotlarni saqlash va qayta ishlash bo‘yicha to‘liq ishlatilmayotgan quvvatlarni ishga tushirish nazarda tutiladi;

meva-sabzavot va uzum mahsulotlari yetishtiruvchilarni meva-sabzavot klasterlariga biriktirish ular bilan qayta ishlovchi va eksport qiluvchi tashkilotlar hamda tuman hokimligi o‘rtasida ixtiyoriylik asosida tuziladigan mahsulot yetkazib berish shartnomalari orqali amalga oshiriladi;

meva-sabzavot klasteri ishtirokchilari — mahsulot yetishtiruvchi, qayta ishlovchi va eksport qiluvchi tashkilotlar o‘rtasidagi munosabatlar mahsulot yetkazib berish shartnomalari orqali tartibga solinadi;

mahsulot yetkazib berish shartnomalari Qoraqalpog‘iston Respublikasi Vazirlar Kengashi va viloyatlar hokimlari tomonidan qayta ishlovchi va eksport qiluvchi tashkilotlarning takliflari asosida qabul qilinadigan meva-sabzavot va uzum mahsulotlarini joylashtirish to‘g‘risidagi qarorlar va uch tomonlama kelishuv shartlari asosida tuziladi hamda tuman qishloq xo‘jaligi bo‘limi tomonidan ro‘yxatdan o‘tkaziladi;

mahsulot yetkazib berish shartnomalari fuqarolik qonun hujjatlari talablari asosida tuziladi, ularda shu jumladan mahsulot narxini haqiqiy xarajatdan kelib chiqib aniqlash, xarid qilinadigan mahsulot uchun oldindan ajratiladigan avans mablag‘lari hisobiga mahsulot yetishtiruvchilarni urug‘, ko‘chat, mineral o‘g‘itlar, yonilg‘i-moylash materiallari va boshqa resurslar bilan ta‘minlash, agrotexnika va agrokimyo xizmatlari ko‘rsatish, yangi innovasion texnologiyalarni qo‘llash bo‘yicha tavsiyalar berish, axborot-maslahat xizmatlari ko‘rsatish nazarda tutiladi.

Ushbu qarorda agroklasterlarni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash chora-tadbirlari ham ko‘zda tutilgan bo‘lib, ular quyidagilardan iborat:

- qishloq xo‘jaligi birlashmalar a’zolari va meva-sabzavot klasterlari ishtirokchilari o‘rtasida kooperatsiya aloqalarini rag‘batlantirish ularni moliyaviy qo‘llab-quvvatlash orqali amalga oshiriladi, bunda mahsulot yetishtiruvchilarni uch tomonlama kelishuv ishtirokchisi bo‘lgan qayta

ishlovchi va eksport qiluvchi tashkilotlar orqali aylanma mablag‘lar bilan ta'minlash, yangi bog‘, tokzor va issiqxonalar barpo etish, mahsulotlarni saqlash va qayta ishslash obyektlarini yaratish uchun tijorat banklari tomonidan ajratiladigan 20 milliard so‘mgacha miqdordagi kreditlar bo‘yicha Tadbirkorlik faoliyatini qo‘llab-quvvatlash davlat jamg‘armasi hisobidan foiz stavkasining O‘zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash stavkasidan oshadigan, lekin 8 foiz punktidan ko‘p bo‘limgan qismiga kompensasiya yoki kredit summasining 50 foizi miqdorida kafillik taqdim etiladi;

- intensiv bog‘ va tokzorlar tashkil etish loyihalarini moliyalashtirishda ishtirok etadigan tijorat banklariga ushbu loyihalar uchun kreditlar ajratishda bog‘ va tokzorlar hosilga kirgunga qadar (turiga ko‘ra) asosiy qarz bo‘yicha imtiyozli davr belgilash tartibini joriy etish;

- O‘zbekiston Respublikasi Investisiyalar va tashqi savdo vazirligi, Qishloq xo‘jaligi vazirligi tijorat banklari bilan birgalikda:

meva-sabzavot va uzum mahsulotlarini yetishtirish, qayta ishslash va eksport qilish tizimini moliyaviy qo‘llab-quvvatlash uchun xalqaro moliya institutlarining mablag‘lari keng jalb qilinishini;

xalqaro moliya institutlarining jalb qilingan mablag‘larini Qoraqalpog‘iston Respublikasi va viloyatlar kesimida mahsulot yetishtiruvchilar, qayta ishlovchi va eksport qiluvchi tashkilotlarga manzilli yetib borishini ta'minlashlari ko‘zda tutilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish agentligi qoshidagi Bog‘dorchilik va issiqxona xo‘jaligini rivojlantirish jamg‘armasi hamda Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligining Uzum yetishtiruvchilar va vino tayyorlovchilarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan — qishloq xo‘jaligi birlashmalari a'zolari va meva-sabzavot klasterlari ishtirokchilariga mahalliy sharoitda yetishtirilgan intensiv ko‘chatlar (pakana va yarim pakana) hamda payvandtaglarni sotib olish xarajatlarining bir qismini qoplash uchun subsidiyalar ajratish;

O‘zbekiston Respublikasi Qishloq xo‘jaligi vazirligi huzuridagi Uzumchilik va vinochilikni rivojlantirish agentligining Uzum yetishtiruvchilar va vino tayyorlovchilarni qo‘llab-quvvatlash jamg‘armasi hisobidan — uzumchilik yo‘nalishidagi investitsiya loyihalarini moliyalashtirish uchun tijorat banklari tomonidan ajratiladigan kreditlar bo‘yicha kafillik taqdim etishlar nazarda tutilgan.

### **4.3. Agroklasterlarni tashkil etish va uni hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta'siri.**

Klaster - bu iqtisodiy rivojlanish va mintaqva va umuman mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligini oshiruvchi keng tan olingan vosita. Rivojlangan va rivojlanayotgan mamlakatlarda ham jadal kengayib borayotgan klaster tashabbuslari ularning samaradorligi va hayotiyligini aks ettiradi. Xorijiy mamlakatlar tajribasi butun mamlakat iqtisodiyotining raqobatbardoshligi darajasining oshishiga yordam beradigan klaster siyosatining samaradorligidan dalolat beradi.

Jahon amaliyoti klasterlarning iqtisodiy rivojlanishida va mintaqaviy va milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligini oshirishda rolini namoyish etadi, bu ularning ilmiy, ta'lim va ishlab chiqarish salohiyatini birlashtirish qobiliyati bilan bog'liq bo'lib, ularni ta'minlovchi korxonalar, ilmiy-tadqiqot tashkilotlari va o'quv muassasalarining raqobatbardoshligini oshirishni ta'minlaydi.

Investitsiyalarni jalb qilishga va yangi ish o'rinalarini yaratishga hissa qo'shadigan iqtisodiy rivojlanishga multiplikatsion ta'sir, ya'ni:

1) klaster korxonalari uchun ta'siri: mehnat unumdarligini oshirish, foydani ko'paytirish, savdo bozorlarini kengaytirish, investorlarni jalb qilish, klaster ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi ichki raqobat tufayli zamonaviy texnologiyalar va innovatsiyalarni joriy etish;

2) davlat hokimiyati organlari uchun ta'siri: byudjetni ko'paytirish, ishsizlik to'lovlaring pasayishi, infratuzilmani rivojlantirish;

3) mintaqva iqtisodiyoti uchun ta'siri: yalpi hududiy mahsulotning o'sishi, investitsiya hajmlari, ilm-fanni talab qiladigan mahsulotlar eksporti, aholi bandligi va farovonligi va boshqalar.

### **4.1-jadval**

## Agroklasterning asosiy tarmoqlarining funktsiyalari va ularning mintaqada qishloq barqaror rivojlanishiga erishishdagi roli.

Agroklasterning funktsiyalari	Barqaror rivojlanishga erishishda roli
Soha: <b>Ishlab chiqarish</b> (asosiy faoliyatga ixtisoslashgan tadbirkorlik sub'ektlari, ularning yetkazib beruvchilari va infratuzilmaning ishlashini ta'minlaydigan tashkilotlar)	
<b>Raqobatbardosh mahsulotlarni chiqarish, qo'shma investitsiya loyihibalarini amalga oshirish orqali ishlab chiqarish xarajatlarini kamaytirish; o'zaro ma'lumot almashish va ilmiy tadqiqot natijalaridan aniq ishlab chiqarish sharoitida foydalanish orqali yangiliklarni joriy etish imkoniyatini ta'minlash; ish o'rirlari bilan ta'minlash; xodimlarning malakasini oshirish maqsadida qo'shma o'quv dasturlarini amalga oshirish; mijozlar ehtiyojini qondirish</b>	Uzoq muddatli raqobatbardosh ustunliklarni ta'minlash, logistika tizimini rivojlantirish, resurslarni tejaydigan yangi texnologiyalarni joriy etish, ekologik toza mahsulotlar ishlab chiqarish, ish bilan ta'minlash va aholi turmush sifatini oshirish orqali mintaqada qishloq xo'jaligini barqaror rivojlantirish uchun sharoit yaratish.
Soha: <i>Fan va ta'lim</i>	
<b>Ilm-fan va ishlab chiqarishni birlashtirish orqali ilmiy ishlanmalardan amaliy foydalanish imkoniyatlarini ta'minlash; olingan bilimlarni amalda sinab ko'rish asosida talabalarga dars berish sifatini oshirish; mintaqaviy mehnat bozorida raqobatdosh mutaxassislarni tayyorlash; universitet bitiruvchilarini ish bilan ta'minlash; qishloq xo'jaligi klasterlarini yaratish va faoliyati sohasida ilmiy izlanishlar olib borish, ularning natijalarini ishlab chiqarishga joriy etish; texnologiya uzatish markazini yaratish, uning maqsadi</b>	Ta'lim sohasida mahalliy barqaror rivojlanish strategiyasini (MP-21 maktab) amalga oshirish imkoniyati; barqaror mintaqaviy rivojlanishni boshqarish sohasida malakali kadrlar tayyorlashni ta'minlaydigan yangi mutaxassisliklarni ochish; soha mutaxassislarini qayta tayyorlash va ularning malakasini oshirish; barqaror rivojlanishni ta'minlash uchun iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik omillarni amalga oshirishda professional vakolatlarni shakllantirish.

<p><b>innovatsiyalarni rivojlanish sohasidan amaliy foydalanish sohasiga uzatishni ta'minlashdir.</b></p>	
<p>Soha: Mintaqaviy qishloq xo'jaligi boshqaruv organlari</p>	
<p><b>Hamkorlik va integratsiya uchun tashkilotlarni izlash va jalb qilish; yagona axborot bazasini yaratish; mintaqaning investitsiya jozibadorligini kuchaytirish; uyushma a'zolarining moliyaviy-xo'jalik faoliyatini nazorat qilish; qishloq xo'jaligi yerlaridan oqilona foydalanishni ta'minlash; innovatsion va moliyaviy infratuzilmani rivojlantirish; boshqaruv va ishbilarmonlik muhiti sohasida klasterni rivojlantirish modeli g'oyasini ommalashtirish va targ'ib qilish</b></p>	<p>Qishloqlarni barqaror ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish bo'yicha mintaqaviy kompleks dasturlarni ishlab chiqish va amalga oshirish</p>

Milliy agrosanoat majmuasini barqaror innovations rivojlantirishning obyektiv shartlari mintaqaviy darajada yaratiladi, bu yerda birinchi navbatda hududlarning ishlab chiqarish ixtisoslashuvi tufayli raqobatdosh ustunliklar shakllanadi, ikkinchidan, qishloq aholisini ish bilan ta'minlash, uning hayot sifati va darajasini oshirish muammolari, uchinchidan, tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va ekologik yangiliklarni joriy etish orqali qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish uchun ekologik xavfsiz sharoitlar yaratiladi.

Agroklasterning mintaqada qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga erishishdagi rolni 4.1-jadvalda aks ettirilgan.

Mintaqada qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishini belgilaydigan va uning asosiy majburiyatlarini hisobga oladigan klasterizatsiya tamoyillari quyidagilarni ajratish mumkin<sup>12</sup>:

*barqaror iqtisodiy rivojlanishni ta'minlaydigan tamoyillar:*

---

<sup>12</sup> Л.В.Щукина. Агрокластеры как инструмент обеспечения устойчивого инновационного развития сельского хозяйства региона

- raqobatdosh qishloq xo'jaligi mahsulotlari va oziq-ovqat mahsulotlarini ishlab chiqarishni optimallashtirish, ehtiyojlarini qondirish bo'yicha a'zo davlatlarning resurs salohiyatini samarali amalgamoshirishga qaratilgan Bojxona ittifoqi va Yagona iqtisodiy makonga a'zo davlatlarning kelishilgan agrosanoat siyosatini amalgamoshirish doirasidagi xalqaro hamkorlik.

- umumiy qishloq xo'jaligi bozori, shuningdek qishloq xo'jaligi mahsulotlari va oziq-ovqat mahsulotlarini eksportini ko'paytirish;

- mintaqaviy oziq-ovqat xavfsizligi deganda mintaqaning oziq-ovqat mustaqilligiga erishish, davlatning importga qaramligini kamaytirish, aholining qishloq xo'jaligi mahsulotlariga va oziq-ovqat mahsulotlariga tibbiy iste'mol standartlariga javob beradigan ehtiyojlarini qondirish tushuniladi;

- iqtisodiy samaradorlik - ishtirok etuvchi tashkilotlarning moliyaviy ko'rsatkichlarini yaxshilash, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining rentabellik darajasini, shuningdek, qishloq xo'jaligi klasteri faoliyat ko'rsatadigan mintaqaning raqobatbardoshligi va barqarorligini oshirish;

- innovatsionlik - innovatsiyalarni texnologiyada ham, menejmentda ham qo'llash klaster sub'ektlarining barqaror rivojlanishini va ularning mintaqaviy va milliy darajalarda raqobatbardoshligini ta'minlaydi;

*barqaror ijtimoiy rivojlanishni ta'minlaydigan tamoyillar:*

- axloqiy me'yordarga rioya qilinishini, shuningdek, odamlar va jamoalarga hurmatni hisobga olgan holda, agroklasterni rivojlantirish falsafasini va uning ishtirokchilarining tijorat muvaffaqiyatlariga erishishni anglatadigan ijtimoiy javobgarlik;

- mahalliy ijro etuvchi hokimiyat organlari tashabbusi bilan hududlarni ijtimoiy rivojlantirish loyihalari va dasturlarini amalgamoshirishda qishloq xo'jaligi klasteri ishtirokchilarini jalb qilishni nazarda tutadigan ijtimoiy ishtirok;

- ijtimoiy samaradorlik - qishloq va shahar aholisining hayot darjasini va sifatini farqlanishini pasaytirish uchun sharoit yaratish;

*barqaror ekologik rivojlanishni ta'minlaydigan printsiplar:*

- ekologik xavfsizlik - atrof-muhitga zarar yetkazmaydigan ishlab chiqarish faoliyatini amalga oshirish, shuningdek ekotizimlarning yo'q qilinishini oldini olish uchun sharoit yaratish;

- ekologik ta'lif va aholini axborot bilan ta'minlash - barqaror rivojlanish bo'yicha mahalliy maktab strategiyasini amalga oshirish, hududlarni barqaror rivojlantirish masalalarida aholining savodxonligini oshirishga hissa qo'shadigan bukletlar va axborot xabarlarini nashr etish;

- madaniyat va san'at, siyosat, axloq va din sohalarida tabiatni oqilona boshqarish tamoyillarining tarqalishini anglatadigan ijtimoiy hayotni ko'kalamzorlashtirish.

Qishloq xo'jaligi klasterini yaratish va uning faoliyati jarayonida ko'rib chiqilayotgan printsiplarga rioya qilish maqsadlarning izchilligini ta'minlaydi va uning ishtirokchilarining mintaqadagi qishloq xo'jaligini barqaror rivojlanishiga erishish borasidagi sa'y-harakatlarini birlashtiradi.

Agrosanoat ishlab chiqarishini tashkil etishning klaster shaklidan foydalanish turli darajalarda namoyon bo'ladigan iqtisodiy, ijtimoiy va ekologik afzalliklarga ega.

Qishloq xo'jaligi klasterlarining samarali ishlashini va ularning asosida mintaqada qishloq xo'jaligining barqaror rivojlanishiga erishish uchun quyidagilarni hisobga olish zarur:

- agrosanoat majmuasidagi boshqa yaxlit tuzilmalarni yaratish va ulardan foydalanish tajribasi;

- agroklaster ichida monopoliyalar, shuningdek sun'iy ravishda yaratilgan klaster birlashmalarining shakllanishiga yo'l qo'ymaslik zarurligi;

- mintaqaviy xususiyatlar, ekologik xavfsiz qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish muammolari;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqaruvchilarning ilmiy axborot markazlari va ilmiy-texnik mahsulotlar ishlab chiqaruvchi tashkilotlardan uzoqlikda joylashganligi;

- qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish sub'ektlarining ilmiy taddiqotlar va ishlanmalar natijalariga innovatsion ta'sirchanlik darajasi;

- qishloq xo'jaligi tashkilotlarining moliyaviy ahvoli va ularning tarmoqlarga aloqadorligi;
- qishloq aholisini agrosanoat kompleksining aniq bir tarmog'ida ish bilan ta'minlash darjasи;
- mintaqaning ekologik tizimining ekologik holati va biologik xilma-xilligi.

#### **4.2-jadval**

#### **Mintaqaning raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha klaster siyosatining maqsadlari**

Vazifalar	Tashkiliy va boshqaruв mexanizmi
Raqobatbardosh bozorni rivojlantirish	Raqobatni kompaniyalarning raqobatbardoshligini harakatlantiruvchi kuchi sifatida qo'llab-quvvatlash
Yangi yaratilgan ishlab chiqarish omillari asosida mahalliy bozorlar va kompaniyalarni tahlil qilish.	Rivojlanishning mahalliy xususiyatlarini hisobga olgan holda va kompaniyalarning rivojlanishini jadallashtirish va raqobatbardoshligini oshirish bo'yicha samarali maqsadli dasturlarni ishlab chiqish.
Davlat va mahalliy davlat hokimiyyati organlari, biznes, ilmiy va ta'lim muassasalari o'rtasidagi o'zaro aloqalarni tashkil etish.	Ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish sohasining innovatsion xususiyatini oshirish, takomillashtirish va ish samaradorligini oshirish bo'yicha harakatlarni muvofiqlashtirish.
Klaster siyosatini amalga oshirish.	Klasterlar va klaster tashabbuslarining asosiy qismini tashkil etadigan, birinchi navbatda, kichik va o'rta biznesni rivojlantirishni rag'batlantirish va innovatsion salohiyatini oshirish.

Klaster yondashuvining afzalligi shundaki, u turli tarmoqlarga tegishli bo'lган o'zaro bog'liq korxonalar guruhidagi vaziyatni har tomonlama, tizimli ravishda ko'rib chiqishga imkon beradi. Bundan tashqari, klaster yondashuvi biznes rahbarlari tomonidan ilgari surilgan va amalga oshirilgan tashabbuslardan klasterlarni rivojlantirish strategiyasining "yadroси" sifatida foydalanishga imkon beradi, bu esa muvaffaqiyatli amalga oshirilishi kafolatlanadi.

Klaster loyihalarining muvaffaqiyati (ayniqsa, uzoq muddatli) ko'p jihatdan klasterni faollashtirish jarayonlarini samarali boshqarish va bundan tashqari, biznes rahbarlarining dolzarbliji va o'zgarishi zarurligi to'g'risida xabardorligi, mahalliy rahbarlarning (hukumat va/yoki biznes) faoliyati va "strategik qarashlari" va klasterni rivojlantirish strategiyasining mavjudligiga bog'liq.

Mintaqada klaster siyosatini amalga oshirish zarurati umuman mintaqaning raqobatbardoshligini oshirish sohasidagi muammolarni hal qilish zarurati bilan belgilanadi (4.2-jadval).

Mintaqaviy klasterni o'sish nuqtasi sifatida, innovatsiyalarga yo'naltirilgan iqtisodiyotning yadrosi sifatida qarash mumkin.

Iqtisodiyotda mintaqaviy klasterlar asosiy rol o'ynaydigan raqobatbardosh va, eng muhimi, investitsiyalar uchun jozibador bo'lish uchun barcha imkoniyatlarga ega. Mintaqaviy klaster mintaqaning rivojlanishini rag'batlantiruvchi vosita bo'lib, u kichik va yirik biznesni rivojlantirish uchun alohida qulay muhit yaratadi, shuningdek, sanoatning rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadigan, mintaqada aholi turmush darajasi va sifatining oshishiga hissa qo'shadigan sinergetik va multiplikatsion ta'sirga ega.

Klasterlarni yaratishda iqtisodiy muhim uch xil ta'sir ko'rsatilishi mumkin: ijtimoiy, iqtisodiy va byudjet.

Ijtimoiy ta'sir yangi ish o'rinalarini yaratishda, iste'molchilarни tovar va xizmatlar sifatidan qoniqtirishda, kasb yoki ishlab chiqarish ko'nikmalariga ega bo'lish imkoniyatida namoyon bo'ladi.

Iqtisodiy samara - bu har qanday loyihani amalga oshirishda bevosita amalga oshiriladigan tadbirkorning foydasi.

Tadbirkorlik tuzilmalarining rivojlanishi, ularning sonining ko'payishi barcha darajadagi byudjetlarning daromad qismiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

Klaster yondashuvi iqtisodiy o'sishning yuqori sur'atlarini ta'minlash va iqtisodiyotni diversifikatsiya qilish vositasiga aylanishi mumkin.

Klaster maqomini olish mintaqa uchun katta siyosiy ahamiyatga ega, chunki u investorlarning e'tiborini tortadi va savdo operatsiyalarini rivojlantirishga yordam beradi.

Davlat klasterlarni yaratishda mintaqalarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashga tayyor. Mintaqalardagi hokimiyat klaster siyosatini shakllantirishga qaratilgan mexanizmlarni shakllantirishi va qonunlashtirishi kerak.

Klasterlar hayotga tatbiq etilishi uchun infratuzilma tashkilotlari, masalan, menejment kompaniyalari yangi tuzilmalarni yaratishda yordam berishlari va jarayonga turli xil tashkilotlarni jalb qilishlari kerak. Boshqaruv kompaniyalari, klasterlarni rivojlantirish markazlari mahalliy, mintaqaviy, milliy va xalqaro bozorlarda vositachilik funktsiyalarini bajarish bilan birga kompaniyalarning unumдорлиги va raqobatbardoshligiga ijobjiy ta'sir ko'rsatadi. Ularning roli kollektiv faoliyatni amalga oshirish, munosabatlarni saqlash, standartlarni belgilash va h.k.

#### **4.4. Agroklasterlarni boshqarish.**

Klaster murakkab shakllanish ekan, uni qurish bir necha bosqichda amalga oshirilishi kerak. Klaster menejmentining tashkiliy tuzilishi haqida gapirganda, maqsadlar tizimi va ularning tizimning turli xil boshqaruv bo'g'inxilar o'rtasida taqsimlanishi, shuningdek bo'limlar tarkibi, tizim ichidagi aloqalar, vazifalar va funktsiyalarni taqsimlash, tashkilot ichidagi markazlashtirish va markazsizlashtirish nisbati aks ettirilgan bo'lishi kerak. Bundan tashqari, klasterlarni boshqarish tizimi ichki omillar, klaster tuzilishini shakllantirish va ishlashi uchun tashqi sharoitlarni amalga oshirish ta'siri ostida quriladi.

##### *Paxta-to 'qimachilik klasterlarini tashkil etish va boshqarish.*


Paxtachilikda: ishlab chiqarish jarayonlarini tezkor yangilash va ilg'or texnologiyalar asosida modernizasiya qilish va korporativ boshqaruvning zamonaviy uslublarini joriy etishning sustligi; paxta tozalash korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini diversifikasiyalash bo'yicha choralarining o'z vaqtida ko'rilmaganligi; regionda agrosanoat korxonalarini o'rtasida sog'lom raqobat muhitining yo'qligi hamda ularning samarali faoliyati uchun qulay huquqiy, tashkiliy shart-sharoitlarning yaratilmaganligi sababli tarmoqning investisiyaviy jozibadorligining pastligi;

to‘qimachilikda: sanoatning boshqaruv tizimi tarmoqning zamonaviy rivojlanish tendensiyalariiga javob bermasligi; korxonalar laboratoriyalarda sifat menejmentining zamonaviy tizimlarini joriy etish past darajadaligi, shu sababli mahalliy mahsulotlarni yirik xorijiy savdo bozorlariga chiqarishga, eksport salohiyatini yuksaltirishga hamda mahsulotlar sifati va xavfsizligiga bo‘lgan ishonchni oshirishga, tarmoqning mamlakat yalpi ichki mahsulotidagi ulushining oshishiga to‘siq bo‘lmoqda.

*Meva-sabzavotchilik klasterlarini tashkil etish va boshqarish.*

Meva-sabzavotchilikda: mahsulotni yetishtiruvchilar va tayyorlovchilar o‘rtasida meva-sabzavot bozorlarida xaridorgir ekinlar va ularning navlarini joylashtirish masalalarida o‘zaro hamkorlikning bozor mexanizmlaridan to‘liq foydalanilmayotganligi; kichik qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari tomonidan shartnomaga intizomiga rioya qilish darajasining pastligi; qishloq ho‘jaligida mexanizasiyalashtirish, zamonaviy texnologiyalarni joriy qilish, ularni saqlash va tashish, qishloq ho‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilarining mustaqil ravishda tashqi bozorga chiqishi uchun moliya resurslarini jamg‘arishda qulay imkoniyatlarning yo‘qligi; meva-sabzavot bozorlarida xaridorgir bo‘lgan yuqori hosildorlikka ega va sifatli navlarning urug‘i, ko‘chati bilan qoniqarli ravishda ta‘minlanmaganligi va shu kabi muammolarni bartaraf etish chora-tadbirini ishlab chiqish muhim ahamiyatga ega. Shu bilan birga zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalari yetarlicha joriy qilinmaganligi sababli xomashyoni qabul qilish, tashish va qayta ishlash hamda tayyor mahsulotlarni realizasiya qilish jarayonlari ustidan kerakli darajada nazorat tizimining mavjud emasligi; xomashyo va ishlab chiqarish resurslarining nooqilona taqsimlanishi; logistika va muhandislik infratuzilmasini tashkil etishdagi kamchiliklar tarmoqning asosiy muammolari hisoblanadi Bu muammolarni bartaraf etmaslik natijasida ishlab chiqarish quvvatlari-ning ancha qismi to‘xtab qolyapti, iqtisodiy yo‘qotishlar oqibatida mahsulotlarning tannarxi oshib, ishlab chiqarish rentabelligi pasaymoqda. Soha korxonalarida yarim tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish va eksport qilishning barqaror ustunlik qilishi, yuqori qo‘shilgan qiymatli tayyor

mahsulotlarni ishlab chiqarish va jahon bozorlarida munosib raqobatlashishga qodir bo‘lgan milliy brendlarni shakllantirishning yetarli darajada emasligi sanoat korxonalari daromadlarini oshirish imkonini bermayapti. Kadrlar tayyorlash tizimi agrosanoatning real ehtiyojlariga javob bermaydi, soha tarmoqlarini rivojlantirishning dolzarb masalalari bo‘yicha o‘qitishning innovasion yo‘nalishlarini joriy etish va ilmiy tadqiqotlarni chuqurlashtirish yuzasidan xalqaro hamkorlik yo‘lga qo‘yilmagan.




#### **4.3-rasm. Meva-sabzavot klasterini ichki iqtisodiy vertikal va gorizontal o‘zaro aloqalari<sup>13</sup>.**

2017 yil davomida “Bek klaster” korxonasini tashkil etish loyihasi ishlab chiqildi va u 2018 yildan boshlab ko‘p tarmoqli klaster sifatida “qishloq xo‘jalik va meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarishdan to sotishgacha bo‘lgan belgilangan jarayonni mustaqil ravishda amalga oshiruvchi yagona yoki o‘zaro bog‘liq korxonalar guruhi doirasida” faoliyat ko‘rsata boshladi. “Bek cluster” MChJga Sirdaryo viloyatining Mirzaobod, Xovos, Sayxunobod tumanlari va Guliston shahri hududlaridagi korxonalarni birlashtirgan, unga 18 ming gектар yer ajratilgan.

<sup>13</sup> Eshonqulov S.X., Urdushev X. Meva-sabzavot klasterda uzum ishlab chiqarish, qayta ishslash va sotishni optimallashtirish masalalari//“Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron журнали. № 2, марта-апрель, 2019 год. <http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqlolar/Murodova.pdf>

Meva – sabzavot klasteri, - geografik jihatdan konsentratsiyalashgan tarmoq, bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi bozor sub'ektlari (qishloq xo‘jalik korxonalari, fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari, qayta ishlash korxonalari, davlat organlari (O‘zR Qishloq xo‘jaligi vazirligi, innovasion rivojlantirish vazirligi, tashqi iqtisodi y faoliyat milliy banki, o‘zbekiston fermer, dehqon xo‘jaliklari va tomorqa yer egalari kengashi, «O‘zbekoziqovqatxolding» xolding kompaniyasi); moliyaviy institutlar; jamoat tashkilotlari; ilmiy-tadqiqot muassasalari; standartlashtirish, sertifikasiyalashtirish metrologiya xizmatlari; innovasiya fondlari, ilmiy-tadqiqot va ta’lim muassasalari, korxonalar, banklar, davlat hokimiyati organlari va boshq.) bo‘lib, u faoliyatini oziq-ovqat va boshqa mahsulotlarini ishlab chiqarishga, qayta ishlashga va mahsulotlarni sotishga, qishloq hududlarining ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish masalalarini, atrof-muhit muhofazasini, global muammolarning lokal masalalarini hal etishga yo‘naltiradi va joylashuviga ko‘ra unikal raqobatli ustunliklarga ega bo‘ladigan, fan yutuqlarini, innovatsion texnologiyalarni qo‘llaydigan, bir-birini o‘zaro to‘ldiruvchi bozor sub'ektlarining turli tarmoqlari tizimini tashkil etadi (2-3 rasmlar).



#### **4.4.-rasm. Meva-sabzavot klasteri zanjirida uzum ishlab chiqarish, qayta ishlash va realizatsiya qilish jarayoni<sup>14</sup>.**

Rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribalarni hamda respublikamizda meva-sabzavot tarmoqlarini rivojlantirish uchun qabul

<sup>14</sup> Eshonqulov S.X., Urdushev X. Meva-sabzavot klasterda uzum ishlab chiqarish, qayta ishlash va sotishni optimallashtirish masalalari//“Iqtisodiyot va innovasion texnologiyalar” ilmiy elektron jurnali. № 2, mart-aprel’, 2019 yil. <http://iqtisodiyot.tsue.uz/sites/default/files/maqlolalar/Murodova.pdf>

qilingan me'yoriy-huquqiy asoslarini o'rganish, meva-sabzavotchilik klasterini: qishloq xo'jaligini diversifikasiya qilish, hududlar tabiiy-iqlim sharoitlariga mos, serhosil va eksportbop meva-sabzavot ekinlari navlarini joylashtirish, eksportga yo'naltiriladigan xaridorgir va raqobatbardosh mahsulotlarni yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va sotish jarayonlariga yangi texnologiyalarini joriy etish, yangi ish o'rinalarini yaratish, meva-sabzavot yetishtirish va qayta ishlash jarayonidagi ishtirokchilarning moddiy manfaatdorligini ta'minlash jarayonlarni to'liq qamrab oluvchi tizim sifatida shakllantirish maqsadga muvofiqligini ko'rsatadi. Klaster quyidagi vazifalarni o'zida mujassamlashtiradi:

- meva-sabzavot mahsulotlari yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va sotishga chuqur ixtisoslashish;
- meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish, qabul qilish, tozalash, saralash, quritish hamda qayta ishlashda yangi innovation texnologiyalarini joriy etish;
- yer maydonlaridan foydalanish: ajratilgan yer maydonlaridan samarali va unumli foydalanish, maydonlarga sifatli, jahon andozalariga mos eksportbop meva, uzum va sabzavot ekinlarni joylashtirish, samarasiz va istiqbolsiz qishloq xo'jalik ekinlari o'rniga bosqichma-bosqich meva, uzum va sabzavot ekinlari joylashtirish;
- meva-sabzavot yetishtirish bo'yicha ilg'or xorijiy tajribalarni o'rganish, ulardan mintaqqa va hududiy sharoitlarda keng foydalanish, meva-sabzavotchilik sohasiga xorijiy mutaxassislarni jalb qilish;
- eksportga yo'naltirilgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarini yetishtirish, ularning seleksiyasi va urug'chiligin klaster hududlarida o'zlashtirish, rivojlantirish, ilmiy tadqiqot muassasalari bilan hamkorlikni yo'lga qo'yish;
- serhosil meva, uzum va sabzavot ekinlarini ekish, mahsulot yetishtirish, saqlash, qayta ishlash va sotish jarayonini to'liq qamrab oluvchi tizimni shakllantirish, shuningdek zamonaviy innovation, resurs tejamkor texnologiyalarini meva-sabzavot mahsulotlarini yetishtirish jarayonlariga joriy qilish;

- malakali yangi ish o‘rinlarini tashkil etish etish. Mevazabavotchilik klasteri tomonidan amalga oshiriladigan investisiya loyihalarining prognoz parametrlari quyidagi investisiya loyihalaridan shakllantirilishi mumkin:
  - mavjud bog‘ va tokzorlarni takomillashtirish, rekonstruksiya qilish;
  - zamonaviy issiqxona komplekslari tashkil qilish;
  - yangi intensiv bog‘dorchilik va uzumchilik xo‘jaliklarini tashkil qilish;
  - zamonaviy qishloq xo‘jalik texnikalari parklarini shakllantirish;
  - ko‘p tarmoqli sanoat muzlatkichli logistika markazlari (katta sig‘imli sanoat muzlatgichlari, mahsulotni qayta ishlash vositalari)ni shakllantirish;
  - maxsus transport vositalari (maxsulotlarni eksportga tashuvchi refrijerator yuk mashinalari, traktor vositalari, osma va tirkamali texnikalar)ni shakllantirish;
  - eksportbop mahsulotlar yetishtirish va ularni qayta ishlash.

#### **4.5. Agroklasterlar tashkil etishning xorij davlatlari tajribasi**

Koreyada agroklasterlarni rivojlantirish zaruriyati asosan quyidagi omillar bilan belgilanganligini ta’kidlagan holda, O’zbekiston sharoitida ham asosiy omillar tarzida inobatga olish mumkin. Jumladan: - davlatning qishloq xo‘jaligiga amaliy yordami va qo’llab-quvvatlashi hamda islohotlarni amalga oshirishdagi etakchiligi; - tarixiy va milliy an’analardan foydalanish, ularni saqlab qolish, zamonaviylashtirish asosida yangi yo’nalishlarni shakllantirish; - hududiy ixtisoslashuv va qishloq xo‘jaligi mahsulotlarining raqobatbardoshligini oshirish va rivojlanishining barqarorligini ta’minlash; - davlat-universitetlar-ilmiy tadqiqotlar-fermerlik qayta ishlash biznesning birgalikda faoliyat yuritishining o’zaro mutanosibligini ta’minlash mexanizmi; - olimlar mavqeい va ilmiy tadqiqotlar natijalarining yuqoriligi hamda ularni qo’llab-quvvatlashda davlat siyosati darajasidagi mavqeining yuqoriligi; - yuqori innovatsiyaga asoslangan ishlab chiqarishni tashkil etishga ustuvorlik berilishi va uni davlat tomonidan qo’llabquvvatlashning

samarali mexanizmining shakllanganligi; - marketing tizimining rivojlanganligi; - inson kapitaliga munosabatning yuqoriligi va uni qishloqda rivojlantirishga ustuvorlik berilishi. Ushbu omillarning O'zbekiston sharoitidan kelib chiqqan holda samarali ishlashi uchun keng qamrovli chora-tadbirlar tizimi ishlab chiqilishi lozim. Ma'lumki, agroklasterlar davlat, fermerlar, oliy ta'lim va tadqiqot muassalari hamda xususiy korxonalar tashabbusi asosida tashkil etiladi. Xususan, Janubiy Koreyadagi mashhur Sunchang Pasta ishlab chiqarish klasteri (Sunchang Paste Cluster) mahalliy hokimiyat tomonidan boshqariladagan klaster bo'lib, soya, qalampir, qulupnay, olxo'ri kabilardan turli xildagi mahsulotlar ishlab chiqarish bilan shug'ullanadi. Ushbu klaster Koreya hukumatining qishloq hududlarida demografik holatni yaxshilash (qishloq aholisi, aso san yoshlarning shaharga ketib qolishini kamaytirish), tarixiy an'analar asosida ishlab chiqarishni qo'llab-quvvatlash, qishloqqa sanoat va agroturizmni olib kirish kabi rivojlantirish dasturlari asosida tashkil etilgan. Agroklasterdagi 5292 ta fermer xo'jaligida 9780 hektar ekin maydonida mahsulot ishlab chiqarilib, unda jami 12331 ta kishi ishlaydi [1]. Jami 30 ming aholisi bo'lgan ushbu hududning hozirda yillik eksporti 1 million AQSh dollarini tashkil etmoqda. Agroturizm va mehmonxona servisini rivojlantirish hisobiga 2018 yilga borib yillik eksportni 3 million AQSh dollariga etkazish rejalashtirilgan. Hayratlanarli tomoni shundaki, ushbu kichik bir qishloqqa har yili o'rtacha 12 mingdan ortiq turist tashrif buyuradi. O'zbekistonda ushbu klasterning qishloq hududlarini rivojlantirish dasturlarini qo'llabquvvatlash, tarixiy an'analar asosida soya, qalampir kabi mahsulotlarni fermentatsiya qilishda oilaviy korxonalarni va uylarni aslicha saqlab qolish va turizm obyektiga aylantirish, agroturizm (shahar aholisi va bolalarining o'z qo'llari bilan meva-sabzavotlarni uzishlari yoki ularni qayta ishlash va tayyorlashda ishtirok etishlari), qishloqda mehmonxona biznesini yo'lga qo'yishda festival va turli tadbirlar o'tkazish tajribalaridan foydalanish mumkin. Shuningdek, fermerlar uchun axborot-maslahat berish hamda qishloq xo'jaligi agregatlaridan birgalikda foydalanish tajribalari ham diqqatga sazovordir. Bunda markaziy davlat va mahalliy hokimiyat tomonidan

moliyalashtirish, turli o'qitish seminar-trening loyihamalarini amalga oshirish, markazning faoliyatidagi ishlab chiqarish jarayonlari, mahsulotni qayta ishlash va texnikaviy yordam ko'rsatish kabi dehqon uchun imkoniyatlari cheklanganligi sharoitda davlat tomonidan qo'llabquvvatlashga oid tajribalarni O'zbekistonda nafaqat fermer, balki dehqon xo'jaliklarida ham qo'llash mumkin hamda agroklasterlarni tashkil etishda mahalliy hokimiyatning qo'llab-quvvatlashi va hududlarning ixtisoslashuvi va yetishtirayotgan qishloq xo'jaligi mahsulotlarininig raqobatbardoshligiga asosiy e'tiborni qaratish kabi omillardan foydalanish mumkin. Chungdo xurmo klasteri (Chungdo Persimmon Cluster) 2009 yilda fermerlar tashabbusi bilan tashkil etilgan. Ma'lumot o'rnida aytish kerakki, Koreya dunyoda etishtirilayotgan barcha xurmo mevasining 12 foizini ishlab chiqaradi.

**AQShni** barcha shtatlarida ilg'or texnologiyalarga ega agrosanoat klasterlari keng tarqalgan. Yirik agroklasterlar Vashington, Ok-laxoma, Luiziana shtatlarida, vino ishlab chiqarish Kaliforniya shtatida joylashgan. Yuqori samarada faoliyat ko'rsatayotgan klas-terlarni Silikon vodiysidagi "Ahborot texnologiyalar", Golivuddagi "Kinofikatsiya" klasterlari misolida ham ko'rish mumkin. Evropada (Germaniya, Frantsiya, Italiya, Bolgariya, Gretsya, Gollandiya, Angliya, Shveytsariya, Daniya va boshqa davlatlarda) yuqori texnologiyali agroklasterlar keng rivoj topgan .

**Frantsiyada** agrar korxonalar, ta'lim va ilmiy tadqiqot muassasalari faoliyatini muvofiqlashtirish asosida evropa va jahon texnologiya va novatsiya bozorlariga chiqish maqsadida 1986 yili Monpele shahrida "Agropolis" uyushmasini tuzishdi.

**Angliyada** 2001 yildan boshlab innovatsion agrosanoat klasteri – Stokbridj texnologik markaz yopiq gruntu dehqonchilik, bog'dorchilik va sabzavotchilik sohalarida tadqiqotlar va ta'lim programmalarini o'tkazishmoqda. Ushbu markaz 70 hektar sug'oriladigan erga, 40ta kompyuter orqali boshqariladigan 12 dan 1000 kv.metrgacha hududga teng maydonchalarda joylashgan zamonaviy issiqxonalar hamda yuqori texnologiyalar bilan jixozlangan labaratoriyalarga ega.

**Avstriyada** ham klasterlarni ixtisoslashtirishga, agrosanoat va ilmiy-tadqiqot korxonalarining o'zaro aloqalarini rag'batlantirishga, innovatsiya programmalarini boshqarish tartibidagi to'siqlarni kamaytirish hamda raqobatbardosh markazlarni shakllantirishga ko'proq ahamiyat berishadi.

**Daniya** qishloq ho'jaligida chorvachilik dehqonchilikka qaraganda ustuvor ahamiyatga ega, dehqonchilik mahsuloti ko'proq ozuqaga ishlataladi, chorvachilikda sut yo'naliشining roli go'sht sohasiga qaraganda yuqoriroq xisoblanadi, shuning uchun ham sut mahsuloti klasterlari (masalan taniqli «Molochnaya vertikal» klasteri) keng tarqalgan.

**Chili** hukumati keyingi 30 yil ichida vinochilik sohasida integratsiyalash va zamonaviy texnologiyalar bilan jihozlangan yirik kompaniyalar safini kengaytirish bilan jahon bozorida o'z ulushini oshirishga dadil qadam qo'ydi. Shu maqsadda vinochilik klasteri tuzildi. Uning tarkibiga tarmoq ichidagi o'zaro bir biriga bog'liq uyushmalar, ta'lim muassasalari, davlat tashkilotlari va agentliklar, ilmiy-tadqiqot markazlari, tarmoq ommaviy axborot vositalari, postavshiklar va podryachiklar kirdi. Evrapali taniqli maypazlar mamlakatga o'z sarmoyalari, yangi texnologiyalari, mahsulotni marketingi va eksportga jo'natish imkoniyatlari bilan qaytib kelishdi. Natijada vino eksporti bo'yicha Chili jahon bozorida beshinchi o'rinni egallab turibdi.

**Rossiyada** ham iqtisodiyotni barcha sohalarida, sh.j. agrosanoat kompleksida, klasterlarni shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha 200 dan ko'p loyihalar amalga oshirilmoqda. Iqtisodiy taraqqiyot vazirligi 2008 yilda qabul qilgan «Hududiy-sanoat klasterlarini rivojlantirish Kontseptsiyasi» uch blokdan iborat: klasterlarni institutsional taraqqiyotiga yordam berish; klasterda qatnashuvchilarni raqobatbardoshlilagini ko'tarish; klasterlarni taraqqiyot etishi uchun qulay sharoitlarni yaratish.

Hozirgi kunda Tomsk oblastining "Biokompleks" klasterida (bug'doyni yangi hosildor va zamburug' kasalliklariga chidamli yumshoq va ostist navlari yaratildi, keynchalik donni chuqur qayta ishslash, biotexnologiya, neftkimyo ishlab chiqarish tarmoqlarini ichiga

olgan “AgroPARK”ni tuzish mo’ljallangan), Tula oblastidagi “Baltika” klasteri (ilmiy-tadqiqot stantsiyasining 672 tajriba-eksperimental maydonchalarida sulini pivo pishirishga yaraydigan (Rossiya yutuqlari reestriga kiritilgan) 17 navini etishtirishga erishishdi, Kemerovo oblastida “KalinaMalina” agrosanoat brendi (7ta firma-magazinlar va 40ta fermerlar bilan birga), Vologda oblastida “Biotexnologiya” klasteri (OAO “FosAGRO” bilan birga) va b. regionlarda shu kabi zamonaviy agroklasterlarni barpo etish jarayoni ancha jadallahshdi.

Klaster tuzilmalari Shveytsariya, Avstriya, Italiya, Daniya, Hindiston, Koreya, Pokiston, Xitoy, va Turkiya davlatlari engil sanoatida, Germaniyada kimyo va mashinasozlik, Frantsiyada oziq-ovqat va kosmetika sanoatlarida muvaffaqiyatli ishlamoqda. Klasterlarni shakllantirish jarayoni Janubi-Sharqiy Osiyo, Xitoy, Singapur, Yaponiya, va boshqa mamlakatlarda faollashib bormoqda. Masalan, Germaniyada yaqin vaqtgacha mintaqaviy klasterlar rivojlanishi davlat aralashuvlari kechar edi. Biroq 2003 yilda xukumat klaster tashabbuslariga jiddiy e’tibor qaratdi. Bu, birinchi navbatda, yuqori texnologiyali sohalarni loyihalashda amalga oshirildi. Davlat nafaqat mahalliy, balki boshqa manbalar hisobidan sanoat va ilmiy markazlar kuch-g’ayratini birlashtirishni ko’zda tutmoqda.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Klaster tushunchasi va ahamiyati nimada?
2. “Klaster” nazariyasi evolyustiyasini tavsiflang.
3. Agroklasterlar faoliyatining tashkiliy-iqtisodiy asoslarini sanab bering?
4. Agroklasterlarni belgilovchi qanday me'yoriy-huquqiy hujjatlarni bilasiz?
5. Agroklasterlarni hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ta'siri qanday?
6. Qishloq xo’jaligi mahsulotlarini klaster usulida qayta ishlashning ahamiyati nimada?

## **V BOB. AGROBIZNES FAOLIYATINING HUQUQIY ASOSLARI**

### **5.1. Agrobiznes faoliyatining huquqiy asoslari.**

**5.2. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi.**

### **5.1. Agrobiznes faoliyatining huquqiy asoslari.**

Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirishda tarmoq ishlab chiqarishning o'ziga xos xususiyati sifatida, ishlab chiqarishning muhim vositasi sifatida yerdan foydalanishga asoslanadi. Bundan tashqari, keng hududda turli xil agrotexnik sharoitda amalga oshirilishi, ishdavri bilan ishlab chiqarish vaqtining nomo'tanosibligi, tabiiy ob-havo sharoitiga bog'liqligi, tuproqning holati, yerning irrigatsiya va meliorativ holatini inobatga olishning zarurligi shular jumlasidadir. Xullas, butun dunyoda insoniyat yashashi va ehtiyoji uchun faqat qishloq xo'jaligi sohasida dehqon va fermer va boshqa xo'jaliklarni tashkil Qilib oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqariladi. Bundan tashqari,yana bir qator sub'ektiv va obyektiv omillar mavjudki, ular bevosita qishloq xo'jalik tijorat korxonalari va tadbirkorlar ishlab chiqarish-xo'jalik faoliyatiga o'z ta'sirini ko'rsatadi. Shu sababli, qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishda qishloq xo'jalik ishlab chiqarishning biologic jarayoni, yer va boshqa tabiiy resurslardan foydalanishning o'ziga xos xususiyatlari,qishloq xo'jaligini davlat tomonidan tartibga solishning ustivorligi, qishloq xo'jaligining iqtisodiy xususiyatlari, qishloq xo'jaligi ishlabchiqarishni sohalashtirish va ixtisoslashtirishning tuzilmaviy o'zgarishlarning alohida muhim o'rinni tutishi, dehqonchilikni rivojlantirishning o'ta ijtimiy, siyosiy va iqtisodiy axamiyatga molikligi inobatga olinishi lozim.

Qayd etilgan har bir omillarning ta'siri bilan bog'liq huquqiy muammolar qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyatini huquqiy tartibga solishing xususiyatlarini yoritishda o'z yechimini topishi lozim. Bu esa o'z navbatida, birinchidan yagona, qulay, samarali bozor xo'jaligini vujudga keltirib, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarish tadbirkorlik

tuzilmalari tuzilishini jaxon davlatlari tajribasi va huquqiy amaliyotiga muvofiqlashtirilishini; ikkinchidan, qishloq xo‘jalik ishlab chiqarish tuzilmalarining respublikamiz iqtisodiy mustaqilligini mustahkamlashda mavqeining oshishi va ularning tadbirkorlik faoliyat yuritishini huquqiy taminlashni; uchinchidan, qishloq xo‘jalik tijoratchi korxonalarining iqtisodiy qaramsizligi va xo‘jalik mustakilligini hamda ularning tadbirkorlik va biznes sohasida faoliyatini rag’batlantirish murvatlarining qonuniy asoslarini mustahkamlashni: to‘rtinchidan, respublika qishloq xo‘jaligining imkoniyatiga, qishloq xo‘jalik tadbirkorlarning tashabbuskorligi va dehqonlarni huquqiy va ijtimoiy himoya qilish tizimini shakllantirishga haqqoniy baho berishni talab etadi.

Qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik faoliyatining asosiy mazmuni shundan iboratki, dehqonlarga o‘zlarining tadbirkorligi va tashabbuskorligini ro‘yobga chiqarish uchun keng erkinlik berish, ishlab chiqarish vositalarini o‘zining xo‘jayiniga ega bo‘lish, o‘z mehnatlarining pirovard natijalari bo‘yicha manfaatdorligini oshirib, ishlab chiqargan mahsulotlarini mustaqil tassaruf etish huquqini kafolatlash zarur. Qishloq xo‘jaligida tadbirkorlik faoliyatining mazmuni tushunib olishda tarmoqdagi turli xil tadbirkorlik sub’ektlarining tashkiliy huquqiy shakli sifatida ularning tutgan o’rni, huquqiy maqomining o‘ziga xos xususiyatlarini mavjudligini e’tirof etish tashkil etishi ular faoliyatining samaradorligini oshirishning muhim sharti bo‘lib hisoblanadi.

Mamlakat qishloq xo‘jaligi barqarorligini ta’minalash maqsadida mulkni davlat tasarrufidan chiqarish va xususiy lashtirish, ya’ni dehqon va fermer xo‘jaliklarini rivojlantirishga alohida ahamiyat qaratildi. Ayni vaqtda, respublikamizda fermer xo‘jaliklari to‘g‘risidagi islohotlarni chuqurlashtirish va ko‘lamini kengaytirishga qaratilgan ko‘plab choratadbirlar amalga oshirilmoqda. Fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligida ishlab chiqarishning asosiy shakliga, sohani barqaror va samarali rivojlantirishni ta’minalaydigan yetakchi kuchga aylandi. Bugungi fermer xo‘jaliklari samarali faoliyat yuritish uchun o‘z ixtiyorida ijara asosidagi yetarlicha ekin maydonlariga ega bo‘lgan, yuksak samarali zamonaviy texnika bilan ta’minalangan, ilg‘or texnologiyalarni puxta egallagan yirik

xo‘jaliklardir. Ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklari qishloq xo‘jaligi mahsulotlari yetishtirish bilan birga, ularni chuqur qayta ishlash, qurilish ishlarini amalga oshirish va qishloq aholisiga xizmat ko‘rsatish kabi yo‘nalishlarda samarali faoliyat ko‘rsatmoqda va o‘z istiqbolini topmoqda.

Qishloqda bozor infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish, Moddiy-texnika ta’mintonini mustahkamlash, moliyalashtirish va kreditlashning yangi shaklini ishlab chiqarishga joriy qilish va boshqa dolzarb masalalarini hal qilishga yo‘naltirilgan ko‘plab dasturlar tayyorlandi. Masalan, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2003 yil 24 martdagi “Qishloq xo‘jaligida islohotlarni chuqurlashtirishning eng muhim yo‘nalishlari to‘g‘risida”gi Farmonida fermer xo‘jaliklarini shakllantirishning quyidagi asosiy qoidalari belgilab berilgan:

fermer xo‘jaliklari, qoida tariqasida, tugatiladigan, zarar bilan ishlayotgan, past rentabelli va istiqbolsiz shirkatlar negizida tashkil etiladi;

fermer xo‘jaligi yuridik shaxs sifatida, asosan, xususiy korxona shaklida, keyinchalik ular turli shakldagi kooperatsiyalarga birlashish huquqi bilan barpo qilinadi;

fermer xo‘jaliklariga beriladigan yer maydonlari shirkat xo‘jaliklarining balansidanchiqariladi;

yetishtiriladigan qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini yetkazib berish moddiy texnika resurslari va xizmatlarni olish uchun shartnomalarni faqat fermer xo‘jaliklarining o‘zları tayyorlov, qayta ishslash hamda xizmat ko‘rsatish korxonalari va tashkilotlari bilan to‘g‘ridan-to‘g‘ri tuzadilar.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2007 yil 12 dekabrdagi “Qishloqni lizing shartlarida qishloq xo‘jaligi texnikasi bilan ta’minlash chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorining joriy qilinishi agroiqtisodiyotni yangi qishloq xo‘jaligi texnikalari bilan ta’minlashga sharoit yaratib berdi. Mazkur islohotlar natijasida ushbu davrda dehqon va fermer xo‘jaliklarining mahsulot ishlab chiqarishdagi samaradorligi yaqqol ko‘zga tashlanib, bir yilda o‘rtacha 6,8 foizdan o‘sdi. Mamlakatda bozor munosabatlarini rivojlantirish sharoitida fermer

xo‘jaliklarining tashkil topishi agrar islohotlarning asosiy mazmunini tashkil etdi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2008 yil 6 oktabrdagi F-3077-son “Fermer xo‘jaliklari faoliyatini yuritishda yer uchastkalari miqdorini maqbullashtirish (optimallashtirish) choralarini ko‘rish yuzasidan takliflar ishlab chiqish bo‘yicha maxsus komissiya tashkil etish to‘g‘risida”gi Farmoyishi natijasida bir fermer xo‘jaligiga to‘g‘ri keladigan yer maydoni 2 baravarga, ya’ni 27 gektardan 56 gektarga kengaydi.

O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2013 yil 31 yanvardagi 22-sun Qarori bilan “Fermer xo‘jalogining yer maydonini maqbullashtirish va uni tugatish tartibi to‘g‘risida”gi Nizom tasdiqlandi. Unga ko‘ra, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2012 yil 22 oktabrdagi “O‘zbekistonda fermerlik faoliyatini tashkil qilishni yanada takomillashtirish va uni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-4478-sun Farmonini bajarish yuzasidan hamda fermer xo‘jaliklarining yer maydonlarini maqbullashtirish jarayonida ularning huquqlari qonuniy manfaatlariga rioya etilishini ta’minalash, fermer xo‘jaliklarini tugatishda qonunchilik normalariga rioya etish kafolatlarining ishonchli tizimini yaratish maqsadida qabul qilindi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyev 2017 yil 9 dekabrdagi Qishloq xo‘jaligi xodimlari kuniga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi nutqida “Hozirgi kunda fermer xo‘jaliklari va umuman, qishloq xo‘jaligi sohasi davlatimiz tomonidan har tomonlama qo‘llab-quvvatlanib, ularga barcha zarur sharoit va imkoniyatlar yaratib berilmoqda. Fermer va dehqonlarimiz qishloq xo‘jaligida asosiy kuch bo‘lib, nafaqat mazkur sohani, balki butun mamlakatimiz taraqqiyotini yuksaltirish, xalqimizning turmush darajasini oshirish, yurtimizni har jihatdan obod va farovon qilishda beqiyos ishlarni amalga oshirayotganini bugun faxr va g‘urur bilan, minnatdorchilik bilan qayd etamiz”, deb ta’kidladilar.

## **5.2. O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasi.**

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019 yil 23 oktabrda “O'zbekiston Respublikasi qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo'ljallangan strategiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi Farmonni imzoladi. Qayd etish kerak, mamlakatimizda qishloq xo'jaligini isloh qilish borasida muayyan ishlar amalga oshirib kelinayotgan bo‘lsada, sohani rivojlantirish bo‘yicha uzoq muddatga mo'ljallangan Strategiya bugungi kunga qadar mavjud emas edi. Har bir soha kabi agrar tarmoqni ham aniq strategiyasiz rivojlantirishni tasavvur etish qiyin. O'zbekiston Respublikasi Qishloq xo'jaligi vazirligi tomonidan respublikaning manfaatdor vazirliklar mutaxassislari, Jahon banki, Yevropa Ittifoqi delegatsiyasi va boshqa xalqaro tashkilotlar ekspertlari bilan hamkorlikda ishlab chiqilgan Strategiyani haqiqatan ham inqilobiy hujjat deb atash mumkin.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligi sohasida tub burilish yasashi kutilayotgan mazkur Strategiyada aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta'minlash; qulay agrobiznes muhitini va qo'shilgan qiymat zanjirini yaratish; soha boshqaruvida davlat ishtirokini kamaytirish va investitsiyaviy jozibadorlikni oshirish; tabiiy resurslardan oqilona foydalanish va atrof-muhitni muhofaza qilish; boshqaruvning zamonaviy tizimlarini rivojlantirish; tarmoqni qo'llab-quvvatlashga yo'naltirilgan davlat xarajatlarini bosqichma-bosqich diversifikatsiya qilish; qishloq xo'jaligida ilm-fan, ta'lim, axborot va maslahat xizmatlari tizimini rivojlantirish; qishloq hududlarini rivojlantirish; tarmoq statistikasining shaffof tizimini yaratish kabi mamlakatimiz qishloq xo'jaligini rivojlantirishning 9 ta ustuvor yo'nalishi belgilab berildi.

Strategiyaning har bir ustuvor yo'nalishi mavjud vaziyatni, to'siqlar va imkoniyatlarni, shuningdek asosiy vazifalarni tavsiflaydi. Strategiyani amalga oshirish bo‘yicha «Yo‘l xaritasi»da sohani isloh qilish rejasini, ularning mas’ul ijrochilari va aniq muddatlari belgilab berilgan.

Strategiyaning aniq maqsad va vazifalarini amalga oshirishda indikativ budjet shuningdek, uning natijalarini baholovchi 37 ta

ko‘rsatkich va indikatorlar nazarda tutilgan. Strategiyada belgilangan vazifalarni bajarish orqali qanday maqsad, natijalarga erishiladi? Alovida qayd etish kerak, erishiladigan natijalar salmog‘i shu qadar ulkanki, ulardan ayrimlarin.Jumladan:

-yer ajratish va uni olib qo‘yishni elektron shaklda amalga oshirish bo‘yicha shaffof tizim yaratiladi, korrupsiya va boshqa subyektiv holatlarning oldi olinadi, yerdan foydalanuvchilar huquqlarini kafolatlaydigan tizim joriy etiladi;

- qishloq xo‘jaligi yerlaridan foydalanuvchilar tomonidan bozor talabidan kelib chiqib yuqori daromadli qishloq xo‘jaligi ekinlarini mustaqil joylashtirish hisobiga iqtisodiy jihatdan samarali faoliyat yuritishi ta’minlanadi;

-davlat xaridi uchun mahsulot yetkazib berish va uni moliyalashtirish tizimi bozor mexanizmlari asosida tubdan takomillashtiriladi. Bunda sobiq ittifoq davridan qolgan davlat buyurtmasi tizimi o‘rniga bozor munosabatlariga mos bo‘lgan intervention xaridlar joriy etiladi;

- hududlar ixtisoslashtiriladi, bir joyda bir xil mahsulotlarni yetishtirish, agroinnovatsion g‘oyalarni joriy etish, hosildorlikni oshirish va mahsulot sifatini yaxshilashga sharoit yaratiladi;

- fermer xo‘jaliklari faoliyatiga ilm-fan yutuqlarini, innovatsion texnologiyalarni joriy etish hamda malakali mutaxassislar bilan ta’minlashning samarali mexanizmlari orqali ilm va amaliyotning o‘zviy bog‘liqligi ta’minlanadi;

-sohada raqamli texnologiyalarni qo‘llash orqali mavjud resurslardan foydalanish holati hamda yetishtirilayotgan mahsulotlarni aniq statistikasini yuritishda shaffof tizim yaratiladi.

Prezident Farmoni bilan O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jalogini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan strategiyasini amalga oshirish bo‘yicha O‘zbekiston Respublikasi Bosh vaziri rahbarligida Muvofiqlashtirish kengashi tasdiqlandi va Qishloq xo‘jaligi vazirligi Muvofiqlashtiruvchi kengashi-ning ishchi organi etib belgilandi.

Muvofiqlashtiruvchi kengash Strategiyaning to‘liq, o‘z vaqtida va sifatli bajarilishini tashkil etadi va belgilangan indikatorlarga erishish ustidan doimiy ravishda monitoring olib boradi. Strategiya va «Yo‘l xarita»sini amalga oshirishga qaratilgan normativ-huquqiy hujjatlarning loyihalari sifatli va o‘z muddatida ishlab chiqilishi hamda belgilangan tartibda kiritilishinita’minlaydi.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Agrobiznes faoliyatini rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslarini tavsiflab bering?
2. O‘zbekiston Respublikasi qishloq xo‘jaligini rivojlantirishning 2020-2030 yillarga mo‘ljallangan Strategiyasiga muvofiq qishloq xo‘jaligini rivojlantirishga doir qanday vazifalar belgilangan?
3. Strategiyaning aniq maqsad va vazifalarini amalga oshirishda indikativ byudjet shuningdek, uning natijalarini baholovchi qanday ko‘rsatkichlar tizimi belgilangan?
4. Strategiyada aholining oziq-ovqat xavfsizligini ta’minlashga doir qanday vazifalar mavjud?

## **VI BOB. AGROBIZNES MUHITI VA UNGA TA'SIR ETUVCHI OMILLAR**

- 6.1. Tadbirkorlik muhit.**
- 6.2. Tadbirkorlik muhitiga ta'sir etuvchi omillar.**
- 6.3. Tadbirkorlik faoliyatidagi tashki va ichki omillar.**

### **6.1. Tadbirkorlik muhit.**

Eng avvalo, muhit tushunchasining mazmuniga to'xtaladigan bo'lsak, "muhit (arabcha – o'rab olingan, ihota etilgan) – hayot, faoliyat kechadigan tabiiy yoki ijtimoiy sharoitlar majmui", "muhit – bu atrofdagi shart-sharoit, holat, ushbu sharoitlar bilan bog'langan kishilar yig'indisi" deya izohlanadi. Demak, muhit – o'zining muayyan ob'ektiga nisbatan qulay hayotiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini ta'minlovchi shart-sharoitlar majmui. Bundan ko'rindiki, muhit keng tushuncha. Uni tabiat, ijtimoiy hayotdagi ko'plab ob'ektlarga nisbatan qo'llash mumkin. Masalan, o'simliklarning mikrobiologik muhiti, oila muhiti, mehnat jamoasi muhiti, jamiyatdagi ijtimoiy muhit va hokazo. Bu tushunchalarning umumiy tomoni shundaki, ularning barchasida muhit mazmuni jihatidan turlicha bo'lgan ob'ektlar uchun qulay hayotiy faoliyatni amalga oshirish imkoniyatini ta'minlovchi shart-sharoitlar majmui sifatida maydonga chiqadi. Shuningdek, tadbirkorlik muhiti ham iqtisodiyotning turli darajasida tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun zarur bo'lgan shart-sharoitlar majmuini ifodalaydi. Tadbirkorlik muhiti, birinchidan, kishilarning tadbirkorlik faoliyatini boshlash va u bilan shug'ullanish xohishi va imkoniyatlariga ta'sir etuvchi umumiy iqtisodiy, ijtimoiy-madaniy, siyosiy omillarni o'z ichiga olsa, ikkinchidan, tadbirkorlik faoliyatini boshlash jarayonlarini yengillashtiruvchi ko'mak va qo'llab-quvvatlash xizmatlarini nazarda tutadi. Tadbirkorlik muhitining iqtisodiy mazmunini ochib berishda mamlakatimiz hamda xorijlik olim va mutaxassislar tomonidan uning qator jihatlari tadqiq etilganini ta'kidlash lozim. Jumladan, D. Gnyawali

va D. Fogel tadbirkorlik muhitini yetarli malaka va ko'nikmalarga ega tadbirkorlar, malakali ishchi kuchi, ta'minotchilar, xaridorlarning mavjudligi, yangi bozorlar, yuqori darajadagi raqobat mavjudligi, hukumatning tadbirkorlar faoliyatini rag'batlantiruvchi siyosati, maslahat xizmatlari ta'minoti, infratuzilma tizimi, kishilarning tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan munosabati, ko'nikmasi, tajribasi va motivatsiyalari orqali o'rganganlar. Bruno, Tyebjee (1982), Gartner (1985), Manning, Birley, Norburn (1989), Staley, Morse (1971) mavjud tadbirkorlik muhitini tadbirkorlikni mamlakat yoki mintqa miqyosida rivojlanishiga olib keluvchi shart-sharoitlar sifatida tadqiq qilganlar. Dana (1987), Davidsson (1991), Doutriaux (1988), Hawkins (1993), Pennings (1982), Swanson, Webster (1992), Takyi-Asiedu (1993) o'z e'tiborlarini tadbirkorlik muhitiga ta'sir etuvchi tashqi omillarni o'rganishga qaratganlar. Goodman, Meany, Pate (1992), Mokry (1988), Segura (1988), Westhead (1990) esa davlatning tadbirkorlik muhitini shakllantirish va rivojlanishish uchun yaratgan shart-sharoitlari hamda imkoniyatlarini o'rganganlar.

Tadbirkorlik muhitini shakllantirishda davlatning rolini tadqiq etish orqali siyosiy omillarni tadbirkorlik faoliyatiga ijobiy ta'sirining qator jihatlarini ochib bergenlar. Bu jihatlar venchur kapitali fondlari, soliq imtiyozlari, davlatning xarid qilish yoki ta'minot dasturlarining mavjudligi, shaxsiy g'oya va innovatsiyalar mualliflarini huquqiy himoya qilish, hukumat idoralarining tadbirkorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlashi, ta'lim muassasalari tomonidan tadbirkorlik bilan shug'ullanuvchi kadrlarni tayyorlash, tadbirkorlikni ro'yxatdan o'tkazishdagi to'sqinlik holatlarini qisqartirish kabilarni o'z ichiga oladi. Ta'kidlash lozimki, bugungi kunda mamlakatimizda tadbirkorlik muhiti, ishchan muhit va ishbilarmonlik muhiti bir xil mazmunda qo'llanilmoqda. Ayniqsa, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soluvchi ko'plab huquqiy-qonunchilik hujjatlarida ishchan muhit va ishbilarmonlik muhiti shaklida qo'llanib kelinmoqda.

Tadbirkorlik muhitining iqtisodiy mazmunini ochib berishda uning predmeti, ob'ekti va sub'ektlarini aniqlab olish muhim hisoblanadi. Fikrimizcha, tadbirkorlik muhitining predmeti bo'lib tadbirkorlarning

samarali va to'laqonli faoliyati uchun zarur shart-sharoitlar yaratish bilan bog'liq bo'lgan ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlar, aloqa va mexanizmlar hisoblanib, u quyidagi asosiy yo'nalishlarni qamrab oladi:

- tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va rivojlantirish;
- tadbirkorlik faoliyati bilan shug'ullanish uchun iqtisodiy erkinlikni ta'minlash;
- tadbirkorlarning mustaqil faoliyatidagi tavakkalchilik darajasini minimallashtirish va faoliyatining barqarorligini oshirish;
- tadbirkorlik faoliyati tijorat muvaffaqiyati, uning javobgarligining qonuniy kafolatlari va ijtimoiy javobgarlik motivatsiyasini ta'minlash;
- bozor tizimiga asoslangan samarali iqtisodiy aloqalarni, iqisodiy resurslardan foydalanish imkoniyatini ta'minlash va h.k.

Tadbirkorlik muhiti sub'ekti mazkur muhit shart-sharoitlari va imkoniyatlaridan foydalanuvchilar (ya'ni tadbirkorlar, sotuvchi va xaridorlar, iste'molchilar va boshqalar), ularning turli guruhlari; mazkur muhitni shakllantirishda ishtirok etuvchi davlat, nodavlat idoralari, xususiy sektor vakillari va boshqalardan iborat bo'lsa, tadbirkorlik muhiti ob'ekti turli ko'rinishdagi tadbirkorlik faoliyati hisoblanadi. Tadbirkorlik muhiti o'z ichiga ko'plab tarkibiy qismlarni oladi. Bu tarkibiy qismlarni tadbirkorlik muhiti omillari yoki jihatlari deb ham yuritish mumkin. Ulardan asosiyлари sifatida quyidagilarni ajratib ko'rsatish maqsadga muvofiq: huquqiy; siyosiy; iqtisodiy; ijtimoiy-ruhiy; ma'naviy-ma'rifiy; tashkiliy; texnologik va boshqalar. Ushbu tarkibiy qism (omil)lar birgalikda yaxlit tadbirkorlik muhitini shakllantiradi. Bugungi kunda tadbirkorlik muhitining iqtisodiy mazmuniga oid ilmiy manbalar tahlili shuni ko'rsatadiki, mazkur tushuncha aksariyat hollarda tadbirkorlik faoliyati uchun zarur shart-sharoitlarni yaratishga qaratilgan turli yo'nalish va tavsifdagi omillar (tarkibiy qismlar)ning shunchaki yig'indisi sifatida ifodalangan. Biroq, fikrimizcha, tadbirkorlik muhiti tarkibiy qismlarning shunchaki, mexanik tarzdagi yig'indisidan iborat emas. Balki muhit samarali amal qilishi, o'zining funktsiyalarini to'laqonli amalga oshirishi uchun mazkur tarkibiy qismlar o'rtasida o'zaro muvofiqlik va mutanosiblik ta'minlangan bo'lishi lozim.

## **6.2. Tadbirkorlik muhitiga ta'sir etuvchi omillar.**

Har qanday tadbirkorlik ma'lum bir hududda: viloyat, shahar yoki qishloq miqyosida olib boriladi.Tadbirkorlik faoliyatini samarali olib borish uchun ma'lum bir ishchi muhit bo'lishi kerak.

Bunday muhit ayrim hududlar miqyosida jamlanib, o'zida ishbilarmonlik funktsiyalarini amalga oshirishni mujassamlashtirgan.

Umumiy holda tadbirkorlik muhitini asosan quyidagi to'rtta omil: ijtimoiy, siyosiy, iqtisodiy, huquqiy omillarning o'zaro bog'liqligi natijasida amalga oshiriladi.Ular ijobiy yoki rag'batlantirish ko'rinishida ham shakillanishi mumkin.Tadbirkorni ko'proq tadbirkorlik muhitini belgilovchi omillarning o'zaro bog'liqligi qiziqtiradi.

Yuqorida ta'kidlab o'tilgan omillardan huquqiy omil asosiy bo'lib hisoblanadi. Huquqiy omil-tadbirkorlik faoliyatini yuritish yo'lidagi barcha qonunlar (soliq, yer, mehnat munosabatlari) va yo'riqnomalar majmuasi bo'lib, tadbirkorlik faoliyatini tartibga soladi, hamda tadbirkorning iqtisodiy jarayondagi boshqa sub'ektlar bilan munosabatini mujassamlashtiradi. Huquqiy bazaning to'liq yoki bir me'yorda yuritilmasligi tadbirkorlik faolligi darajasiga katta salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Hozirgi kunda O'zbekiston Respublikasida amaliyotda tadbiq qilinayotgan iqtisodiy isloxtlarning asosini tashkil qilayotgan bir butun huquqiy baza mavjuddir. Huquqiy omilning tavsifiga "huquqiy madaniyat" tushunchasi ham kiradi. Buning ostida millatning qonunlarga to'liq rioya qilishi, ya'ni insonlarning ongida qonunlar talabini bajarish kerak degan tushunchaning bo'lishi tushuniladi. Agar kerak bo'lган barcha qonunlar qabul qilinsa-yu, lekin ular amalda ishlamasa yoki tadbiq qilinmasa, bunday jamiyatni qonunlarga bo'ysinuvchan deb bo'lmaydi va buni tadbirkor o'z faoliyatini yuritishda e'tiborga olishi shartdir.

Siyosiy omil tadbirkorlik jarayonida bo'layotgan barcha hodisalarga davlatning munosabatini va ularga davlatning ta'sirini belgilab beradi.

Davlatning tadbikor faoliyatiga qay darajada ta'sir qo'rsatishi yoki aralashishi kerakligi ham siyosiy omil tushunchasiga kiradi. Bunday aralashish oldindan belgilanmagan yoki belgilangan bo'lishi mumkin. Umuman olganda, tadbirkorlik faolligi darajasiga davlatning munosabati rag'batlantirish yoki qo'shilishmaslik ko'rinishida namoyon bo'ladi.

Ijtimoiy omil boshqalarga nisbatan o'zining tarkibi jihatidan anchagina murakkab hisoblanadi. Shuning uchun ham uning tarkibi ko'pgina elementlardan tashkil topadi.

Agar tadbirkor ularni e'tiborga olmasa, kelgusida salbiy natijalarga olib kelishi mumkin. Quydagilar bu omilning asosiy elementlari hisoblanadi; -jamiyatda mafkuraning holati;

-milliy urf-odatlar;

-millatning madaniy va maishiy odatlari;

-atrofdagi kishilarning tadbirkor va tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan munosabati;

-davlatning tadbirkor va tadbirkorlik faoliyatiga bo'lgan munosabati.

Iqtisodiy omil bozordagi raqobatni va narx-navo holatini o'zida aks ettiradi. Narx-navo tizimi, o'z navbatida, narxlarning darjasи, ishlab chiqarish jarayoniga tadbirkor tomonidan jalb qilinayotgan ishlab chiqarish omillari, ishchi kuchi, kredit stavkasi miqdolari hamda soliq va majburiy to'lovlarni o'z ichiga oladi. Bunda bozordagi raqobat shart-sharoitlari sifat va miqdoriy jihatdan tahlil qilib chiqiladi.

Tadbirkorlik faoliyatining kelajagi tadbirkorlik muhiti bilan belgilanadi, u esa jamiyatdagи ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatni aks ettiradi.

Ijtimoiy-iqtisodiy vaziyatga iqtisodiy mustaqillik, tadbirkorlar sinfi, iqtisodiy aloqalarda bozorning ustivorligi, tadbirkorlik kapitalini mujassamlashtirish sharoitining mavjudligi va kerak bo'lgan resurslarni ishlatish kiradi.

Tadbirkorlikni rivojlantirishning asosiy maqsadi mamlakat iqtisodiy o'sishning qo'shimcha manbai sifatida ijtimoiy muammolarni bartaraf etishda katta rol o'ynaydi, bandlik mummolarini hal etish, milliy boylikni o'stirish va millatning farovonligi uchun xizmat qiladi. Iqtisodiy faollik va mustaqillikning muhim shakli bo'lmish tadbirkorlik

respublikamizda bandlikning aniq shaklini va yangi ish joylarini barpo etish yo'lida eng rivojlangan davlatlar tomonidan qo'llab-quvvatlanishi bir necha yillar mobaynida maslahatlar berish, moliyaviy yordam ko'rsatish yoki soliqlar to'lashda tadbirkorlar uchun ma'lum bir imtiyozlar berilishida aks etmoqda. Tadbirkorlik muhiti mamlakatning rivojlanishi asosini tashkil qiladi va ishbilarmon kishilarning faoliyat mazmunini belgilab beradi.

### **6.3. Tadbirkorlik faoliyatidagi tashqi va ichki omillar**

Tadbirkorlik faoliyatida har qanday xo'jalik sub'ekti uchun bozor munosabatlariiga o'tish noaniqlik va tavakkalchilikning oshib borishi bilan bog'liq. Korxona va alohida tadbirkorlar ichki va tashqi bozorlarda mustaqil shartnomaga tuzish huquqini qo'lga kiritganlaridan keyin, birinchi marta, muttasil o'zgarib turadigan bozor konyukturasi sharoitida xo'jalik faoliyatining muqobil yo'naliшlarini tanlash muammoсiga duch keladilar. Tadbirkorlik muhitining korxonaning bozor iqtisodi sharoitida ichki va tashqi omillari, ishchanlik faolligi va moliyaviy barqarorligini ta'minlovchiligi juda o'zgaruvchandir. Shuning uchun ularni doimiy ravishda kuzatish va nazorat qilish kerak bo'ladi. Bu esa xo'jalik tavakkalchilagini boshqarish imkonini beradi va ishbilarmonlik faoliyatining samaradorligini oshiradi.

Tadbirkorlik tashqi muhiti:

- Mamlakatda va hududlarda iqtisodiy holat;
- Jamiat va davlat barqaror rivojlanishini tavsiflovchi siyosiy holat;
- Tadbirkorlar va boshqa bozor iqtisodiyoti sub'ektlarining huquq, majburiyatları, javobgarligini aniq belgilovchi huquqiy muhit;
- Tadbirkorlikni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash;
- Aholining (isthemolchilar) to'lov qobiliyatiga ega talabi darajasi, ishsizlik darajasi bilan bog'liq ijtimoiy-iqtisodiy holat;

- Tadbirkorlik biznesining ma'lum bir turi bilan shug'ullanish imkoniyatini ta'minlovchi aholi ma'lumoti darajasini taqozo etgan madaniy muhit;

- Ilmiy-texnik, texnologik muhit;

- Faoliyatning ma'lum turlarni rivojlantirish uchun zarur ishlab chiqarishning tabiiy omillari miqdorining yetarli darajada mavjudligi;

- Tadbirkorlik tashkilotlari faoliyat ko'rsatish jarayoniga ta'sir etuvchi iqlim (ob-havo) sharoitlari bilan bog'liq fizik muhit;

- Tabiiy bo'hronlarning yo'qligi;

- Tijorat operatsiyalarini, ishbilarmonlik aloqalarini amalga oshirish imkoniyatimni ta'minlovchi yetarli sondagi tashkilotlar mavjudligi to'g'risida guvohlik beruvchi institutsional-tashkiliy muhit va hakozo.

Tadbirkorlik ichki muhiti:

- Zarur xususiy kapital hajmi mavjudligi;

- Korxona tashkiliy-huquqiy shaklini to'g'ri tanlash;

- Faoliyat predmetini tanlash;

- Hamkorlar komandasini tanlash;

- Bozorni bilish va marketing tadqiqotlarini malakali o'tkazish;

- Kadrlarni tanlash va personalni boshqarish, uni moddiy rag'batlantirish;

- Tadbirkorlik sirini saqlash mexanizmi va boshqalar.

Tadbirkorlik muhitiga siyosiy vaziyat, iqtisodiy ahvol, qonunchilik asosi, xalqning ijtimoiy – madaniy saviyasi tarmoqlarning ilmiy-texnika taraqqiyoti darjasи, tabiiy – iqtisodiy sharoit va bozorning o'ziga mos tarkibi, ya'ni kon'yukturasi ta'sir ko'rsatadi. Agar ko'rsatilgan ishbilarmonlik muhitining har bir elementini tahlil qilsak, u holda ularning hozirgi kichik bazis darajasini qoniqarli deb xisoblash mumkin va u respublika kichik biznesning taraqqiyotini ta'minlay oladi. Ammo, mulkni himoya qiluvchi va shartnomalarga amal qilishni kafolatlovchi, qonunchilik tizimining yo'qligi, tovarlar harakatining qat'iy tartibga solinishi, eksport uchun maxsus ruxsatnoma litsenziya berish tizimining murakkabligi, eksport uchun boj to'lovlarining mavjudligi, xullas amalda mol – mulkga Davlatning yakkahokimligi kichik biznesda

xo'jalik yurituvchi sub'ektlarning tavakkalchiliginи sezilarli darajada oshiradi.

Tavakkalchilik – yuzaga kelishi mumkin bo'lgan xavf – xatarga qaramay amalga oshiriladigan faoliyatdir. Shuning uchun tavakkalchilik deganda bevosita u bilan bog'liq bo'lgan xavf – xatar ham tushuniladi. Tadbirkor uchun xos bo'lgan xususiyat, bu shartli tavakkalchilikka borish, ya'ni foyda ko'rishni ko'zlash.

Tadbirkorlik muhitiga albatta tadbirkorlik sub'ektlari o'z ta'sirini o'tkazadi. Fuqarolar (jismoniy shaxslar) deganda O'zbekiston Respublikasining fuqarolari, boshqa davlatlarning fuqarolari, shuningdek fuqaroligi bo'lмаган shaxslar tushuniladi. O'z mulkiga, xo'jalik yuritishida va operativ boshqaruvida alohida mol-mulkka ega bo'lgan hamda o'z majburiyatları yuzasidan ushbu mol-mulk bilan javob beradigan, o'z nomidan mulkiy yoki shaxsiy nomulkiy huquqlarga ega bo'la oladigan va ularni amalga oshira oladigan, majburiyatlarni bajara oladigan, sudda da'vogar va javobgar bo'la oladigan tashkilot yuridik shaxs hisoblanadi.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Tadbirkorlik muhiti: iqtisodiy mazmuni, asosiy vazifalarini tavsiflab bering.
2. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatining iqtisodiy, ijtimoiy va huquqiy asoslari nimalardan iborat?
3. Kichik biznes va tadbirkorlik muhitiga qanday omillar ta'sir ko'rsatadi?
4. O'zbekistonda kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini rivojlantirishning qanday yo'naliishlari mavjud?

## **VII BOB. TADBIRKORLIKNI DAVLAT TOMONIDAN QO'LLAB-QUVVATLASH**

**7.1. Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning maqsadi va vazifalari.**

**7.2. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llash- quvvatlash chora-tadbirlari va uni amalga oshirish.**

**7.3. Qishloq xo'jaligida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini davlat tomonidan qo'llab-quvvatlanadigan faoliyat turlari va rag'batlantirish usullari.**

**7.4. Tadbirkorni qo'llab quvvatlash va berilgan imtiyozlardan samarali foydalanish orqali agrobiznesni tashkil etishni rivojlanтирish.**

### **7.1.Tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlashning maqsadi va vazifalari.**

Davlat o'zining turli xil qo'llab-quvvatlash va tartibga solish vositalarini keng miqyosda tatbiq etish orqali bu sohaning rivojlanishini ta'minlash bilan erkin tadbirkorlik va raqobat muhitini barqarorlashtiradi, aholi bandligi va daromadlari manbaini oshirish bilan uning ijtimoiy farovonligini ta'minlaydi, davlat va mahalliy byudjetlar tushumlarini ko'paytiradi, shuningdek, mulkdorlar sinfini kengaytirish bilan kelgusidagi yanada yirik biznesning rivojlanishiga imkon yaratadi.

Davlat tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini respublikada amalda bo'lgan qonunchilik doirasida tartibga solib turadi. Bu, birinchi navbatda, ularni tashkil etish va faoliyat ko'rsatishi bo'yicha qoidalarni belgilash, yerdan foydalanish, mehnat, mol-mulk va boshqa munosabatlarni tartibga solish hamda buxgalteriya, soliq va statistika hisobotlarini yuritish tartiblarini joriy etish va boshqalarni nazarda to'tadi.

O'zbekistonda kichik biznesni davlat tomonidan tartibga solish va qo'llab-quvvatlash quyidagi yo'naliishlarda amalga oshirilishi talab etiladi:

- tadbirkorlarning ishbilarmonlik faolligini oshirish, fuqarolarning tadbirkorlik faoliyati bilan erkin shug'ullanishlari va undan manfaatdorligining kafolatli tizimini yaratish hamda ularning qonuniy huquqlari va manfaatlarini muhofaza qilish;

- kichik biznes korxonalari yaratilishi va faoliyatining me'yoriy-huquqiy negizini takomillashtirish;

- kichik biznes korxonalarning kredit manbalari va sarmoyalardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirish;

- biznes xatarlaridan barqaror himoyalanishni ta'minlash uchun sug'urta tizimining ahamiyatini oshirish;

- tadbirkorlik sohasiga investitsiyalarni (shu jumladan, chet el investitsiyalarini), zamonaviy texnologiyalar va uskunalarni jalb etish;

- kichik biznesda xizmat ko'rsatuvchi bozor infratuzilmalarini kengaytirish va rivojlantirish;

- kichik korxonalarning xomashyo, axborotlar va texnologiyalardan erkin va to'siqlarsiz foydalanish imkoniyatini kengaytirish, ular tomonidan ishlab chiqarilayotgan mahsulotni ichki va tashqi bozorlarda sotish tizimini takomillashtirish;

- kichik biznes faoliyati ko'rsatkichlarining buxgalterlik hisobi va tahlili tizimini takomillashtirish, ular uchun davlat statistika, buxgalteriya va soliq hisobotining soddalashtirilgan tartibini joriy etish;

- tadbirkorlik faoliyati sub'ektlari samarali faoliyat yuritishi uchun ularni zaruriy iqtisodiy, statistik, ishlab chiqarish-texnologik, ilmiy-texnik va boshqa xil axborotlar bilan ta'minlash;

- soliqlar, yig'imlar va tariflar bo'yicha imtiyozlar belgilash.

- kichik va o'rta biznes uchun kadrlar tayyorlash, qayta tayyorlash va malakasini oshirish tizimini rivojlantirish va boshqalar.

Davlatning tadbirkorlik sub'ektlarini rivojlantirishni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash sohasidagi faoliyati ma'lum bir shakllar hamda usullar asosida olib boriladi. Davlat tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatiga ma'muriy, iqtisodiy yoki institutsional usullar yordamida bevosita yoki bilvosita ta'sir o'tkazadi.

Davlat tadbirkorlik sub'ektlari faoliyatini ma'muriy usullar yordamida tartibga solsa, iqtisodiy yoki institutsional usullar yordamida ularni qo'llab-quvvatlash choralarini amalga oshiradi.

Ma'muriy usullar yordamida xususiy mulk va tadbirkorlik erkinligi daxlsizligini himoyalash va kafolatlar berish, monopoliyani cheklash va halol raqobatni muhofaza qilish, qonun ustuvorligini ta'minlash, davlat tomonidan qabul qilingan huquqiy-me'yoriy tartiblarga rioya etilishini nazorat etish kabi muhim tadbirlarni amalga oshirish ta'minlanadi.

Iqtisodiy usullar yordamida davlat bozor jarayonlarining rivojlanishini davlatning iqtisodiy siyosatiga mos yo'nalishga solish uchun ta'sir etish choralarini qo'llaydi. Iqtisodiy usullar yordamida kichik biznesni tartibga solish va qo'llab-quvvatlash moliya, pul-kredit, soliq, bojxona, baho, sug'urta va boshqa dastaklar orqali ta'minlanadi.

Iqtisodiy jarayonlarni davlat tomonidan tartibga solishning ma'muriy usullari bozor xo'jaligining o'z-o'zini boshqarish mexanizmiga qarshilik qilsa, iqtisodiy usullar ulardan faol foydalanishni rag'batlantiradi.

Institutsional usullar kichik biznes sub'ektlarini qo'llab-quvvatlovchi davlat boshqaruvi organlari va turli institutsional to'zilmalarni (assosiatsiyalar, palatalar, jamg'armalar, savdo uylari, ilmiy-tadqiqot markazlari va boshqalar) shakllantirish va rivojlantirishni ko'zda to'tadi.

Iqtisodiy va institutsional usullar orqali tadbirkorlik sub'ektlarini qo'llab-quvvatlash ko'proq ahamiyat kasb etib boraveradi. Chunki, ular tadbirkorlik va tanlov erkinligi, shaxsiy manfaatdorlik va sog'lom raqobat muhitida tadbirkorlik sub'ektlarining samaradorligini yuksaltirishda davlatning rag'batlantiruvchilik rolini yuzaga chiqaradi.

Tadbirkorlikni tartibga solish va qo'llab-quvvatlashning iqtisodiy usullariga quyidagilar kiradi:

- byudjet-soliq siyosati;
- pul-kredit siyosati;
- tashqi iqtisodiy faoliyatni muqobillashtirish;
- iqtisodiy rejalashtirish, dasturlash hamda istiqbolni belgilash.

Byudjet-soliq tizimi – xo’jalik yurituvchi sub’ektlar faoliyatini davlat tomonidan bevosita tartibga solishning samarali dastaklaridan biri hisoblanadi.

Soliq tizimi davlat byudjetini shakllantirishning eng asosiy manbai bo’lishi bilan birga, uning iqtisodiy faoliyatini rag’batlantiruvchi (soliq imtiyozlari va boshqalar) vazifasi ham mavjud. Ammo, progressiv soliq tizimidan noto’g’ri foydalanish, ya’ni uning me’yoriy haddan tashqari oshirib yuborish iqtisodiy taraqqiyotga salbiy ta’sir ko’rsatish mumkin. Bu, birinchi navbatda, yuqori unum bilan mehnat qilish va yuqori daromad olishga bo’lgan manfaatni, investitsiyalarga bo’lgan rag’batni yo’qqa chiqishi bilan izohlanadi. Zamonaviy bozor iqtisodiyotida soliq dastaklari iqtisodiyotini tartibga solib turuvchi samarali vositalardan biri hisoblanadi. O’zbekistonda bu dastakdan kichik biznesni rag’batlantirish maqsadida foydalanilmoqda. Hozirgi kunda kichik biznes sub’ektlari bir qator soliq imtiyozlaridan foydalanmoqdalar.

Pul-kredit tizimi orqali davlat tadbirkorlik faoliyatini rag’batlantirish choralarini belgilaydi. Pul-kredit siyosati birinchi navbatda pul muomalasini sog’lomlashtirish, milliy valyutaning qadrini ko’tarish va baholarning barqarorligini ta’minlashga yo’naltirilgan chora tadbirlarni o’z ichiga oladi.

Pul-kredit tizimi orqali kichik biznesni rag’batlantirishning bevosita va bilvosita usullari mavjud. Bevosita iqtisodiy ta’sir ko’rsatish dastaklari sifatida tadbirkorlarga maqsadli kreditlar berish, kredit berishning yuqori chegaralarini belgilash, bank foizlarining darajasi ustidan bevosita nazorat o’rnatish tadbirlarini atash mumkin.

Pul-kredit tizimi orqali kichik biznesni rag’batlantirishning bilvosita usullari ko’proq qo’llaniladi. Ularga tijorat banklar zaxiralarining minimal darajasini belgilash, kreditlar bo’yicha foiz stavkalarini tartibga solish, tijorat banklarini qayta moliyalash me’yorlarini muvofiq-lashtirish, milliy valyuta kursini belgilab borish, belgilangan me’yorlar darajasida muomaladagi pul emissiyasini va boshqa choralarini o’z ichiga oladi.

Iqtisodiy rejallashtirish, dasturlash hamda istiqbolni belgilash (prognozlash) orqali davlat iqtisodiy jarayonlarga bilvosita ta’sir

ko'rsatadi va ular kichik biznes sub'ektlari uchun tavsiya mazmuniga egadir.

Kichik biznes sub'ektlarini moliya-kredit tizimi orqali qo'llab-quvvatlash birinchi navbatda imtiyozli kredit berish mexanizmini qo'llash hamda kafolatlash jarayonini rivojlantirish bilan xarakterlanadi.

O'zbekistonda kichik va o'rta biznesni tartibga solish, muvofiqlashtirish va qo'llab-quvvatlash ishlari bilan tegishli davlat boshqaruvi organlari, Savdo-sanoat palatasi, va fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalari uyushmasi hamda boshqa tuzilmalar shug'ullanadilar. Ular shu bilan birga kichik biznes sub'ektlarini turli yo'llar bilan qo'llab-quvvatlash vazifasini ham bajaradi.

Hozirgi davrda mahsulot yetishtiruvchi ishlab chiqaruvchilar murakkab va o'zgaruvchan sharoitda faoliyat ko'rsatmoqdalar. Kichik tadbirkorlik kimga, qanaqa va qancha mahsulot yetkazib berish kerakligini oldindan bilishi muhimdir. Bugungi kunda kichik tadbirkorlar tomonidan yaratilgan tovar va xizmatlar narxi nisbatan arzon va ularni yaqin qo'shni davlatlarga chiqarib sotish katta iqtisodiy ahamiyat kasb etadi. Shuning uchun, chetga eksport qilish bilan shug'ullanuvchi nodavlat uyushmasini tashkil etish bugungi kunda dolzarb ahamiyatga ega deb hisoblaymiz. Bizningcha, ushbu muammoni hol etishda chet el tajribasida muvaffaqiyatli qo'llanilib kelayotgan usullardan kengroq foydalanish maqsadi muvofiqli.

Mamlakatimizda kichik biznesni rivojlanishida, hamda uni takomillashtirishda bozor munosabatlarining rivojlanish darajasi, bozor infrastrukturasining ahvoli, tashkil qilingan iqtisodiy ishlab chiqarish imkoniyatlaridan foydalanish saviyasi, mehnat va tabiiy manbalar, chet el investitsiyalari, kreditlari, zayomlarini jalb qilish muhim ahamiyat kasb etadi.

Yuqorida qayd etilgan tashqi, ichki omil va sharoitlarning mavjudligi iqtisodiy ishlab chiqish imkoniyatlari tizimni qayta ko'rishni taqazo etadi.

Kichik biznesni iqtisodiy samaradorligini oshirishda ishlab chiqarishni modernizatsiyalash, yangi mahsulot turlarini ishlab chiqish yo'lga qo'yish, eksport salohiyatini kengaytirish, mablag' bilan

ta'minlashning noan'anaviy usullarini jalg etish, xorij davlatlari bilan iqtisodiy integratsiyasi darjasи va asosan bozor munosabatlarini samarali yo'lga qo'yish va boshqalar asosiy omillar saqlanadi.

Kichik biznes taraqqiyotida quyidagi asosiy yo'nalishlar dolzarb sanaladi:

- kichik korxonalar mahsulotlariga ehtiyoj va talab kon'yunkturasini o'rganish uchun respublika axborot tizimini tashkil etish;
- kichik biznesni mahalliy o'z-o'zini boshqarish organlari tomonidan qo'llab-quvvatlashni faollashtirish;
- mahalliy miqyosda soliq imtiyozlari ishlab chiqish;
- tadbirkorlar va xaridorlar ijtimoiy himoya kafolatini ta'minlash;
- markazlashgan resurslar manbalari bilan ta'minlash;
- kichik korxonalar uchun asosiy fondlarning amortizatsiyasi;
- moliyaviy lizing xizmatlarini rivojlantirish;
- kichik vechur korxonalarga mablag' sarflayotgan xususiy sarmoyadorlarning davlat sug'urtasi;
- kichik biznes uchun kredit muassasalari tashkil etishga zarur sharoitlar yaratish va kreditlar olish imkoniyatlarini kengaytirish;
- mahsulot eksporti bilan shug'ullanadigan tadbirkorlar uchun valyuta tushumini sotishni majburiy me'yorlarini yaxshilash;
- banklararo amalga oshiriladigan hisoblash tizimini rivojlantirish;
- investitsiya loyihalar haqida ma'lumotlar tizimini tashkil qilish;
- xorij sarmoyalari uchun valyuta soliq va tashqi savdoni boshqarish borasida mustahkam tizim o'rnatish va boshqalardir.

## **7.2.Qishloq xo'jaligida tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llash-quvvatlash chora-tadbirlari va uni amalga oshirish.**

O'zbekistonda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun zarur huquqiy asoslar, soliq tizimi, investitsiya sharoiti va moliyaviy qo'llab-quvvatlash mexanizmlarini yaratish va ularni doimiy ravishda takomillashtirib boriladi.

Xorjiy davlatlar tajribasidan kelib chiqqan holda, kichik biznes va tadbirkorlik sub'ektlarini shakllantirish hamda ularning ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirish uchun mablag'lar yetishmasligi eng murakkab muammolardan biri hisoblanadi. Tijorat banklari ularning tavakkalchilik darajasi yuqori va garov majburiyatları kuchsiz ekanligi sababli kredit berishni xoxlamaydi. Bu muammo iqtisodi nochor xususiy tadbirkorlik shakllanayotgan va ishlab chiqarishga mablag' sarflash tajribasi mavjud bo'lмаган davlatlarda qiyin kechmoqda.

Jahon tajribasidan kelib chiqib, davlatimiz mustaqillikka erishgan dastlabki yillardan boshlab amalga oshirilayotgan ijtimoiy-iqtisodiy islohotlar jarayonida bank tizimini rivojlantirishga, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sohasini moliyaviy qo'llab-quvvatlashga, mamlakatimizga imkon darajada ko'proq xorijiy investitsiyalar jalb qilishga ustuvorlik berilib, tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning davlat tizimi shakllandı. Respublikada tashkil etilgan "Mikrokreditbank" hamda byudjetdan tashqari fondlar, ya'ni "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini qo'llab-kuvvatlash Jamg'armasi", Mehnat va aholini ijtimoiy muhofaza qilish vazirligining "Ish bilan ta'minlashga ko'maklashish Jamg'arma"si xususiy tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash va ularga xizmat ko'rsatishni tashkil qilish bo'yicha davlat siyosatining asosiy vositalaridan biri bo'ldi

1995 yil 21 dekabrida qabul qilingan O'zbekiston Respublikasi «Kichik tadbirkorlikni Davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash to'g'risida»gi Qonuni kichik biznesga ko'maklashuvchi bozor infratuzilmasini shakllantirish va rivojlantirishning huquqiy asosi bo'lib xizmat qildi. Ushbu hujjatlarda mahalliy hokimiyatlar, vazirlik va idoralar, jamoat tashkilotlari va ommaviy axborot vositalarining mazkur sohani rivojlantirishga oid vazifalari aniq belgilab berilgan.

3. 1993 yili "Kichik va o'rta biznesni imtiyozli ravishda kreditlash maqsadida Kichik va o'rta biznesning rivojlanishiga ko'maklashish fondi" tashkil etilgan va 1995 yili "Xususiy tadbirkorlik va kichik biznesni qo'llab-quvvatlash Fondi (Biznes-fond)ga aylantirildi. Mazkur

Fondga davlat mulkini xususiy lashtirishdan tushgan, tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash, texnik jihatdan qayta qurollantirish, rekonstruktsiyalashga yo'naltirilgan mablag'ning 50 foiz o'tkazib berildi.

4.Tadbirkorlarni moliyaviy qo'llab-quvvatlash maqsadida, muhim loyihalarni kreditlar bilan kafolatli ta'minlash va bevosita qo'yilmalarni amalga oshirish uchun 1996 yili "O'zbekiston tovar ishlab chiqaruvchilar va tadbirkorlar palatasi" – notijorat tashkilot tashkil qilindi.

Tadbirkorlar uchunyangi tashkil etilgan "Mikrokreditbank" qisqa vaqt ichida agrar sektorda mikrokreditlar berish bo'yicha o'z faoliyatini kengaytirmoqda. Uning bo'limlari mamlakatimizning deyarli barcha ma'muriy-hududlarida (viloyat va tumanlarda) tashkil qilindi. "Mikrokreditbank" 1993 yildan boshlab tovar ishlab chiqaruvchilarga imtiyozli kreditlar bera boshlagan "Tadbirkorbank" faoliyatining davomchisidir.

Bundan tashqari, byudjetdan tashqari jamg'armalar hisobidan tijorat banklari orqali beriladigan kreditlar xatarlarini qoplash maqsadida "Madad" sug'urta agentligi to'zildi.

Agrar sektor ishlab chiqarishida kichik biznes xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish hamda dehqon va fermer xo'jaliklarini rivojlantirish uchun qo'shimcha moliyaviy resurslarni jalb qilishda "Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini qo'llab-quvvatlash jamgarmasi" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1997 yil 18 martdagi PF-1737 sonli Farmoniga asosan Respublika Fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarini uyushmasi qoshida tashkil etildi.

Jamg'armaning asosiy vazifasi respublika dehqon va fermer xo'jaliklarini qo'llab-quvvatlash hamda ularga imtiyozli va maqsadli kreditlar ajratish yo'li bilan moliyaviy yordam ko'rsatish hisoblanadi. Jamg'armaning kredit liniyalari hisobidan mablag'lar faqat Dehqon va fermer xo'jaliklari uyushmasi a'zolariga va tijorat banklari orqali muddatini o'zaytirish huquqisiz 3 yilgacha bo'lган muddatga ajratiladi. Bu kreditlarning yillik imtiyozli ustama foizlar stavkasi miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki qayta moliyalash

stavkasining 1/3 qismini tashkil qiladi, ya’ni hozirgi kunda u 6 foizdan iborat. Bu stavkaning 50 foizi bank marjasи hisoblanadi va qolgan qismi Jamg’arma daromadiga kiradi.

Davlat soliq qo’mitasi tomonidan dehqon xo’jaliklaridan undiriladigan yer solig’i miqdorining 5 foizi va fermer xo’jaliklaridan undiriladigan yagona yer solig’i miqdorining 2,5 foizi tashkil etadi. 2012 yilda mikrofirma va kichik korxonalar uchun yagona soliq to’lovi sravkasining 7 foizlan 6 foizga kamaydi.

O’zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2001 yil 10 sentyabrdagi “Kichik korxonalar, dehqon va fermer xo’jaliklarini mablag’ bilan ta’minalash, moddiy-texnik ta’minalash, ularga bojxona imtiyozlarini berish, bank xizmatlari va boshqa xizmatlar ko’rsatish bo’yicha qo’shimcha chora-tadbirlari to’g’risida”gi 366-sonli qarori talablaridan kelib chiqqan holda “Tijorat banklari tomonidan yakka tartibdagi tadbirkorlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub’ektlarini byudjetdan tashqari jamg’armalar kredit liniyalari hisobidan kreditlash tartibi to’g’risida” Nizom ishlab chiqilib, Adliya Vazirligidan 2001 yil 3 oktyabrdan 1074-raqam bilan Davlat ro’yxatidan o’tkazilgan.

Mazkur tartib asosida, “Fermer, dehqon xo’jaliklari va tomorqa yer egalarini qo’llab-quvvatlash Jamg’armasi” mablag’lari hisobidan boshlang’ich sarmoyani shakllantirish uchun kreditlar davlat ro’yxatidan o’tganiga 6 oydan oshmagan davrda kredit olish uchun tegishli buyurtmalar bergen mikrofirmalar va yuridik shaxs maqomiga ega bo’lgan dehqon xo’jaliklariga eng kam oylik ish haqining 150 barobari miqdorida, kichik korxonalar va fermer xo’jaliklariga eng kam oylik ish haqiiing 300 barobarigacha aylanma mablag’larni to’ldirishga, investitsiya loyihibalarini texnik iqtisodiy asoslashga va asbob uskunalarini sotib olishga Markaziy bank qayta moliyalashtirish stavkasining 1/6 qismi miqdorida, foizlarni 12 oy muddat o’tgach va asosiy qarzni kredit olgan vaqtdan 18-24 oy o’tgandan so’ng qaytarish sharti asosida 3 yilgacha bo’lgan muddatga boshlang’ich sarmoya sifatida kredit berish tartibi joriy qilingan.

Vazirlar Mahkamasining 2000 yil 19 maydagi "Tijorat banklarining kichik va o'rta tadbirkorlikni rivojlantirishda qatnashishini rag'batlan-tirishga doir chora-tadbirlar to'g'risida"gi 195-sonli qarorida tijorat banklari sof foydasining 25 foizigacha miqdorini ajratish hisobiga bankning o'zida imtiyozli kredit berish maxsus Jamg'armasi tashkil etilishi qayd qilingan.

Ushbu Jamg'armadan kreditlar O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tasdiqlangan va O'zbekiston Respublikasi Adliya Vazirligida ro'yxatga olingan 2000 yil 29 fevraldaggi 902 va 903-sonli Tartiblari asosida ajratiladi. Jamg'arma mablag'i hisobidan ajratilgan kreditlar bo'yicha ustama foiz miqdori O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan belgilangan qayta moliyalash stavkasining 50 foizidan ortiq bo'lмаган miqdorda belgilanadi. Shu bilan birga, qarorda tijorat banklarining mazkur jamg'arma hisobidan kreditlash evaziga olgan daromadlari imtiyozli kreditlash jamg'armasi mablag'larini ko'paytirishga yo'naltirilgan taqdirda 5 yilgacha soliqdan ozod qilish bo'yicha rag'batlantirish mexanizmi ko'zda tutilgan.

Respublikada faoliyat ko'rsatayotgan dehqon va fermer xo'jaliklarining kreditga bo'lgan talabini qondirilmayotganligining asosiy sabablaridan biri kredit resurslarining asosan boshqa sohalarga yo'naltirilayotganligi bo'lmoqda.

"O'zagrosug'urta" davlat aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi har bir fermer xo'jaligi bo'yicha paxta va g'alla ekinlari holatini, ularni etishtirish bo'yicha xarajatlarga kredit ajratish maqsadga muvofiqligini aniqlangandan so'ng sug'urta polisini beradi. Natijada, imtiyozli kredit olish vaqtি cho'zilib, fermerlarni ekish davrigacha va ekin unib chiqqungacha bo'lgan xarajatlarga kredit olish imkoniyati chegaralanmoqda. O'rnatilgan tartibga binoan "O'zagrosug'urta" davlat aktsiyadorlik sug'urta kompaniyasi sug'urta polisini beradi..

Hozirgi kunda chet el kredit liniyalari hisobidan xalq xo'jaligining turli tarmoqlaridagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini kreditlar bilan ta'minlash o'z samarasini bermoqda. Bunga Evropa tiklanish va taraqqiyot banki, Osiyo taraqqiyot banki va Xalqaro Moliya

Korporatsiyasi kabi qator tashkilotlar kredit liniyalarini misol keltirish mumkin.

Mamlakatimiz qishloq xo'jaligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning mohiyati va iqtisodiyotdagi o'rni juda keng qamrovlidir. Shunga ko'ra, iqtisodiyotni erkinlashtirish sharoitida mamlakatimiz qishloq xo'jaligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish uchun hukumat tomonidan amalgaloshirilayotgan chora-tadbirlarni barqaror iqtisodiyotni shakllantirishning asosiy yo'nalishlaridan biri sifatida hisoblash mumkin.

Vazirlar Mahkamasining 2003 yil 11 oktyabrdagi 439-sonli «Kichik tadbirkorlik (biznes) sub'ektlariga tegishli bo'lgan korxonalar va tashkilotlar klassifikatsiyasini tasdiqlash to'g'risida»gi qaroriga muvofiq qishloqda faoliyat ko'rsatuvchi tadbirkorlik sub'ektlari qaysi tarmoqqa taalluqligiga qarab, ulardagi band bo'lgan xodimlar soniga ko'ra yakka tartibdagi tadbirkorlik va kichik biznesga ajratilgan.

Qarorda belgilanishicha, qishloq xo'jaligida yakka tartibdagi tadbirkorlik sub'ektlariga ishchilar soni 20 kishigacha, kichik biznes sub'ektlariga esa ishchilar soni 50 kishigacha bo'lgan korxonalar kiritilgan. Demak, dehqon va fermer xo'jaliklari ham qonunda belgilangan tartibda ularda ishlovchilar soniga qarab yakka tartibdagi tadbirkorlik va kichik biznes sub'ektlariga bo'linadi. Yana bir masala, qishloq xo'jaligi bilan shug'ullanuvchi tadbirkorlar qaysi faoliyat turida ko'proq daromad olishiga qarab, o'sha tarmoqdagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikka tegishli bo'lishi belgilangan. Qishloq va xo'jaligi kichik biznes va xususiy tadbirkorlik boshqa sohadagi tadbirkorliqdan quyidagi o'ziga xos xususiyatlar bilan ajralib turadi:

- dehqon va fermer xo'jaliklarida asosiy ishlab chiqarish vositasi yer hisoblanganligi va mahsulot yetishtirish tabiiy resurslarga bog'liqligi;

- dehqon va fermer xo'jaliklarining qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishga ixtisoslashganligi va bu holat biologik jarayonga bog'liq bo'lib, bir vegetatsiya muddatida yoki bir yilda bir marotaba hosil olinishi;

- dehqon va fermer xo'jaliklari faoliyati jarayoniga tabiat o'z ta'sirini o'tkazib turishi orqali yakuniy natija to'lig'icha tadbirkor mehnatiga bog'liq bo'lmasligi;

- dehqon va fermer xo'jaliklarida mahsulot etishtirish jarayonida (agrotexnik tadbirlarni o'tkazish parvarishlash va boshqalar) ish vaqtini chegaralanmaganligi;

- dehqon va fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarish jarayoni mavsumiy harakterga ega ekanligi va ularda ishlovchilar yilning ma'lum bir vaqtida ish bilan ta'minlanishi.

- qishloq xo'jaligida kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ish vaqtি ishlab chiqarish vaqtি bilan mos kelmasligi, ya'ni, agar boshqa sohada bir kun yoki bir smenada ma'lum bir miqdordagi mahsulot ishlab chiqarilsa yoki xizmat ko'rsatish sohasidagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlikda ma'lum turdagи va ma'lum miqdordagi xizmat ko'rsatilsa, qishloq xo'jaligida mehnatning yakuni hosilni yig'ish bilan belgilanishi;

- dehqon va fermer xo'jaligida yaratilgan mahsulot keyingi ishlab chiqarish jarayonida qatnashishi;

- dehqon va fermer xo'jaliklarida ishlab chiqarishga sarflangan mablag'larni qaytishi uzoq muddat (dehqonchilikda bir yil, chorvachilik sohasida 2- 3 yil) davom etishi va h.k.

### **7.3.Qishloq xo'jaligida kichik biznes va tadbirkorlik faoliyatini davlat tamonidan qo'llab-quvvatlanadigan faoliyat turlari va rag'batlantirish usullari.**

Respublikaning bozor iqtisodiyotigao'tishjarayonida yangi moliyaviy siyosat ishlab chiqildi va hukumat tomonidan amalga oshirilmoqda. Jamiyatdagi har bir iqtisodiy faoliyatni boshlanishi davlatning yaqindan turib bergen moliyaviy yordami tufayli rivojlanib, takomillashib borishi mumkin. Jumladan «Kichik va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni rag'batlantirish to'g'risida»gi 1995 yil 25 dekabrda qabul qilingan Qonunda kichik va xususiy tadbirkorlikni qo'llab quvvatlashda banklarni rolini oshirib borishga alohida e'tibor berilgan.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini asosiy faoliyati banklar bilan chambarchas bog'liq bo'lib, ular olib borayotgan faoliyat

xom ashyoni sotib olish, ishlab chiqarilgan tovarlar, ko'rsatiladigan xizmatlarga haq to'lash, ish haqi bilan ishlovchilarni ta'minlash, turli toifadagi korxonalar, firmalar, yuridik shaxslar bilan bo'ladigan iqtisodiy munosabatlar ya'ni olingan foydadan, daromaddan soliq to'lash, transport, kommunal xizmatlar uchun to'lovlarning barcha turlari banklar orqali, o'z navbatida olinadigan kreditlar ham boshqa hisob-kitoblar ham banklar orqali amalga oshadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishguncha bank va banklar bilan bo'ladigan turli iqtisodiy munosabatlar unchalik oshkora etilmas edi. Jahon xo'jaligini muhim xo'jalik yuritish qismi bo'lgan kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini barcha faoliyati banklar bilan bog'langanligi bugungi kunda hammaga ma'lum bo'lib qoldi. Shuning uchun ham rivojlangan mamlakatlarda bank tizimini rivojlangan bo'lib, tadbirkorlarni aktiv iqtisodiy faoliyat ko'rsatishida banklar barcha mulk shaklidagi korxonalarga kompleks ravishda xizmat ko'rsatadi.

Bank operatsiyalari passiv va aktiv operatsiyalardan iborat bo'lib, passiv operatsiyalar pul mablag'larini ma'lum biror yo'nalishga safarbar etishga qaratilgan. Banklar passiv operatsiyalar orqali jamg'armalarni va vaqtinchalik bo'sh turgan mablag'larni ishlab chiqarishga safarbar etib foya oladi. Aktiv operatsiyalar turli xarakterdagи kreditlarni berish operatsiyalari bilan bog'liq bo'lib, quyidagi elementlar bo'yicha turkumlanadi:

1. Muddatlari bo'yicha kreditlar 1 yillik, 5 yillik va 7-10 yilga mo'ljallangan bo'lishi;
2. Kreditlarni hajmi bo'yicha kichik, o'rta, yirik miqdorda har bir mijozga individual va moliyaviy imkoniyatlarini hisobga olgan holda amalga oshiriladi;
3. Ayrim turlari bo'yicha maxsus kafolatni talab qilmaydigan, garov evaziga berilmaydigan kreditlar;
4. Kreditorlarni turlari bo'yicha ya'ni davlat, tijorat, xususiy va boshqa turlari bo'yicha berish;
5. Zayomni turlari bo'yicha yuridik shaxslar va hokazalarga berish;

6. Vaqtinchalik foydalanish uchun investitsiya, iste'mol uchun, qarzlarni to'lash asosan eksport va import operatsiyalarini bajarish uchun beriladigan kreditlar.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida mulk egaligining kichik va xususiy tadbirkorlik shakli korxonalari o'z faoliyatida turli banklar bilan muomalada bo'ladilar. Bu jarayon avvalo oldingilaridan farq qilgan holda ancha murakkab hisoblanadi, chunki oldingi jarayonlar asosan korxonalar orqali bank o'z faoliyatini olib borganligi bilan xarakterlanadi. Tadbirkorlik faoliyati shakllanishi tufayli banklar xususiy mulk egalari va kichik korxonalar faoliyati bilan bog'liq operatsiyalarini bajarishga o'z imkoniyatlarini safarbar etib boradilar.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlarning banklar bilan bo'ladigan operatsiyalarida, xususiy tadbirkor o'z jamg'armasini respublikaning turli banklarida o'z hisob raqamida saqlashi, kredit va kassa operatsiyalarini bajarish huquqiga ega hisoblanadi. Banklar bilan tadbirkorlar o'rtasidagi munosabatlarda amal qilayotgan qonunlarga va shartnomalarga asosan pul o'tqazish yo'li bilan hisob-kitoblar olib boriladi. Banklar tadbirkor hisob raqamida pul mablag'lari, qimmatli qog'ozlar va boshqa muhim ahamiyatga ega bo'lgan hujjatlarni saqlashini kafolatlab beradi. Banklar tadbirkorlar va mijozlar bilan bo'ladigan operatsiyalarda pul egasi tomonidan topshiriquqog'ozi bankka kelib tushishi bilan 12-13 soat davomida keyingi operatsiyalar bajarilishi zarur.

Mulk egalari hisobiga pul o'tkazish shahar ichida 4 ish kunida, violyat ichida 5 ish kunida, respublika ichida 10 ish kunida bajarilishi lozim. Agar bu qonun shartlari bo'zilsa mijozga yillik foiz miqdorida bank jarima to'laydi. Bank mijozlarning arizasiga binoan ularga tegishli operatsiyalarini bajaradi. Banklar tadbirkorlarni Respublika Markaziy banki tomonidan kiritilgan o'zgarishlarni, qoidalarni ayniqsa hisoblar bo'yicha naqd pulsiz tarzdagi operatsiyalar bo'yicha o'zgarishlar to'g'risida tadbirkorni xabardor qiladilar. Tadbirkorlar bilan bank o'rtasidagi kredit berish bo'yicha bo'ladigan operatsiyalar ikki tomon o'rtasida imzolangan shartnoma asosida amalga oshiriladi. Operatsiyalarini muvaffaqiyatli bajarish uchun har bir tadbirkor «Banklar va bank faoliyati to'g'risida»gi Respublika qonunlarini chuqur o'rjanib, unga rioya qilishi lozim.

Bozor iqtisodiyotida kichik biznes korxonalarining iqtisodiy faoliyati valyuta operatsiyalari bilan bog'liqlik bo'lib, Valyuta operatsiyalari valyuta kursi bo'yicha ikki tomon valyutasi nisbatli solishtirilib amalga oshiriladi. AQSh dollari valyuta kotirovkasida baza sifatida xalqaro maydonda qabul qilingan. Boshqa mamlakatlar valyutasi kurs bo'yicha AQSh dollariga solishtirilib boriladi. Valyuta kursi o'zgarib turadi. Valyuta kursini o'zgarib turishi har kuni ham bo'lismi mumkin. Shuning uchun banklar kursni bank faoliyat boshlash vaqtidagi yoki yopilishi vaqtidagi kurslar bo'yicha hisobkitob ishlarini olib boradi. Valyuta kursini o'zgarib borishi haqida har haftada matbuotda jadval berib boriladi. Bu axborot tadbirkorlarni iqtisodiy faoliyatida muhim hisoblanadi. Valyuta operatsiyalarida asosiy o'rinni kredit, qimmatli qog'ozlar, valyutani foyda olish maqsadida sotib olish va sotish kabilar egallaydi. Tadbirkorlar valyuta bilan bog'liq bo'lgan faoliyatlaridan samarali foydalaniib, xorij valyutasiga yangi texnika va zamonaviy texnologiya xarid qilib, ishlab chiqarish va xizmat ko'rsatish korxonalarida xizmatni sifatini oshirishga, ishlab chiqarish sohasida sifatli tovarlar ishlab chiqarib, uning realizatsiyasidan katta foyda olish imkoniyatlariga ega bo'ladilar. Yuqoridagilardan tashqari bank tizimida ko'plab operatsiyalar olib boriladi.

Shulardan: factoring - (inglizcha factor - vositachi so'zidan olingan) savdo - komission operatsiyalarning bir turi bo'lib, aylanma mablag'larni kreditlash bilan bog'liq. Factoring xaridorning debitorlik qarzlarini inkassa qilish bo'lib, qisqa muddatli kreditlash va vositachilik faoliyatining bir turidir. Factoring o'z ichiga quyidagilarni oladi:

- a) xaridorning debitorlik qarzlarini undirish (inkassalash);
- b) unga qisqa muddatli kredit berish;
- v) uni operatsiyalar bo'yicha kredit olish bilan bog'liq tavakkalchilikdan ozod qilish.

Factoringning asosiy maqsadi shartnomalar orqali aniqlangan mablag'larni zudlik bilan yoki ma'lum bir muddat mobaynida olishdir. Natijada sotuvchi xaridorning to'lov qobiliyatiga bog'liqlikdan qutuladi.

Bank xaridor bilan moliyaviy qiyinchiliklar yuzaga kelgan paytda to'lovlarning kafolati haqidagi shartnomalar to'zadi. Xuddi shunday shartnomalar xaridor va sotuvchi bilan ham bir vaqtida to'zilishi mumkin.

Ushbu ishni bankning omiling bo'limi bajaradi. Factoring bo'yicha sotuvchi va bank orasidagi munosabatlar shartnoma orqali boshqariladi. Shartnoma to'zishdan oldin bank sotuvchi va xaridorning to'lov qobiliyatini ma'lum bir usullar asosida tekshiradi va buning asosida factoring operatsiyalari bo'yicha imkon bo'lgan mablag' miqdorini aniqlaydi. Demak, xuddi shu mablag' miqdori doirasida xaridorga tovar etkazish amalga oshirilishi mumkin. Ushbu miqdordan ortig'i katta tavakkalchilik asosida bo'lishi mumkin. Bu mablag' doirasida bank sotuvchiga xaridor nomidan to'lovlarni amalga oshirib turadi. Shartnoma ochiq yoki yopiq (konfidentsial) bo'lishi mumkin. Ochiq shartnomada debtor o'zining factoring operatsiyasida ishtirok qilishi to'g'risida ma'lumot beradi, yopiq turdag'i shartnomada esa debtorlarga omiling shartnomasi mavjudligi haqida ma'lumot berilmaydi. Factoring quyidagicha amalga oshiriladi.

Bank yoki factoring bilan shug'ullanuvchi tashkilot sotuvchidan xaridorning debtorlik qarzini sotib oladi (albatta, o'zi uchun iloji boricha foydali shart-sharoitlarda) va sotuvchiga xaridor qarzining 70 - 80 foizini 2 - 3 kun ichida to'lashni amalga oshiradi. Qolganini esa shart - sharoitga muvofiq ravishda bir qancha muddatdan so'ng to'laydi. Endi bank yoki factoring bilan shug'ullanuvchi tashkilot xaridordan qarzni undirib olish huquqiga ega bo'ladi. Ular xaridorning qarzini arzonga sotib oлganliklari tufayli uning haqiqiy qiymatini undirganda ma'lum miqdorda foyda olishga erishadilar. Factoring xizmatining bahosi xizmat turiga, mijozning moliyaviy ahvoliga va boshqa iqtisodiy omillarga o'zviy bog'liq bo'ladi. Factoring uchun to'lov miqdorini aniqlaganda tomonlarning kredit foizi darajasi va to'lov muddati bo'yicha kelishuvlari mavjud bo'lishi kerak.

Forfetlashtirish - (frantsuzcha a forfay - to'laligicha, umumiyl miqdorda) bank yoki moliyaviy kompaniya tomonidan eksportni kreditlashning bir turi bo'lib, unda tashqi savdo operatsiyalari bo'yicha veksel va boshqa qarzdorlik bilan bog'liq hujjatlar sotib olinadi. Forfetlashtirish ko'pincha juda qimmat mashina va mexanizmlarni o'zoq muddatli (odatda 7 yilgacha) kreditlashda qo'llaniladi.

Ochiq hisob bo'yicha kredit - eksport - import operatsiyalarida ochiq hisob bo'yicha hisob - kitob ma'nosini ham bildiradi. Bunday kreditlar

doimiy mijozlar (kontragentlar) orasidagi o'zaro hisob - kitoblarda qo'llaniladi. Bu usul bir xil tovarlarni ko'p martalab yetkazilganda maqsadga muvofiq bo'lishi mumkin. Uning ma'nosi quyidagicha: sotuvchi xaridorga tovarni jo'natadi va uning manzilgohiga ushbu tovar bilan bog'liq hujjatlarni ham jo'natadi. Bunda u qarzni xaridor nomiga ochilgan hisobning debetiga yo'naltiradi. Kontraktda kelishilgan muddatlarga asosan, xaridor o'zining ochiq hisobdagi qarzini to'lashni amalga oshiradi. Xaridor uchun ochiq hisob usuli kredit olishning va hisob-kitobning juda qulay usulidir, chunki bunda yetkazilmagan tovarni to'lash tavakkalchiligining oldi olinadi va ushbu kreditni ishlatganlik uchun hech qanday foiz olinmaydi. Ikkala tomon galma - galdan sotuvchi va xaridor sifatida ish yuritsa, ularning bir - biridan ko'ngli qolmaydi.

Overdraft - (inglizchasiga - overdraft) bankdagi mijozning hisob raqamidagi manfiy balans. Bu qisqa muddatli kreditning maxsus turi bo'lib, mijozga ma'lum miqdordagi mablag' uning bankdagi qoldig'idan ko'ra ko'proq kattalikda beriladi. Demak, bunday operatsiya natijasida manfiy balans hosil bo'ladi, ya'ni mijoz bankdan qarzdor bo'lib qoladi (debit saldosi). Overdraftning maksimal miqdori, kredit berish sharti, uni qoplash usuli va kredit foizi haqida bank va mijoz orasida maxsus shartnoma to'ziladi. Bu qarzni to'lash uchun mijoz hisob raqamiga kelib tushayotgan barcha mablag'lar jalb qilinadi. Shuning uchun kredit hajmi mablag'lar kelib tushishi bilan o'zgarib boradi va bu uni oddiy qarz berishdan farqlaydi.

Depozit - (inglizcha Depositum - saqlash uchun berilgan narsa) pulni yoki qimmatli qog'ozlarni saqlash uchun bankka topshirilishini bildiradi. Ular bankning qarz berilishi mumkin bo'lgan kapitalni (fondni) tashkil qilishning, omiling operatsiyalari o'tkazishning, investitsiyalar qilishning va boshqa bank tadbirlarining manbasidir. Shuning uchun ham depozit uchun bank tomonidan ma'lum miqdorda foiz to'lanadi. Depozitlar talab qilingunicha va ma'lum muddatga qo'yilgan bo'lishi mumkin.

Auktsionlar (kim oshdi savdosi) orqali pulni bankka joylashtirish - ushbu ish respublika fond birjasi tomonidan amalga oshirilishi mumkin. Bunda banklararo kreditlarni, depozit va tijorat kreditlarini joylashtirish amalga oshiriladi. Bunday auktsionlarda fuqarolar va yuridik shaxslar

ishtirok etishi mumkin. Albatta, ushbu auktsionda qatnashuvchilar ma'lum bir malaka darajasiga ega bo'lishlari lozim (masalan, brokerlar va moliyaviy bozorda ishlay oladigan mo'tahassislar).

Report - (frantsuzcha report) bunda qimmatli qog'ozlarning yoki valyutaning egasi ularni birjada keyinchalik ma'lum muddatdan so'ng yuqoriq narxda (kursda) qayta sotib olish majburiyati bilan bankka sotadi. Sotuv va qayta sotib olish narxi orasidagi farq kredit uchun to'loymi anglatadi. Ushbu farq report deb ham ataladi. Report qimmatli qog'ozlar yoki valyutaning kursini ko'tarishga mo'ljallangan. Ushbu ish bilan valyuta kursini ko'tarishdan manfaatdor bo'lganlar shug'ullanadilar.

Deport - (frantsuzcha deport) reportga qarama - qarshi bo'lgan jarayonni bildiradi. Deport qimmatli qog'ozlar yoki valyutaning kursi kamayishi hisobiga foyda olishni nazarda to'tadi.

Valyuta arbitraji - valyutalarning oldi - sotdisi bilan bog'liq operatsiya turi bo'lib, valyuta kurslari orasidagi farqdan foydalangan holda ma'lum miqdorda foyda olishni ko'zda to'tadi. U vaqt bo'yicha, fazo bo'yicha tashkil qilinishi va oddiy yoki murakkab ko'rinishlarda bo'lishi mumkin. Vaqt bo'yicha valyuta arbitraji vaqt o'tishi bilan valyuta kurslari o'zgarishi oqibatida foyda olishni nazarda to'tadi. Fazoviy valyuta arbitraji esa berilgan valyuta kursining har xil bozorlardagi farqidan foydalangan holda, foyda olishni ko'zlaydi. Oddiy valyuta arbitraji ikki xil valyuta bilan ishlashni, murakkab valyuta arbitraji esa bir necha tur valyutalar bilan ishlashni bildiradi.

Foiz (foiz) arbitraji - bir necha xil valyuta turlari bilan ish olib boradigan korxonalar o'z valyuta zaxiralarining shunday to'zilmasini tanlab oladilarki (yoki o'zgartiradilarki), bunda har xil valyutalar orasidagi foiz stavkasida farqi mavjudligi sababli iloji boricha ko'proq foyda olish imkoniyati paydo bo'lsin.

LIDZ and LEGZ - (inglizcha leads and legs - o'tib ketish va orqada qolish) valyuta operatsiyalarining bir turi bo'lib, u moliyaviy va boshqa turdag'i foyda olish maqsadida hisob - kitob muddatlarini o'zgartirish (tezlatish yoki cho'zish) bilan bog'liq. Lidz va legz tomonlar orasidagi kontrakt sifatida tashkil qilinib, to'lov muddatlari va shartlarini o'zgartirishni ko'zda to'tadi. U tashqi savdoda valyuta kurslari va foiz

miqdori katta miqdorda o'zgarishi ko'zda tutilganda, valyuta bo'yicha chegaralanishlar bo'lishi mumkin bo'lganda, soliq stavkasi o'zgarilishi nazarda tutilganda va shu kabi boshqa hollarda qo'llaniladi.

Transfert (frantsuzcha - transfert - ko'chirish, o'zatish, o'tkazish) ikki xil ma'noga ega:

1. Bir moliyaviy tashkilotdan yoki bir mamlakatdan ikkinchisiga mablag' o'tkazish;
2. Nomlangan qimmatli qog'ozlarni bir mulkdordan ikkinchisiga o'tkazish.

Shuning uchun ham transfert operatsiyalari va transfert xizmatlari degan tushunchalar mavjud.

Transfert operatsiyalari pul mablag'larini o'tkazish bilan bog'liq operatsiyalardir. Bu xildagi operatsiyalar o'z tarkibiga transfert to'lovlarini qamrab oladi (davlat tomonidan fuqarolarga to'lanadigan barcha to'lov turlari - pensiyalar, subsidiyalar, ishsizlarga to'lanadigan to'lovlar, bolalar uchun to'lovlar va hokazo). Valyuta transferlari tashqi iqtisodiy aloqalar bilan bog'liq bo'lib, ularning asosida chet el tashkilotlari yoki firmalari bilan hujjatlar orqali tasdiqlanmagan va tegishli ravishda aniqlanilmagan kelishuvlar yotadi.

Trast operatsiyalari (inglizcha trust - ishonch, o'z zimmasiga olish, mas'uliyat, javobgarlik, ishonch bo'yicha boshqaruv) banklar, moliya kompaniyalari va investitsion fondlarning mulkni boshqarish va shunga o'xshash boshqa xizmatlar bilan bog'liq ishonch operatsiyalari jumlasiga kirib, ular mijozlar topshirig'i bilan va ularning talablari orqali amalga oshiriladi. Bu turdagи kompaniyalar kichik va o'rta biznesni rivojlantirishda katta ahamiyat kasb etadi. Ular endigina rivojlanayotgan korxonalarini o'z qaramog'iga olib, ularning tezlik bilan Rivojlanishiga olib kelishi mumkin. Trast - kompaniyalar mustaqil yordamchi tashkilotlardir.

Ijara mol - mulkni ishlatish huquqini sotib olishdir. Masalan, bino, xona, jihoz, korxona, yer, tabiiy resurslar va boshqa turdagи mol - mulkni arenda/ijaraga olish mumkin. Bunda bu narsalar tovar maqomini oladi. Arenda/ijaraning mohiyati bir tomonning ikkinchi tomonga yuqorida keltirilgan tovar turlarini ijara shartnomasi asosida, kelishilgan narxlarda va ma'lum muddatga berishidir.

Lizing (inglizcha lease - arenda) - o'zoq muddatli ijaraning bir turi bo'lib, u asbob - uskuna, jihozlarni, transport vositalarini, yoki ko'chmas va boshqacha turdag'i mulk turlarini ma'lum bir muddatga ishlatish uchun berishdir. Buxgalteriya hisobida lizingni moliyaviy ijara turiga mansub deb hisoblanadi.

Lizingning ikki: moliyaviy lizing; operatsion lizing turi mavjud.

Moliyaviy lizing (financial leasing) kontraktning davom etish muddatida arenda/ijaraga topshirilgan jihoz/mulkning to'la amortizatsiya qiymatini yoki uning katta bir qismini va arendaga beruvchi uchun foyda to'lashni ko'zda to'tadi. Ijara shartnomasi tugagandan so'ng arendator quyidagilarni amalga oshirishi mumkin: 1. Lizing ob'ektini arenda beruvchiga qaytarish, 2. Arenda uchun yangi shartnomaga to'zish, 3. Lizing ob'ektini qoldiq bahosi bo'yicha sotib olish.

Lizingda arendaga oluvchi uchun ma'lum bir majburiyatlar ham bo'lishi mumkin. Ob'ektni ko'rsatilgan muddatda sotib olish yoki unga boshqa sotib oluvchini yoki arendaga oluvchini topish singari majburiyatlar bunga misol bo'la oladi.

Operatsion lizing (operation leasing) mulkning amortizatsiya davridan kam bo'lган muddatga to'ziladi. Shundan so'ng ob'ekt o'z egasiga topshiriladi va u yana arendaga berilishi mumkin. Lizingning ikki xil usuli: bevosita yoki to'g'ridan - to'g'ri lizing; qaytarma lizing (qaytib berish sharti bilan).

Bevosita yoki to'g'ridan - to'g'ri lizingda lizing firmasi harid qilinadigan mulkni 100 foiz moliyalashtiradi. Texnika vositasi ishlatuvchiga bevosita keladi va u butun arenda muddati davomida lizing firmasi bilan hisob - kitob qilib boradi. Qaytarma lizing esa oluvchining asosiy vositalarini garovga qo'ygan holda qo'shimcha moliyaviy resurslar olishni anglatadi. Uning mohiyati shundaki, lizing firmasi lizing oluvchidan uning mol - mulkini sotib oladi va buni uning o'ziga ijaraga beradi. Bu turdag'i lizing jihozning barcha foydali xizmat muddatiga kiradi va unga egalik huquqi lizing oluvchiga o'tishini nazarda to'tadi. Demak, tashkilot bu turdag'i lizingda lizing firmasiga o'z mol-mulkini garovga qo'yadi va natijada moliyaviy resurslarga ega bo'ladi.

Lizing shartnomasi quyidagi shartlar asosida tuziladi:

1. Lizing muddati asosiy fondlarning xizmat muddatiga teng bo'lganda;
2. Lizing to'lovi asosiy fondlarning qiymatini, kredit uchun foizni va komission to'lovlarni o'z ichiga oladi;
3. Lizingga olingan jihoz uchun tavakkalchilikni (sinish, avariya, bo'zilish) lizingga oluvchi o'z zimmasiga oladi;
4. Asosiy fondlar lizing firmasining mulki hisoblanadi;
5. Lizing muddati tugagandan so'ng, shartnoma asosida asosiy fondlar lizing oluvchining mulki bo'lib qoladi.

Mahsulot yetkazib beruvchilar uchun lizing firmalari bilan hamkorlik qilish mahsulot bozorining kengayishiga va yangi ilg'or texnologiyalarni ishlatalishga imkon beradi, bu esa o'z navbatida korxonaning moliyaviy barqarorligini va kreditga layoqatliligin oshiradi.

G'aznachilik-Davlat buyujetining ijrosini va davlatdaromadlari va xarajatlari hisobini olib borilishi hamda, davlat xarajatlarini moliyaviy resurslarni yetarli bo'lismeni ta'minlash uchun ma'sul bo'lgan maxsus organdir. Davlat buyujetining g'azna ijrosi Davlat buyujetining barcha daromadlarini yagona g'azna hisob varag'iga kiritishdan, davlat buyujetining xarajatlarini shu xisobvaraqdan to'lashdan iborat. Yagona g'azna hisobvarag'i G'aznachilik tomonidan boshqariladigan maxsus bank hisobvarag'i bo'lib, unga davlat buyujeti mablag'lari hamda buyujet tashkilotlarining buyujetdan tashqari mablag'lari kiritiladi.

Injiniring (inglizcha engineering) korxona va boshqa turdag'i ob'ektlar yaratish uchun mo'ljallangan injenerlik maslahatlari berishdir. Injiniring biror - bir ob'ekt qurish yoki yangilik yaratish uchun ajratilgan kapitalning samaradorligini oshirish uchun juda yaxshi quroldir. U xizmatlar eksportining ma'lum bir usuli deb hisoblanishi ham mumkin (masalan, bilimlarni berish, texnologiya o'zatish yoki tajriba almashinish). Injiniring alohida texnik - texnologik izlanishlarni amalga oshirish, texnik - iqtisodiy hujjatlar tayyorlash, biznes - reja yozish, loyiha bilan bog'liq hujjatlar tayyorlash, ishlab chiqarishni tashkil qilish, texnologik jihozlarni ishlatalish va tayyor mahsulotni sotishni uyuştirish bo'yicha amaliy ishlarni o'z ichiga oladi.

Transting (lotincha trans - nimadir orqali) - tadbirkorlik faoliyatiga jalg qilingan boshlang'ich kapitaldan olingan foydani qimmatli qog'ozlar bozoriga jalg qilgan holda ikkilamchi daromad olishni tashkil qilishdir. U quyidagi holda amalga oshiriladi:

- fuqarolardan pul mablag'lari yig'iladi;

- yig'ilgan mablag'ga biror - bir turdag'i foyda keltira oladigan ishlab chiqarish yoki savdo tashkiloti tashkil qilinadi;

- ushbu ishlab chiqarish yoki savdo tashkiloti tomonidan olingan foyda hisobiga ushbu ishda ishtirok etayotganlar uchun aktsiya yoki boshqa foyda olish mumkin bo'lgan qimmatbaho qog'ozlar sotib olinadi. Zarar ko'rish ehtimolini kamaytirish uchun bir qancha hissadorlik jamiyatlarini aktsiyalari sotib olinadi.

Shunday qilib, kompaniya o'zining bu ishga ajratgan mablag'idan ikki tomonlama foyda olish imkoniga ega bo'ladi: bir tomonidan ishlab chiqarish yoki savdo tashkilotining foydasi ulushini va ikkinchi tomonidan, aktsiyalarga dividendlarni oladi.

Frenchayzing - tovar belgilariga yoki texnologiyalarga litsenziyalar berish yoki sotish bilan bog'liq faoliyat turi. Bozorda katta obro'-e'tiborga ega bo'lgan firma (frenchayzor) unchalik taniqli bo'lмаган firmaga (frenchayziat) o'zining texnologiyasini va tovar belgisini ishlatgan holda faoliyat ko'rsatish huquqini sotadi va buning uchun ma'lum miqdorda haq/foyda oladi. Demak, frenchayzingning asosiy tamoyili frenchayzor «nou - xau»sining frenchayziat kapitali bilan birgalikda bo'lishiga erishishdir. Frenchayz - biznes bilan shug'ullanishga ruxsat beruvchi litsenziya, ma'lum bir qiymatga ega bo'ladi. Frenchayzor - boshqa firmaga o'zining tovar belgisi asosida ish yuritish huquqini beruvchi firma bo'lib, u buning uchun ma'lum miqdorda kompensatsiya oladi. Frenchayziat - frenchayzordan uning tovar belgisi asosida faoliyat yurgizishga ruxsat olgan firma. U tovar bilan bog'liq sifat standartlariga rioya qilishni o'z zimmasiga olishi lozim bo'ladi.

Kichik biznes va tadbirkorlik korxonalari O'zbekiston Respublikasining "Korxonalar, birlashmalar va tashkilotlardan olinadigan soliqlar to'g'risida"gi qonun va Vazirlar Mahkamasining "Xalq iste'moli

mollari ishlab chiqarishni rag'batlantirish maqsadida soliq tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarorlariga muvofiq, davlat va mahalliy byudjetlarga soliq to'lashi ko'satib o'tilgan. Bu soliqlarni joriy etishdan ko'zlangan maqsad, davlat ijtimoiy kafolatlarining tadbirkorlik faoliyatini tartibga solishdan, tabiiy boyliklardan tejab - ter gab foydalanish va atrof - muhitni muhofaza etishni rag'batlantirishdan iborat.

Davlatning byudjeti xarajatlarini soliq to'lovleri orqali ta'minlanadi. Soliqlar 5 turga ko'ra guruhlanadi.

1. Soliq solish ob'ektiga ko'ra – daromad solig'i, mulk solig'i, xarajat solig'i.

2. Soliq yig'ib olish usuliga ko'ra: **bevosita soliqlar** – daromad solig'i, mulk solig'i; **bilvosita soliqlar** – aktsizlar, bojxona poshlinlari.

3. Soliq miqdorini aniqlash usuliga ko'ra: proportsional, progressiv, regressiv.

4. Byudjet darajasiga ko'ra: umummilliy, mintaqaviy, mahalliy.

5. Foydalanish tartibiga ko'ra: umumiyl va maqsadli.

**Soliqlarni 3 xil funktsiyasi:** Fiskal funktsi; Tartibga solish va rag'batlantirish funktsiyasi; Taqsimlash va qayta taqsimlash funktsiyasidir.

Soliqqa tortish ob'ekti, korxonaning **daromadi (foyda)** hisoblanadi.

Soliqqa tortish bazasi soliq to'lovchi deb hisoblangan korxonalarga soliqli tortish maqsadlarida moddiy va unga tenglashtirilgan o'zga xarajatlar, shuningdek, majburiy to'lovlar hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasida Davlat buyujeti xarajarlarini mahsulot ishlab chiqaruvchilar va xizmat ko'rsatuvchi subektlar tomonidan to'lanadigan soliqlar hisobidan qoplanadi. Soliq salmog'inig asosiy qismini kichik biznes va xususiy tadbirkorlar egallamoqda.

#### **7.4. Tadbirkorni qo'llab quvvatlash va berilgan imtiyozlardan samarali foydalanish orqali agrobiznesni tashkil etishni rivojlantirish.**

"Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" bo'yicha qabul qilingan davlat dasturida quyidagi ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaralgan edi.

“Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili” bo'yicha qabul qilinadigan davlat dasturida quyidagi ustuvor yo'nalishlarga alohida e'tibor qaratish zarur.

1. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining huquq va manfaatlarini himoya qilish. Mavjud normativ – huquqiy bazani tanqidiy nuqtai nazardan qayta ko'rib chiqish.

2. Kichik biznes va tadbirkorlik faoliyati uchun yanada qulay muhit yaratish. Kichik biznes sub'ektlarining energiya, gaz, suv va kanalizatsiya, issiqlik ta'minoti va shu kabi muxandislik – kommunikatsiya tarmoqlariga ularishi yoki ularni qurishda ishtirok etish uchun ruxsat olish tartib qoidalarini soddallashtirish bo'yicha aniq chora-tadbirlar belgilash.

3. Soliq va boshqa to'lovlar borasida qulaylik va yengilliklar yaratish. Xo'jalik sub'ektlari uchun yagona soliq to'lovi stavkasini 2011 yildan boshlab 7 foizdan 6 foizga tushirish.

Qishloq xo'jaligida faoliyat yuritayotgan fermer xo'jaliklari yagona yer solig'ini to'laydi. Yagona yer solig'ini yilning 1- iyuligacha 20 foiz, 1-sentyabrga 30 foiz, 1-dekabrga qolgan 50 foiz summani to'lanadi.

Tadbirkor korxonalardan hisoblab chiqilgan soliqqa tortish bazasiga muvofiq soliq stavkalari quyidagi tarzda belgilanadi :

1) mulkchilikning barcha shaklidagi korxonalarning daromad (foyda)lari soliq foiz stavkasi bo'yicha soliqqa tortiladi;

2) videosalonlar, kim oshdi savdolari, kazinolar, pul yutug'i chiqadigan avtomat o'yinlari, davlatga qarashli bo'limgan idoralar o'tkazadigan lotereya o'yinlaridan va ommaviy kontsert-tomosha tadbirlari o'tkazishdan olinadigan daromadlar 60 foiz stavka bo'yicha soliqqa tortiladi;

3) chet el kapitalining ulushi ustav fondining 30 foizidan kamni tashkil etgan qo'shma korxonalarning daromadlariga ustav fondida chet el kapitalining ulushi 30 foizdan ko'p bo'lgan korxonalarning, shuningdek, chet el korxonalarining, ularning filiallarining, vakolatxonalarining va sho''ba korxonalarining daromadlariga esa 10 foiz stavka bo'yicha soliq solinadi;

Ustav fondida chet el kapitali bo'lgan qo'shma korxonalar xorijiy qatnashchilarining daromadlari chet elga o'tkazilayotganda, basharti,

O'zbekiston Respublikasining halqaro shartnomalarida o'zga tartib belgilanmagan bo'lsa, ularga 15 foiz hajmda soliq solinishi belgilangan.

Daromadlar chet elga o'tkazilayotganda soliq to'lovingning summasi o'tkazilayotgan daromad valyutasida to'lanadi.

4) korxonaning aktsiyalar bo'yicha olingan dividendlaridan tushadigan daromadiga hamda o'zga korxonalarning ustav fondiga kiritilgan kapitaldan olingan boshqa daromadlariga 15 foiz stavka bo'yicha soliqqa tortish tartiblari belgilangan.

5) savdo korxonalarining daromadlilik darajasiga ko'ra yalpi daromaddan tabaqalashtirilgan stavkalar bo'yicha soliq Vazirlar Mahkamasining "Savdo korxonalari va tashkilotlarini soliqqa tortishdagi ayrim o'zgarishlar to'g'risida"gi Qarorida (1994 yil 16 mart, 138 - sonli) ko'rsatilgan 1 - jadvalga muvofiq joriy etish tadbirlari belgilangan va amalda qo'llanilmoqda.

6) qishloq xo'jaligi bilan mashg'ul dehqon-fermer xo'jaliklarining foydasidan olinadigan soliq to'lovlaring stavkalari ularning rentabellik darajasiga uzviy bog'liq ravishda belgilanadi. Xo'jalikning rentabellik darajasi 25 foizgacha bo'lsa 3 foizga, 25 foiz va undan ortiq bo'lsa 20 foiz soliq stavkalari olinadi.

Aktsiz tovarni aktsiz solig'i summasini va sotish narxini aniqlashga doir quyidagi misolni keltiramiz (raqamlar shartli):

(mahsulot birligiga)

1. Korxonaning ulgurji narxi 40-00
2. Sotish narxiga aktsiz solig'i stavkasi (foiz) 50
3. Sotish narxi (aktsizni hisobga olganda),  
so'mlarda:

$$\frac{1 \text{ катор} \cdot 100 \text{ 4000}}{100 - 2 \text{ катор} 50} = 80 - 00$$

4. Aktsiz solig'i summasi, so'mlarda  
(3 qator - 1 qator), yoki:

$$\frac{3 \text{ катор} \cdot 2 \text{ катор}}{100} 40 - 00$$

**Izoh:** korxonaning ulgurji narxi to'lovchi tomonidan mustaqil ravishda O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan 27 yanvar 1995 yilda tasdiqlangan 9 - sonli "Moliyaviy natijalarni shakllanish tartibi va mahsulot (ish, xizmat) tannarxiga kiritiladigan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar)ni ishlab chiqarish va realizatsiya qilish bo'yicha xarajatlar tarkibi to'g'risida"gi Nizomga muvofiq, qilingan barcha xarajatlarni o'zida aks ettirgan holda aniqlanadi.

Korxona sotish narxiga aktsiz summalarini ham kiradi va u quyidagicha aniqlanadi:

$$\text{Курсив сотиши (чикариш) нархи} = \frac{\text{улгуржи нарх} \cdot 100}{100 - \text{акциз ставкаси}};$$

Byudjetga o'tkaziladigan aktsizlar summasi quyidagi formula bo'yicha aniqlanadi:

$$\text{Курсив акциз суммаси} = \frac{\text{Сотиши нархи} \cdot \text{акциз ставкаси}}{100};$$

Aktsiz soliq to'lovlari bo'yicha quyidagi imtiyozlar belgilangan.

Aktsiz soliqlari bekor qilingan tovarlar guruhiba:

- mebel komplektlariga;
- billur mahsulotlar;
- chinnidan tayyorlangan servizlar va komplektlar;
- xolodilniklar, televizorlar, termoslar;
- 1, 5 litrli PTF butilkalardagi alkogolsiz ichimliklar;
- spirt nastoykalari va ekstarktlari kiradi.

Shuningdek, o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni chet ellarga etkazib berilganda, Qizil Yarimoy jamiyatining korxonalari va tashkilotlari ishlab chiqaradigan mahsulotlarga (bu mablag'lar Jamiyat ustav ehtiyojlariga ishlatilishi sharti) bilan aktsiz solig'i solinmaydi.

Quyidagi hollarda aktsiz solig'i solinmaydi:

- o'zi ishlab chiqargan aktsizli tovarlarni eksportga yetkazib berish; Mustaqil Hamdo'stlik Davlatlari qatnashchilari bo'lgan davlatlarga yetkazib berilayotgan (olib ketilayotgan) aktsizli tovarlar bunga kirmaydi;
- tayyor vino ishlab chiqarish uchun respublika ichkarisidagi iste'molchilarga vino materiallari yetkazib berish;

- Mustaqil Hamdo'stlik Davlatlari qatnashchilari bo'lgan davlatlar bilan birga, eksportga va sanoat qayta ishloviga o'simlik (paxta) yog'i yetkazib berish.

**Izoh:** 1. Respublika ichkarisida savdo va boshqa tashkilotlarining (yuqorida ko'rsatilgan hollardan tashqari) realizatsiya qilinadigan vino materiallariga aktsiz solig'i qo'llaniladi.

2. O'simlik (paxta) yog'iga va iste'mol idishida qadoqlangan, tozalangan paxta yog'iga aktsiz solig'i qadoqlash bo'yicha xarajatlarni hisobga olmasdan, ulgurji narxdan kelib chiqqan holda hisoblanadi.

Soliq summasini aniqlashda va uni to'lashda aktsizlarning summasi soliq to'lovchi sotgan tovarlar ro'yxati va hajmi hamda ana shu tovarlar yuzasidan belgilangan aktsiz stavkalariga qarab mustaqil holda belgilanadi.

### **Nazorat uchun savol va topshiriqlar**

1. Tadbirkorlikni davlat tamonidan qo'llab-quvvatlashning maqsadi qanday?

2. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlikni davlat tomonidan qo'llash-quvvatlash yo'naliшlarini aytинг?

3. Qishloq xo'jaligida tadbirkorlik faoliyatini davlat tamonidan rag'batlantirish usullarini sanang.

## **VIII BOB. AGROBIZNESDA KOOPERATSIYAVIY MUNOSABATLARNI RIVOJLANTIRISH**

**8.1. Agrobiznesda kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishning mohiyati, o'rni va ahamiyati.**

**8.2. Kooperatsiya tushunchasi, turlari va turkumlanishi.**

**8.3. Kooperatsiyani rivojlantirishning me'oriy-huquqiy asoslari.**

**8.4. Xorij mamlakatlarda kooperatsiya munosabatlari.**

### **8.1. Agrobiznesda kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishning mohiyati, o'rni va ahamiyati.**

Bosqichma-bosqich amalga oshirilgan agrar sohadagi bozor islohotlarining samaradorligi xususiy mulkchilikka asoslangan turli xo'jalik yuritish shakllarini rivojlantirishga imkon beruvchi ko'p ukladli iqtisodiyotning shakllanishi bilan belgilanadi. Shu munosabat bilan iqtisodiyotda tarkibiy o'zgarishlarni amalga oshirish va barqaror iqtisodiy o'sishni ta'minlashning muhim omili sifatida mintaqalarning tabiiy-iqlim va ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlaridan kelib chiqib turli xo'jalik yuritish shakllaridan samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Agrar sohada olib borilayotgan turli xil islohotlarga qaramay, sohada ba'zi bir muammolar uchraydiki, bu muammolar qishloq xo'jaligi korxonalarini rivojlanishiga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda. Qishloq xo'jaligi korxonalarining rivojlanishiga ta'sir etuvchi sabablar quyidagilarda namoyon bo'lmoqda:

- nosog'lom raqobat va monopolistik vaziyatlarning mavjudligi;
- qishloq xo'jalik mahsulotlari yetishtiruvchi korxonalar manfaatlari uyg'unlashtirilmaganligi va ularning moliyaviy ahvolini sekin yaxshilanayotganligi;
- moddiy-texnika ta'minoti korxonalari xizmatlari sifatining nisbatan pastligi va tannarxining yuqoriligi;

- qishloq xo'jaligi mahsulotlari ishlab chiqaruvchilar, tayyorlash va qayta ishlash jarayonida kooperatsion faoliyat ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro iqtisodiy munosabatlar mexanizmini to'liq shakllanmaganligi;

- agrosanoat majmuasida narx nomutanosibligining vujudga kelganligi va uning chuqurlashib borayotganligini qishloq xo'jaligi tovar ishlab chiqaruvchilarini iqtisodiy va moliyaviy ahvoliga jiddiy salbiy ta'siri;

- moddiy-texnika resurslari va xizmatlariga bo'lgan narxlarning erkinlashtirilishi, ularning qishloq xo'jaligi mahsulotlari narxlari o'sish dinamikasi bilan bog'lanmaganligi;

- qayta ishlash, tayyorlash va savdo korxonalarining monopol holati tufayli qishloq xo'jaligi mahsulotlariga belgilanadigan narxlarning cheklanganligi;

- qishloq xo'jalogining o'ziga xos xususiyatlaridan kelib chiqqan holda, agrar soha mahsulotlariga bo'lgan talab elastikligining pastligi tufayli turli tarmoqlar tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar narxlari o'zgarish sur'atlarining turli xilligi yoki narxlар dispariteti va boshqalar.

Qishloq xo'jaligini rivojlantirishning muhim yo'nalishlaridan biri bu -«qishloq xo'jaligi mahsulotlari yetishtirish»-«tayyorlash va tashish»-«qayta ishlash»-«sotish» bo'g'lnlari doirasida qishloq xo'jaligi mahsulotlarining sifati buzilishi va nobudgarchiligi oldini olish yo'llarini qidirib topish orqali qo'shilgan qiymat yaratish imkoniyatlarini kengaytirishdir. Bu agrosanoat majmuasi ishtirokchilari o'rtasidagi o'zaro kooperatsiyaning samarali tashkil etilishiga bog'liqdir.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kooperatsiya samarali tadbirkorlik faoliyati yo'li bilan o'z a'zolari va aholining mahsulot, ishlar va xizmatlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun ixtiyoriy ravishda birlashgan jismoniy yoki yuridik shaxslarning mulkiga asoslangan ijtimoiy xo'jalik yuritish shaklini o'zida namoyon etadi.

**Kooperatsiya munosabatlari** – ma'lum va aniq maqsad asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko'rsatkichlariga erishish uchun xo'jalik sub'ektlarini o'zaro erkin, ixtiyoriy va ko'ngilli ravishda birlashishlari hisoblanib, bu hamkorlik natijasida ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarga erishish bosh me'zon hisoblanadi.

Kooperatsiyaning ahamiyati kooperatorlar hayotining mazmuni bo‘lgan kooperativning funksional asosidan tashkil topadi. Qaysikim, bu qadriyat umumxo‘jalik faoliyati, boshliqlar va a’zolarining axloqi bo‘lib, ular jamiyatda mashhur bo‘lishini va kooperativ tashkilotlar, korxonalarining mustahkam o‘sishini ta’minlaydi.

Kooperativlar eng avvalo iste’molchilarining iqtisodiy kam ta’minlangan qatlamlari, mayda ishlab chiqaruvchilar va dehqonlar orasida qo’llab-quvvatlanadi. Boshdanoq kooperativ harakati qator tamoyillarni ilgari surib keldi, ular hozirgacha kooperativlar faoliyatining asosini belgilaydi.

Yuqorida ta’kidlanganlardan shunday xulosa qilish mumkinki, kooperatsiya bu - ma'lum sohada o‘z mablag‘lari va harakatlarini birlashtirgan kooperativ a’zolarining yirik xo‘jalik tashkilotining turli afzalliklaridan foydalanish imkoniyatiga ega bo‘lishidir.

Hozirgi paytda dunyoda 750000 kooperativlar faoliyat yuritmoqda, ular o‘zlarida 800 million kooperatorlarni birlashtirgan bo‘lib, ularda 120 mln. ishchilar ishlamoqda. Rivojlangan davlatlarda kooperativlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishda muhim iqtisodiy omil hisoblanib, 300 dan ortiq kompaniyalar o‘zaro yordamga asoslangan va kooperativlarni planetadagi jami oboroti 1100 mlyard. AQSh dollarga teng bo‘lib, jahon iqtisodiyotining 12 foiz qismini tashkil etadi<sup>15</sup>. 2016 yil 30 noyabrda “Kooperativlarga birlashish orqali hamkorlikdagi manfaatlarga erishish g‘oya va amaliyoti” Yuneskoning nomoddiy madaniyat ro‘yxatiga kiritildi.

Kooperativlar xususiy korxonalarga nisbatan globallashuvdan kamroq jabrlanadi. Ular pay kapitaliga tayananadi, a’zolari oldidagi aniq muammolarni hal qiladi, o‘ziga spekulyativ faoliyatini ergashtirmaydi, tijorat jarayonlarini, daromadni va ularning ishlatilishi shaffofligini saqlab qoladi.

Hozirda kunda agrar tarmoqda kooperatsiya umumiyligi mohiyati shundan iboratki, bunda eng avvalo kuchli bozor raqobatiga bardosh berib, o‘z oldiga iqtisodiy va ijtimoiy holatini yaxshilashni maqsad qilib

<sup>15</sup>Коринец Р. Сельскохозяйственная обслуживающая кооперація в Украине. ФАО региональное бюро по Европе и Центральной Азии. Исследования по политике перехода сельского хозяйства №. 2013-6

qo‘ygan bozor sub'ektlarining erkin tadbirkorlik va biznes bilan shug‘ullanishida ma'lum sohalarda faoliyatini birlashtirishi va kooperatsiya jarayoni ishtirokchilarini bozordagi turli monopolist tashkilotlar va tuzilmalar faoliyatidan himoya qilish ko‘zda tutiladi. Respublikamizda qishloq xo‘jaligi kooperatsiyalarining afzalliklari va uni tashkil etishdagi muammolar quyidagilar deb ko‘rsatib o‘tilgan. Professor O.Murtazaev tomonidan qishloq xo‘jaligida kooperatsiyaning zarurligi quyidagilar aks ettiriladi:

- Qishloq xo‘jaligi mayda tovar ishlab chiqaruvchilari yaxlit ijtimoiy ishlab chiqarishda ishtirok eta olmasligi;
- Davlat korxonasidan farq qilishi bilan ya’ni a) o‘z a’zolarini extiyojlarini qondirishga hissa qo‘shadi, jamiyatni emas; b) kooperativga birlashmagan boshqa odamlarga nisabatan kooperativ a’zolarining qulay ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlardan qoniqishlariga yordam beradi.

Iqtisodiyotni modernizatsiya qilish sharoitida fermer xo‘jaliklarining salohiyatini oshirish, xarajatlar darajasini kamaytirish va nihoyat ular faoliyati samaradorligini oshirish uchun yangi iqtisodiy-ijtimoiy reallikdan kelib chiqqan holda kooperatsiyaviy munosabatlarni shakllantirish hamda rivojlantirish talab etiladi. Iqtisodiyotdagи global o‘zgarishlar qishloq xo‘jaligida kooperatsiyaning turli shakllarini samarali tashkil etish muhim masala hisoblanadi.

Mahalliy kooperatsiyalar faoliyatini samarali tashkil etish va bozor iqtisodiyoti sharoitida samarali kooperatsiya munosabatlarini o‘rnatishda zamonaviy yondashuvlarga asoslanishi kerak:

- kooperativ tashkilotlar faoliyati nafaqat mulkdorlar va xaridorlarning maqsadlariga yo‘naltirilgan balki, bu tarmoq va hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy masalalarini va bilvosita hududlarni iqtisodiyotini rivojlanishiga katta hissa qo‘shadi.

- zamonaviy kooperativlar integratsiyalashgan-diversifikasiyalashgan tizimni ifodalaydi.

- iqtisodiyotni modernizasiyalanishi va bilimlar iqtisodiyotiga o‘tish sharoitida kooperatsiyalar faoliyati fan-texnika yutuqlarini tadbiq qilish orqali o‘zlarini samaradorlik ko‘rsatkichlarini oshiradilar. Hamda yangicha xizmat turlari va ishlab chiqarishni amalga oshirishlari zarur.

Kooperatsiyaning rivojlanishi mulkchilikning boshqa shakllariga asoslangan tovar ishlab chiqaruvchilariga xizmat ko'rsatish bilan shug'ullanuvchi tuzilmalarning rivojlanishini istisno etmasligi kerak. Xo'jalik yuritishning kooperativ shakllari samaradorligiga faqat ushbu tuzulmalar bilan raqobat asosida erishish mumkin. Shu bilan birga, kooperatsiya uni davlat hokimiyati va boshqaruvi organlarining qo'llab-quvvatlashlarisiz, shu jumladan uning shakllanishi, vujudga kelishi va rivojlanishi uchun tegishli me'yoriy-huquqiy bazani yaratish yo'li bilan ko'rsatadigan yordamisiz rivojlana olmaydi.

Kooperatsiya munosabatlarining samarali yo'nalishlari yo'lga qo'yilganda:

- fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining ekin maydonlaridan samarali foydalanishdagi shaxsiy manfaatdorligi va mas'uliyati yanada oshadi;

- ko'p tarmoqli fermer xo'jaliklarini rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi;

- fermer, dehqon xo'jaliklari va tomorqa yer egalarining moliyaviy-iqtisodiy barqarorligini ta'minlanadi, ularning tayyorlov, qayta ishlash, ta'minot va xizmat ko'rsatuvchi tashkilotlar bilan o'zaro munosabatlarida zamonaviy bozor mexanizmlarini joriy etiladi.

Bozor muhitining globallashuvi, raqobat bosimining kuchayishi, iste'molchilar talabining ustunligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologiyasini o'zgarishi va boshqa sabablar mahsulot ishlab chiqaruvchilarni bozorda mustahkam o'ringa ega bo'lish uchun harakatlanishning yangi modellarini va zamonaviy strategiyalarini izlab topishga majbur qiladi.

## **8.2. Kooperatsiya tushunchasi, turlari va turkumlanishi.**

Kooperatsiya, tarixan yuzaga kelgan va doimiy ravishda takomillashib boruvchi ijtimoiy-xo'jalik faoliyat shakli sifatida, jamiyat rivojlanishining turli bosqichlarida ushbu jamiyatning ma'lum qatlamlari yoki guruhlarining ehtiyojlarini qondirish usuli bo'lib kelgan.

Kooperativ harakat bo'yicha ko'zga ko'ringan olim, professor A.F.Leydlouning fikricha, "kooperatsiya ijtimoiy-iqtisodiy tizim sifatida

hech qanday muayyan konsepsiya va ijtimoiy nazariyalarga asoslanmagan, u jamoatchilik kabi ko‘plab g‘oyalar va qarashlar birlashmasiga asoslanadi. Katta kuchga ega bo‘lish uchun zaiflikni birlashtirish,adolat bilan foydani qanday taqsimlagan bo‘lsa, zararni ham shunday taqsimlash, umumiy manfaatga ega bo‘lgan shaxslarning ittifoqi va o‘zaro yordamiga asoslanadi”

Mashhur kooperator N.P.Gibner kooperatsiyaga quyidagicha tarif beradi: Kooperatsiya – bu odamlarning yangi, mustaqil va ixtiyoriy guruhlari tizimi bo‘lib, ular ishlab chiqarish va boyliklarni almashtirish sohalarida hamkorlik ishini tashkil etish uchun to‘lovnishga kiritilgan kapitaldan daromad topish emas, har bir ishtirokchi shaxsiy ishini to‘lash sharti bilan kapitalga faqatgina pul bozori tomonidan shartlanuvchiadolatli foizni berish bilan tashkil etiladi<sup>16</sup>.

Sh.Jidning fikricha, kooperativlarni rivojlantirish orqali ma'lum yetishmovchiliklardan jabrlanuvchi zamonaviy ishlab chiqarishni bиринчи navbatda, insonlarni shaxsiy extiyojlarini qondiradigan iste'mol jamiyatlarini, asosan savdo bilan shug‘ullanadiganlarini yaxshilash mumkin. U koopertivni odamlarni birlashmasi ekanligini aytib, iqtisodiy, ijtimoiy va ta'limga yetishish maqsadida xo‘jalik faoliyatini amalga oshirish yo‘lidir deydi. Jidning fikricha kooperativ nafaqat bir muncha hayot tarzini yaxshilabgina qolmay balki, keng jamoatchilikni yangilab turish uchun xizmat qilishi kerak<sup>17</sup>.

L.Lussati esa kooperatsiyani - mayda umumiy jamg‘armalar va kapitallarni jalb etish orqali katta natijalarga erisha oladigan iqtisodiy metoddir deb ataydi<sup>18</sup>.

M.N.Sobolev kooperatsiyaning eng muhim ahamiyatini u tomonidan yangi iqtisodiy kuchlar va faoliyat ko‘rsatuvchilarni ishlab chiqarishda ko‘rish mumkinligini aytadi. Kooperativ muassasalar shaxsiy xo‘jalik manfaati ta'siri ostida emas, jamoa faravonligi maqsadlarida ish yurituvchi faoliyat yurituvchilarning yangi turini yaratadi. Kooperatsiya yo‘li bilan iqtisodiy motivasiya qayta tuziladi va

<sup>16</sup> Вахитов К.И . Кооперация: теория, история, практика. -Москва, 2006 . 69-6

<sup>16</sup> Шу китоб. 46-бет

<sup>17</sup> Жид Ш. О кооперации: Пер. С фр.-М., 1918. –С.62-63.

<sup>18</sup> Вахитов К.И . Кооперация: теория, история, практика. -Москва, 2006 . 69-6

jamoatchilik asosida takomillashgan iqtisodiy tuzum elementlari vujudga keladi. Albatta, kooperatsiya har qanday muammoni hal qiladigan vosita emas: bu insoniyatning yaxshi hayot yaratish vositalaridan biridir<sup>19</sup>.

I.N.Buzdalovning fikricha, hozirgi dunyoda kooperativ harakat tajribasi barcha jihatlardan diqqat bilan o‘rganilish va amaliy foydalanishga loyiq, chunki kooperatsiya inson faoliyatining internasional hodisasi. Chet elda kooperativ faoliyatni o‘rganishning amaliy ahamiyati yana shundaki, u xalqaro nuqtai nazaridan o‘zaro foydali va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yaxshiroq amalga oshirishga imkon berishdan iborat<sup>20</sup>.

Asosan, kooperativ bu foyda yoki foydalanishga asoslanib teng taqsimlanadigan foydalanuvchiga tegishli va foydalanuvchi tomonidan boshqariladigan biznesdir<sup>21</sup>.

O‘zbek olimlaridan Sh.J.Ergashxodjaeva kooperatsiyaga quyidagicha ta’rif beradi. “Kooperatsiya-birgalikdagi mehnat yoki fermerlar va boshqa qishloq xo‘jaligi tovar ishlab chiqaruvchilari hamda xizmat ko‘rsatuvchilarning o‘zaro hamkorligi asosida rentabelli qishloq xo‘jaligi mahsulotlari ishlab chiqarishda xo‘jalik yuritishning zamonaviy talablariga moslashish shakli hisoblanadi”<sup>22</sup>.

B.N.Navro‘zzoda va T.H.Farmonov taxriri ostida chop etilgan “Fermer xo‘jaliklarida iqtisodiy munosabatlarni rivojlantirish” nomli monografiyada kooperatsiya munosabatlariga quyidagicha fikr bildirilgan ya’ni “kooperatsiya munosabatlari – ma'lum va aniq maqsad asosida ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish ko‘rsatkichlariga erishish uchun xo‘jalik sub'ektlarini o‘zaro erkin, ixtiyoriy va ko‘ngilli ravishda birlashishlari hisoblanib, bu hamkorlik natijasida ijtimoiy-iqtisodiy manfaatlarga erishish bosh me'zon hisoblanadi. Ilmiy-amaliy jihatdan mazkur maqsadga erishish uchun birlashish kooperativning har bir a'zosi va kooperativ uchun bir xil daromad keltiradi, shaxsiy va kooperativ

<sup>19</sup> Шу китоб. 46-бет

<sup>20</sup>Буздалов, И.Н. Возрождение кооперации . И.Н. Буздалов- М.: Экономика, 1990. 175с.

<sup>21</sup> Barton DG (1989). What is a cooperative? In Cooperatives in agriculture, ed. D. Cobia, 1-20. New Jersey, USA: Prentice-Hall, Inc

<sup>22</sup> Эргашходжаева Ш.Ж.Кишилоқ жойларида кооперацияни ривожлентиришнинг маркетинг стратегияси. Монография.Т.: “Фан” нашриёти. 2006.6-7 бетлар

jamoasi manfaatlariga mos keladi hamda ularni qoniqtiradi degan ma'noni anglatadi”<sup>23</sup>.

O.Jumaevning “Kooperatsiya istiqboli” ilmiy maqolasida “kooperatsiya –bu ishlab chiqarish jarayonida uzviy bog‘liq bo‘lgan turli xildagi xo‘jalik yurituvchi sub'ektlarning o‘zaro hamkorlikdagi faoliyati” ekanligi ta'kidlab o‘tiladi<sup>24</sup>.

Professor Q.A.Chorievning fikricha, **kooperatsiya** – yagona maqsadli ko’pchilik (jismoniy va yuridik shaxslar)ning muayyan tarmoq, hudud yoki soha doirasida o’zlarining mavjud vositalarini ulush (pay) tarzida u yoki bu shakldagi kooperativga to’plab, birgalikda va o‘zaro hamkorlikda tegishli yo’nalish bo'yicha o’zini-o’zi boshqarish hamda moliyalashtirish mexanizm va tamoyillariga asoslangan faoliyatlar majmuasini ifoda etadi.

Qo‘shma Shtatlar (AQSh) Milliy kooperativ biznes uyushmasi boshqa (investorlarga yo‘naltirilgan) korxonalarga nisbatan kooperativlarning o‘ziga xos xususiyatlarini ta'kidlaydi:

- Kooperativlar o‘zlarining a'zolari tomonidan (ya'ni kooperativning xizmatlaridan foydalanuvchi yoki uning mahsulotlarini sotib oladigan) tashqi investorlarning emas, balki o‘z a'zolari tomonidan demokratik tarzda boshqariladi. A'zolar o‘zlarining direktorlar kengashini o‘z saflaridan saylaydilar. Asosiy siyosiy qarorlar har bir a'zoning kooperativga kiritgan sarmoyasidan qat'i nazar, bitta a'zoga, bitta ovozga asoslangan tamoyilga asoslanadi.

- Kooperativlar ortiqcha daromadni (xarajatlar va investisiyalardan keladigan daromad) ulardan foydalanish yoki homiylik qilishlariga mutanosib ravishda a'zolariga qaytaradilar, lekin ularning investisiyalari yoki egaligi ulushiga mutanosib emas.

- Kooperativlar foyda bilan emas, balki a'zolarning arzon va sifatlari tovarlarga bo‘lgan ehtiyojlarini qondirish uchun xizmat ko‘rsatadi.

- Kooperativlar o‘z a'zolariga xizmat ko‘rsatish uchun mavjud.

<sup>23</sup> Наврўз-зода Б.Н., Фармонов Т.Х. Фермер хўжаликларида иқтисодий муносабатларни ривожлантириш. Монография. Бухоро, “Дурдана” нашриёти. 2017. 105-бет

<sup>24</sup> Жумаев О. Кооперация истиқболи.//Ж.Ўзбекистон қишлоқ хўжалиги.Т.: 2006. №11. 11-12 бетлар

- Kooperativlar investisiya va zaxiralar uchun saqlanib qolgan daromaddan soliq to‘laydilar<sup>25</sup>.

**Kooperativ-** (lot. hamkorlik) – mahsulotni hamkorlikda ishlab chiqarish va sotish, tovar yoki xizmatlarni sotib olish va iste’mol qilish, uylarini qurish va ekspluatastiya qilish va boshqa maqsaddagi shaxslar birlashmasidir.

**Kooperativ** – ixtiyoriy tashabbuskor va o’z-o’zini boshqaruvchi jamoat tashkiloti bo’lib, o’z oldiga a’zolarining hayot va mehnat sharoitlarini yaxshilashga ko’maklashish maqsadini qo’yadi va jamoa (guruh) mulkiga asoslangan korxona shaklida ijtimoiy-ommaviy faoliyat ko’rsatish bilan birga yuridik shaxs sifatida harakat qiladi

Kooperatsiyaga birlashish orqali agrosanoat majmuasida zamonaviy texnika va tejamkor texnologiyalar bilan ta’minlashni jadallashtirish, ishlab chiqarish xarajatlarini tejash va tejamkor innovastion texnologiyalarni qo’llash imkoniyati, mahalliy oziq-ovqat va boshqa iste’mol tovarlari ishlab chiqarishni kengaytirish imkoniyati tug’iladi.

Qishloq xo’jaligida kooperatsiya 4 xil yo’nalishda mavjudligini aytish mumkin<sup>26</sup>:

1. Kooperatsiya ishlab chiqaruvchi firma (korxona) shaklida mavjud bo’lib, bunda korxona (kooperativ) a’zolarini aniq maqsad yo’lida birlashtirgan bo’lib, u a’zolarining birgalikdagi mehnatiga asoslanadi. Natijada ularning manfaatlari va foyda olishlarini ko’zlaydi.

2. Qishloq xo’jaligida kooperatsiya munosabatlari vertikal integrasiyaga asoslanadi. Bunda qishloq xo’jaligi korxonalari, ularni saqlovchi va qayta ishlovchi korxonalarning o’zaro kelishuvi asosida tashkil etiladi va faoliyat yuritadi. Bunda korxonalarning mustaqilligi saqlanib qoladi.

3. Hamkorlikda ishlaydigan korxona (xo’jalik) va firmalarning ittifoqi (koalistiyasi) shaklida faoliyat yuritadi.

---

<sup>25</sup> GF Ortmann & RP King. Agricultural Cooperatives I: History, Theory and Problems//Agrekon, Vol 46, No 1 (March 2007)// <http://citeseerx.ist.psu.edu/viewdoc/download?doi>

<sup>26</sup> Туробова Х., Мадаминова З. Бухоро вилоятида фермер хўжаликларини ривожлантириш йўллари//Эл.Ж.Иктисодиёт ва инновацион технологиялар. Т.: 2018.№2 [www.iqtisodiyot.uz](http://www.iqtisodiyot.uz)

4. Qishloq xo'jaligi korxonalari va unga aloqador tashkilotlar bilan shartnomaviy munosabatlar asosida faoliyat yuritishi tushuniladi.

Jahon iqtisodiyotining globallashuv jarayoni kooperativ tashkilotlarning davlat, manfaatli tashkilotlar hamda xususiy sektorning hamkorligini kengaytirish; xo'jaliklar faoliyatini diversifikatsiyalash va boshqaruvni takomillashtirish zarurligini keltirib chiqaradi.

Institustional birlashmalarning tashkiliy tuzilishi jihatidan hamkorlikka asoslangan bir qancha ko'rinishlari mavjuddir<sup>27</sup>. Kooperatsiya (kooperativ)lar ulardan tubdan farq qiladi. Buni quyidagi jadvaldan bilim olishimiz mumkin. (8.1-jadval)

### **8.1-jadval**

#### **Institustional birlashmalarning ko'rinishlari va mazmuni**

<b>Birlashma turi</b>	<b>Mohiyati</b>
<b>Kooperatsiya</b>	ixtiyoriy tashabbuskor va o'z-o'zini boshqaruvchi jamoat tashkiloti bo'lib, o'z oldiga a'zolarining hayot va mehnat sharoitlarini yaxshilashga ko'maklashish maqsadini qo'yadi va tadbirkorlik faoliyatini amalga oshirish uchun hissadorlik asosida shaxslarning ixtiyoriy birlashuvi orqali tashkil etiladi va o'z-o'zini moliyalashtirish asosida faoliyat ko'rsatadi.
<b>Korporatsiya</b>	yirik akstioner jamiyatlari birlashmasi hisoblanib, bir xil mahsulotlarning asosiy ishlab chiqaruvchilarini birlashtiradi. Natijada ishlab chiqarish monpollashadi.
<b>Xolding kompaniya</b>	mulk egalari tomonidan bir qancha mustaqil akstiyadorlik jamiyatlari faoliyatini nazorat qilish maqsadida tashkil etilgan hissadorlik jamiyatlari. Xolding kompaniyalarning mohiyati shundaki, ular biror bir ishlab chiqarish vazifalarini bajarmaydi.
<b>Kartel</b>	monopolistik birlashma shakli. Bir tarmoqdagi mustaqil korxonalar narxlar, bozor, ishlab chiqarishning umumiy hajmida har bir ishtirokchining umumiy hajmida har bir ishtirokchining hissasi, ish kuchi yollash, patentlar va boshqa masalalarda o'zaro bitim tuziladi. Bu tuzilmaning maqsadi monopol foyda olishdir.
<b>Sindikat</b>	monopolistik birlashmaning bir turi. Ular bir tarmoq korxonalari huquqiy va ishlab chiqarish mustaqilligini saqlab qolgan holda: buyurtmalarni taqsimlash; xom ashyo sotib olish; ishlab chiqarilgan mahsulotni sotish uchun o'zlarining tijorat faoliyatlarini birlashtirib, yagona idora tuzadilar.

<sup>27</sup> Туробова Х.Р. Аграр соҳада кооперация муносабатларининг ўзига хос хусусиятлари//Ж.Агроилм.Т.: 2017.№2. 110-111 бетлар

Agrar tarmoqda kooperatsiya umumiyligi shundan iboratki, bunda eng avvalo kuchli bozor raqobatiga bardosh berib, o'z oldiga iqtisodiy va ijtimoiy holatini yaxshilashni maqsad qilib qo'ygan bozor sub'ektlarining erkin tadbirkorlik va biznes bilan shug'ullanishida ma'lum sohalarda faoliyatini birlashtirishi va kooperastiya jarayoni ishtirokchilarini bozordagi turli monopolist tashkilotlar va tuzilmalar faoliyatidan himoya qilish ko'zda tutiladi.

Bozor iqtisodiyoti sharoitida kooperatsiya samarali tadbirkorlik faoliyati yo'li bilan o'z a'zolari va aholining mahsulot, ishlari va xizmatlarga bo'lgan ijtimoiy ehtiyojlarini qondirish uchun ixтиiyoriy ravishda birlashgan jismoniy yoki yuridik shaxslarning mulkiga asoslangan ijtimoiy xo'jalik yuritish shaklini o'zida namoyon etadi.

Amerikalik olimlar R.Fabio va Maykl L. Kuk<sup>28</sup> kooperativlarni mulkchilik huquqida kelib chiqib bir nechta modelini keltirib o'tadi:


1. An'anaviy kooperativlar. A'zolar chegaralangan, kiritgan mulkini qaytarib olishi mumkin bo'lgan, foyda a'zolarga taqsimlanishi ko'zda tutilgan, proporsional a'zo investorlar bo'lмаган kooperativlardir.

2. Proporsional investistiya kooperativlari: kapital rejalashtirish asosida tashkil etiladi. Bu keng qamrovli teng boshqaruv texnikasi bo'lib, o'z ichiga egalik qilishni (sotib olishni) va keyinchalik qaytarib olish evaziga pul kiritishni oladi.

3. Investor-a'zo kooperativlar: bunda a'zolar soni cheklangan, o'tkazilmaydigan va mulkini qaytarib olish mumkin, lekin homiy larga nisbatan ko'proq kooperativ a'zolariga ulushiga qarab sof daromadni taqsimlaydi.

---

<sup>28</sup> Fabio R., M.L.Cook. Understanding new cooperative models: an ownership-control rights typology//Review of Agricultural Economics. №3. Pg 348-360. Электрон ресурс.



### 8.1-rasm. Kooperatsiyaning tasniflanishi<sup>29</sup>.

4. Yangi avlod kooperativlarida mulkchilik huquqi yetkazib berish huquqi shaklida ya'ni a'zo-mijoz guruhi o'rtasida sotib bo'ladigan darajada bo'ladi. Mulkchilik huquqida a'zo-patronlar chegaralangan bo'ladi, a'zolik yopiq ko'rinishda, a'zolarga "yetkazib berish huquqi"ga proporsional tarzda investisiyalariga kiritishi talab etiladi. Va ta'minot bozor kelishuvlari asosida nazorat qiladi. Asosiy afzalligi shundaki, bu model risk kapitalini kooperativga berish orqali a'zolarni rag'batlantirishni takomillashtiradi.

<sup>29</sup> Муаллиф тадқиқотлари асосида тузилган.

5. Sarmoyalarni jalg qiluvchi tashkilotlar bilan hamkorlikdagi kooperativlar. Bu modeldagi kooperativ a'zo-patronlarga mulkdor bo'lishni cheklaydi.

6. Investor ulushli kooperativlar. Bu model tashqaridan a'zo bo'limgan shaxslarning mablag'lari asosida tashkil etiladi.

7. Investorlarga yo'naltirilgan firmalar.

Olimlarimiz, mutaxassislar va xorij tajribalarini o'rganish va monografik kuzatishlarimiz natijasida kooperativlarni 6.2-rasmdagidek turkumlashtirish mumkin.

Bozor muhitining globallashuvi, raqobat bosimining kuchayishi, iste'molchilar talabaning ustunligi, qishloq xo'jaligi mahsulotlarini ishlab chiqarish va qayta ishlash texnologiyasini o'zgarishi va boshqa sabablar mahsulot ishlab chiqaruvchilarni bozorda mustahkam o'ringa ega bo'lish uchun harakatlanishning yangi modellarini va zamonaviy strategiyalarini izlab topishga majbur qiladi.

Yuqorida rasmda keltirilgan kuchsiz tomonlarni va to'siqlarni bartaraf etsak, imkoniyatlardan unumli foydalansak, fermer xo'jaliklari va unga aloqador korxonalar o'rtasidagi kooperatsiya munosabatlari yuqori samaradorlik ko'rsatkichlari namoyon bo'ladi.

### **Kooperativlar quyidagi tamoyillar asosida ishlaydi:**

- Ixtiyoriy va ochiq a'zolik.
- Kooperativ a'zolari tomonidan amalga oshiriluvchi demokratik nazorat.
- Kooperativ a'zolarining iqtisodiy ishtirok.
- Kooperativlar – avtonom o'zaro yordam tashkilotlar bo'lib, o'z a'zolari tomonidan nazorat qilinadi.
- Kooperativlar o'z a'zolarining ular o'z kooperativlari rivojiga samarali hissa qo'sha olishlari uchun ta'lim olishi va malaka oshirishini ta'minlaydi.
- Kooperativlar o'z a'zolariga samarali xizmat ko'rsatadi va kooperativ harakatini mahalliy, milliy, hududiy va xalqaro darajada hamkorlikni rivojlantirish orqali mustahkamlaydi.

- O'z a'zolari zaruriyati va ehtiyojlariga asosiy e'tiborni qaratib kooperativlar o'z jamiyatlarining doimiy rivojlanishi to'g'risida ham qayg'uradilar.

Xorij tajribasini o'rganish asosida kooperatsiyaviy munosabatlari to'g'risida xulosa qilish mumkinki, bu davlatlarda kooperatsiyaning turli xil samarali yo'nalishlaridan foydalanish asosida iqtisodiyotning barcha sohalarida ayniqsa, qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining samaradorligini oshirishda muhim mexanizmlardan biri sifatida foydalanib kelinmoqda.

Bozor iqtisodiyotiga o'tish sharoitida mamlakatimiz agrosanoat sektorida kooperatsiya munosabatlari shakllanishiga qaratilgan davlat faoliyati alohida rol' o'ynaydi. Bu hukumat agrar siyosatining tarkibiy qismi sifatida qishloq xo'jalik kooperatsiyasini rivojlantirishning davlat dasturini qonunchilik negizi, kooperativ tuzilmalarni moliyaviy qo'llanilishi va rag'batlantirish choralarini, kooperativ ta'lim va targ'ibot, institutsional xususiyatli tadbirlarni rivojlanishi ehtiyojlariga adekvat tashkil etilishini ko'zda tutgan holda ishlab chiqilishi zaruratini keltirib chiqaradi.

### **8.3. Kooperatsiyani rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy asoslari.**

Iqtisodiyotda olib borilayotgan chuqur islohotlar qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirish va uning me'yoriy-huquqiy bazasini shakllantirish zarurligini taqozo etadi. Bilimlar iqtisodiyotiga o'tish sharoitida va iqtisodiyotni modernizasiyalash sharoitida xalqaro kooperativ alyansi tamoyillariga javob beruvchi xo'jalik yuritish shaklini har tomonlama rivojlantirish uchun zarur bo'lgan me'yoriy-huquqiy bazani shakllantirish zarurdir.

Qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishning me'yoriy-huquqiy bazasini rivojlantirish va takomillashtirish uchun quyidagilar shakllangan bo'lishi kerak:

1. Qishloq joylarda va qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilar o'rtasida tadbirkorlik muhitining shakllangan bo'lishi;

2.Qishloq aholisi va qishloq xo‘jaligi ishlab chiqaruvchilari tomonidan kooperatsiya munosabatlarini rivojlantirishning afzalligi va samaradorligini tushunib yetishi;

3.Qishloq xo‘jaligida kooperatsiyalashgan korxonalar tizimi va xo‘jalik yuritish ushbu tizimining davlat va jamiyat tomonidan qo‘llab-quvvatlash mexanizmlarini shakllantirish.

Qishloq xo‘jaligida kooperatsiyani rivojlantirish uchun huquqiy asosni yaratuvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlar tizimini quyidagi asosiy guruhlargabo‘lishimiz mumkin .

1.Umumiy me'yoriy-huquqiy hujjatlar

2.Maxsus me'yoriy-huquqiy hujjatlar

Umumiy me'yoriy-huquqiy hujjatlarda kooperatsiyani shakllantirish va rivojlantirishga asos bo‘luvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarni kiritish mumkin.

Bunga birinchi bo‘lib 1990 yil 31 oktyabda qabul kilingan va keyinchalik (1993 yil 7 mayda, 1994 yil 23 sentyabrda, 1995 yil 6 mayda, 1996 yil 27 dekabrda va 2002 yil 13 dekabrda) qo‘srimchalar hamda o‘zgartirishlar kiritilgan “O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik to‘g‘risida”gi Qonunni alohida ta’kidlash mumkin, unda O‘zbekiston Respublikasida mulkchilik shakllari belgilab berilgan. Mazkur qonunning 11-moddasida, kooperativ mulk shakli tushunchasiga aniq ta‘rif berilgan. Unda “Xo‘jalikni birqalikda yuritish yoki boshqa faoliyat bilan shug‘ullanishi uchun a’zolik asosida ixtiyoriy birlashgan fuqarolarning birqalikdagi mulki - kooperativ mulkdir” deyilgan. Shu bilan birga bunda mulkni hosil qilish mexanizmi ham belgilangan, xususan, “kooperativ mulk uning a’zolari bergen pul yoxud boshqa mol-mulk shaklidagi badallar, ular ishlab chiqarilgan mahsulot va uni sotishdan hamda kooperativ ustavidan nazarda tutilgan boshqa faoliyatdan keladigan daromad hisobiga tashkil topadi va ko‘payib boradi” deb yozib qo‘yilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 69 moddasida fuqarorlar shaxsiy ishtiroki bilan ishlab chiqarish kooperativlariga a’zo bo‘lishlari mumkinligi aytib o‘tilgan. Ushby kodeksning 73 moddasida esa notijorat tuzilmalari sifatida matlubot kooperativlarining huquqiy

maqomi belgilab quyilgan. Ishtirokchilarning moddiy (mulkiy) ehtiyojlarini qondirish maqsadida fuqarolarning a'zolikka asoslangan ixtiyoriy birlashmasi matlubot kooperativi hisoblanib, bu birlashuv uning a'zolari tomonidan o'z mulkiy (pay) badallarini qo'shish yo'li bilan amalga oshiriladi. Bunda matlubot kooperativlari uchun tijorat faoliyat bilan shug'ullanishi imkoniyati ko'zda tutilgan bo'lsa, ishlab chiqarish kooperativlari uchun notijorat faoliyatini bilan shug'ullanishi ko'zda tutilmagan.

Kooperatsiyaning shakllanishi va rivojlanishining umumiy qonunchilik hujjatlari ichida O'zbekiston Respublikasining "Dehqon xo'jaligi to'g'risida", "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunlari hamda kichik biznes va xususiy tadbirdorlikni rivojlantirish bo'yicha hujjatlar to'plami muhim o'rinni tutadi. "Dehqon xo'jaligi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Qonuning 22-moddasida va "Fermer xo'jaligi to'g'risida"gi Qonunning 26-moddasida ularning "ixtiyoriylik asosida, shu jumladan ulushi (pay) asosda mahsulot yetishtirish, harid qilish, uni qayta ishlash va sotish, moddiy-texnika ta'minoti, qurilish, texnikaviy, suv xo'jaligi, veterinariya, agrokimyo, maslahat berish yo'naliqidagi va boshqa xil xizmat ko'rsatish bo'yicha kooperativlarga (shirkatlarga), jamiyatlarga, ittfoqlarga, uyushmalarga va boshqa birlashmalarga birlashish, kirish huquqiga ega"ligi qonun bilan belgilab quyilgan. Shunday qilib, O'zbekiston Respublikasida ushbu va boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlar qishloq xo'jaligida kooperatsiyaning barcha turlarini keng rivojlantirish uchun asosiy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarni yaratadi.

Kooperatsiyalashgan korxonalarining ishlab chiqarish faoliyatini tartibga solishda O'zbekiston Respublikasining 1998 yil 29 avgustdag'i "Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar faoliyatining shartnoma-huquqiy bazasi to'g'risida"gi Qonuni, O'zbekiston Respublikasining Fuqarolik kodeksi (45,48, 353-385-moddalar), O'zbekiston Respublikasining Ma'muriy javobgarlik to'g'risidagi kodeksi (175,176-1, 176-2,212 va 214-moddalar), O'zbekiston Respublikasining Jinoyat kodeksi (175, 181, 186, 205, 207 va 209 moddalar) muhim o'rinni tutadi.

Kooperatsiya munosabatlarini xorijiy sarmoya ishtirokidagi qo'shma korxonalar shaklida tashkil etish va faoliyat ko'rsatishning

me'yoriy-huquqiy va qonunchilik bazasi hamda tashqi iqtisodiy faoliyat tartibi va mexanizmlarini alohida ajratish lozim. Bu kooperatsiyalashgan xo'jaliklarga investisiyalarni jalb qilish imkoniyatlarini ochib beradi.

Qishloq xo'jaligida ishlab chiqarish kooperativlari tijorat tashkilot sifatida Soliq Kodeksiga binoan soliq to'lovchi hisoblanadi. Iste'mol yoki boshqa xizmat ko'rsatuvchi kooperativlar notijorat tashkilot sifatida O'zbekiston Respublikasi Soliq Kodeksiga (2008 yil 1 yanvar) asosan daromad, mol-mulk, yer solig'i va yana ba'zi bir soliqlardan ozod etilgan.

Qishloq xo'jaligida koopersiya munosabatlarini shakllantirish va rivojlantirishning maxsus me'yoriy-huquqiy hujjatlariga O'zbekiston Respublikasining 1991 14 iyunda qabul qilingan hamda 1993 yil 28 dekabr va 1998 yil 29 avgustda qo'shimchalar va o'zgartirishlar kiritilgan "Kooperatsiya to'g'risida"gi shuningdek 1998 yil 30 apreldagi "Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat) to'g'risida"gi qonunlarini alohida ajratish lozim.

O'zbekiston Respublikasining "Kooperatsiya to'g'risida"gi Qonuni jismoniy va yuridik shaxslarga kooperatsiyalashgan xo'jalikka ixtiyoriy ravishda kirish va undan erkin chiqishi, ushbu xo'jalikni boshqarishda ishtirok etishni, uning mulkchilikning boshqa shakllari bilan teng huquqlilagini, jamoa xo'jaligining mustaqilligini va uning ustav vazifalarini bajarish bo'yicha qarorlar qabul qilishda mustaqillikni kafolatlaydi.

"Qishloq xo'jaligi kooperativi (shirkat) to'g'risida"gi qonuni ishlab chiqarish kooperativlarini rag'batlantiradi. Ushbu qonunda qishloq xo'jaligi ishlab chiqaruvchilar shaxsiy mehnati bilan ishtirok etishi ta'kidlanadi. Qonunda ko'proq oila pudratini rivojlantirishga e'tibor qaratiladi.

Oxirgi yillarda respublikada qishloq xo'jaligida kooperatsiya munosabatlarining huquqiy bazasini takomillashtirish maqsadida qarorlar va farmonlar qabul qilinmoqda. 2019 yil 14 mart kunida "Meva-sabzavotchilik sohasida qishloq xo'jaligi kooperatsiyasini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Qarori qabul qilindi. Meva-sabzavotchilik sohasida

qo'shilgan qiymat zanjirini yaratishni rag'batlantirish, sifatli meva-sabzavot mahsulotlarini ishlab chiqarish va uning eksporti barqarorligini ta'minlash, mazkur mahsulot ishlab chiqaruvchilarining moliyaviy imkoniyatlarini kengaytirish, shuningdek, ishlab chiqarishning raqobatbardoshligini oshirish maqsadida qishloq xo'jaligi birlashmalarini tashkil etishga ruxsat berildi. Qishloq xo'jaligi birlashmalarida ixtiyoriy va pay asosida ishtirok etish tamoyillarida mustaqil va o'zaro bog'liq qishloq xo'jaligi korxonalari, fermer, dehqon xo'jaliklari hamda tomorqa yer egalarining kooperasion birlashishi nazarda tutiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoevning 2020 yida Oliy Majlisga Murojaatnomasida "Parlamentimiz ushbu islohotlarimizning huquqiy asosi bo'lgan "Kooperatsiya va klasterlar to'g'risida"gi yangi qonunni tezroq qabul qilinishi zarurligi ta'kidlab o'tildi.

Ko'pgina olimlar va mutaxassislarning ta'kidlashicha, kooperatsiya munosabatlari va qishloq xo'jaligi kooperativlarini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha qabul qilingan me'yoriy-huquqiy bazani takomillashtirish zarur.

Birinchidan, kooperatsiyani rivojlanishi davlat va jamiyat tomonidan qo'llab-quvvatlash masalalarini tartibga soluvchi me'yoriy-huquqiy hujjatlarning g'oyat zaif huquqiy ta'minotga egaligi; mulkchilikning turli shakllarini asoslangan ko'p ukladli iqtisodiyotni rivojlantirishdan manfaatdor bo'lgan davlat ayni paytda ishlab chiqarish va qishloq xo'jalik kooperatsiyasini rivojlantirishga alohida me'yoriy-huquqiy maqom bermayotganligi; kooperatsiyaning barcha turlarini rivojlantirishning maqsadga muvofiqligi davlat tomonidan kooperatsiyani rivojlantirish va qo'llab-quvvatlash bo'yicha davlat va mintaqaviy dasturlarning ishlab chiqilishi va amalga oshirilishi bilan kuzatilmayotganligi Sh.Ergashxodjaevaning ilmiy tadqiqotlari natijalarida ta'kidlangan edi. Ma'lumki, haligacha kooperatsiya rivojlanishiga turtki bo'ladigan me'yoriy-huquqiy baza takomillashtirilmagan. Bizningcha ham ushbu masala haligacha dolzarbligini yo'qotmagan va bunga alohida e'tibor qaratish zarur.

Ikkinchidan, internet tarmog‘ida “Qishloq xo‘jaligida kooperatsiya to‘g‘risida” qonun loyihasi muhokamasi e’lon qilinganligiga guvoh bo‘lamiz. Ushbu qonun loyihasini tanishib chiqish jarayonida quyidagilarga e’tibor qaratdik. Masalan, qonun loyihasini 6-moddasida “Iste’mol kooperativi tijorat tashkilot hisoblanadi va ushbu moddada belgilangan qoidalarga muvofiq bir yoki bir nechta faoliyat turlarini bajarish uchun kooperativ a’zolarining ehtiyojlarini qondirish maqsadida tashkil etilgan qayta ishlash, sotish (savdo), xizmat ko‘rsatish, ta’minot, bog‘dorchilik, tomorqachilik, chorvachilik va boshqa koperativlarga bo‘linadi” deyilgan. Olib borilgan tadqiqotlarga asoslanib va rivojlangan davlatlarning kooperativ harakatini o‘rganish natijasida shuni aytish mumkinki, iste’mol kooperativlari notijorat tashkilot sifatida tashkil etilishi ko‘zda tutilishi kerak. Yana bir masala, shu moddada “bog‘dorchilik, tomorqachilik, chorvachilik va boshqa koperativlarga bo‘linadi” deyilgan. Bizningcha, bu yo‘nalishlarni kooperativ turlariga kiritish tavsiya etilmaydi. Yuqorida ta’kidlangan ya’ni qayta ishlash, sotish (savdo), xizmat ko‘rsatish, ta’minot kooperativlari ushbu tarmoqlarda ham tashkil etilishi mumkin. Xorijiy davlatlar tajribasidan ma’lumki, bitta kooperativ bir nechta yo‘nalishda xizmat ko‘rsatishi mumkin, ya’ni ularning faoliyati ham diversifikasiyalangan bo‘ladi. “kompleks xizmatlar” ko‘rsatadigan kooperativ turi kiritilmasa maqsadga muvofiq bo‘lardi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, iqtisodiyotni tarmoqlarida, shu bilan birga qishloq xo‘jaligida kooperatsiya munosabatlarini shakllantirish va uni rivojlantirish borasidagi islohotlarni yanada jadallashtirish va uni huquqiy bazasini ham takomillashtirish zarur.

#### **8.4. Xorij mamlakatlarda kooperatsiya munosabatlari.**

Hozirgi vaqtida kooperativ harakat tajribasi barcha jihatlardan diqqat bilan o‘rganilish va amaliy foydalanishga loyiq, chunki kooperatsiya inson faoliyatining internasional hodisasi. Chet elda kooperativ faoliyatni o‘rganishning amaliy ahamiyati yana shundaki, u xalqaro nuqtai nazaridan o‘zaro foydali va o‘zaro manfaatli hamkorlikni yaxshiroq amalga oshirishga imkon berishdan iborat.

Ko‘pgina rivojlangan mamlakatlarda fermer xo‘jaligi kooperatsiyasi va xo‘jalik yuritishning boshqa shakllarini tashkil etishning tizimli yondoshuv uslubiyoti mamlakatimiz mintaqalari uchun ham qiziqish uyg‘otadi. Bu harakatni rivojlantirish uchun qishloq xo‘jaligi mahsuloti ishlab chiqaruvchilarni kooperativlarga birlashtirish shaklini joriy etish maqsadga muvofiqdir.

Yevropa mamlakatlaridagi fermerlar kooperatsiyasi mayda mahsulot ishlab chiqaruvchilarga xizmat ko‘rsatishda muhim rol' o‘ynaydi. Masalan, yirik korxonalarning tazyiqini qaytarish, o‘z o‘rni va manfaatlarini himoya qilish maqsadida fermerlar ixtiyoriy ravishda birlashib, ishlab chiqarish vositalarini yetkazib beruvchi ta'minot kooperativlarini tuzadilar. Bu yirik yetkazib berish bilan shug‘ullanuvchi firmalar, dilerlik xizmati monopoliyasidan chiqish va bozor raqobatchisini ta'minlovchi omil hisoblanadi.

Rivojlangan mamlakatlarda kooperativlarning soni fermerlar sonidan ancha ko‘p. Chunki, odatda fermer bir vaqtning o‘zida 2 — 3 ta, ba’zi hollarda esa 4—5 ta kooperativlarga a’zo bo‘ladi. AQSh qishloq xo‘jaligi departamentining ma'lumotlariga ko‘ra, har 5 ta tovar firmasining egasidan 4 tasi fermerlar kooperativlari xizmatidan foydalanadi.

Kooperatsiya bir qancha o‘ziga xos xususiyatlarga ega. Ularning eng muhimlari kooperativ o‘z a’zolarining umumiyligi mulki sifatida bo‘lishi, boshqarishning demokratik asosga qurilganligi va boshqalardir. Bu mamlakatda kooperativlarning bir necha turlari faoliyat ko‘rsatadi. Servis kooperativlari, sotish bilan shug‘ullanuvchi kooperativlar ana shular jumlasidandir. Kooperativlar orqali sotilayotgan mahsulotlarning 90 foizini don, chorvachilik mahsulotlari, sabzavot va meva tashkil qiladi. Kooperativlar orqali urug‘lik, chorva ozuqasi, o‘g‘it, pestisidlar, yonilg‘i-moylash va qurilish materiallarining qariyb 80 foizi sotib olinadi.

Kooperativlar esa fermer xo‘jaliklarini sug‘urtalash, kreditlash, aloqa tarmoqlarini o‘rnatish, melioratsiya, transport xizmati, chorva mollarini sun‘iy qochirish, tuproqqa ishlov berish, yangi texnologiyalarni qo‘llash va boshqa sohalar bo‘yicha xizmat ko‘rsatadi.

Xususan, AQShdag'i "Heartland" kooperativining tajribasi diqqatga sazovordir. Mazkur kooperativ fermerlarni mineral o'g'it, zaharli komyovi vositalar, urug'lik bilan ta'minlaydi. Kooperativning zaharli komyovi vositalarni to'g'ridan-to'g'ri olish bo'yicha Yevropadagi kimyo zavodlar bilan shartnomasi mavjud. Shu bilan birgalikda kooperativ fermerlar buyurtmasiga binoan ularning o'simliklariga komyovi ishlov berish xizmatini ham ko'rsatadi. Buning uchun barcha zarur texnika vositalari mavjud bo'lishi lozim. Kooperativ fermerning buyurtmasiga binoan mineral o'g'itlarni sof yoki aralashtirilgan holda fermerning dalasiga yetkazib beradi.

Kanadada qishloq xo'jalik tovar ishlab chiqaruvchilari mahsulot assosiasiyalari Kanadaning agrar siyosati muvaffaqiyatlari qishloq xo'jalik ishlab chiqarishi uchun iqtisodiy sharoitlarni ham, ishlab chiqaruvchilarga o'z iqtisodiy manfaatlarini himoya qilish va butun faoliyatlar daromadliligini oshirish uchun qayta ishlash sanoati va bozor imkoniyatlaridan foydalanishga imkon beruvchi tashkiliy asoslarni ham yaratishga qaratilgan. Bunday tashkiliy asoslar ishlab chiqaruvchilarning qishloq xo'jalik mahsulotini qayta ishlash va mahsulotlarni sotishga tayyorlash sohasidagi kooperatsiyasi, shuningdek, kooperativ shakldagi ishlab chiqaruvchilarning ixtisoslashgan savdo assosiasiyalarini tashkil etish bo'ladi.

Ulgurji, ba'zan esa chakana savdo mahsulotini qayta ishlash sohasida ishlab chiqaruvchilar kooperatsiyasi Kanadada o'ttizinchi yillardayoq rivojiana boshlangan. Hozirgi vaqtida bunday ishlab chiqaruvchilar kooperatsiyasi qonunchilik asosiga ega va ishlab chiqaruvchilar faoliyatining tan olingan me'yoriga aylangan.

Germaniyada barcha qishloq xo'jalik kooperativlari mamlakatdagi eng yirik kooperativ birlashma "Nemis Rayffayzen ittifoqi" tarkibiga kiradi. Fermer xo'jaliklarini kreditlash, ularni ishlab chiqarish vositalari bilan ta'minlash, turli xil xizmatlar ko'rsatish, mahsulotlarni tayyorlash, so'tish va qayta ishlashda kooperativlar muhim rol o'ynaydi. Kooperativlarni tuzish va ularni rivojlantirishni davlat qo'llab-quvvatlaydi.

Germaniya kooperativlari nemis o‘rtalik korxonalarining agrar sektordagi tabiiy sheriklari bo‘lib, birgalikdagi kooperativ korxona yuritish orqali o‘z a’zolari xo‘jaliklari va iqtisodiy faoliyatiga ko‘maklashish maqsadini ko‘zlaydi. Kooperativning asosiy vazifasi tadbirkorlik faoliyatining u yoki bu sohasida xo‘jalik yutuqlariga erishish, kooperativ a’zolari rivojlanishiga ko‘maklashish, shuningdek o‘z xo‘jaliklari manfaatlarini a’zolarga yordam ko‘rsata olish imkoniyatini uzoq vaqtga saqlab qolish maqsadida himoyalashdir.

Qishloq joylarini muhim mahsulotlar bilan ta’minlashda kooperativlar katta o‘rin tutadi. Rayffayzen bozorlari uy va bog‘lar uchun yuqori sifatli tovarlarni yetkazib beradi. Malakali maslahatchilar mijozlarga o‘z xizmatlarini taklif etadilar.

Oziq-ovqat sanoati, oziq mahsuloti savdosi uchun Rayffayzen tashkiloti kooperativlari uchun muhim sheriklardir. Federal darajada boshlang‘ich kooperativlar, hududiy Markaziy banklar va muassasalarning o‘zaro harakati tufayli kooperativlar istalgan vaqtida istalgan sifatda kerakli mahsulot hajmini bera oladi. Qishloq xo‘jalik mahsulotini saqlanishi, dastlabki ishlov berilishi va yig‘imi tufayli ular istalgan hajmdagi partiyalarni tashkil eta oladilar. Kooperativlar sifatni doimiy nazoratini olib beradi va o‘z mahsulotini kafolatlaydi.

Kooperativ ishlab chiqargan mahsulotlar o‘z va chet el bozorlarida yuqori baholanadi.

Isroil qishloq xo‘jaligida erishilgan yutuqlarning siri – qishloq xo‘jaligi va oziq-ovqat majmuasining barcha sohalarida eng yangi texnologiyalarni ishlab chiqarish va qo‘llashda hamkorlik qiluvchi qishloq xo‘jalik ishlab chiqaruvchilari va tadqiqotchilari o‘rtasidagi yaqindan o‘zaro hamkorlikdadir.

Isroil tajribasining e’tiborga loyiqligi shundan iboratki, mamlakat asosan tabiiy omillarning salbiy ta’sirini yengdi, bu sohada takror ishlab chiqarish uchun ijtimoiy-iqtisodiy va texnik-texnologik qulay sharoitlar yaratilgan. Agrar sektorning ijtimoiy shakllarini aynan deyarli butun qishloq xo‘jaligini qamrab oluvchi kooperativ faoliyat turlarini rivojlantirish borasidagi Isroil tajribasining ahamiyati bir mamlakat chegarasidan uzoqqa chiqqan.

Isroil kooperativlarining barcha turlari, shu jumladan kibusilar, o‘z kundalik faoliyatida iste’mol, qayta ishlash, sotish va boshqa kooperativ birlashmalarning tarmog‘iga tayanadi. Ta’minot sotuv kooperativlari kibusilar va moshavlarga nafaqat texnika, ozuqa va o‘g‘itlar yetkazib beradilar, balki qishloq xo‘jalik mahsulotini saqlash, qayta ishlash va sotish bilan ham shug‘ullanadilar. Iqtisodiyotning kooperativ sektorida bosh ta’minot tashkiloti ulgurji savdo markaziy kooperativ birlashmasi – Xamashabir xamerkazidir. Ulgurji savdoning bu birlashmasi asosiy a’zo-hissadorlari qishloq xo‘jalik kooperativlari, shu jumladan kibusilar. Qishloq xo‘jalik mahsulotlarining dastlabki ishlov berish va sotish Markaziy kooperativ jamiyati – Tikuva Isroildagi butun agromahsulotlarning 60 foizdan ortig‘ini sotadi. Eksport mahsulotni kooperativ federatsiyalar tomonidan tashkil etilgan AGR ESKO kooperativ kompaniyasi realizasiya qiladi.

Lotin Amerikasi<sup>30</sup> mamlakatlarida hozirgi vaqtida ma'lum bo‘lgan barcha xildagi va turdagи kooperativlarni, shuningdek faqat ushbu mintaqada uchraydigan kooperativlarni uchratish mumkin. Biroq u yerda kredit, matlubot va qishloq xo‘jaligi kooperativlari keng tarqalgan, ular kooperativlar umumiylar sonining tegishlichcha 17,5, 8,8 va 27,4 foizini tashkil etadi va ularga korporativ sektorida band bo‘lganlar umumiylar sonining tegishlichcha 33,4, 17,7 va 12,2 foizi a’zo. Bunday o‘zaro nisbat ma'lum bir mantiqqa ega, chunki qishloq xo‘jaligi Lotin Amerikasining barcha mamlakatlarida muhim o‘rin tutadi, moliyaviy resurslar taqchilligi esa mayda va o‘rta tovar ishlab chiqaruvchilar uchun asosiy muammo hisoblanadi.

Lotin Amerikasi mintaqasining ko‘plab mamlakatlari kooperativlari uchun mustaqil qaror qabul qilish jiddiy muammo tug‘diradi, chunki ularning faoliyati davlat tomonidan ham, xususiy sektor tomonidan ham haddan ziyod tartibga solingan. Kooperativlarning moliyaviy bazasi turli fondlar hisobidan shakllanadi. Odatda, iqtisodiy faoliyat uchun zarur bo‘lgan fondlarni tashkil etishning uchta asosiy moliyaviy manbaini ajratish mumkin: paychi


<sup>30</sup> Эргашходжаева Ш.Ж. Қишлоқ жойларида кооперацияни ташкил килишнинг маркетинг стратегияси. -Тошкент. «Фан» нашриёти, 2006. -Б. 28-29

a'zolarning mablag'lari (ko'pchilik kooperativlarda bu nafaqat dastlabki badal, balki ish haqidan har oyda ajratiladigan foizlar), kooperativ bo'linmas (yoki zahira) fond va tashqi moliyalash manbalari (qarzlar, kreditlar, subsidiyalar). Kooperativ oladigan sof foyda, odatda, quyidagicha tarzda bo'linadi: uning 50 foizi paychi a'zolarga bajarilgan ish uchun mukofot sifatida yo'naltiriladi, qolgan qismining 10 foizini zahira fondiga, 15 foizini ijtimoiy — maishiy fondga va 25 foizini ishlab chiqarishni rivojlantirish fondiga ajratmalar tashkil qiladi.

Qishloq xo'jaligi kooperativlari Argentinada kooperativlar umumiy sonining 1/3 qismini tashkil qiladi va mamlakat xo'jalik hayotida muhim rol o'ynaydi. Qishloq xo'jaligiga doir ma'lumotlarga ko'ra, Argentinada 8 ta federatsiyaga birlashgan 1380 ta qishloq xo'jaligi kooperativi mavjud bo'lib, shulardan 570 tasi g'alla ekinlari, 105 tasi chorvachilik, 135 tasi mevalar, 41 tasi paxta, 31 tasi tamaki yetishtirishga ixtisoslashgan. Maqsadli yo'nalish nuqtai nazaridan qishloq xo'jaligi kooperativlarini 3 guruhga bo'lish mumkin: faqat agrar sektorda faoliyat ko'rsatuvchi kooperativlar; qishloq xo'jaligi va o'zaro bog'langan tarmoqlarni qamrab oluvchi kooperativlar va ko'p sohali kooperativlar. Birinchi guruhga qishloq xo'jaligi mahsulotini xarid qilish va sotish, ikkinchi guruhga xizmatlar ko'rsatish ixtisoslashgan kooperativlar kiradi. Argentina kooperativlarining katta qismi uchinchi guruhga taalluqli bo'lib, ular nafaqat ishlab chiqarishni amalga oshiradi, balki o'z a'zolarini barcha zarur narsalar bilan ta'minlash funksiyasini o'z zimmasiga olish barobarida mahsulotni ham sotadi.

Argentina uchun ayniqsa sut yo'nalishidagi chorvachilik kooperativ xo'jaliklari katta ahamiyat kasb etadi. Ular ichida I va II pog'ona kooperativlari farqlanadi. Ko'plab mayda va o'rta xo'jaliklarni birlashtiruvchi I pog'ona kooperativlari sut mahsuloti yetishtirish bilan shug'ullanadi. Provinsiyalar doirasida kooperativlar uyushmasini o'zida namoyon etuvchi II pog'ona kooperativlari I pog'ona kooperativlari

yetishtirgan mahsulotni qayta ishlash va sotish bilan hug‘ullanadilar.



## 8.2-rasm. Rivojlangan xorij davlatlarida kooperatsiyaning faoliyat yo‘nalishlari<sup>31</sup>

Ko‘pgina davlatlarda fermerlarga maslahat, axborot xizmatlari ham ko‘rsatiladi. Dastavval fermerlarga bepul axborot — maslahat xizmat ko‘rsatuvchi tashkilotlarning barcha xarajatlari davlat tomo-nidan qoplangan, keyinchalik fermerlar axborot-maslahat xizmatlarining ahamiyati va foydasini to‘la tushunib yetganlaridan so‘ng ularga pullik xizmat ko‘rsatila boshlangan. Ba’zi davlatlarda fermerlar uyushmalari va boshqa tashkilotlar o‘zining a’zolariga axborot-maslahat xizmati ko‘rsatadilar.

<sup>31</sup> Муаллиф ишланмаси

- Qozog‘istonda qishloq xo‘jaligida kooperatsiya jarayoni ko‘p yillardan buyon olib borilmoqda. Ma'lumki, qishloq fermerlari kooperativlarga ixtiyoriy ravishda birlashishni xoxlamaydilar, chunki ular yerga va mulkka bo‘lgan pay ulushlaridan mahrum bo‘lib qolishdan qo‘rqadilar. Ayrim fermerlar ishlab chiqarish joylarida yetarlicha tushuntirish ishlari olib borilmaganligi tufayli kooperativning afzallik va qulayliklarini umuman tushunmaydilar. Ular yuqoridan “diktovka” bilan, ishlashga ya’ni ma’muriy buyruqni kutib, ishlashga o‘rganib qolishgan. Kooperativga kirish yoki kirmaslik haqida qaror qabul qilish uchun ularda kooperatsiyaning zarurligini tushuntirish va unga “pishib yetilishi kerak”. Shunday qilib, qishloqda kooperatsiya rivojlanmaganligining va yetarlicha ommalashmaganligining asosiy sabablari quyidagilar:

- Qishloq aholisining yangi tarkibiy tuzilishga ishonmasligi, kooperatsiyaning afzalliklarini, ichki xo‘jalik munosabatlari mexanizmining xususiyatlarini tushunmasligi;

- Kooperatsiya prinsiplariga mos kelmaydigan “soxta kooperativlar” deb nomlanadigan tuzilmalar paydo bo‘ldi. Bu kooperativlar bitta yirik xo‘jalik manfaati uchun yaratildi, ya’ni ular inisiator (tashabbuskor) bo‘lib olib, bankdan kredit olish uchun garovga biror narsa qo‘yib, o‘z manfaati uchun qishloq xo‘jaligi mahsulotlarini sotib olib va sotib, amalda kooperativning mulkdoriga aylandilar.

